


Таълим тизимида узлуксиз касбий
ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва

ПЕДАГОГИК- ПСИХОЛОГИК

асослари



ЁШЛАРГА ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ МАРКАЗИ

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ХОДИМЛАРИНИ
ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ
ОШИРИШ ҲУДУДИЙ МАРКАЗИ

**«ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ
РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНИНИНГ ИЖТИМОЙ ВА
ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ»**

МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ

Маколалар тўплами
3-ҚИСМ

Тошкент-2022

Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари / Мақолалар тўплами. – Тошкент, 2022. – 301 бет.

Мазкур тўплам “Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари” мавзусига бағишлаб ўтказилган Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари асосида тайёрланган. Ушбу тўпламда психология ва педагогиканинг назарий, методологик ҳамда умумпсихологик масалалари, ижтимоий-маънавий ўзгаришлар, ёшларнинг ижтимоий-психологик муаммолари, унинг сабаб ва ечимлари, ёшларнинг хулқ-атвори ва дунёқарашида кузатилаётган ўзгаришлар, ижтимоий-психологик таъсирлар, ижтимоий-психологик муаммоларнинг ёшлар руҳиятида намоён бўлиш хусусиятларини илмий тадқиқ этиш бўйича олиб борилаётган изланишларнинг долзарб йўналишлари, бу борада йиғилган маълумотлар ва улардан амалиётда фойдаланиш имкониятлари юзасидан амалий билимлар тақдим этилади.

Мақолалар тўплами соҳа мутахассислари, маънавий-маърифий ишларни ташкил этишга масъул ходимлар, педагоглар, амалиётчи психологлар, психология таълим йўналиши талабалари, тадқиқотчилар, бошқа турдош йўналишлар вакилларига мўлжалланган. Мазкур тўплам жамият илмий-маърифий ҳаётини янада такомиллаштиришга, соҳадаги тадқиқотларни жадаллаштиришга хизмат қилади.

ТАШКИЛОТЧИЛАР:

Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

Тошкент вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази

ТАХРИР КЕНГАШИ А ЁЗОЛАРИ:

ЗЕБО КАСИМОВА - пед. фанлари номзоди, профессор, ЎзХИА кафедра мудири

МУҲАББАТ МУСАЕВА - пед. фанлари номзоди, доцент, ТВХТХҚТМОҲМ кафедра мудири

АБДИМУМИН РАСУЛОВ - психология фанлари доктори, доцент

МИРМУҲСИН АКРАМОВ - психология фанлари бўйича PhD, доцент в.б.

ДОНО КАЛАНДАРОВА - фалсафа фанлари бўйича PhD

АЗАМАТ НАЗАРОВ - катта ўқитувчи

ЭРДАВЛАТ ЖУМАНОВ - ТВХТХҚТМОҲМ катта ўқитувчиси

АЗИЗЖОН УМИДОВ - етакчи мутахассис

САРВАР ҚАХХОРОВ - таянч докторант, психолог

МАЪРУФ КУБАЕВ - стажёр тадқиқотчи, психолог

«Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари» мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференциясини ўтказиш Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази Илмий-психологик Кенгашининг 2022 йил 13 апрелдаги 01-04/03 сонли мажлис баёни билан мақулланган.

Тўпламда келтирилган маълумотларнинг ҳолислиги ва ишончилигига мақола муаллифлари масъулдирлар.

OILAVIY MUNOSABATLARNING BOLA SHAXSIDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Mavlanova Maxfuza Shuhratovna
Xorazm Viloyati Xonqa tumani 42-maktab psixologi

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishga asos bo'lmokda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda xam o'z ifodasini topadi. Oilaviy munosabatlar o'zining ko'p qirraliligi bilan alohida xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma'nan barkamol, ruhan sog'lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga egadir. Agar har bir oilani tashkil etuvchilar o'z muammolarini bahamjihatlik bilan, o'zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik kafolatlanib, uning ma'naviy asoslari mustahkam bo'ladi. Alohida ta'kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o'zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo'lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma'naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar

to'g'risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu bois ham mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari qadriyat sifatida yuksaklarga ko'tariladi.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A. Karimov, oilada hukmron bo'lishi lozim bo'lgan ma'naviy muhit va noyob udumlarimizning hosiyatlari haqida fikr bildirib: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amho'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir"¹ - deb ta'kidlaganlar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilaviy munosabatlar har doim ham bir tekisda silliq, risoladagidey kechavermaydi. Uy-ro'zg'or yumushlarini ado etish, er-xotinlik burchlari, ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyatlari, farzandlarning kattalar oldidagi huquq va burchlarini ado etish jarayonida murakkab rollararo muomala va muloqot jarayonlari kechadiki, ularning deyarli barchasida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to'qnashadi, ayrim xolatlarda fikr va qarashlardagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar shaxslararo nizolar tarzida namoyon bo'ladi. Bu xolatlar albatta farzandlar tarbiyasiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Bu esa tarbiya jarayonida ijtimoiy normalarni amal qilishi yoki buzilishida nomoyon bo'ladi. Ayni shu masalalar mavzuimizning dolzarbligini belgilaydi.

Agressiya va agressiya muammosi uzoq vaqt davomida ijtimoiy psixologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lgan.

O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab o'smirlardagi tajovuzkor xatti-harakatlarning faol tadqiqotlari o'tkazildi. Ayniqsa, bu muammo hozir juda muhim. O'smirlar o'rtasida tajovuzkor tendensiyalarni o'sishi so'nggi yillarda keskin tarzda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik oshdi. Ayniqsa, o'smirlar o'rtasidagi jinoyat ishlari sezilarli darajada oshdi. Bu esa jamiyatimizning bugungi kundagi eng o'tkir ijtimoiy muammolaridan birini

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol vataraqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992. -72

ifodalaydi. Jiddiy jarohatlash, bir kishiga qarshi jinoyatlarning ortib soni kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda shafqatsiz yosh guruhlardagi janglarning hollari tez-tez uchraydi.

Demak oila muhitini uch toifaga: ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy toifalarga ajratish imkoniyati tug'ildi. Bu esa, oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganishda "baxtli bolalik - bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir", degan xulosaga kelindi. Shu asosda oilada farzand tarbiyasiga yondashishning oilalarni yo'nalishiga qarab, uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib berish mumkin.

1. Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilaga xos bo'lgan oilalar bizdagi oilalarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlar axloq prinsiplari va qoidalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, shuningdek har tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali nazarda tutiladi. Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilalarning voyaga yetgan a'zolari ishlab chiqarishda, korxonada, jamoat ishlarida faol qatnashadilar, ilg'or madaniyatga nisbatan, qiziqishlarini namoyish qiladilar, shuning bilan birga bu narsaga o'z farzandlarida ham havas uyg'otadilar. Oilada goho namoyon bo'ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda hamjihatlik bilan bartaraf qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo'jalik ashyolari, asboblari, qimmatbaho materiallarni har xil ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqboli bilan mutlaqo bog'lanmaydi.

2. Ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oilada barqaror yo'nalish bo'lmaydi. Oilaviy turmush munosabatlari uzluksiz ravishda biron-bir g'oyaning boshqa g'oya bilan o'zaro niqoblangan kurashi bosqichida bo'ladi, u yoki bu qarashlarning ustunligi, istiqboli hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Bunday holatning ko'zga tashlanishi eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashni anglatmaydi. Er-xotinning yoki boshqa voyaga yetgan oila a'zolarining murosasiz pozitsiyalari ko'pincha ularning fe'1- atvor xususiyatlaridagi tafovut negizi bilan bog'liq bo'lib, mutlaqo eskilik sarqiti mohiyatidan kelib chiqmaydi. Oilada so'z bilan ish birligi masalasi bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi. Faqat burch hissigena, muayyan majburiyatni

bajarishgina oila a'zolari o'zaro birlashtirib turadi. Mana bunday oilalarda er-xotinning bolalarga ta'sir o'tkazish uchun kurashi, raqobati yaqqol namoyon bo'ladi.

3. Past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalarda ko'pincha ishchanlik udumi va ideallari hokimlik qiladi. Mazkur oilalarda barcha narsa yagona narsaga bo'ysundirilgan, ya'ni mol-dunyo to'plashga, moddiy-maishiy jihatdan ustunlikka erishishiga qaratilgan boladi. Voyaga yetgan oila a'zolarining, ota-onalarining korxonada, muassasada, tashkilotda mehnat qilishi ana shu ko'zlangan maqsadga yetish vositasi sifatida, har qanday mehnat esa, ish haqi miqdori bilan o'lchanadi.

Sog'lom bola oilada shakllanadi va kamol topadi. Bu o'rinda ota-onaning psixologik-pedagogik bilimi, dunyoqarashi hamda madaniyati yetakchi omil hisoblanadi.

Har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasi bilan asosli ravishda shug'ullanishi, buning uchun esa ta'lim-tarbiya ishining o'ziga xos tomonlarini, qonuniyatlarini, bolaning pedagogik-psixologik va yosh xususiyatlarini, jismoniy va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishlari, yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi muvoffaqiyatlariga erishishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adizova T.M. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari. - Toshkent, TDPU, 1997.
2. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. - Toshkent, O'qituvchi, 1995.
3. Nishonova Z.T. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. Toshkent. Nizomiy nomli TDPU, 2004 y.

YOSHLARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI SABAB VA YECHIMLARI

Mavlanova Maxfuza Shuhratovna
Xorazm Viloyati Xonqa tumani 42-maktab psixologi

Annotatsiya: Maqolada yoshlar va ularning muammolari, muammolarning kelib chiqish sabablari va yechimlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: uyushmagan yoshlar, inson shaxsi, televideniya, internet tarmoqlari.

Yoshlar orasida ijtimoiy muammolardan biri bu, yoshlar orasida uyushmagan yoshlar qatlamining mavjudligidir. XX asr oxirida kelib xalqimiz taqdirida butunlay yangi davr boshlandi. Tarix tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davrda, qaysi davlatda, qanday tuzumda bo'lishidan qat'iy nazar barkamol avlodni yetuk insonlar qilib tarbiyalash, birinchi navbatdagi ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi.

Inson shaxsini, uni yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy ma'daniy merosimiz hamda ta'rixiy qadriyatlarimizga hurmat, mustaqil vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash barchamizni oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Uyushmagan yoshlar bilan ishlash, bu qatlamni o'rganish, ularni birlashtirish bugungi kunning dolzard ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Uyushmagan yoshlar kim? Uyushmagan yoshlar qatlami qanday qilib vujudga keldi? Ular jamiyatning qanday qatlami? Hozirgi kunda yoshlarning 10 millionini uyushmagan yoshlar tashkil etadi, ular ayni vaqtda biror bir kasb-hunar yoki ta'limning ma'lum bir qismida faoliyat olib bormayotgan, oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ham ega bo'lmagan, tayinli ish bilan mashg'ul bo'lmagan yoshlar tushuniladi.

Bizning jamiyatimizda bu qatnamning yosh guruhlari o'rtacha 19-24 hamda 26-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etyapti. Birinchi guruh asosan o'rta maxsus ta'limi bitiruvchilari bo'lib, ular kollej va akademik litseylarni tugatib, yo oliy ta'lim yurtlariga hujjat topshirishadi yoki o'z sohasi bo'yicha ish berayotgan idora va tashkilotlar bilan shartnoma tuzib ishga qabul qilinadilar, lekin ularning barchasi ham

ishda qolib, uni davom ettirishmaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning faqat 10 foizigina birinchi yil oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kiryapti xolos. Qolgan yoshlar o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rishyapti, qolgan qismi esa haligacha tayinli ish topa olmay sarsonlikda yuribdi. Yoshlarning ayrimlari esa o'qishga kira olmay, ish topa olmay xorijiy davlatlarga ishlashga ketyapti. Xorijiy davlatdham tayyor ish yo'qligi sababli u yerda ham sarsonlikda yurgan yoshlarimiz afsuski yo'q emas.

Endi esa yoshlar orasida bu ijtimoiy-psixologik muammolarning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritsak. Bunday holatga asosiy sabab, birinchi navbatda hali saviyasi past bo'lgan ota-onalarning hamda ularning farzandlariga berayotgan tarbiyasini ko'rishimiz mumkin. Bazi odamlarimizda hali-hanuz saqlanib qolayotgan eskicha fikrlash va qoloq dunyoqarash bu muammoning asosiy omilidir. Ota-onalarning yoshligidan bolalarga berib kelayotgan "o'qib nima qilasan undan ko'ra ishni qil, qorning shundan to'yadi o'qib dunyoni olib berasanmi" qabilidagi fikrlari yoki bo'lmasa, bolalarni yoshligidan o'qib, ilm olishga yo'naltirmay psixologik dalda bermay, "qora mehnat"ga jalb qilib, shu bhonada o'qishdan bolani chalg'itib, buning ustiga durustroq kasb-hunar ham o'rgatolmay, lo'nda qilib aytganda "sixni ham kabobni ham kuydirishlari" masalaning og'riqli nuqtalaridan biridir.

Oldimizda turgan muammolarni yechishda har bir iker-chikir sabablarga nazar tashlash o'rinlidir. Bolaning yosh paytidagi o'tkir zehni, barcha narsani qabul qilishga qodir bo'lgan paytda, ularni durust kasb-hunar yoki o'qishga yo'naltirish o'rniga bolalarni ko'chada vaqtini bekor o'tkazishiga ruxsat bergan, har safar maktabga yo o'qishga ketayotganida kissasini pul bilan to'ldirib jo'natayotgan, hali endi shakllanish bosqichida turgan bolalarga mobil telefon, kompyuterlar olib berib, ularni nazoratsiz, o'z xoxishiga tashlab qo'ygan ota-onalar oramizda yo'q emas. Hech qaysi bola yoshligidan kitob o'qishni xohlab, ota-onasidan iltimos qilmaydi, ular bu paytda qiziqqon, o'yin kulguga o'ch bo'lishadi, lekin unga yoshligidan ota-onasi zarur tarbiyani berib, o'qishga hamda kasb-hunarga yo'naltirsa albatta undan kelajakda jamiyatga va oilasiga nafi tegadigan shaxs bo'lib ulg'ayadi. Lekin buning o'rniga bolaning yoshlikdan o'yin kulgu va o'tkinchi narsalar bilan band bo'lib, mobil telefon

va kompyuterlar og'ishida o'sgan boladan nimani kutish mumkin? Zeroki, yoshlikda berilgan tarbiya insonning kelajakda qanday shaxs bo'lib ulg'ayishida katta o'rin tutadi.

Bu o'rinda Abdulla Avloniyning quyidagi fikrini aytib o'tishni lozim topdim: "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir". Shubhasiz oila haqiqiy hayot maktabi va tarbiya o'chog'idir.

Biz yosh avlodga ilm-fan hamda kasb-hunarni yoshligidan ongiga singdirib borishimiz kerakki, zero u ulg'ayganda buning foydasi hamda berilgan tarbiyaning to'g'riligini ongli ravishta tushunib yetsin. Agar shunday qila olsak u o'qishni o'zi anglab yetadi, boshini kitobdan ko'tarmaydi, unga hech qanday kompyuter o'yinlari-yu mobil telefonlarning keragi bo'lmaydi. Uni o'qishga majburlab, nasihat qilish kerak bo'lmaydi.

Bir qancha rivojlangan mamlakatlarda misol uchun Yaponiyada na shunday uzviy ta'lim va tarbiya birga olib boriladi. Yapon yoshlari o'qishni barcha narsadan ustun qo'yishadi. Yaponiyada barcha joylarda metrolarda, xiyobonlarda, ko'chalarda, xoh yirik shahar bo'lsin, xoh chekka qishloq hamma yerda bukshop va bukkafelar bor, yapon yoshlari barcha yerlarda o'tirib tinimsiz ilm olish payida bo'lishadi, ularni boshqa hech narsa qiziqitirmaydi.

Yapon maktablarida davomat 99,9% ni tashkil etadi, hech qaysi o'quvchi maktabda o'quv formasisiz kelmaydi. Fan imtihonlarida tartib shunchalik yuqoriki, yapon o'quvchi talabalari bir-biridan ko'chirish bir-biriga yordam berish yoki har xil ko'z bo'yamachiliklarni xayollariga ham keltirishmaydi, barchalari, hammalari o'zlari uchun o'z kelajaklari uchun harakat qilishadi. Yaponiyada ta'limda milliy an'analar hamda yaponcha tarbiya ruhi ta'lim bilan omuxtalashib ketgan va hozirgi kunda dunyoning yetakchi mutaxassislari yaponiyadan yetishib chiqayotganligi, davlat yalpi ichki mahsulotining oshishi, eng muhimi jamiyatdagi ishsizlar sonining kamligi yapon ta'lim tizimining naqadar samarali ekanligini isbotlaydi. Men bu fikrlarim bilan kimnidir maqtash, kimnidir yerga urish maqsadidan yiroqman, lekin ibrat olsa bo'ladiganlardan ibrat olish kerakligini aytmoqchiman.

Barcha narsa hatto, jamiyatdagi ko'plab yechimini kutib turgan muammolarning asl sababi to'g'ri tarbiyaga borib taqalar ekan, shu o'rinda ota-onalar hamda jamiyatning

uzviy bog'liqligini ta'minlash kerakligini aytmoqchiman, buning uchun biz ota-onalar bilan uchrashuvlar o'tkazishimiz lozim, ularning ma'naviyatini, psixologik madaniyatini oshirishimiz kerak, bunda albatta ta'lim muassasalarining o'rni katta.

Shu o'rinda yana bir fikrga e'tiboringizni qaratmoqchiman, xalqimizda "Qars ikki qo'ldan chiqar" degan pur ma'no naql borki, ko'p o'rinlarda biz bu fikrni naqadar to'ri ekanligini tan olmay ilojimiz yo'q. Masalaning bir jihati borki, shu o'rinda shuni aytishni lozim topdim. Biz yuqorida aytilgan muammolarning vujudga kelishida nafaqat ota-onalar, balki ta'lim tizimimizdagi ayrim yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabab bo'lyapti.

Bu kamchiliklarni bartaraf etsak, albatta ijobiy natijalarga erishamiz. Yoshlar bizning kelajagimiz ularning ta'lim olishi kasb egallashlariga ko'mak berish bizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent. "O'zbekiston". 2001-yil.
2. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri". Toshkent. Xalq merosi. 1993-yil.
3. Maktab va hayot jurnali. 2-son 2009-yil.
4. E. G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi". 2010-yil.
5. Nishonova Z, Alimova G, "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". Toshkent. 2013-yil.

ТАРБИЯСИ ҚИЙИН ГУРУХГА МАНСУБ АГРЕССИВ ХУЛҚЛИ БОЛАЛАР ВА УЛАРНИНГ ОТА-ОНАСИ БИЛАН ИШЛАШ МУАММОЛАРИ

*Бабаева Дилафруз Рамазановна
Юнусобод тумани 122-мактаб психологи*

Тарбия узлуксиз жараён бўлиб, инсон дунёга келишидан бошлаб, то умрининг охиригача давом этиб боради. Бу жараён давомида атроф-муҳитдаги воқеа-ҳодисаларнинг шахсга салбий ёки ижобий ақс таъсир этиши унинг инсоний фазилятлари қай даражада шаклланганлагини белгилайди. Бугунги кунда таълим соҳаси олдида турган энг долзарб муаммолардан бири ҳам айнан, шу мақсадга қаратилган бўлиб, келажак авлодни комил шахс сифатида шаклланишини таъминлашдан иборатдир.

Афсуски, барча мамлакатларда бўлгани сингари бизнинг ўсиб келаётган ёшларимиз орасида ҳам тарбияси оғир ва ноқобил фарзандлар мавжуд бўлиб, уларнинг тарбиясига алоҳида эътибор ва ёндашувни талаб этади.

Маълумки, ёшларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси билан оила, маҳалла, таълим муассасалари, оммавий ахборот воситалари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ташкилотлар, илмий-педагогик кадрлар шуғулланадилар. Тарбия жараёнида барча иштирокчиларнинг баҳамжиҳатлиги таъминлансагина, у ўзининг ижобий натижаларини бериши мумкин.

Тарбияси оғир болалар билан ишлаш азалдан энг долзарб муаммолардан бири бўлиб келган.

Бу муаммонинг юзага келиш сабабларини чуқур таҳлил қилар эканмиз, энг аввало, туғилган боланинг уни дунёга келтирган шахсларнинг кимлиги, иккинчидан, у қандай ижтимоий муҳитда туғилиб вояга етиб, улғайганлигига эътиборни қаратишимиз лозимдир.

Агар биз фарзандларимизни ҳар томонлама етук қилиб тарбияламоқчи бўлсак, яъни комил инсонни вояга етказишимиз учун уни, аввало ҳар томонлама ўрганишимиз лозим. Тарбияси қийин болаларнинг ҳатти-ҳаракатларини

психологик таҳлил этиш ва уларга амалий жиҳатдан кўмак бериш, мазкур йўналишда ҳеч бўлмаганда содда ва бажарилиши осон бўлган амалий машғулотлар ўтказиш кўникма ва малакаларига эга бўлишимизни талаб этади.

Бу жуда мураккаб ишлардан бири ҳисобланади. Агрессив хулқли болаларнинг ота-оналари тез-тез болага нисбатан ёқимсиз ҳиссиётни бошдан кечирадилар ва болага ёрдам бериш учун эмас, балки болани «ювошлантириш» учун психологик консультацияга мурожаат қиладилар. Улар боланинг тинчлантирилишини ва бола уларни хафа қилувчи ишларини тугатишини истайдилар.

Кўп ҳолларда агрессив хулқли боланинг ота-онаси тушкунликка тушган ва ҳаётдан норози одамлар бўлишади. Кўпинча собиқ агрессив хулқли болалар ўзларининг психологик қийинчиликларини ўз болаларига ўтказадилар. Шу сабабли психолог биринчи навбатда боланинг ота-онаси билан психотерапевтик иш олиб бориши лозим. Психолог қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратиши лозим.

Биринчидан, ота-онанинг қадр – қимматига негатив таъсир этишдан қочиш лозим (Сиз ўз болангизнинг шахси бузилиши ҳақида ҳеч нима билмайсиз, ҳозир мен сизга тушинтириб бераман). Ота-онанинг шахсиятига тегмаган ҳолда вазиятни аниқлаб олиш лозим. Ота-оналар баъзан ўзлари ҳаётида эришолмаган нарсаларига фарзандлари эришишини ҳохлайдилар ва ундан талаб қиладилар (Масалан, мен таниқли рассом, врач ёки бирор бошқа касб эгаси бўла олмадим, болам бўлиши керак).

Иккинчидан, ота-она болага бўлган установақасини ўзгаритириши лозим. Улар агрессив хулқли болани ношукур деб ҳисоблашади. Ўзларининг жаҳли ва таъна маломатларига жавобан боланинг айбдорлик туйғусини ҳис қилишини, афсусланишини, кечирим сўраши ва уларни тинчлантиришини кутадилар. Бу юз бермаганидан улар аччиқланади ва болани «беъмани, бузилаган, ёмон» ҳисоблашади. Ота-онани болага ачинишга чақириш лозим ва кўрсатиб ўтиш керакки, ҳар доим агрессив бола биринчи навбатда бахтсиз бола. Ота-онага

психолог ғазабнинг намоён бўлиш механизмларини ва яна агрессивликни эмоционал бузилиш сифатида кўрсатиб ўтиши лозим.

Учинчидан, ота-онага ўзларининг болалик хотираларини, ўша даврдаги агрессив қилмишларининг сабабларини эслатиш керак. Балки бу кўпгина шахсий комплексларни очиши мумкин. Бу ҳолатда уларга психик ёрдам кўрсатиш ва шахсиятини барқарорлаштириш керак бўлади. Болалар муаммоси ҳар доим оилавий муоммоларни кўтаради. Болани ўраб турган одамлар ёрдамсиз унинг ўзига алоҳида ёрдам кўрсатиш деярли мумкин эмас. Боланинг ўзини алоҳида ажратиб олиб ёрдам кўрсатилганда ҳам бу яхши самара бермайди, чунки оиладаги муаммолар агрессиянинг яна қайтарилишига сабаб бўлиши мумкин.

Тўртинчидан, бола туғулгунча ва чақалоқлигининг биринчи ойларида ота-онанинг унга бўлган муносабатини аниқлаб олиш лозим. Баъзан бола онанинг «мажбурий» ёки «тасодифий» хомиладорлиги асосида дунёга келган бўлиши мумкин. Бу ҳолатда ота-она қаттиқ бир қарорга келиши лозим. Агар бола уларнинг хохишсиз туғилган бўлса ҳам барибир ота-она унга ғамхўрлик қилишга бурчли. Мабодо ота-она унинг дунёга келишини хоҳлаган бўлсалар ҳам, аммо у «жаҳлдор, қулоқсиз, чидаб бўлмайдиган бўлиб қолганидан кейин унга бўлган муносабатини ўзгартирган бўлсалар, уларнинг шахсиятини ерга урмаган ҳолда шуни кўрсатиш керакки, бола ўзининг хулқи билан уларнинг ҳаракатларига жавоб беряпти холос.

Агрессив хулқни «ёмон» билан бир хил ҳисоблаш мумкин эмас. Оғир, хавфли вазият пайдо бўлганида агрессивлик ҳимоя, баъзида эса вазиятни бартараф этувчи функцияни бажаради. Агрессив хулқ айниқса болада ёшга хос бўлган ўтиш даврида кузатилади. Бу шундан далолат берадики, ёш даврлари кризиси пайтида боланинг яшаши қийинлашади, ҳар қандай мураккаб вазиятда бола қийинчиликни ҳис қилади ва шу сабабли агрессив хулқнинг элементларини кузатиш мумкин. Бу нормадаги болага ҳам, агрессив хулқли болага ҳам бирдек тегишли. Аффектив бузилиш бўлганида агрессия одатий ҳодисага айланади, ҳатто хулқ-атворнинг бирдан бир шакли бўлиб қолади. Бироқ бунга қарамасдан, бола хулқида агрессивликнинг бор бўлиши улар билан ўзоро муносабатда қийинчилик

туғдиради. Агрессив тенденцияларни тасодифий салбий ҳолат деб баҳолаб бўлмайди.

Шуни эсда тутиш керакки, аффектив тараққиёт жараёнида бола активлиги қонуний равишда ошиши мумкин. Одатда, катталар ёрдамида ўтказилган психокоррекциянинг бу зарурий босқичида бола ўзини қуршаган реаллик билан нисбатан адекват турдаги мулоқотни ўзлаштириши мумкин.

Бола агрессиясини коррекция қилишни унинг сабабини аниқлашдан бошлаш лозим. Агар агрессия эмоционал мотивацион сферанинг бузилиш сабабли бўлмаса коррекцион фаолиятни уни йўқотишга эмас, балки салбий оқибатларга олиб келувчи агрессив хулқни юмшатиш ва унинг намоён бўлишига йўл қўймасликка қаратиш лозим. Шу билан бирга катталарни унинг агрессив реакциясига адекват идрок қилишга тайёрлаш лозим.

Бошқа ҳолатда, яъни агрессия эмоционал мотивацион сферанинг бузилишини намоён бўлиши бўлса, психолог ёки тарбиячи ҳаракати боланинг мустақамланмаган агрессив ҳаракатига йўналтирилиши лозим.

Коррекцион методиканинг қўлланиши тўлиқлигича агрессив хулқнинг сабабига боғлиқ бўлади. Коррекция методи конкрет ҳодиса ва конкрет болани ҳисобга олган ҳолда танланади. Бу куйида шарҳланган коррекция методларини диққат билан кўриб чиқишни тақозо этади.

1. Агрессияга мойилликни эътиборга олмай қўйиш, унга атрофдагиларнинг диққат қаратмаслиги.

2. Агрессив ҳаракатларни ўйин мазмунига киритиш ва унга янги эмоционал мазмун бериш. Бу орқали боланинг атрофдагиларга зарар етказмаган ҳолда агрессив мойиллигини чиқариб юбориш (масалан, қароқчи ва казаклар ўйинида агрессив хулқли болага қароқчи ролини бериш).

МАКТАБ ВА ОИЛАЛАРДАГИ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МУҲИТНИ СОҒЛОМЛАШТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАКЛИФ ВА ТАВСИЯЛАР

Raxmonova Aziza Shirinovna
Yunusobod tumani 122-maktab psixologi

Тарбия узлуксиз жараён бўлиб, инсон дунёга келишидан бошлаб, то умрининг охиригача давом этиб боради. Бу жараён давомида атроф-муҳитдаги воқеа-ҳодисаларнинг шахсга салбий ёки ижобий ақс таъсир этиши унинг инсоний фазилатлари қай даражада шаклланганлигини белгилайди. Бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бири ёшлар тарбиясига масъулият билан ёндашиш, бўш вақтини мазмунли ташкил этиш, комил инсон сифатида шаклланишини таъминлашдан иборатдир.

Ҳозирги давр ривожланиш динамикаси, ижтимоий андозалардаги чуқур ва кескин ўзгаришлар нафақат катталар, балки болалар олдига ҳам юқори талабларни қўймоқда. Буларнинг барчаси оиладаги талабга жавоб бермайдиган тарбиявий таъсир, ошқора ва яширин қаровсизлик, қадриятларнинг бузилиши, болалар хулқида ноижтимоий, яъни жамиятга ёт бўлган ҳолатларнинг пайдо бўлиши каби руҳий жароҳат берувчи ижтимоий омилларнинг кучайишига олиб келади. Бунинг сабаблари эса оиладаги келишмовчиликлар, бола тарбиясига лоқайдлик, оиладаги носоғлом муҳит, бола фикрини тингламаслик, уни қўллаб-қувватламаслик ва бошқа шу каби ҳолатлар боланинг эмоционал-руҳий ҳолатига таъсир кўрсатади.

Мактабдаги иш тажрибаларимиз шуни кўрсатадики, ўқувчилардаги тарбияси қийинлик оиладаги ва таълим тизимидаги педагогик қаровсизлик натижасида юзага келади. Бу муаммони бир қанча ташқи сабабларга боғлаш мумкин, яъни, ҳозирги вақтда ахборот оқимининг юқорилиги (узлуксиз телевизор кўриш, компьютердаги ҳар хил ўйинлар эпизодларига тақлид қилиш, интернет тизимидаги норасмий сайтлар орқали ҳар хил номақбул ахборотларни

ўзлаштириши) ёки катталарнинг эътиборидан четда бўлиши, оиладаги кризис ва ҳоказолар.

“Ҳар қайси миллатнинг ўзига хос маънавиятини шакллантириш ва юксалтиришда, ҳеч шубҳасиз, оиланинг ўрни ва таъсири бекиёсдир. Чунки инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк ҳаётий тушунча ва тасаввурлари биринчи галда оила бағрида шаклланади. Боланинг характери, табиати ва дунёқарашини белгилайдиган маънавий мезон ва қарашлар-яхшилик ва эзгулик, олижаноблик ва меҳр-оқибат, ор-номус ва андиша каби муқаддас тушунчаларнинг пойдевори оила шароитида қарор топиши табиийдир.

Мактаб оиладан кейинги энг муҳим ижтимоий муҳит ҳисобланиб, педагогик жамоанинг асосий вазифаларидан бири ўқувчилар ўртасидаги салбий ҳолатлар ва ноижтимоий хулқнинг олдини олишдан иборат.

Мактабда ота-оналарга хизмат кўрсатиш бўйича уларни қизиқтирган масалалар юзасидан маслаҳатлар бериш мақсадга мувофиқдир. Жумладан, оиладаги тарбияси қийин ўсмирларни тузатишда низоли вазиятларга оид ва бошқа кўпгина масалалар бўлиши мумкин. Бугунги кунда ота-она ва болалар ўртасидаги зиддият ва муаммоларнинг олдини олиш, бир-бирин тушуниш, оилада илиқлик яратиш энг долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Ёш даврининг ҳар бир босқичида ҳам ўтиш даври кечади. Айниқса, кўпчилик ўсмирларда бу даврдаги ўтиш жараёни жуда сезиларли даражада кўзга ташланади. Оддий одамларнинг қарашида ўтиш даври фақат ўсмирлик ёшидагина кузатилади, деган фикр илгари суриб келинган. Аслида эса, ҳар бир даврнинг ўтиш жараёни бўлади. Лекин бу жараён ҳар кимда ҳар хил ва турлича кўринишда бўлади. Шунингдек, ўсмирлик даврида бу кўриниш юқори даражада бўлади. Бу ёшдаги болаларга турлича босим ўтказмасдан, уларнинг фикрлари, қарашлари инобатга олинган ҳолда ёндашишни талаб этади деб биламан.

Шунинг учун ўсмирларда кузатиладиган оғир ўтиш даври муаммоларининг олдини олиш ва уни бартараф этиш мақсадида мактаб психологлари ота-оналар йиғилишларида маърузалар, тренинг машғулотлари ва коррекцион машғулотлар билан иштирок этиши зарур. Тренинглар орқали ота-оналарнинг бола тарбиясида

йўл қўяётган хато ва камчиликларини кўрсатиш лозим. Шунингдек, ижтимоий психологик ҳимояга муҳтож ўқувчиларнинг ота-оналарига психологик маслаҳат ишларини ҳам ташкиллаштириш керак.

Ушбу нуқтаи-назардан келиб чиқиб, мактаб педагогик жамоасининг ҳамкорликдаги ишларни ташкиллаштиришларида қуйидагиларни тавсия этиш мумкин:

1. Ўқувчиларнинг ижтимоий малакасини, ижобий қизиқишларини ривожлантиришга ва бўш вақтларини мазмунли ташкил этишга ёрдамлашувчи тадбирларни ўтказиш.

2. Ҳуқуқбузарлик, дарс қолдириш, ўзлаштирмаслик муаммолари бўйича сўровномалар ўтказиш (ташхис қўйиш ва б.).

3. Мутахассисларни жалб қилган ҳолда ижтимоий, тиббий, психо-педагогик ёрдамга муҳтож болалар ва оилаларни аниқлаш.

4. Ота-оналар ва ўқувчилар ўртасида ҳуқуқий тартиб масалалари бўйича тушунтириш ишларини кучайтириш.

5. Мактабда оила ва маҳалла ҳамкорлигида ўсмирлар билан олиб бориладиган тарбиявий профилактика ишларини такомиллаштириш.

6. Фарзандининг ўқиши ва тарбиясида муаммолар бўлган оилаларга ёрдам бериш.

7. Боланинг давомати ва ўзлаштиришига салбий таъсир кўрсатаётган сабабларни бартараф этишга кўмаклашиш.

Мактаб психологлари билан бир қаторда маънавий-маърифий ишлар бўйича директор ўринбосарлари, синф раҳбарлари ижтимоий психологик муаммолари мавжуд бўлган болаларнинг оилавий аҳволини ўрганиши, мактаб билан ота-она ўртасида узвий алоқани ўрнатиши, ўқув фанлари ўқитувчилари билан алоқани мустаҳкамлаши, ўқувчининг дарсга қатнашини кузатиши, дарсдан ташқари фаолиятини назорат қилиши, турли сўровномалар, савол-жавоблар ўтказиш орқали тарбияси оғир болалар билан ишлаш дастури ва режаларини белгилаб олишлари лозим деб биламан.

Оилаларда психологик мухитни яратиш учун ота-она ва фарзанд уртасидаги психологик мухитни тугри ташкил этиш зарур. Бунинг учун аввало оилада ота-она узаро муносабатларини тугри йулга куйишлари зарур. Фарзандини тугри тушуна олиши усмир ёшдаги фарзандларини уларда кечадиган психологик жараёнларни аниқлаб, улар билан якин муносабатда булишлари зарур. Ота-она фарзандини доим буш вақтини назорат килиб бориши, уларнинг кизикишлари ички кечинмалари билан суҳбатлашиб боришлари лозим.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yunusov A. O'smir yoshlarda ijtimoiy deviantlik holatlarining sotsiologik xususiyatlari: Sotsiol. fanlari nomzodi dis. - T: O'zMU, 2004 y.
2. Umarov B.M. Bolalar va o'smirlar suitsidining yosh va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixol. fanlari nomzodi dis. - T: TDPI, 1993 y.

O'QITUVCHI - MILLAT YETAKCHISI

Xoliqova Shaxnoza
Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani
30-sonli maktab Jismoniy tarbiya o'qituvchisi

O'qituvchilik faqat ta'lim berishdangina iborat kasb emas, balki shaxsni shakllantiruvchi va o'quvchida insoniylik tuyg'ularini tarkib toptirishdek oliy maqsadni bajarishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, bugungi pedagog zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklatilgan. O'qituvchi, muallim — turli yo'nalishdagi o'rta umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'quvchilar bilan ta'lim ptarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis. Shuningdek, O'qituvchilarga nisbatan "muallim" yoki "pedagog" atamasi ham qo'llaniladi.

Bugun zamonaviy pedagog qanday bo'lishi lozim? Zamonaviy pedagog ijtimoiy faol, qobiliyatli, ma'naviy boy va madaniyatli, innovatsion g'oyalarga intiluvchan bo'lishi, yangiliklar yarata olishi va albatta, o'quvchilarni sevishi lozim. o'qituvchi kasbining xususiyatlaridan biri uning jamiyatda o'rgatuvchi, ustoz deb

belgilanishidir. O'qituvchi jamiyat o'sib kelayotgan shaxs o'rtasidagi vositachisidir. Shuning uchun ham o'qituvchi jamiyatda eng qiyin jarayonni boshqaradi-bu shaxsni shakllanishida muhimdir.

O'qituvchilik kasbining rivojlanish tarixi. Bizga ma'lumki bu kasb juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta'limtarbiya tufayligini hayotini davom ettira va rivojlantira olamiz. Tamaddunning Ossuriya, Bobil, Misr, Turkiston, Hindiston, Xitoy singari qadimiy o'choqlarida topilgan tarixiy madaniy obidalar bu o'lkalarda „O'qituvchilik kasb“i juda qadim zamonlarda shakllanganligini ko'rsatadi. Bu davrlarda eng oqil, tajribali kishilar O'qituvchilik bilan shug'ullanishgan va ular boshqalarga qaraganda katta imtiyozlarga ega bo'lishgan. Yunonistonda faqat ozod kishilargina O'qituvchilik qilishga haqli hisoblangan. Ular mamlakatning turli yoshlarida grammatiklar, pedanomlar, didaskallar, pedotriplar shaklida nomlanganlar va ko'pincha o'z shaxsiy maktablariga ega bo'lganlar. Boy oilalarda esa, ta'limtarbiya ishi bilimli va savodli qullarga topshirilib, ular paydagoglar ("pedagog" so'zi shundan kelib chiqqan), ya'ni "bola yetaklovchilar" deb atalgan. Rim imperiyasida O'qituvchi imperator nomidan tayinlanadigan davlat amaldori sanalgan. O'rta asrlarga kelib, G'arb mamlakatlarida O'qituvchilik bilan, asosan, cherkov xizmatchilari shug'ullanishgan. Shaharlarda dunyoviy maktablar tashkil topgach, hunarmandchilik soxalari va savdogarlar gildiyalari tomonidan taklif etilgan yollanma O'qituvchilar paydo bo'ldi. Texnika taraqqiy etib, kadrlar ko'payishi bilan O'qituvchilik eng ommaviy kasblardan biriga aylandi. Chunki ma'lum darajada ta'lim ko'rmagan odam texnika vositalaridan foydalana olmas edi. Buning uchun esa, ko'plab maktablarga o'qituvchi kerak bo'lardi. Ayni vaqtda, 18—19-asrlarda boy oilalarda murabbiy, guvernior singari amaldorlar O'qituvchilardan foydalanish keng yoyildi. Sharq mamlakatlari, jumladan, Turkiston o'lkasida ham O'qituvchilik eng qadimiy va obro'li kasb hisoblanib, "ustoz" deb e'zozlangan. O'lkaga islom dini kirib kelishi bilan har bir qishloq, shaharlardagi har bir mahallada masjid va deyarli har bir masjid qoshida maktab tashkil etildi. Bu maktablarning O'qituvchilari domla deb ataldi. Shuningdek, maktablar alohida shaxslar uyida ham tashkil etilib, ular maktabdor deyilgan. O'lkamizda qizlarni o'qitishga ham alohida e'tibor qaratilib, savodli ayollar

uyularida otinoyi maktablari tashkil etilgan. Bu maktab o'qituvchilari otinoyi yoki otinbibi deb yuritilgan. Ta'lim davlatdan ajratilganligi, bolalarning o'qishi, asosan, otionalarning ishi hisoblangani uchun ham Turkistonda o'qituvchilik kasbiga maxsus tayyorlanilmagan. Madrasa ko'rgan yoki maktabdan so'ng o'z ustida ishlagan savodli kishi o'qituvchilik bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan. 19-asrning oxiridan, ya'ni o'lkada ma'rifatchilik harakati paydo bo'lishi bilan o'qituvchining saviyasiga alohida e'tibor beriladigan bo'ldi. Turkistonda an'anaviy yo'sinda o'qitadigan o'qituvchilar bilan birga Yevropa mamalakatlaridan o'zlashtirilgan usullarda dars beradigan yangi muallimlar ham faoliyat ko'rsata boshladi. Bu hol, ayniqsa, jadidchilik harakati avj olgan kezlarda ancha keng yoyildi. O'qituvchilar saviyasining oshganligi millat ruhiyatida uyg'onish bo'lishiga, taraqqiyotning bir qadar tezlashuviga olib keldi. O'qituvchi oldida turgan vazifalar va uning mavqei jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha bo'lgan. Jamiyat gullabyashnagan davrda unga e'tibor yuksak bo'ddi yoki o'qituvchining mavqei ko'tarilgani uchun jamiyat rivoj topdi. Oktabr to'ntarishi amalga oshgandan so'ng va sho'rolarning o'z oldiga qo'ygan ommani yoppasiga savodli qilish vazifasini bajarish uchun Turkistonda ham tizimli ravishda o'qituvchi tayyorlash yo'lga qo'yildi. Chunki butun o'lka bo'ylab ochilgan maktablarda ishlaydigan mutaxassislar kerak edi. Shu sababli o'qituvchilar sho'ro hokimiyatining dastlabki yillarida urushga olinmaydigan bo'ldi. Ta'lim tizimi ham mafkuraga bo'ysundirilgan sho'ro davrida o'qituvchilar hukmron siyosatni o'tkazuvchi kuchga aylantirildi. Ular bevosita ta'limtarbiyaga tegishli bo'lmagan turli g'oyaviy-siyosiy hamda tashkiliy ishlarga me'yoridan ortiq jalb etildi. Shuni aytish kerakki, o'qituvchi alohida ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat a'zolarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgani uchun ham uning shaxslik sifatleri kasbiy fazilatlaridan muhimroq hisoblanadi. Chunki u jamiyatning buguni va ertangi kuni qiyofasini shakllantiradi. Shuning uchun ham o'qituvchining professional jihatdangina yetuk bo'lishi kifoya qilmaydi. Uning ma'naviy olami o'quvchilarga singdirilishi ko'zda tutilgan ezgu insoniy sifatlarga to'yingan bo'lishi kerak. O'qituvchilarni tayyorlaydigan o'quv yurtlarida ayni shu jihatga alohida e'tibor qaratiladi.

Buyuk mutafakkirlar o'qituvchi va muallimlar axloq-odobi haqida. O'rta Osiyoda yashagan allomalar yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash, shuningdek o'qituvchilik faoliyati va odobiga doir ta'limotlarni ham yaratdilar. Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida, har bir kishi jamiyatga, davlatga munosib inson bo'lishi uchun ta'lim va tarbiya olishi lozim deb hisoblaydi. Yoshlarga ta'lim va tarbiya beradigan ustoz shogirdiga nisbatan juda qattiq zug'um qilishga intilmasligi, shuningdek, haddan tashqari ko'p yon berishga ham intilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zug'um shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi – yu, shogird ustozning juda yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka va u beradigan bilimdan sovishga olib keladi.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha, tarbiya yagona jarayon bo'lib, yoshlarga aqliy, jismoniy, nafosat, axloqiy tarbiya berishni, hunar o'rgatishni nazarda tutadi. Bolaga ta'lim – tarbiya berish uchun saxovatli, dono, iymonli, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi biladigan, irodasi kuchli muallim –tarbiyachini tanlash zarur. Muallim sog'lom, pok, xalol, xushmuomala kishi bo'lmog'i lozim, deydi.

Kaykovus. «Qobusnoma» da bolalarga hunar va kasb o'rgatmoq to'g'risida farzandiga qilgan nasixatida ota – onaning va muallimlarning bolaga muomala – munosabati masalasiga ham to'xtaladi.

Alisher Navoiy. O'qituvchi jamiyatda obro'li va xurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni xurmat qilishlarini, e'zozlashlarini uqtiradi. Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik kiladi. Muallim esa bir tuda bolalarga ilmu adab o'rgatadi. Bu jarayonda muallim ko'p aziyat chekadi, mashakkatlarni boshidan kechiradi. Shuning uchun shogirdlar ustozlari oldida umrbod qarzdor ekanliklarini xis etishlari lozim deb hisoblaydi:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning xaqin yo'z ganj ila.

Meni kasbimni sevishga undaydigan sabablar?

Birinchiidan, men o'z kasbimni juda yaxshi ko'raman. Men mehribonman, lekin shu bilan birga qat'iy, har qanday vaziyatda ham murosa topishga harakat qilaman, har

qanday qiyin vaziyatdan tabassum va faqat yaxshi kayfiyat bilan chiqishga harakat qilaman.

Ikkinchidan, men uchun o'qituvchi bo'lish o'quvchilarga hayotda o'ziga xos narsalarni topishga yordam berish, ularning eng yaxshi fazilatlarini kashf etishga yordam beradigan yo'lni topishga ko'maklashish. O'quvchilarimga har bir o'qituvchi bera olmaydigan narsani: qalbimning iliqligini, uchrashuvlar quvonchini, mehr-oqibatni, nurli va yorqin tabassumni, eng muhimi, bilimni berishga harakat qilaman. Umid qilamanki, shogirdlarim meni hech qachon unutmaydilar va men ular uchun ideal insonman.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- Barkamol avlod orzusi, T., 1998;
- O'zbek pedagogikasi antologiyasi 1—2j.lar, T., 1995, 1999
- Pedagogik izlanish, T., 1990;
- Yo'ldoshev Q., O'qituvchi kitobi, T., 1997.

BOLALARDA UYATCHANLIKNING NAMOYON BO'LISHI VA PSIXOKORREKSIYASI

*Karimova Munira Farxodjonovna
Xorazm viloyati Gurlan tumani 32-maktab psixologi*

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda dolzarb mavzuga aylangan bolalarda uyatchanlikning namoyon bo'lishi o'quvchi yoshlar orasida salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Boladagi uyatchanlik – bu ruhiy salomatlik holati va uning xatti –harakatlari, uning asosiy xususiyatlari qo'rqoqlik, qat'iyatsizlik, uyatchanlik, qo'rquv va qattiqqo'llikdir. Ko'pincha u birinchi navbatda erta yoshda o'zini namoyon qiladi va bolalarga kamtarlik, itoatkorlik, vazminlik kabi xususiyatlarni beradi. Mana shunday niqoblar yaratiladi, ularning ortida bolaning mohiyati, asl xarakteri deyarli ko'rinmaydi, shuningdek, uning jamiyatda shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Bolalarda uyatchanlikning sabablari.

Ma'lumki, bola psixikasi hali to'liq shakllangan tizim emas. Bunday nomukammallik bolani, hatto eng kichik ko'rinadigan vaziyatlarga ham zaif qiladi. Natijada, miya uyatchanlik, maxfiylik va ishonchsizlik kabi ko'plab himoya reaksiyalarini faollashtiradi.

Bolalarda uyatchanlikning bir necha asosiy sabablari mavjud: ya'ni,

Genetik moyillik: bugungi kunga kelib, ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijasida irsiyat ko'pincha bunday faoliyatning rivojlanishida asosiy va yagona qo'zg'atuvchi omil ekanligi isbotlangan. Turli xil mutatsiyalarning bir qator avlodlarda to'planishi kelajakda tug'ilgan har bir bolani xavf ostiga qo'yadi. Bunday holda ular deyarli yuz foiz moyillik haqida gapirishadi.

Tabiiy omillar: bu yerda har bir insonning o'ziga xos xususiyati borligini ta'kidlash kerak. Uyatchanlik kabi fazilatning rivojlanishiga ko'proq moyil bo'lgan itovertlar ekanligiga ishoniladi. Melanxolik va flegmatik temperamentli odamlar ham kata xavf guruhiga aylanadi, ammo ularning yo'qligi ham uni olish imkoniyatini istisno qilmaydi. Tadqiqotlqr shuni ko'rsatdiki, bir marta to'xtatilgan bolalikdagi haddan tashqari faollik yanada uyatchanlikka olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy muhit : bu guruh bola va tashqi dunyo o'rtasidagi barcha turdagi aloqalarni o'z ichiga oladi. Albatta, eng muhimi oilaviy tarbiya. Asosiy muammolar- bu vasiylikning kuchayishi yoki aksincha bolaning ruhiy muommalardan uzoqligi. Ota-ona ma'naviy tasalli va yordam bera olmaydi, u uchun hamma narsani hal qiladi, yoki unga umuman qiziqmaydi. Bunday holda uyatchanlik doimiy ravishda shakllanadi va butun hayotga hamroh bo'lishi mumkin. Buning sababi tengdoshlariga nisbatan yashiringan bo'ladi.

Moslashuv buzilishi: bolaning hayotida har bir necha yilda u qandaydir moslashuvchan reaksiyalarni boshdan kechiradi, ya'ni emaklash, yurish, o'z-o'zini parvarish qilish, bolalar bog'chasi, maktab va boshqa ko'plab muassasalarga tashrif buyurish. Ular paydo bo'lganda bolada tashqi ta'sirlarga qarshi turish qobiliyatini tarbiyalaydigan ijobiy va sabiy xarakterli xususiyatlar shakllanadi. agar bu jarayon

muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, bu ishonchsizlik, qat'iyatsizlikva uyatchanglikning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Noto'g'ri tarbiya: inson dunyoga kelar ekan, eng avvalo shaxs sifatida shakllanishida oila, ota-onaning o'rni juda muhim sanaladi. Ota-ona haddan tashqari bolaga nisbatan g'amxo'lik, va haddantashqari talabchan bo'lishlari ham bolada o'ziga bo'lgan ishonch va uyatchanlik xususiyatlari paydo bo'ladi. Bundan tashqari, agar onaga g'amxo'lik yanada qat'iylashtirilsa va bolalarning talabchanligi ularning imkoniyatlaridan oshsa pastlik kompleksi paydo bo'ladi. Bunday bola chekinadi va o'zini jamiyatda namoyon bo'ladigan darajada yaxshi emas deb hisoblaydi.

Bolada uyatchanlikni qanday yengish kerakligini bilish uchun siz quyidagi maslahatlarga amal qilishingiz kerak:

Baqirish yanada ko'proq maxfiylik va uytchanlikni keltirib chiqaradi. Bolalar bu hatti-harakati uchun o'zlarini aybdor his qiladilar va kelajakda ota-onalaridan maslahat yoki yordam so'ramaydilar. Bu vaziyatni yanada og'lashtiradi va ishonch doirasini to'liq yo'qligicha toraytiradi. Bunday hatti-harakat bolani o'ziga tortib olishga majbur qiladi va uni bu holatdan chiqarish ancha qiyin bo'ladi.

Eshita olish: bolalarga e'tibor berish kerak. Biz diqatlilikka taqlid qilsak bolalar o'larining barcha muommolarini ko'rsatishadi va aytib berishadi. Ammo, afsuski, ertami-kechmi ular buni qilishdan charchashadi. Ular xafa bo'lishadi, o'lariga chekinadilar va endi aloqa qilmaydilar.shuning uchun bolalar tomonidan aytilgan har bir so'z o'ziga xos ma'noga ega. Har qanday muommolarni payqashva ularni tuzatish uchun vaqt toppish uchunnafaqat ularni tinglash, balki eshitish ham kerak.

Qo'llab- quvvatlash: g'alabalar kabi mag'lubiyat ham qabul qila olishi kerak. Bolalar buni o'zlari qanday qilib to'g'ri qilishni har doim ham bilmaydilar. Ko'pincha bitta muvoffaqiyatsizlikdan so'ng, ular boshqa biror narsa qilishga urunishga jur'at etmaydilar. Ota-onalik burchi bolaga uni qanday bo'lsa, shunday sevishini tushuntirishga majbur qiladi va undan mukamallik talab qilinmaydi. Oldingi mag'lubiyatlarga qaramay, sekin va ishonchli tarzda o'z maqsadi sariyurishga o'rgatish kerak.

O‘rnak bo‘ling... Bolalar ota-onalariningko‘z gusidir. Qizlarda onaning, o‘g‘il bolalarda dadaning xislatlari kabi hech kimning xislatlari ularda aks etmaydi. Haddan tashqari talabchanlik uyat hissini keltirib chiqarishi mumkin. Bola o‘z xatolaridan uyaladi va u umidlarini oqlamaganidan tashvishlanadi. Shuning uchun, ota-onalar, birinchi navbatda, o‘z xatolarini tan olishlari va shaxsiy misol bilan bu qo‘rqinchli emasligini, balki keying harakatlarini rag‘batlantiradiganligini ko‘rsatishlari kerak.

Rag‘batlantirish... Darhaqiqat, barcha bolalar ota-onalarning e‘tiboriga loyiqdirlar, ayniqsa bular. Eng ko‘plari orasida yaxshi yo‘llar kofelarga sayohatlar, istirohat bog‘i, tomoshalar mavjud. Turli komediya spektakllari bolaga o‘zini idrok etishni o‘rganishga yordam beradi va xususiyatlarini g‘alati narsa sifatida o‘tkazib yubormaydi. Tanish davrada vaqt o‘tkazish bolalarga umumiy ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda uyatchanlikka yo‘l qo‘maslik uchun bolani oilada qattiqqo‘l bo‘lmasdan erkin qo‘yish, uning fikrini hurmat qilish, eshita olish, u bilan ko‘proq suhbatlashish, bola shaxsini qo‘llab -quvvatlash tuyg‘ularini shakllantirish lozm.

Bolada uyatchanlik xususiyatining kelib chiqishi va rivojlanishida maktab pedagoglarining ham o‘rni mavjud. Ya‘ni bolaga do‘q bilan gapirish, kamchiliklarini o‘rtoqlari oldida aytish, kamsitish, qattiq ovozda gapirish, baqirish, bolani chegaralash, bolaning imkoniyatidan ortiq talab qo‘yish, individual ishlamaslik ana shu jihatlar bolada uyatchanlikni rivojlantiradi va keltirib chiqaradi. Bolada uyatchanlikning oldini olish uchun yuqoridagi kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziev E.G. O‘zbek xalqining etnopsixologiyasi va bola tarbiyasi. / O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent, 1993. 8-9 s.

2. G‘oziev E.G. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent, "O‘qituvchi", 1990.- 184 s.
42.

BO`SH O`ZLASHTIRUVCHI O`QUVCHILAR FAOLIYATINI STIMULLASHTIRISH

Karimova Munira Farxodjonovna
Xorazm viloyati Gurlan tumani 32-maktab psixologi

Hammamizga ma'lumki bugungi kunda dolzarb mavzuga aylangan bolalarda bo'sh o'zlashtirishning namoyon bo'lishi o'quvchi yoshlar orasida salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda "stimullashtirish" - "insonni qandaydir faoliyatga etaklash, turtkilash" degan ma'noda qo'llaniladi. Inson asli tabitan shunday yaratilgan: ichki yoki tashqi turtki, eslatma bo'lmasa, hatto ba'zan majburlash bo'lmasa o'rnimizdan ham qimirlay olmaymiz.

Shunday zamonlar ham bo'lganki, ishga, mehnatga nisbatan sovuqqonlik ishyoqmaslik, dangasalik deb atalgan hamda uni yengish uchun oddiy va tabiiy usul – majburlashning turli ko'rinishlaridan foydalanishgan. Bu usul insoniy munosabatlar tarixida chuqur ildiz otgan. Yillar mobaynida "inson qalbi" deb nomlangan nozik matoning asosiy ipini topish uchun olimlar juda ko'p mehnat qildilar. Vaqt o'tishi bilan insonga samarali ta'sir etadigan munosabatlarning turli vositalari izlab topila boshladi, Natijada ularni majburlash borgan sari qiyinlashib qola boshladi. O'z haq-huquqlari bilan himoyalangan ozod va mustaqil shaxs yangicha yondashuvlarni talab etadi.

Stimullashtirish borasida amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlarning darajasi va salmog'i nihoyatda yuqori. Ammo shunisi achinarliki, amaliyotchi-pedagog juda ko'p miqdordagi kontseptsiyalar, nazariyalar, g'oyalardan o'z faoliyati uchun yaroqlisini kamdan-kam topishi mumkin. SHu nuqtai nazardan qaraganda amaliyot metodlar quyuni ichida o'z yo'lini yo'qotib qo'ygan. Ammo, aytish joizki, ta'lim jarayoni samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar ichida stimullashtirish etakchi o'rin egallaydi. "Nazarimda, o'z pedagogik faoliyatimning boshlanishida men juda ko'p xatolarga yo'l qo'yganman. Tabiiyki, ularni takrorlashni istamayman,- deb tan oladi taniqli amerikalik pedagog A.Dreer,- men uchun eng qiyin muammo o'qishga motivlashtirish bo'lgan".

Ehtiyojlar, motivlar, stimullar – bir dalaning hosilidir. Bu tushunchalarning ierarxiyasi, tizimidagi o`rni to`g`risida uzoq bahslashish mumkin, qaysiki nazariyotchilarimiz asosan shu bilan mashg`ul. Ammo xulosa bir xil – stimullar ehtiyoj va motivlardan ajralmagan holda, ularga asoslanadi. Shuni ta`kidlash joizki, inson odatda, bir yo`la turli ko`rinishdagi ehtiyoj va motivlar ta`siri ostida bo`ladi hamda ulardan eng kuchlisiga mos ravishda harakat qiladi. Shunday bo`lishi ham mumkinki, bir nechta bir xil ta`sir kuchiga ega bo`lgan ehtiyoj va motivlar maydonga chiqib qolishi, ular orasida ziddiyat paydo bo`lishi mumkin. Shunday vaqtda kishi ular orasidan o`zi uchun ma`qul bo`lgan xatti-harakatlar yo`nalishini tanlashiga to`g`ri keladi. Insonning aynan u yoki bu yo`lni tanlashida hal qiluvchi rolni stimullar bajaradi. Demak, tanlashda, yo`nalishni aniqlashda, to`g`ri qaror qabul qilishda va kerakli yo`nalishda harakat qilishda stimullar yordamga keladi.

Ayni paytda zarur, ammo bajarish istagi kam bo`lgan stimullarni tanlash o`quvchidan katta kuch va sabotni talab etadi. Bu juda qiyn jarayon bo`lib, kichik bolalar u yoqda tursin kattalar ham buni bajarishga qiynaladilar. Ba`zan hissiyotlar aqldan ustunlik qiladi. SHunda o`quvchi ko`proq o`ziga jalb qilib turgan xulq-atvor yo`nalishini tanlash uchun bahona yoki chora izlaydi va uni topadi. Masalani yana to`g`ri tanlangan va qo`llanilgan stimullar hal etadi.

Ma`lumki, qo`zg`otuvchi motivlar aniq mavjud bo`lganda bizning xatti-harakatlarimiz g`ayratliroq va izchil bo`ladi. Ta`sir ko`rsata oladigan motivlashtirish ba`zan o`quvchilar xatti-harakatlariga shu darajada ijobiy ta`sir ko`rsatadiki, birinchi qarashda bu kutilmagan natijaga o`xshab ko`rinadi. Motivlashtirish o`quvchilarni turli darajadagi xatti-harakatlarni bajarishga undaydi. Natijada turli shart-sharoitlarda turli xildagi motivlashtirish, turli xildagi o`zlashtirish ko`rsatgichlariga olib keladi.

Motivlashtirish yutuqlarga erishishning zarur sharti sifatida g`arb psixologlari tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Taniqli psixolog D.Karnegi ta`kidlaganidek, dunyoda odamlarni nimadir qilishga undaydigan birgina usul bor. Mohiyatan bu usul odamni *nimadir qilishni istashga majburlash* demakdir.

Shularni yaxshi tushunib olsak, tashqaridan olib kiriladigan soxta stimullarni qidirib yurishimizga to`g`ri kelmaydi. Chunki barcha samarali stimullarni bola

tabiatining o`zidanoq topish mumkin. O`qituvchilarning barcha xato va kamchiliklari ularning o`quvchi xulq-atvorining haqiqiy motivlarini bilmaslikdan, u yoki bu xatti-harakatlarga yuzaki baho berishdan kelib chiqadi. Stimullashtirish sohasida o`quvchilarni o`rganish yangicha mazmun kasb etmoqda. Bugungi kunda mos stimullarni qidirib topish va to`g`ri qo`llash maqsadida o`quvchilarni o`rganish talab etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimova V.M “Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot ” Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o`uv qo`llanma.
2. Abdullayeva Q., Safarova R, Bikboyeva N. Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi. Boshlang`ich ta`lim, 6-son. 1998.
3. R.A. Mavlonova, B. Normurodova. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. T. 2007 yil.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILARI XOTIRASINI KUCHAYTIRISH USULLARI

Ermatova Munojat
To`raqo`rg`on tumani 18-maktab psixologi

Ta'lim va pedagogik jarayonning samaradorligi, odatda, ko'plab omillar bilan belgilanadi, ular orasida eng muhimi, psixofiziologik, shaxsiy xususiyatlar, o'quvchilarning hissiy va bilim sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga olgan shaxsiy ta'lim yondashuvi. Endi hech kimga sir emaski, o'quvchining ilmiy muvaffaqiyati nafaqat uning qobiliyatlari, balki o'rganish istagi, ya'ni motivatsiya bilan belgilanadi. Ushbu qonuniyat Perkinsning intellektual chegara nazariyasida qayd etilgan bo'lib, u har bir faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun ma'lum bir darajadagi intellekt kerakligini aniqladi; keying muvaffaqiyat aql bilan emas, balki boshqa shaxsiy psixologik xususiyatlar bilan belgilanadi. Bundan tashqari, yorqin aqliy qobiliyatga ega bo'lgan bolalar zaif intellektual ko'rsatkichlarga ega bo'lgan va aksincha, "mukammal"

bolalar o'rtacha yoki past qobiliyatlar bilan ajralib turadigan ko'plab holatlar mavjud. Agar o'rganish istagi haqida gapiradigan bo'lsak, bu murakkab ko'p faktorli ta'lim ekanligini ta'kidlash mumkin. Uning tarkibida psixologlar ta'lim faoliyati mazmuni va uni amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq bilim motivlarini, shuningdek, talabning boshqa odamlar bilan bo'lgan turli munosabatlariga bog'liq ijtimoiy motivlarni ta'kidlash mumkin. Eng keng ma'noda bilim motivlari-bolaning yangi bilimlarni yoki yangi bilimlarni olish usullarini o'rganish istagi. Ijtimoiy motivlar-jamiyatga foydali bo'lish yoki bu jamiyatda muayyan pozitsiyani egallash istagidir. Jamiyatda shaxs o'zi istagan pozitsiyani egallashi uchun shubhasiz ko'p izlanish, samarali mehnat qilishi kerak quyida men xotirani kuchaytirish uchun bir nechta tavsiyalarni keltirib o'taman.

1. Materialni o'rganishga kirishganda, o'z oldiga uzoq vaqtga yoki butun umrga eslab qolishga maqsad qilib qo'yish kerak. Axborotni uzoq muddatga eslab qolishga tayyorlanish eslab qolishning eng yaxshi samarasini beradi. O'rganilayotgan materialni eslab qolish nima uchun kerakligini anglab yet. Qo'yilgan maqsad qanchalik muhim bo'lsa eslab qolish shunchalik tezroq va mustahkam bo'ladi.

2. Xonangizning jihozlariga sariq va binafsharanglarni kiriting, chunki ular intellektual faoliyatni kuchaytiradi.

3. Yodlashdan voz keching va matnni eslab qolish uchun mazmunli xotiraga tayanadi. Ishning ketma-ketligi quyidagicha: 1) tushunish; 2) mantiqiy ketma-ketlikni o'rnatish; 3) materialni qismlarga ajratib oling va har bir qismdan tayanch nuqtasini toping; 4) aynan uni eslab qolish va undan mo'ljal sifatida foydalaning.

4. Besh marta ovoz chiqarmay o'qishdan ko'ra, ikki marta o'qish va ikki marta ovoz chiqarib takrorlash yaxshidir.

5. Belgilangan o'quv topshiriqlarni "issig'ida" takrorlagan yaxshidir. Yotishdan oldin va ertalab takrorlash ko'proq samarali.

6. Yaqindagina yodlangan narsani unitishning eng samarali yo'li unga o'xshash narsani eslab qolish ekanligi allaqachon kuzatilgan. Shuning uchun matematikadan keyin informatika fanini o'rgatish kerak emas, ijtimoiy fanlardan keyin esa kubanshunoslikni.

7. Ta'limning haqiqiy onasi takrorlash emas, balki amalda qo'llashdir. O'rgangan materialni hayotiy faoliyatda qo'llash imkoni qancha ko'p bo'lsa materialni o'rganish darajasi ham shunchalik chuqur va ishonchli bo'ladi.

Farzandlari har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishini xohlagan ota-onalar uchun qimmatli tavsiyalar.

1. Muvaffaqiyatli ta'lim faoliyati uchun bolalarni jamoada yashashga o'rgatish kerak.

2. Bolalarni qiyinchiliklarni yengishga o'rgating.

3. Bola hayotining aniq tartibini tashkil qiling. Uyqusiz bola darsda achinarli ko'rinishdir.

4. Tarbiya berishda bolaga aniq talablar qo'ying, kamsitmang, bajarib bo'lmas va'dalarni bermang.

5. Bola bilan bo'lgan munosabatlarda, bolaga bosim o'tqazmang, tahdid qilmang, jismoniy jazolamang, bolani haddan tashqari chegaralamang!

6. O'g'lingiz yoki qizingizning maktab ishlarida ishtirok etmasligingizni vaqtingiz yo'qligi bilan oqlamang. Bola sizning qiziqishingizni ko'ra bilsin.

7. Ota-onalar farzandini o'rganish jarayonini nazorat qilishlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishlari kerak.

8. Ota-onalar maktab bilan doimiy aloqada bo'lishlari va o'quvchilarga qo'yiladigan talablarga qiziqish bildirishlari kerak.

9. Nima bo'lishidan qat'iy nazar – bolani uy vazifasini tayyorlashga o'rgating.

10. Bola darslarni tayyorlash uchun doimiy joyga ega bo'lishi kerak. Hech kim va hech narsa uni chalg'itmasligi kerak.

11. Bolani o'z xatti – harakatlarini boshqarishga o'rgating.

12. Bolaning kuchli tomonlariga suyaning.

13. Bolaga ishonish, unga xayrixohlik qilish, uning qobiliyatiga ishonch bildiring.

14. Uyda hurmat va samimiylik muhitini yaratish.

15. Eslab qoling! Muvaffaqiyat-muvaffaqiyatni oziqlantiradi. Muvaffaqiyatsiz o'quvchini motivatsiyasi eng yaxshi manbai-u biror narsaga qodirligini anglash.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Perkins “Intellectual chegara nazariyasi”
2. WWW. Ziyonet.uz

PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL QILISH DOLZARB PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Djienbaeva Diloram

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani 38-maktab psixologi

Bugungi globallashuv sharoitida psixologiya fani taraqqiyoti har qachongidan ham muhim masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a'zolariga psixologik xizmat ko'rsatish muqarrarligini talab qiladi. Holbuki, iqtisod, xuquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o'zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim. Inson rivojlanishini yosh davrlariga bo'lib alohida o'rganish, har bir yosh davri qonuniyatlarini bilish orqali har tomonlama etuk shaxs kamoloti uchun muhimdir. Zero, 2014 – yil “Sog'lom bola yili” davlat dasturida ta'kidlab o'tilganidek, har bir shaxs va uning ijtimoiy muhit bilan bog'liq o'ziga xos psixologik imkoniyatlariga yetarlicha baho bermay turib shaxsning taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos tarbiyaviy ta'sir etish juda mushkuldir. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich ta'limda psixologik xizmatni tashkil qilish katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda kichik maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos ijtimoiy psixologik va jismoniy imkoniyatlarini o'rganish va shu asosda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish orqali samarali faoliyat olib borish mumkin.

Shaxs tarbiyasi har qanday millat uchun juda muhim vazifa ekanligi hech kimga sir emas. Zero, taraqqiyot inson kamolotini oshirish bilan birga, uning psixik taraqqiyotida ham bir qancha o'zgarishlarini olib kelayotganligi bugungi kun psixologiyasi uchun juda ham muhim vazifalarni qo'ygan. Shaxs taraqqiyot natijasida murakkablashib

rivojlanib boruvchi mavjudotdir. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa pedagogik-psixologik, ayniqsa ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar olib borishga va ularning empirik natijalariga asoslanib tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik psixologik bilimdonligini shakllantirish juda muhim hisoblanadi.

Bugungi kundagi ijtimoiy psixologik tadqiqotlar masalasi, ayniqsa uning amaliy vazifalari sosial psixologiya fanining markazida turuvchi psixologik va sotsiologik yondashuv yo'nalishlari asosida hal qilinmoqda. Masalan, Amerika va boshqa barcha g'arb davlatlarida ikki xil ijtimoiy psixologiya: "psixologik ijtimoiy psixologiya" va "sotsiologik ijtimoiy psixologiya" mavjud. Bu yo'nalishlar bir-biriga o'xshasa-da, ularning bir-biridan farqli jihatlari ham mavjud. Ya'ni, psixologik ijtimoiy psixologiya shaxs va faoliyat, muomala, shaxslararo munosabat, shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilishi, shaxsning kognitiv, konativ, xulq-atvor imkoniyatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy ustanovkalar, shaxs va jamoaning ijtimoiy-ruxiy kechinmalari kabi muammolar ustida tadqiqot olib borishni maqsad qilib olgan bo'lsa, sotsiologik ijtimoiy psixologiyada esa ko'pincha jamiyatning ijtimoiy qatlamlarini tahlil qilish xalqlar psixologiyasi, ommaviy hodisalar psixologiyasi, sinflar, guruxlar, gumanistik psixologiya kabilarga alohida urgu beriladi. Psixologik xizmat metodologiyasi esa ko'proq birinchi yo'nalish - "psixologik ijtimoiy psixologiya" asoslari zahirida tarkib toptiriladi. Gap shundaki, har bir fanning rivojlanishi yangi dalillar asosida ilmiy yunalishni ochib beruvchi metodik qurilmalarning tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, aniq metodologiya bo'lmagan sohada aniq amaliy natijalar ham bo'lmaydi. Zero, ijtimoiy psixologiya fanining yana bir muhim yangi (shakl jihatdan yangi, mazmun jihatdan esa azaliy-kursiv bizniki) vazifasi psixologik xizmat metodologiyasi bilan bog'liq nazariy, amaliy va empirik yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini belgilashning bugungi kungacha nechog'lik hal qilinayotganligini tahlil qilishga to'g'ri keladi. Bu borada psixologiya olamida hanuzgacha aniq va mukammal tarzda ishlab chiqilgan va rasmiy tarzda tan olingan yagona ilmiy yo'nalish yoki konsepsiyaning qabul qilinmaganligi (balki olimlarning ilmiy-psixologik qarashlari turlicha bo'lganligi uchun buning iloji ham yo'qdir-kursiv bizniki) ayon bo'lsa-da,

ilg'or g'arb psixologlari, Markaziy ham do'stlik Davlatlari psixologlari va O'zbekiston psixologlari tomonidan olib borilgan (yakunlangan) va olib borilayotgan (eksperimental izlanishlarga yo'l ochib berilayotgan) fan olami uchun o'ziga xos salohiyatga va nufuzga ega bo'lgan tadqiqotlar mavjudki, ular qaysidir jihati bilan psixologik xizmat modeli va uning psixologik himoya vositasi sifatidagi mohiyati, ahamiyati va ijtimoiy istiqbollari haqidagi ilmiy-amaliy tasavvurlarimizni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlardan bizga ma'lum bo'lishicha, ijtimoiy psixologik xizmat metodologiyasining umumiy yo'nalishlari G'arb ijtimoiy psixologiya namoyandalari tadqiqotlarini quyidagicha izoxlash mumkin: V.Vundtning 1900 yilda chop etilgan "Xalqlar psixologiyasi" nomli yirik (o'n tomlik) epik asari ijtimoiy psixologiya yo'nalishlarini yorqinlashtirishga xizmat qilib, inson ma'naviyati, madaniyati va mafkurasini o'rganishning murakkab tomonlarini ochib berdi. Binobarin, E.Fromm, J.Saliven, G.SHeparde, V.Bayon kabi olimlar tomonidan guruxlar psixologiyasi nazariyasini yaratishga asos solindi. Bunda turli xil ijtimoiy psixologik treninglar orkali guruhdagi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq psixologik iqlimni kamol toptirish yo'llarining ilk bor ko'rsatilishi mehnat jamoalaridagi ijtimoiy psixologik xizmat vazifalarini belgilash uchun ma'lum darajadagi empirik ma'lumot sifatida xizmat qilishi mumkin.

G'arbda yaratilgan kognitivizm doirasidagi nazariyalar psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. CHunonchi, L.Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi (insonning faoliyat ob'ektiga nisbatan xulq-atvori yoki munosabatini ongli ravishda o'zgartirishga asoslangan), G.Olport, A. Maslau, K.Rodjers kabi ijtimoiy psixologlarning gumanistik doiradagi qator tadqiqiy izlanishlari shular jumlasidandir. Yana shuni qayd etish kerakki, amerikalik taniqli psixolog Abraham Xarold Maslauning "Insonga bir butun yondashuv konsepsiyasi" psixologik xizmat jarayonida insonni tushunish va ijtimoiy motivasion rivojlantirish muammosi ustida tadqiqotlar olib borilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maslauning fikricha, insonning barcha tug'ma potensial imkoniyatlari faqatgina ijtimoiy shart-sharoitning yaratilishi bilan ruyobga chiqishi va kamol topishi mumkin. Albatta, mazkur fikrlarning ne chog'liq haqiqat ekanligini bugungi kunda har bir insonning o'ziga xos va uning

ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi imkoniyatlari ko'lamini o'rganish va tarbiyalashni asosiy vazifa qilib olgan psixologik xizmatning tashkil etilishini muntazam kuzatishlarimiz natijalari tasdiqlab turibdi.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, yurtimizda olib borilayotgan ta'lim islohotlarining markazida o'quvchi shaxsi va uning o'quv jarayoniga munosabatlar tizimini o'rganish va tahlil qilish masalasi muhim o'rin tutadi. Respublikamizning umum ta'lim maktablarida tahsil olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ish olib borayotgan o'qituvchilarga, maktab rahbarlariga, amaliy psixologlarga quyidagi amaliy tavsiyalarni berishni lozim topdik. Ta'limning dastlabki bosqichlarida, o'quvchilarning bu jarayonga birdaniga moslashishi qiyinligini inobatga olib, har xil o'quvchi va unga ta'sir etuvchi barcha ijtimoiy – psixologik omillarni batafsil o'rganish va shu asosda har bir o'quvchi hamda o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar rejasini tuzish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning o'quv faoliyatiga va aynan o'quv faolligiga bo'lgan munosabatlarini o'rganmay turib ularga ijtimoiy – psixologik ijobiy ta'sir etib bo'lmaydi. Mazkur holatda munosabat motivasiyasining shakllanishi bilan bog'liq omillarga jiddiy e'tibor qaratilishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Sog'lom bola yili» davlat dasturi. – T.: «O'zbekiston», 2013.
2. «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlari / Akademik S.S. G'ulomov tahriri ostida. – T.: «Sharq», 2001. – B. 3-18.
3. Barotov SH.R. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari -T.:O'qituvchi, 1995.-56 b.

СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЕЁ РАЗВИТИЕ В ЕГИПТЕ

*Ёзиева Шахрибону Гайратуллаевна
Магистрант 1-курса Ташкентского Государственного
Университета Востоковедения Социология*

Египет – страна, которая имеет тысячелетнюю историю. Это страна с уникальным географическим положением на Севере Африки. Около 95% его ландшафта составляет пустыни, и это приводит к тому, что 93% его населения проживают и обитают вокруг узкой долины реки Нил. Население Египта является самым многочисленным среди арабских стран и третьим по величине в Африке после Нигерии и Эфиопии. Египет – развивающаяся страна в арабском мире, которая в истории своего развития потерпела многие политические, экономические, социальные изменения. В свою очередь все эти изменения считаются настоящим толчком в дальнейшем развитии данной страны. В нынешнюю эпоху Египет старается искать различные пути и достижения развития в конкретных направлениях общества и страны. Как отмечается в научной статье соискателя Мохамеда Амира: «Развитие всегда было тем, к чему стремились страны слаборазвитого мира. В эпоху глобализации, когда мир превратился в маленькую деревню, царит конкуренция, и чтобы страны могли конкурировать, они должны быть достаточно развиты. Было предложено и реализовано много методов, подходов, планов и моделей, но успешных примеров было всего несколько. Одним из инструментов, который мог бы помочь слаборазвитым странам встать на пути успешного развития, является одной из наиболее важных организаций, занимающихся этим вопросом».

Для Египта развитие в какой-либо определенной области очень важно, и считается, что именно высшее образование и ее положение способно сыграть важную роль в достижении поставленных и необходимых целей развития.

Рассмотрим тот факт, как высшее образование может повлиять на развитие данной страны? Как известно одним из наиболее важных факторов в достижении успешной модели развития считается человеческий капитал. Самым важным и

незаменимым инструментом подготовки человеческого капитала к активной роли в развитии является образование. В современной мировой экономике существует спрос на качественных и достаточно квалифицированных выпускников, основанных на знаниях. Высшее образование непосредственно может способствовать достижению национальных целей в области образования. При этом, в первую очередь, необходимо создавать, усовершенствовать и улучшать качество и возможности самой образовательной системы. Также необходимо добавить, что реформа образования должна быть направлена на повышение креативности и критического мышления, так как в современном мире критическое мышление считается одним из самых важных способностей для развития.

Когда речь идет о высшем образовании и составе необходимо взглянуть в историю. Как отмечается в источниках, Университет Фуада I, ныне Университет Аль-Каиро был первым египетским университетом. Он был основан в 1908 году, а в 1919 году за ним был основан Американский Университет в Каире. В течение первых нескольких десятилетий XX-го века в Египте было три национальных университета и один частный университет. Это были Каирский, Александрийский и университет Айн-Шамс, а также Американский университет в Каире. Общее количество зачисленных студентов составляло около 50 000 человек, а в сегодняшнее время общее количество зачисленных превышает два миллиона.

В государственной системе образования в течении нескольких лет происходило множество изменений в зависимости от целей правящего режима. Как объясняет Кандиль, образовательная система была разработана для того, чтобы отдавать предпочтение качеству, а не доступности при монархии, которая существовала в течение трех столетий. Это означало, что только определенные группы, включая иностранцев и высшего класса, имели доступ к образованию.

К 1952 году около 75% населения страны старше десяти лет были неграмотными. Поэтапно стали расширяться возможности доступа к образованию. Например, чтобы учащиеся могли продолжать свое обучение в высшем (третичном) образовании, они должны сдать национальный общий

выпускной экзамен после завершения двенадцати лет формального начального школьного образования. У студентов есть возможность обучаться в государственных или частных университетах. Министерство высшего образования является основным регулирующим органом в сфере высшего образования и оно непосредственно осуществляет надзор за обоими университетами. Помимо этого, студенты могут поступить в университет Ажар, который также является государственным университетом, но со своей системой управления. Срок обучения в университетах составляет четыре года для большинства дисциплин, пять лет для инженерии и шесть лет для медицины. Высший совет университетов, возглавляемый министром высшего образования, состоит из ректоров государственных университетов и до пяти представителей гражданского общества. Этот совет отвечает за надзор, а также за установление правил государственного высшего образования. Как было вышеупомянуто, высшее образование в Египте включает государственные и частные технологические колледжи и университеты. Студенты могут поступать в университеты, чтобы получить степень бакалавра, в зависимости от области, которую они хотят изучать. Большинство дисциплин и программ имеют номинальную продолжительность четыре года для получения степени бакалавра, а некоторые из этих программ, такие как стоматология и фармацевтика, получают степень через пять лет. В основном, большинство предметов и курсов, которые изучают студенты, рассчитаны на четырехлетний период. Получение степени бакалавра для студентов считается квалификацией, позволяющей им выйти на рынок труда. Кто хочет продолжить образование могут либо получить диплом о высшем образовании за один-два года, либо получить степень магистра, что обычно занимает от трех до шести лет.

Если говорить о развитии высшего образования Египта, то надо подчеркнуть, что с 2000 года правительство страны разрабатывает планы по развитию высшего образования в Египте. В результате этого было разработано национальная стратегическая программа «Программа постоянного совершенствования и квалификации для аккредитации».

Министерство высшего образования Египта с помощью трех находящихся под его контролем высших советов, точнее Высшего совета университетов, Высшего совета частных университетов и Высшего совета технического института отвечает за установление политики, мониторинга и надзора за всем высшим образованием.

Также необходимо пояснить, Министерство высшего образования является основным регулирующим органом высшего образования в Египте. Министерство устанавливает политику, наблюдает за реализацией, а также контролирует и координирует высшее образование в целом. Есть также три высших совета, возглавляемые министром высшего образования, которые помогают министерству, этими советами являются Высший совет университетов, Высший совет частных университетов и Высший совет технических институтов. Университетом Аль-Азхар управляет центральная администрация Аль-Азхар. Задачами этих советов считается обеспечение согласованности и гармонии степеней, предлагаемых различными университетами и институтами. Среди этих советов Высший совет университетов является высшим органом, управляющим государственными университетами.

Система государственных университетов сильно централизована, и особенно в области финансов. Но университеты независимы когда речь идет о других аспектах, таких как административное регулирование, научное исследование и общественные работы. Хотя государственное образование в Египте является бесплатным на всех этапах, в последние годы система высшего образования позволила университетам предлагать платные программы.

При поступлении в государственные университеты определяющим критерием считается балл, полученный на национальных экзаменах. Как правило, 100%-й балл дает студенту колледж и место, в которое он подал заявку. Студенты с более низкими баллами, поступают в те направления, которое способствуют их баллам. А частные университеты играют роль в исполнении желаний тех, кто не набрал требуемых баллов, но имеет возможность оплачивать свои дорогостоящие сборы.

Важной чертой является то, что высшее образование в Египте не имеет проблем с гендерным неравенством. Женщины даже получают более высокие оценки в выпускных классах и занимают более высокие выпускные звания, о чем свидетельствуют большее число помощников преподавателей женщин по сравнению с мужчинами. Студенты получившие самые высокие оценки, автоматически нанимаются в качестве ассистентов преподавателей, если их факультеты объявляют, что им нужны ассистенты преподавателей.

Важно также отметить о социальной справедливости в системе высшего образования. В Египте много студентов, которые принадлежат к низкому социально-экономическому статусу. Это означает, что большая часть их времени, которое должно быть посвящено обучению и образованию, будет направлено на работу, чтобы обеспечить себя и свою семью. Качественное образование в частных школах и колледжах требует финансовых ресурсов, которое подавляющее большинство египтян не могут себе позволить. Многие студенты из низкого социально-экономического положения не имели достаточной финансовой поддержки, чтобы получить доступ к высшему образованию. В то же время, открытие частных школ ознаменовало это как эпоху, позволяющую богатому слою населения, которое может платить за хорошие успехи в доуниверситетском образовании, затем получить доступ к престижным колледжам. Государственные университеты действительно предоставляют качественное образование, но в некоторых колледжах учащиеся должны были получить самые высокие баллы на выпускных национальных экзаменах в средней школе.

Высшее образование привлекает студентов из более состоятельных слоев населения, которые, как правило, поступают в высшие учебные заведения в большем количестве, чем выходцы из более бедных семей. Как отмечается в научных источниках, финансирование высшего образования в Египте ориентировано на бедных, поскольку большая часть государственных расходов на высшее образование идет на студентов из самых богатых квантилей, в то время как немногие студенты университетов поступают из групп с самым низким доходом. Это происходит потому что поступление в университеты ограничено

очень строгими требованиями к оценкам, и учащиеся из более состоятельных семей имеют больше шансов получить хорошие оценки, поскольку они могут позволить себе более качественное среднее образование, а также частное репетиторство.

Система высшего образования и процесс развития имеет свои определенные пробелы. Социальная несправедливость, неравенство создают ряд проблем в системе высшего образования. Образование, в частности высшее образование, по-прежнему остается катализатором светлого будущего для египтян. Необходима сильная политическая воля и желание, вооруженные четким и амбициозным видением, которому египетский народ может доверять и на которое может рассчитывать.

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA OILA, JAMOATCHILIKNI O'RNI

Niyozova Gulchehra Abduvosiyevna

Andijon viloyati Baliqchi tumani 9-son sanatoriy tipidagi maktab-internati boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ingliz tilidan tarjimada "inklyuziv" atamasi "kiritilgan, jalb qilingan" degan ma'noni anglatadi. Inklyuziv - bu o'quvchilarning xilma-xilligini hisobga oladigan yondashuv bo'lib, unda o'quv rejalari va maqsadlari ularning qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda tuzatiladi. Inklyuzivlik har bir talabani o'zlarini qabul qilingan his qilishlariga hissa qo'shadi, shu bilan ularning qobiliyatlari va ehtiyojlari hisobga olinadi va qadrlanadi. Yaqinda inklyuziv ta'limning istiqbollari nafaqat o'quv jarayoni tashkilotchilari, balki nogiron bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar uchun ham katta qiziqish uyg'otdi. Bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki chet ellarda ham "maxsus" va oddiy bolalarning birgalikdagi ta'limi bilan bog'liq muammolar qanday hal etilayotganligi masalasi ayniqsa dolzarbdir. Inklyuziv ta'lim, avvalambor, uning barcha ishtirokchilari uchun bilim olishlari uchun maqbul sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Ota-onalarning yetishmovchiligining og'riqli tajribasi, bolaning oldida o'zini aybdor his qilish hissi, boshqalar oldida uyat, ota-onalarga yomon ta'sir qiladi va bilvosita, bolada noilojlik hissi, umidsizlik va umuman hayot istiqbollari salbiy baholaydi. Bunday ota-onalar uchun shaxsiy tajribasida bunday qiyinchiliklarga duch kelgan va nafaqat bu qiyinchiliklar bilan yashashni, balki ularga qarshi kurashishni ham o'rganish qobiliyati bo'lgan odamlar bilan doimiy aloqada bo'lish imkoniyati katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish shakllaridan biri bu nogiron bolalarning ota-onalari uyushmasi - ota-onalarning tashkilotga birlashishi. Ularni birlashtirishning turli shakllari mavjud, ammo ularning maqsadi bitta - "maxsus" bolani tarbiyalayotgan oilalarga yordam berish va qo'llab-quvvatlash. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan jamoat ongidagi o'zgarishlar. Inklyuziv tizimning joriy etilishi tufayli ta'lim, nogiron bolalarning ota-onalari shunchaki tanlov qilishlari kerak: bolani maxsus maktabga, u erda malakali ixtisoslashgan o'qituvchilar u bilan ishlaydigan yoki oddiy maktabga, u jamiyatdagi hayotga yaxshiroq moslashishi mumkin.

Ta'kidlash mumkinki, inklyuziv ta'lim muammosi murakkab, ko'p o'lchovli va ko'plab tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Nogiron bolalar ta'limini rivojlantirishning nafaqat samarali, balki iqtisodiy usulini ham ta'minlab, keng tarqalgan xurofot va pedagogik stereotiplardan xalos bo'lishda ijtimoiy to'siqlarni va to'siqsiz muhit deb nomlangan tashkiliy qiyinchiliklarni ta'kidlash zarur. Ta'lim muammolari, maktab o'quvchilari, ularning ota-onalari, o'qituvchilarning oddiy bolalar bilan birgalikdagi ta'lim sharoitida nogiron bolalar ta'limining afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida fikrlarini o'rganish bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish alohida dolzarbdir. Inklyuziv ta'limni tashkil etish ma'lum shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Shunday qilib, ota-onalar va o'qituvchilarning aksariyati rivojlanish muammolari va sog'lig'i buzilgan o'quvchilarni o'qitish uchun o'qituvchi, o'qituvchi-psixolog (ota-onalarning 79% va o'qituvchilarning 92%) va maxsus o'qituvchi (ota-onalarning 46% va o'qituvchilarning 84%) bilan birgalikda zarurdir, deb hisoblaydilar. O'qituvchilar ushbu jarayonga tibbiyot mutaxassislarini (fiziologlar, nevrologlar) qo'shishni taklif qilishadi. Maktablarda ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va ular bilan muloqot qilishda ularning vakolatlarini oshirish uchun psixologik treninglar (so'ralgan ota-onalarning

53%) va psixologik maslahatlar (so'ralgan ota-onalarning 56%). O'qituvchilar nuqtai nazaridan, zarurinklyuziv ta'limning sharti - bu nogiron va rivojlanishida nuqsonli bolalarni ijtimoiy himoya qilish muammolari, ularni maktab hayoti sharoitlariga moslashtirish bo'yicha ota-onalar uchun seminarlar va davra suhbatlarini tashkil etish (bu fikrni o'qituvchilarning 65 foizi qo'llab-quvvatlaydi). Shunga o'xshab, ota-onalar va o'qituvchilar bir ovozdan, sog'lig'ining o'ziga xos xususiyatlariga qaramay, barcha bolalar sinfdan tashqari ishlarda, shu jumladan sport bilan shug'ullanishlari mumkin. Ushbu fikrni so'rovda qatnashgan ota-onalarning 67% va o'qituvchilarning 69% tashkil qiladi. Nogiron bolaning oilada paydo bo'lishi har doim barcha oila a'zolari uchun og'ir psixologik stressdir. Ko'pincha oilaviy munosabatlar zaiflashadi, kasal bola uchun doimiy tashvish, chalkashlik hissi, ruhiy tushkunlik oilaning buzilishiga sabab bo'ladi va faqatgina kichik foizlarda oila birlashadi.

Nogiron bolaga ega bo'lish oiladagi boshqa bolalarga salbiy ta'sir qiladi. Ularga kam e'tibor qaratiladi, madaniy hordiq chiqarish imkoniyatlari kamayadi, ular yomonroq o'qishadi va ota-onalarning nazorati tufayli kasal bo'lib qolish ehtimoli ko'proq. Ko'pincha, bunday oila yaqin atrofdagi mavjud bo'lgan noqulay sharoitlardan bezovtalanadigan atrofdagilarning, ayniqsa qo'shnilarning salbiy munosabatini boshdan kechirmoqda (xotirjamlik, sukunatning buzilishi, ayniqsa aqliy zaifligi bo'lgan nogiron bola yoki uning xatti-harakatlari bolaning atrof-muhitining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatsa). Atrofdagi odamlar ko'pincha muloqotdan qochishadi va nogiron bolalar deyarli to'laqonli ijtimoiy aloqalar, ayniqsa, sog'lom tengdoshlari bilan etarlicha aloqa doirasiga ega emaslar. Jamiyat har doim ham bunday oilalarning muammolarini to'g'ri tushunmaydi va ularning ozgina qismi boshqalarning qo'llab-quvvatlashini his qiladi. Shu munosabat bilan, ota-onalar nogiron bolalarni teatr, kino, ko'ngilochar va hokazolarga olib bormaydilar, shu bilan ularni tug'ilishidan boshlab jamiyatdan butunlay ajralib qolishlariga yo'l qo'yadilar. Yaqinda shunga o'xshash muammolarga duch kelgan ota-onalar bir-biri bilan aloqa o'rnatmoqdalar. Ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalashga harakat qilishadi, uning asabiylashuvidan, egosentrizmdan, ijtimoiy va aqliy infantilizmdan qochib, unga tegishli mashg'ulotlar, keyingi ish uchun kasbga yo'naltirish berishadi. Bu ota-onalarning pedagogik, psixologik, tibbiy bilimlarining

mavjudligiga bog'liq, chunki bolaning moyilligini, uning nuqsoniga munosabatini, boshqalarning munosabatiga bo'lgan munosabatini aniqlash va baholash, unga ijtimoiy moslashishda yordam berish, o'zini o'zi anglashni maksimal darajaga ko'tarish uchun maxsus bilim kerak.

Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat o'zgarishi tufayli mamlakatimizda tibbiy-ijtimoiy yordam keskin yomonlashdi. Nogiron bolalarni tibbiy va ijtimoiy rehabilitatsiyasi har bir bolaga individual yondoshishni hisobga olgan holda erta, bosqichli, uzoq muddatli, har tomonlama, tibbiy, psixologik-pedagogik, kasbiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa dasturlarni o'z ichiga olishi kerak. Asosiysi, kelajakda u bilim olishi va mustaqil ishlashi uchun bolaga motor va ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatishdir.

Nogiron bolalarni ham davlat ijtimoiy ta'minoti organlarida, ham nogironlar jamiyatida ishonchli maxsus ro'yxatdan o'tkazish mavjud emas. Bunday oilalarni tibbiy-ijtimoiy ta'minlash bilan bog'liq turli tashkilotlar faoliyatida muvofiqlashtirish yo'q. Yetarli emas axborot ishlari tibbiy va ijtimoiy rehabilitatsiya bilan bog'liq maqsadlar, vazifalar, imtiyozlar, qonunchilikni targ'ib qilish. Barcha ijtimoiy ishlar bolalarga yo'naltirilgan bo'lib, oilalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydi va oilaning tibbiy-ijtimoiy ishlarda ishtirok etishi ixtisoslashtirilgan davolanish bilan bir qatorda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Nogiron bolalarni tarbiyalayotgan oilalar bilan ishlashning muhim yo'nalishi - bu nogiron bolalarning ota-onalarining jamoat birlashmalarini yaratish, bunday uyushmalarning mavjudligi, birinchi navbatda, ota-onalarda ular yolg'iz emasligiga ishonchni kuchaytiradi, ikkinchidan, yordam, tushunishga, bilim, tajriba, foydali ma'lumotlar bilan o'zaro boyitish; o'xshash "baxtsizlikdagi hamkasblar" bilan muloqot doirasini kengaytiradi. Boshqa tomondan, bir muncha vaqt o'tgach, "baxtsizlikdagi hamkasblar" doirasidagi ushbu muloqot ijtimoiy dunyoni "biznikiga" va "biznikiga" bo'linishiga turtki beradi, bu esa o'z navbatida ularni jamiyatning qolgan qismidan ajralishga olib keladi.

Nogiron bolani tarbiyalayotgan oilaga yordam berishning eng samarali usullaridan biri bu "ota-onalar klubi" dir. Ota-onalar klubi rivojlanishida nuqsoni

bo'lgan bolani tarbiyalayotgan ota-onalarning birlashmasi sifatida o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi.

Bolaning shaxsiy, ijodiy va ijtimoiy resurslarini maksimal darajada oshkor qilish uchun oilada qulay mikroiklimni shakllantirish;

ota-onalar va bilimlarning o'zaro munosabati va bir-birini to'ldirishini amalga oshiradigan muassasalar, tajribani boyitish bo'yicha sheriklik munosabatlarini shakllantirish;

ota-onalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi, ijtimoiy faoliyat va konstruktiv xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish.

Ota-onalar klubi turli xil ish shakllaridan foydalanadi. Ular orasida an'anaviy va noan'anaviy:bolani rivojlantirish masalalari bo'yicha individual konsultatsiyalar;

joydan tashqari tadbirlarni tashkil etish: teatrlarga, muzeylarga, ko'rgazmalarga tashrif buyurish, shahar tashqarisiga chiqish va hk.;

o'quv seminarlari,psixologik treninglar, ommaviy tadbirlar,press-klublar va tematik davra suhbatlari, bolani oilada tarbiyalash tajribasini nashr etish, hukumat amaldorlari bilan uchrashuvlar,"bola - ota-ona - mutaxassis" tizimidagi darslar; bola rivojlanish dinamikasini tekshirishda ishtirok etish.

Ota-onalarning vazifasi bolani tinchlantirish, uning tashvishlarini yengillashtirish, oilada optimizm muhitini yaratishdir. Ushbu oilada faqat ijtimoiy o'qituvchi yordam berishi mumkin.Nogiron bolaning rivojlanishi ko'p jihatdan oilaviy farovonlikka, uning jismoniy va ma'naviy rivojlanishida ota-onalarning ishtirokiga va turli xil ta'lim ta'siriga bog'liq. Oddiy sharoitlarda bola harakatchanligi, ko'ngil ochishi va hokazolar tufayli juda ko'p sonli ogohlantiruvchi manbadir. Nogiron bola ham o'qituvchisi uchun tugallanmaydigan manba bo'lib, faqat ularning sifati birinchi holatga qaraganda butunlay boshqacha. Nogiron bola ko'proq mexanik ishni, bir xil parvarish va nazoratni talab qiladi, va boladan javob, quvonchli qoniqish juda kam, bu bir tomonlama charchoqqa, hatto charchashga olib keladi. Biz oilada majburiyatlarni bo'lishishga harakat qilishimiz kerak, va jamiyat o'z hissasini qo'shishi kerak.

Nogironlar bizning jamiyatimizning bir qismidir. Ularga munosabat madaniyat va ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilaydi. Nogironlarga nisbatan befarqlik va shafqatsizlik butun jamiyatni ma'naviy tanazzulga olib keladi.

Ta'lim muassasalari o'qituvchilarining nogiron bolalari bo'lgan oilalar bilan uyg'unlik bilan tashkil etilgan ishi ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyati, nogiron bolalarni bolalar jamoasiga moslashish garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Korneeva E.N. Nostandart bolalar. Maktab o'quvchilarining IDD bilan, migrant oilalar farzandlari, iqtidorli alomatlari bo'lgan talabalar bilan ta'limning o'zaro ta'sirini interaktiv tartibga solish. - Yaroslavl: Rivojlanish akademiyasi, 2007 y.

2. Nogironlarning ta'limga integratsiyasi va ijtimoiy moslashuvi. Nogiron bolalarning o'qituvchilari, psixologlari va ota-onalari uchun qo'llanma. - Minsk: Milliy ta'lim instituti, 2005 yil.

3. Sabelnikova S.I. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish. URL: <http://edu.resobr.ru/obuna>.

НОСОҒЛОМ ОИЛАЛАРДА ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ЎРТАСИДА ИЖТИМОЙ МАЪНАВИЙ МУХИТНИ СОҒЛОМЛАШТИРИШ

*Салимова Умида Сатторовна
Қашқадарё Китоб тумани 40-мактаб психологи*

Ҳозирги кунда носоғлом оилаларда вояга етмаган ўқувчилар ўртасида соғлом психологик муҳитни яратиш ҳозирги куннинг энг долзарб масаласига айланмоқда.

Бундай оилаларнинг келиб чиқиш сабаблари: ота-оналарнинг маълум бир ишга эга эмаслиги, ичкиликка берилган, маълум бир иш ҳақи ҳисобига ишламайдиган, гиёҳванд моддаларни истеъмол қиладиган ота-оналар фарзандлари ижтимоий ва маънавий томондан носоғлом болаларнинг пайдо

бўлишига сабабчи бўлмоқда.

Шу боисдан ҳам “Ҳар қайси миллатнинг ўзига хос маънавиятини шакллантириш ва юксалтиришда, ҳеч шубҳасиз, оиланинг ўрни ва таъсири беқиёсдир. Чунки инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк ҳаётий тушунча ва тасаввурлари биринчи галда оила бағрида шаклланади. Боланинг характерини, табиати ва дунёқарашини белгилайдиган маънавий мезон ва қарашлар-яхшилик ва эзгулик, олижаноблик ва меҳр-оқибат, ор-номус ва андиша каби муқаддас тушунчаларнинг пойдевори оила шароитида қарор топиши табиийдир.

Мактаб оиладан кейинги энг муҳим ижтимоий муҳит ҳисобланиб, педагогик жамоанинг асосий вазифаларидан бири–ўқувчилар ўртасидаги салбий ҳолатлар ва ноижтимоий хулқнинг олдини олишдан иборат.

Мактабда ота-оналарга хизмат кўрсатиш бўйича уларни қизиқтирган масалалар юзасидан маслаҳатлар бериш мақсадга мувофиқдир. Жумладан, оиладаги тарбияси қийин ўсмирларни тузатишда низоли вазиятларга оид ва бошқа кўпгина масалалар бўлиши мумкин. Бугунги кунда ота-она ва болалар ўртасидаги зиддият ва муаммоларни олдини олиш, бир-бирин тушиниш, оилада илиқлик яратиш энг долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Ёш даврининг ҳар бир босқичида ҳам ўтиш даври кечади. Айниқса, кўпчилик ўсмирларда бу даврдаги ўтиш жараёни жуда сезиларли даражада кўзга ташланади. Оддий одамларнинг қарашида ўтиш даври фақат ўсмирлик ёшидагина кузатилади, деган фикр илгари суриб келинган. Аслида эса, ҳар бир даврнинг ўтиш жараёни бўлади. Лекин бу жараён ҳар кимда ва ҳар ўтиш даври турлича кўринишда бўлади. Шунингдек, ўсмирлик даврида бу кўриниш юқори даражада бўлади. Бу ёшдаги болаларга турлича босим ўтказмасдан, уларнинг фикрлари, қарашлари инобатга олинган ҳолда ёндошишни талаб этади.

Шунинг учун ўсмирларда кузатиладиган оғир ўтиш даври муаммоларининг олдини олиш ва уни бартараф этиш мақсадида ота-оналар йиғилишларида маърузалар, тренинг машғулотлари ва коррекцион

машғулотлар билан иштирок этиш зарур. Тренинглар орқали ота-оналарнинг бола тарбиясида йўл қўяётган хато ва камчиликларини кўрсатишлари лозим. Шунингдек, ижтимоий психологик ҳимояга муҳтож ўқувчиларнинг ота-оналарига психологик маслаҳат ишларини ташкиллаштиришлари керак.

Ушбу нуқтаи-назардан мактаб педагогик жамоасининг ҳамкорликдаги ишларни ташкиллаштиришлари юзасидан қуйидагиларни тавсия этамиз:

1. Ўқувчиларнинг ижтимоий малакаси, ижобий қизиқишларини ривожлантириш ва бўш вақтларини ташкиллаштиришга ёрдамлашувчи тадбирларни ўтказиш.
2. Ҳуқуқбузарлик, дарс қолдириш, ўзлаштирмаслик муаммолари бўйича сўровномалар ўтказиш (ташхис қўйиш ва б.).
3. Мутахассисларни жалб қилган ҳолда ижтимоий, тиббий, психолого-педагогик ёрдамга муҳтож болалар ва оилаларни аниқлаш
4. Ота-оналар ва ўқувчилар ўртасида ҳуқуқий тартиб масалалари бўйича тушунтириш ишларини кучайтириш.
5. Мактабда оила ва маҳалла ҳамкорлигида ўсмирлар билан олиб бориладиган тарбиявий профилактика ишларини такомиллаштириш.
6. Фарзандининг ўқиши ва тарбиясида муаммолар бўлган оилаларга ёрдам бериш.
7. Боланинг давомати ва ўзлаштиришига салбий таъсир кўрсатаётган сабабларни бартараф этишга кўмаклашиш.

Болаларнинг ижтимоий-маънавий психологик муҳофаза қилиш учун қуйидаги психологик маслаҳатлар орқали ота-оналар йиғилишларида, мактаб-педагог жамоаларида мактаб амалиётчи психологлари томонидан ота-оналарга ва мактаб педагогик жамоасида ёритилиб бориши мақсадга мувофиқ бўлар эди улар:

- ✓ Болаларнинг бўш вақтларини тўғри ташкил қилиш;
- ✓ Болаларнинг дарс тайёрлаши учун шароитлар яратиш;
- ✓ Бола билан дўстона муносабатда бўлиш;

- ✓ Биргаликда сайр қилиш;
- ✓ Муаммоларни биргаликда ечиш;
- ✓ Соғлом кун тартибини тузиш;
- ✓ Ўз ҳатти-ҳаракатлари орқали болаларга ўрнак бўлиш;
- ✓ Болани қўллаш-қувватлаш;
- ✓ Спорт билан биргаликда шуғулланиш;
- ✓ Оилада бир-бирига меҳрли муносабатда бўлиш.

Кўплаб педагог олимлар томонидан ўтказилган тадқиқот натижаларига ва илмий хулосалари шуни кўрсатадики, болалар ўзлари яшаётган ҳаёти давомида ундаги муҳит ва шароит унинг шахсий характер хусусиятларини намоён бўлишига сабаб бўлар экан. Педагог Дороти Доу Нолтнинг қарашлари ёхуд болалар ўзлари яшаётган ҳаётдан нимани ўрганишлари ҳақида қуйидагиларни хулоса қилади

- * Агар бола танқид билан яшаса, у айблашни ўрганади.
- * Агар бола адоват билан яшаса, у уришишни ўрганади.
- * Агар бола кўрқувда яшаса, у кўрқоқликни ўрганади.
- * Агар бола афсусда яшаса, у афсусланишни ўрганади.
- * Агар болани устидан кўп кулишса, уятчан бўлишни ўрганади.
- * Агар бола қизиқиш билан яшаса, у ҳавас қилишни ўрганади.
- * Агар бола уят билан яшаса, у ҳадик ва айбдорлик ҳиссини ўрганади.
- * Агар бола қўллаб қувватлаш билан яшаса, у ўзига ишонишни ўрганади.
- * Агар бола бағрикенгликда яшаса, у сабрли бўлишни ўрганади.
- * Агар бола мақтов билан яшаса, у қадрлашни ўрганади.
- * Агар бола тан олиш билан яшаса, севишни ўрганади.
- * Агар бола дўстлик билан яшаса, у ер юзи яшаш учун ажойиб жой эканлигини тан олади
- * Агар сиз осойишталик билан яшасангиз, сизнинг фарзандингиз ҳам осойишталикда яшайди.

Мактаб психологи, маънавий-маърифий ишлар бўйича директор ўринбосарлари, синф раҳбарлари ҳамкорликда ижтимоий психологик муаммолари мавжуд бўлган болаларнинг оилавий аҳволини ўрганиши, мактаб билан ота-она ўртасида узвий алоқани ўрнатиши, ўқув фанлари ўқитувчилари билан алоқани мустаҳкамлаши, ўқувчининг дарсга қатнашини кузатиши, дарсдан ташқари фаолиятини назорат қилиши, турли сўровномалар, савол-жавоблар ўтказишлари орқали тарбияси оғир болалар билан ишлаш дастури ва режаларини белгилаб олишлари лозим.

БОЛАНГИЗ ЧЕКСИЗ АХБОРОТЛАР ИСКАНЖАСИДАМИ?

Ўроқова Нафиса Ахтамовна
Бухоро вилояти Жондор тумани 13 мактаб психологи

Аннотация: Дунёда ҳар бир жамият ўзининг тараққиётини белгилар экан авалло, ёшларга эътиборини кучайтиради. Ёшлар тарбиясига муҳтарам Президентимиз алоҳида эътибор қаратаётгани тақсинга сазавордир. Мақолада ёшларимизнинг бугунги ва эртаси ҳақида Президентимизнинг фикрлар ва сўзларидан тўри ва оқилона фойдаланилган ўқитувчи билимдон кўнгли очик, қалби тоза, ақл-заковат соҳиби, юксак салоҳиятли бўлиши билан бирга ўзи тарбияланган, билим ва маҳоратга эга бўлган, ишончли бўлиши ҳалол хизмат қилиши, зиммасидаги масъулиятни доимо ҳис қилиб туриши лозим. У ақлли, тажрибали, ўз ишининг билимдони бўлиши керак, тажрибали устозларнинг фикрига қулоқ солмоғи ва шунга асосланиб хулоса чиқармоғи лозим. Унинг ўқувчиларга муносабати тўғри бўлиши ва тарбиялаши жуда муҳимдир. ўқувчи ўқитувчининг барча қилган ишлари ўқувчилар шахсига ижобий таъсир кўрсатмоғи керак. кимларгадир яхши кўриниш, мақтаниш учун қилинган ишлари келгусида уларни тарбиялашда салбий ҳолатларга олиб келиши мумкин.

Калит сўзлар: Жамият, ёшлар, таълим-тарбия, инсоният, онг, руҳият, истиқлол, мустақамлаш, миллий қадриятлар ,телефон,таълим назарияси, таълим мақсади, таълим вазифалари, таълим мазмуни, рухий бузулишлар.

Халқимиз болажон. Икки киши бир бўлса, фарзанддан гап очилади. Унинг тарбияси, хулқи, қилиқлари ҳақида сўзлайди, шундай фарзанди борлиги учун ич-ичидан ғурурланади. Жигарбандларини мол-дунёю хою ҳаваслардан устун қўядиган халқимиз учун бу бир қадрият, нодир анъана.

Бироқ бу суҳбатлар орасида айримларнинг: “Болам жиззакироқ бўлиб қолган, негадир тез-тез боши оғрийди, иштаҳаси ёмон, инжиқ, кулоқсиз...”, дея нолиши ҳам кулоққа чалиниб туради. Ҳақиқатан, сўнгги пайтларда компьютер,интернет, телефон, электрон ўйинлар туфайли фарзандларимиз чексиз ахборотлар исканжасида қолиб, руҳан тез толиқадиган бўлиб қолган. Хўш, аслида ҳам шундайми? Масалага ойдинлик киритиш мақсадида **Бухоро вилоят Жондор туман кўп тармоқли марказий поликлиникаси асаб касалликлари бўйича невропатолог врач Негмурод Хайруллаевга** мурожаат қилдик.

– Ҳозирги кунда ёш болаларда ҳам асаб бузилиш, жиззакилик, қизиққонлик ҳолатлари кўп кузатиляпти. Бу глобаллашув, техника асрининг таъсирими оилавий муҳит оқибатими?

– Нотўғри тарбия ҳам, бош мия касалликлари ҳам боланинг ҳулқ-атворини кескин ўзгартириб юборади. Чунки бу пайтда мия нафақат анатомик жиҳатдан шаклланади, балки ташқи салбий ва ижобий маълумотлар ҳам хотирада сақланиб қолади. Оқибати эса боланинг хатти-ҳаракатларида, ҳулқ-атворида акс-садо беради.

Болалик ва ўспиринлик даври асосан **тақлидга** асосланишини унутмаслик керак. У ота-онаси, қўни-қўшни ва тенгдошларига, устозидан тортиб, фильм қаҳрамонлари-ю машҳур футболчиларга ҳам тақлид қилади. Афсуски, уларда болага салбий таъсир кўрсатувчи омиллар ҳам йўқ эмас.

Баъзан асабий-рухий бузилишлар болага эътиборнинг пасайишидан юзага келади. Масалан, оилада янги фарзанд дунёга келди ва оиланинг барча аъзолари янги “меҳмон” билан машғул. Бу ҳолат оиладаги бошқа (3-6 ёшли)

фарзандларнинг инжиқ бўлиб қолишига сабаб бўлади. Натижада улар ота-онаси эътиборини жалб этиш учун ўзини касалликка солади, “қорним оғрияпти”, “бошим оғрияпти”, “боғчага ёки мактабга боргим келмаяпти”, каби баҳоналар ўйлаб топади. Бундай пайтда бола ҳақиқатан ҳам касал бўлмаса, уни чалғитувчи усуллардан фойдаланиш мумкин: сайрга чиқиш, ёқтирган ўйинчоқларини олиб бериш ва ҳоказо. Лекин ортиқча талтайтириб юбормаслик, хархашаларига учавермаслик лозим, яъни ҳаддан ортиқ эътибор ҳам унинг мурғак руҳиятига салбий таъсир кўрсатмасдан қолмайди.

– Фарзанд комил инсон бўлиб вояга етиши учун тарбияда нималарга эътибор бериш лозим деб ўйлайсиз?

– Заминимиздан не-не алломаю даҳолар етишиб чиққан, бундан кейин ҳам етишиб чиқаверади. Руҳий ва ақлий тарбияга катта эътибор қаратиш лозим. Халқимизда:

“Бир болага етти маҳалла ота-она”, деган нақл бор. Сир эмас, бугун атрофимизни ўраб турган салбий омилларнинг саноғи йўқ. Енгил-елпи кўрсатув, ахлоқсиз фильм, клип, чўнтак телефонлари орқали тарқалаётган бемаъни SMS ва фотосуратлар, компьютер ўйинлари-ю, айрим интернет материаллари... буларнинг кўпчилигида ёшлар онгини заҳарлашга қаратилган яширин мақсадлар жо бўлган.

Бу жамиятдан ҳам, ота-онадан ҳам ўта зийракликни талаб қилади! Ота-она лоқайдлик қилса, бола ярим тунгача телевизор ёки интернетда бемаъни кўрсатув ёки сайтларни томоша қилиш билан машғул бўлади. Комил фарзандни тарбиялаш учун уни бундай манбалардан чеклаш керак деган тушунчага ҳам бормаслик лозим.

Ғамхўр ота-онанинг вазифаси уни ўраб турган муҳитни соғломлаштириш, салбий таъсирларни имкон қадар камайтириш ва болани маърифатли қилиб тарбиялашдан иборатдир.

Ўсмирнинг мияси кераксиз маълумотларга тўлиб кетгач, ўз-ўзидан салбий ҳолатларни келтириб чиқаради: руҳан чарчайди, жисмонан нимжон, иммунитетни паст, касалликларга мойил бўлиб ўсади. Баъзан “Боламга тинчлантирувчи дори ёзиб беринг, уни ҳеч бошқариб бўлмаяпти” ёки “Фарзандимнинг эслаб қолиш

қобилияти суст, дарсларни яхши ўзлаштира олмаяпти. Бунинг давоси борми?”, деб мурожаат қилувчи ота-оналар ҳам учрамоқда. Буларнинг бари информациялар таъсири-ку. Табиийки, ҳали 10 ёшга тўлмаган болага асабни тинчлантирувчи дори бериш унинг ақлий ривожланишига салбий таъсир қилади. Бу борада энг мақбул “муолажа” уларнинг ҳаёт тарзини яхшилашдир.

Бундан 3-4 йил олдин ўзини осиб қўйган 11 яшар болани менга олиб келишувди. Уни онаси кўриб қолган ва дарров бўйнидан арқонни ечиб олган. Бироқ, болада оғир асорат қолади. Бир неча сония мияга кислород ва қон бормаи қолган болада энг оғир касаллик, яъни “апаллик синдром” ривожланади. Бу синдромда боланинг фақат ички аъзолари ишлайди холос. Бироқ у гапирмайди, чайнов ҳаракатларини бажара олмайди, иккала қўли ва оёғи ишламайди, умумлаштириб айтганда инсон учун хос бўлган барча олий руҳий функциялар ва ҳаракат, сезги фаолияти бутунлай издан чиққан эди. Ота-она болани умид билан Тошкентга олиб келишган. Мен уларга даволаш энди бефойда эканлигини тушунтирдим. Ҳали 11 ёшгача ҳам тўлмаган бола аслида ўзини осмаслиги керак, ахир у ҳали балоғот ёшига етмаган. Бу воқеа нега рўй берди ёки кўп уришармидинглар, деб сўрадим. Ота-онаси: “Хатто бармоғимиз билан ҳам чертмасдик, ўзимиз ҳам билмаймиз нега боламиз бу мудҳиш ишга қўл урди, ўзимиз ҳам сабабини билолмай куйиб юрибмиз”, дейишди. Мен улардан мактабда ёмон воқеа бўлмадими, ҳеч ким уни кўрқитмадими, деб сўрадим. Бу саволимга ҳам “Йўқ” деб жавоб беришди. Уйда нима билан шуғулланарди, компьютер ўйинларига борармиди, DVD дискларда кинолар кўрармиди, деб сўрасам. Ойиси: “Э тўхтанг, у доимо кўрқинчли кинолар кўрарди, қаерда кўрқинчли фильмлар бўлса, уни сотиб олиб келиб кўрарди, бизларга ҳам сўзлаб берарди, баъзан ҳаёлга чўмиб қоларди”, деди. Мен “Болангиз нега ўзини осгани сабаби энди тушунарли” дедим. Онаси “Нахотки ўша кинолар таъсир қилган бўлса, ахир у бор-йўғи киноку” деди йиғламсираб. Мен унга ёмон фильмлар ва ўйинларнинг инсон руҳиятига (хатто катталарнинг) ўта оғир салбий таъсир кўрсатишини, хаттоки инсоннинг бутун тақдирини издан чиқариши мумкинлиги ҳақида тушунтирдим. Шунинг учун ҳам__турли каналлар орқали берилаётган кўрсатувларда қайси

ёшдан бошлаб кўриш мумкинлиги ёзилади, яъни 12+, 16+ ва ҳ.к. бу аянчли воқеа барча ота-оналарга ўрناк бўлади, деб ўйлайман. Болангиз қандай дисклар кўраётганлигини текшириб тулинг. Жигарбандингиздан ажралиб қолманг ёки кўйнингизда жохил одамни тарбиялаётган бўлманг.

– Ҳаёт тарзини қандай йўллар билан соғломлаштирган афзал?

– Энг аввало, болани спортга қизиқтириш лозим. Бугун нафақат шаҳар, балки чекка туманларда ҳам замонавий спорт иншоотлари фаолият олиб бормоқда. Спортга ошно бўлиб ўсмаган бола эртага шифокорга серқатнов бўлиб қолиши кўп кузатилган. Спорт – асабни тинчлантиради, юракни бақувват қилади, хотирани яхшилади, ҳатто иштаҳани ҳам очади. Тарбиявий аҳамияти беқиёс. Масалан, сузиш, футбол, ушу ёки таэквандо каби спорт турларига қатнаётган болага панд-насихатлар қилавериш ёки асабни тинчлантирувчи дори беришнинг умуман кераги йўқ. Спортнинг ўзи уни тарбиялайди. “Боламга дори ёзиб беринг”, деб келганларнинг кўпчилиги фарзандини спорт тўғарақларига бериб, хурсанд бўлиб юришганига кўп гувоҳ бўламан.

Шу ўринда айтишни хоҳлардимки, хулқ-атвор касаллик эмас, уни салбийлиги учун даволаб бўлмайди. Уни фақат яхши амаллар орқали ижобий ҳолатга келтириш мумкин. Лозим бўлса, психолог билан маслаҳатлашишни ҳам қанда килмаслик лозим .

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5635-сон Фармони, Тошкент ш., 2019 йил 17 январ. 2-б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-60-сон Фармони, Тошкент ш., 2022 йил 28 январ. 13- б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2019-йил 3-майдаги ПҚ-4307-сон қарори.
4. Хушвақтов Н., Болтаев А. Талабаларда миллий-маънавий қадриятларни шакллантиришда янги ахборот технологияларидан фойдаланиш самарадорлиги // Халқ таълими. –Т.: 2011, №4. – 44-б.

5. Исломов Г.Т. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда ўзбек халқ педагогикаси манбаларидан фойдаланишнинг педагогик асослари. – Пед. фан. номз. ... дис. – Т.: ЎзПФТИ, 2007. – 156 б.

6. Худойкулов Х.Ж.Миллий ғурур-маънавий комиллик мезони. –Т.: Навруз, 2011 й.

7. Худойкулов Х.Ж.Толибнома.-Т.: Инновация-Зиё,2021 й.

KASB-HUNAR MAKTABI O'QUVCHILARINING TA'LIM MOTIVATSIYASINING O'ZIGA XOSLIGI

Urazbayeva Yulduz Abdullayevna
Beruniy tuman 1- son kasb – hunar maktabi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quv motivatsiyasini tadqiq qilishning o'ziga xosligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Psixologiya, shaxs, motiv, motivasiya, ta'lim

Bugungi kunda mustaqil fikrlaydigan, ijodiy faoliyat yuritadigan o'quvchilarni tarbiyalash asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishga intilib yashash bizning milliy xususiyatlarimizdan biridir. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, qayerda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha yerda taraqqiyot, yuksalish yuqori bo'ladi.

Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Inson hayoti davomida qandaydir faoliyatni amalga oshirar ekan, faoliyatni samarali bo'lishi insonning mazkur faoliyatga nisbatan intilish, hohish yoki istaklariga bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda motivatsiya masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda bo'lg'usi mutaxassislarning kasbiy motivatsiyasini o'rganish va ta'lim jarayonida buni inobatga olish zaruriy shart hisoblanadi.

Motivatsiya shaxsning keng va murakkab sohasi bo'lib, inson kamolotida muhim o'rin tutadi. Eng keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra, motiv - bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir [1], [4].

Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi :

A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidir. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, motiv bu ehtiyojlarning his qilinishi va qondirilishidir. S.L.Rubinshteyn: "Motivatsiya – bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadir" [4 .b.270].

Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi.

Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi. [1].

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zida mayillar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi. Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir [2]. Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi ma'lum savol psixologlar tomonidan ifodalab berildi. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomonga e'tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya va xulq-atvorga taqsimlaydilar.

O'qish faoliyatidagi motivlar muammosi chet el psixolog olimlari E.Torndayk, Z.Freyd, U.Makdugal, U.Kennedi, G.Vilkott, S.Tompson, G.Xannikatt, R.Vudvords, A.X.Maslov, G.Olport, V.Vundt, K.Levin, G.Kelli ishlarida; Hamdo'stlik davlatlari olimlaridan P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev, V.V.Davidov, L.V.Zankov, D.N.Uznadze, D.B.Elkonin, L.I.Bojovich, V.G.Aseev, P.M.Yakobson, A.V.Zaporojest, P.Ya.Galperin, A.K.Morkova, N.E.Efimova M.V.Matyuxina, N.F.Talizinalar tomonidan o'rganilgan.

Bu muammo respublikamiz olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.A.Tokareva, R.I.Sunnatova, A.A.Fayzullayev, A.Jaborrov, E.Z.Usmonova, A.K.Saitova, F.I.Haydarovalarning ishlarida ham ko'rib chiqilgan.

Psixologik malumotlarga ko'ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'zlashtirish, egallash va o'rganishni ta'minlash uchun o'quvchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart.

Bilish motivlari shaxsning (subyektiv) gnoseologik maqsad sari, ya'ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiriladi. Odatda bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tashqi va ichki nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi [2].

Tashqi motivlar jazolash va ta'kidlash, xavf-xatar va talab qilish, guruhiy tazyiq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo'lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o'ta muhimroq boshqa, hukmron maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki nohush, noqulay vaziyatdan qochish, ijtimoiy yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaqqatga erishuv muddaosi mavjudligi va xakazo). Bu turdagi yoki jinsdagi tashqi motivlar ta'sirida ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallash (o'zlashtirish) da qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy maqsadi o'qish emas, balki ko'proq o'yin faoliyatiga moyillikdir. Mazkur vaziyatda o'qituvchining o'qishga ularni jalb qilish niyati o'quvchilarning o'yin maqsadining ushalariga halaqit berishi mumkin, lekin izoh talab dalillar yetishmaydi [4].

Motivlarning navbatdagi toifasiga, ya'ni ichki motivlar turkumiga individual xususiyatli motivlar kiradiki, ular o'quvchi shaxsida o'qishga nisbatan individual maqsadni ro'yobga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida paydo bo'ladi. Chunonchi bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma'naviy darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning yetilishidir. Bunga o'xshash motivlarning ta'sirida o'quv jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar yuzaga kelmaydi. Albatta bunday toifaga taalluqli

motivlar paydo bo'lishiga qaramay, ba'zan qiyinchiliklar yuzaga kelishi ehtimol, chunki bilimlarni o'zlashtirish uchun irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Bunday hossalarga ega bo'lgan irodaviy zo'r berishlar tashqi halaqit beruvchi qo'zg'atuvchilar kuchi va imkoniyatini kamaytirishga qaratilgan bo'ladi. Pedagogik psixologiya nazaridan ushbu jarayonga yondashilganda to'laqonli vaziyatgina optimal deyiladi.

Ta'lim jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglashilgan motivlar o'quvchilar xulq-atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shaxsini shakllantirishga, ularda maqsad qo'ya olish, qiziqishni uyg'otish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi [3].

Aniq narsalar, hodisalar va xatti-harakatlar insonning faolligi muayyan manbalar bilan uzviy bog'lanishga ega bo'lsa, uyg'unlashib borsa faoliyat motivlari darajasiga o'sib yetadi.

Demak, ta'lim jarayonida ta'lim motivatsiyasining o'rni butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan va har tamonlama o'rganilgan. O'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'quv motivatsiyasining ro'li benihoya kattadir. Chunki o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini motivatsion soha orqali rivojlantirilsa, samarali natijalarga ega bo'lish mumkinligini olimlar o'z tadqiqotlarida isbotlab o'tganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G "Umumiy psixologiya" Toshkent - 2002 y. - 218 b.
2. Jo'rayev N.S. "O'quv motivlarini shakllantirish" .- Toshkent: TDPU.2008.-62 b.
3. Nishonova Z. U, Kamilova N. G', Abdullayeva D. U, Xolnazarova M. X. "Rivojlanish psixologiyasi" . Toshkent. 2017 y - 438 b.
4. F. Xaydarov , N.Halilova "Umumiy psixologiya" . Toshkent 2010. – 330b.

YOSHLARNING DUNYOQARASHI VA XULQ-ATVORIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLAR

*Abduqunduzova Shahzoda Nasvaliyevna
Namangan viloyati Chust tuman 41-maktab psixologi,
Karimova Yoqutxon Muhammadjonovna
Namangan viloyati Chust tuman 21- maktab psixologi*

Darhaqiqat, XXI asrda dunyo rivojlanishi yangi bosqichga qadam qo'ydi. Endilikda respublikamizda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar mohiyatida ma'daniy-ma'naviy yuksalish extiyojining ortib borayotgani ayniqsa, birlamchi ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday, keng miqyosli o'zgarishlar davrida yoshlarning dunyoqarashi va hulq-atvoriga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, tahdidlar ham ortib bormoqda. Ushbu maqolamda men maktabning amaliyotchi psixologi sifatida, yoshlarning dunyoqarashi va hulq-atvoriga ta'sir etuvchi dastlabki omillardan biri, televizor va uning oila munosabatlariga ta'siri haqida to'xtalib o'tmoqchiman.

Uyingizda televizorning pulti kimda? Uyda pult kimning qo'lida bo'lsa, oilada boshliq, ya'ni rahbar ham o'sha bo'ladi. Shu kunlarda oilada kimning gapi o'tishini televizor pulti kimning qo'lida ekanligiga qarab bilib olish mumkin. Uyda farzandlaringiz bilan suhbatlashib o'tiribsiz. To'satdan chiroq o'chib qoli. Darhol sham olib yoqdingiz. Barchangizda sal avvalgi, jonlilik va harakatchanlik yo'qoldi. Bolalarga ba'zi so'zlarni aytingiz. Ko'p o'tmay aytadigan gapingiz tugadi. Uyga chuqur sukunat cho'kdi. Go'yo uydagi eng asosiy narsa yo'qolib qolganday. Rozi bo'ling, televizorsiz hayot to'xtab qoladi, to'g'rimi. Unga shu qadar o'rganib qolganmizki, televizor hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylangan. Ertalab uyg'onishingiz bilan yoki ishdan qaytishingiz bilan kelib, televizorni yoqasiz. Televizor ovozi sizga hamroh bo'ladi. Biroq qachongacha?

Insonlar uyda ekanliklarida ko'p vaqtlarini televizor qarshisida o'tkazadilar. Inson sigaret, sipirtli ichimlik va narkotika singari moddalar bilan o'ziga zarar berayotganini bilgani uchun ularga qarshi kurashadi. Eng katta vaqt o'g'risi sanalgan, oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan so'zlar orqali emas, xatti-harakatlar

orqali gapirishga majbur qiladigan, televizor haqida ham xuddi, shu so'zlarini be'malol aytish mumkin.

Qurbaqa va chelak haqida hikoya bor.

Harakatchan bir qurbaqani bir chelak issiq suvga tashlasangiz, qurbaqa nima qiladi? Tashqariga chiqishga intiladi. U: “Bu yer zerikarli ekan, men ketaman”, deydi. Shu qurbaqani bir chelak sovuq suvga solib, suvni sekin-asta isitsangiz, nima bo'ladi? Qurbaqa bo'shashadi... Bir necha daqiqadan so'ng o'zicha: “Bu yer iliqqa o'xshaydi”, deydi. Ko'p o'tmay qurbaqa pishib qoladi. Xayot pillapoyalardan iborat. Qurbaqa singari bizni ham aldashlari va so'nggi daqiqada kech bo'lishi mumkun. Shu sababli atrofimizda nimalar bo'layotganini anglab olish lozim. Muntazam ravishda televizor ko'rishning badali juda og'ir bo'ladi. Qanday deysizmi? Televizor ko'rilgan har bir soat yangi kashfiyotlarning yaratilishiga, birgalikda o'ynab-kulishga to'sqinchilik qiladi. Ba'zida o'quvchilardan so'raymiz: “Oila azolaringiz bilan vaqt o'tkazasizlarmi? Nimalar qilasizlar?” Beriladigan javoblar esa juda qiziq: “Biz kechqurunlari popko'rn olib, birgalikda o'tirib, televizor ko'ramiz”. Demak, insonlarning oila sifatida to'yishlari bo'lgan eng katta baxt televizo'rga aylangan. Avallari bola amakiga, tog'aga, ammaga, xolaga o'xshar edi. Chunki, bolalar ular bilan muntazam ravishda mustaxkam munosabat ichida edilar. Endi esa bolalar “televizor xola”siga yoki “amaki”siga o'xshamoqda. Sochlarini televizorda ko'rganidek kestirib, kiyim va so'zlarni ham shunga qarab tanlashmoqda.

Yurtimizning har javhasida bir xil madaniyat yoyildi. Qanday madaniyat deysizmi? Televizor madaniyati. Bu madaniyatning zudlik bilan yoyilishi hududlarora madaniy farqlanishlarning yuqolishiga sabab bo'lmoqda.

Bugun o'rta yoshda va undan katta yoshda bo'lgan kishilar televizor bilan ulg'aymadilar. U paytlar televizor yoki telefon yo'q edi, oq qora televizorlar bor edi. Yangi avlod tug'iliishi bilan unung hayotiga televizor kirib kelmoqda. Masalan, bola ovqatini yemasa televizor yoqilib, unga ovqatini berishga harakat qilinadi. Ya'ni, bola televizor bilan ulg'ayishni boshlaydi. Televizor bilan ulg'ayishning salbiy ta'sirlarini biz hali to'liq anglab yetganimiz yo'q. Uch yoshgacha televizor ko'rgan bolalarda otistik xususiyatlar ko'p uchraydi. Ba'zi ota-onalar “Bizning farzandimiz juda aqlli.

Reklama boshlanishi bilan uning musiqasidan qaysi reklama ekanini bilib oladi”, deyishadi.

Yustin Hoffmanning “Yomg’irli odam” filmini ko’rgan bo’lsangiz kerak. Bu film otistik bir bola haqida. Bolada turli hususiyatlar bor. Yerga tushgan bir talay gurgut cho’plarini bir lahzada sanay oladi. Mashinalarni nomerlarini eslab qoladi. Mana shu shingari, bir qator hususiyatlarga ega. Biroq bu hususiyatlar bolaning juda aqlli va zehqli ekanini ko’rsatmaydi.

Agar farzandingiz 25 yoshga kelganida mast holatda avtohalokatga uchrashini, uylanib bola chaqali bo’lganida ko’p ichgani sababli davolash stoliga o’tirishini istamasangiz, marhamat qilib bolaligida u ko’rayotgan televizor dasturlarini kuzating. Ota-onalar farzandlarining bir soniyasi ham bo’sh o’tirishini istamaydi. Maktabdan kelishi bilan “Otir, ovqatingni ye, televizor ko’r, istasang kompyuter o’yna, darslaringni qil”, singari mashg’ulotlar yuklashadi. Buning o’rniga o’tirib farzandingiz bilan biroz suhbatlashing. Ba’zi ota-onalar bolalari bilan suhbatlashishni, ularga kitob o’qib berishni, vaqtni bekorga o’tkazish deb hisoblashadi. Vaholanki, farzandlarimiz o’z qobilyatlarini ishlatib yangilik yaratadigan payt bu-ularning ilm va sokin holatda o’tirib, fikr yuritadigan paytlari sanaladi. Kichik bolalardagi eng muhim hususiyatlardan biri, ularning hayolat dunyosining kengligidir. Farzandingiz biror narsadan zavq tuyushini istasangiz, ularning hayol kuchini rivojlantirishga yordamlashing. Ba’zi, bir bolalar televizor sababli odamovi bo’lib qolishadi, ko’chada o’rtoqlari bilan o’ynash o’rniga televizor va kompyuter qarshisida o’tirishni ma’qul ko’rishadi. Bu holat ko’pincha ota-onaga yoqadi. Lekin televizor bolani zehniy jihatdan passiv holatga keladi. Amerikada bolalarga uchta tanlov berilgan. Ota-ona va televizor. Uydan qaysi biri ketsin? Qizig’i bolalarning ota-onasi bilan televizordan birini tanlashga qiynalishlari va bir guruh bolalarning ota-onalari ketishini istashlari...Bu aslida, fojea edi.

Bir necha yil ilgari Arnold Shvarsnegr o’ynagan bir filmda Arnold mashinasini olib qochgan qizining ortidan baqiradi, so’ng o’ziga-o’zi: Buning onasi juda yaxshi ayol, men ham yaxshi insonman, ammo bu qiz kimga tortdi. Madonna holasiga yoki Maykl Jekson amakisiga totrgandirda. Farzandingizni xatti-harakatlarida siz izohlab bera olmaydigan, sababini topa olmagan salbiy holatlar bo’lsa va ularning kimligining

ta'sirida bu harakatni amalga oshirayotganini bilmasangiz, ular bilan birga televizor ko'ring. Shunda uning kimdan ta'sirlanayotganini bilib olasiz. Televizorda baxtning birdaniga boyib ketish, loteriyadan pul yutib olish singari, sabablarga bog'lanishni ko'rgan bola oddiy hayotda mayda narsalardan saodat topish tuyg'usini yuqotadi. Baxtni televizordan qidiradi. Televizorning bolalar va yoshlarga eng katta salbiy ta'siri, ularni faol ishtirok etishlari lozim bo'lgan va zehniy tajriba talab etadigan xatt-harakatlardan uzoqda tutib, passiv holatga tushurib qo'yishidir. Chunki, televizor ko'rish ortiqcha harakatlanishni talab etmaydi. Shu sababli ertaning egalari bo'lgan bolalar tashabbuskorlik va g'ayrat husisiyatlarini yo'qotadi.

Televizor bolalarda zo'ravonlik kayfiyatining ortishiga sabab bo'lmoqda. Hatto multfilmlarda zo'ravonlik sahnalari mavjud. Multfilm qahramonlari yerga uriladi, ammo hech narsa bo'lmaganidek yana o'rnidan turadi. "O'rgimchak odam" multfilmini ko'rgan bola o'zini 7-qavatdan tashlagan edi. Nima sababdan? Chunki, u ko'rgan film qahromonlari yuqori qavatlardan sakrasalar-da, ularga jin ham urmas edi. Bunday filmlarni ko'rgan bola zo'ravonlik qilinsa hech narsa bo'lmaydi degan qarorga keladi. Masalan, qo'shni bola yoki qarindoshi bilan o'ynayotganda zo'ravonlik qilishga urinib ko'radi. Barcha aybni televizorga ag'darish to'g'ri bo'lmas, balki oila muhitidagi zo'ravonlik bolani o'rab olgan muhit ham bunga sabab bo'lishi mumkin.

Televizordan foydalanish yo'li: Televizorni butunlay inkor etmoqchi emasmiz. Ammo, uni foyda-zararini taqqoslash o'zingizga havola. Masalan, dinamit yaxshimi yoki yomonmi? Agar biror uyning tagiga qo'yib, uni yer bilan yakson qilinsa, dinamit yomonlikka hizmat qiladi. Biroq, yo'l sozlikda, qoyalarni yo'ldan olib tashlashga dinamitning foydasi katta. Siz ham televizorga mana shu tarzda yondashing. Bola ma'lum yoshga to'lsa balki, zarar bo'lmas. Ammo, shaxsiyati endigina rivojlanayotgan, tafakkur dunyosi endigina shakllana boshlagan kichik yoshdagi bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq. Televizor foydalimi yoki zararmi? Bunga o'zingiz qaror qiling. Maslahatimiz, biror kunni belgilang va oilaviy biror ish bilan mashg'ul bo'ling. Agar farzandingizni kamroq televizor ko'rishini istasangiz, o'zingiz ham televizor ko'rishni kamaytiring. Bola uchun tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi mashg'ulot bilan band bo'lishga

harakat qiling. Chunki, farzandlarimiz bizni o'zlari uchun ideal darajasidagi insonlar deb bilishad.

XALQ TA'LIMI SOHASIDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH TIZIMINI JORIY QILISH ASOSLARI

*Eshchanova Xolida Xudayarovna
Xorazm viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi,
Xusainov Sherzod Yusupovich
Urganch tuman 11-son maktabning matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada xalq ta'limi xodimlarining malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish traektoriyasiga mos keladigan zamonaviy yondashuvlar bo'yicha o'qitish amaliyoti yuzasidan fikr-mulohazalar berilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы об уровне квалификации, знаний, научно-педагогическом потенциале педагогов, опыте работы, психологической подготовке и педагогической практике по современным методам и подходам, соответствующих траектории индивидуального профессионального развития.

Annotation: The article provides feedback on the courses of qualification, knowledge, scientific and pedagogic potential, psychological training of work experience and modern approaches to the individual training traject.

Bugungi tahlikali zamonda, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatning taraqqiyoti va kelajagi sifatli ta'lim bilan, kelajak avlod bilan bog'liq. Ta'lim sifatini, hususan sifatli maktab ta'limini tashkil etish bir qator muhim omillarga bog'liq. Dastavval, maktabda ta'lim sifati eng avvalo shu maktabda ishlayotgan o'qituvchilar sifati va saviyasiga bog'liq. Zero, ta'lim sifati - o'qituvchi sifatidan yuqori bo'la olmaydi. Shu sabab, ta'lim tizimida birinchi galda maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning sifat tarkibini yaxshilash va ularning doimiy malakasini oshirish, ular

uchun uzluksiz metodik yordam ko'rsatish tizimini joriy etish bo'yicha bir qancha amaliy jarayonlar faoliyatga tatbiq qilinmoqda[6].

Xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish tizimi keyingi yillarda tubdan takomillashtirilganligiga qaramasdan, pedagog xodimlarning kasbiy ehtiyojlarining to'liq qondirilishi, mobillik darajasining pastligi, ularda yetarlicha motivatsiyani shakllantirish, o'quv reja va dasturlarni aniq manzilli qilib yaratish va uzluksizlikni ta'minlash imkoniyatini yetarlicha bermayapti. Tahlillar ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan rahbar va pedagog xodimlarning o'z ustlarida muntazam ishlash, kasbiy bilimlarini uzluksiz yangilash va chuqurlashtirish, zamon talablari asosida kompetentsiyalarni o'z vaqtida rivojlantirish ishlarini har 3-5 yilda olib boriladigan malaka oshirish jarayonidagina amalga oshirib bo'lmasligini ko'rsatdi. Bu esa yosh avlodga zamonaviy ta'lim-tarbiya berish, ularni barkamol qilib shakllantirish, Davlat ta'lim standartlarining to'liq bajarilishiga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatdi[2].

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida pedagog xodimlar kasbiy kompetentligini oshirishga yangicha munosabat bildirish va sohada ijobiy o'zgarishlar uchun zaruriy asosni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2021-yil 25- yanvarda "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori, ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 17-yanvarda "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida" NIZOM qabul qilindi.

Yuqorida qayd etilgan xujjatlarga asoslanib, xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish bo'yicha ehtiyojlari o'rganildi hamda «Uzluksiz kasbiy ta'lim» maxsus elektron platformasi orqali ularning individual kasbiy rivojlanish traektoriyasi tuzildi. Xalq ta'limi xodimlarini malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish traektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yildi. An'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning

uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlari joriy etildi[1].

Bugungi kunda malaka oshirish sohasidagi zamonaviy yondashuvlardan biri masofaviy ta'limni joriy qilishdir. O'zbekiston sharoitida bosqichma-bosqich tarzda o'qituvchilarning malakasini masofadan o'qitishni tashkil etishning ko'plab ijobiy tomonlari mavjud. Chunki, hozirda nafaqat rivojlangan balki, qator rivojlanyotgan davlatlar ham masofadan malaka oshirish tizimini joriy etishga intilmoqda. Shular qatorida O'zbekiston ta'lim tizimida ham islohotlar amalga oshirildi. Xozirgi kunda amaldagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ta'lim shakllari tarkibiga ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olishga sirtqi, kechki, masofaviy ta'lim shakli ham kiritildi. Shu o'rinda, "Masofaviy ta'lim o'zi bu qanday ta'lim va uning dunyoda qanday turlari mavjud?"-degan savollarga javob topish maqsadga muvofiq[3].

Masofaviy ta'lim bu – ta'lim beruvchi (instruktor, trener) va ta'lim oluvchining bir-biridan ajralgan holda amalga oshiriladigan rejalashtirilgan bilim olish tajribasi yoki usulidir. Masofaviy ta'lim tizimi doirasida axborot almashinuvi va muloqot chop qilingan materiallar yoki elektron media vositalari orqali amalga oshiriladi[4].

Bugungi kun ta'labidan kelib chiqib, xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish tizimida masofaviy ta'lim turini, xajmini kengaytirish quyidagi muammolarni oldini oladi.

- Byudjet mablag'larining salmoqli qismi tejaladi
- Malaka oshirish davrida o'qituvchilarning ayni fanni o'zlashtirib olishlarida ta'sir etuvchi salbiy psixologik ta'sirlarga chek qo'yiladi.
- Pedagoglarning axborot kommunikatsion texnologiyalar bo'yicha bilimlarini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimi pedagoglari hamda, tinglovchilarning kasbiy kompetensiyasini yanada oshirishda turli usullardan, ayniqsa masofaviy ta'lim shaklidan foydalanishlari samarali hisoblanadi. N.A.Muslimov o'zining tadqiqot ishlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganlik asosini oltita sifat ko'rinishida ta'kidlab o'tgan, bular:

- motivatsion xislatlar;

- intellektual salohiyat;
- irodaviy sifatlar;
- amaliy ko‘nikmalar;
- hissiy sifatlar;
- o‘z-o‘zini boshqara olish [5].

Pedagog o‘zida kasbiy kompetensiyani shakllantirishda o‘z ustida ishlashi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi ahamiyatlidir. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini- o‘zi tahlil qilish va o‘zini-o‘zi baholash orqali aniqlanadi. «Uzluksiz kasbiy ta’lim» maxsus elektron platformasi orqali ularning individual kasbiy rivojlanish traektoriyasi joriy qilinishi pedogoglarni o‘z ehtiyojlariga mos ravishda malaka oshirishlarini ta’minlaydi. Natijada xalq ta’limi xodimlarining kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi va malaka oshirish tizimi «hayot davomida o‘qish» tamoyili asosida tashkil qilinmoqda. Mazkur tizimning qulayliklari shundaki, o‘qituvchi bundan keyin besh yilda malaka oshirishni kutib o‘tirmasdan, har yili o‘z ustida ishlashi, yangi bilimlar olishi mumkin. Bundan tashqari o‘qituvchi turli xil sinov, imtihonlardan ozod etiladi. Malaka oshirish kurslari mazmuni o‘qituvchiga, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan tamoyil asosida yaratilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, pedagog xodimning uzluksiz malaka oshirishini amalga oshirish, shaxsiy malaka oshirish yo‘nalishini mustaqil tuzish, shaxsiy yoki ta’lim muassasasi ehtiyojlariga asoslanish, pedagog xodim uchun maqbul variant va muddatlarni belgilash, umumiy qilib aytganda, xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish tizimiga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilish va uni muvofiqlashtirib borish ta’lim sifati va uning mazmun-mohiyatini yanada takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori.

2. Gafurov K.N. Malaka oshirish tizimini takomillashtirish jarayonida uzluksizlikni ta’minlash mexanizmi // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2017. № 9. – B. 3-9.

3. Safarov O.A. Xalq ta'limi sohasida malaka oshirish tizimini innovatsion boshqarishning afzalliklari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2016 yil № 1.– B. 1-6.

4. Commonwealth of Learning. (2008). Education for a digital world: Advice, guidelines and effective practice from around the globe.

5. Muslimov N.A., Abdullayeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2013. – 83-b.

O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Jumaniyazova Shaxnoza Shavkatovna
Xiva tumani 2-maktab psixologi

Inson dunyoga kelgandan keyin tirikchilik o'tkazish uchun albatta biror kasb hunar bilan mashhur bo'ladi. Busiz inson umrida ma'zmun ma'no yo'q faoliyat ko'rsatishi inson hayot yo'lining zaruriy shartidir. Dunyoda esa kasb-hunarlar juda ko'p. Kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakllantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb –hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsini kasbga yo'naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq xo'jaligi manfaatlarini nuqtai nazardan mehnat reurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogic asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash mezon

va me'yorining belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir. Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkonoyatlarini baxolay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishi mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axbort va yangiliklardan habrdor bo'lishi zarur. Shuningdek, o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, ushbu jarayonni ta'lim muassasalarida amalga oshiruvchi o'qituvchilar, pedogog hodimlar hamda aholi o'rtasida(mahalla, otanonalar) profilaktika ishlarini olib borish maqsadida hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bularning zamirida o'quvchi yoshlarni kasbiy qobiliyati va layoqatini aniqlash asosida ularni kasbiy qarorlarini shakllantirishga qaratilgan yaxlit faoliyat jarayonida ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'g'ri yo'naltirish yotadi. O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakllantirish-bu o'quvchi-yoshlarga o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amalyotga malakali mutaxassislar ko'magida kasbga bo'lgan layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatleri (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hakoazalar)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb hunarga to'g'ri yo'nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli dialektik jarayon bo'lib,uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Mavjud obektiv va subektiv omillardan unumli faydolana olish ham o'quvchilarga kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga hissa qo'shadi. Shundagina o'quvchilar shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etish, o'z fikirini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zining imkoniyatlari, qobiliyatlari, moyilliklari va kasb tanlash motivlari haqida bilmaslik bu bir ko'rinishda oson narsa emas. Bundan tashqari ko'pgina o'quvchilar o'zlarining kamchiliklari va zaif tomonlari haqida bilishdan cho'chiydilar. Buning uchun ular haqiqatni bilish uchun o'zlarida jasorat topa olishlari, aql-zakovatni ishga solib xatolarni tuzatishga intilishlari lozim. Bitiruvchining o'zini anglashida tengdoshlari, yaqin insonlari va albatta kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar yordam beradilar. Kasb tanlashda yo'l qo'yiladigan tipik xatolarni bilish sizni ortiqcha yoki noto'g'ri qadam qo'yishingizdan himoya qilib,

vaqtingizni tejab, o'zingizning imkoniyatlaringiz, qiziqishlaringizga mos kasbni tanlashingizga yordam beradi. O'quvchilarni kasb tanlashda fiziologik holatlarini e'tiborga olish kasb tanlashda o'quvchilar qobiliyatlaridan tashqari salomatlik holatini ham hisobga olishlari zarur, chunki kasb tanlovchilarning barchasi ham sog'liklarini e'tiborga olgan holda kasbni to'g'ri tanlaydi deb bo'lmaydi. Kasbning nufuzliligi u yoki bu holda Siz tomoningizdan inobatga olinadi, lekin buni o'zingizning qiziqishlaringiz va qobiliyatlaringiz, sog'lig'ingizning holatini hisobga olgandan so'ng amalga oshiring. Mehnat birjasidagi bo'sh o'rinlar to'g'risidagi gazetalarni tahlil qilish juda foydali, u yerda odatda har bir bo'sh o'rin uchun qaysi ta'lim yo'nalishidagi mutaxassis kerakligi ko'rsatiladi. Shunday kasblar borki, ular Sizga mos kelmaydi, chunki ular sizning sog'lig'ingizni yomonlashtirishi mumkin. Bunday kasblar ko'p emas va ular asosan u yoki bu jismoniy tizimlarning uzoq muddatli zo'riqishini talab etadi.

Ma'lumki, hamma kasblar uchun bir xilda ta'luqli bo'lgan odob-qoidalar yoki madaniyat mavjud. Masalan, o'qituvchining kasb madaniyati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchi nafaqat bilimdon, balki tarbiyalangan, ya'ni madaniyatli ham bo'lishi lozim. Demak, mamlakatimizning buyuk kelajakini yaratuvchi yoshlarni tarbiyalovchi mutaxassis xodimlar, eng avvalo, insoniy sifatlar sohibi bo'lishi, kasb madaniyatini mukammal egallashlari lozim. Pedagog kadrlarni kasb mahoratini oshirishni, kasb madaniyatini yuksaltirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Buning uchun esa o'quv tarbiya muassalarda o'qituvchining kasb mahorati va kasb madaniyati haqida tez-tez kengash va suhbatlar o'tkazib turish ma'ruzalar o'qish foydadan holi bo'lmaydi. O'qituvchilar zamon talablaridan kelib chiqqan holda o'z faoliyati va bilimlarini nazorat qilish va baholash, xatolarini tahlil qilish, o'ziga o'qituvchilik sifatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini qayta tayyorlash va tarbiyalash imkoniyatlariga duch keladi. Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya ishi nafaqat vatanimiz kelajaki bo'lishi yoshlar hayotida, balki har bir kishi faoliyatida, umuman jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tizimda o'ta ahamiyatlidir. Ta'lim-tarbiyasiz kelajakda o'z samaralarini beruvchi islohat yo'q. Axloq va madaniyatni yuksaltiruvchi vosita ta'lim-tarbiyadir madaniyatsizlik esa illat. Ijtimoiy hayotni takomillashtirish uchun insonning o'zi axloqiy jihatdan komol topishi lozim inson butun hayoti orqali butun

umri mobaynida tarbiyalanadi. Inson o'z umrining har bir davri, yani bolalik, o'smirlik, yoshlik, yetuklik, qarilik chog'ida o'ziga xos axloqiy olamga ega bo'ladi. Buni yaxshi tushunmagan kishi turli yoshdagi odamlar bilan muloqat qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Kasbiy madaniyatga hamisha uni shakllantiruvchi ma'naviy asos mujassam bo'ladi. U hamisha g'oyalar, bilimlar, inson maqsadlarining ramziy ifodasidir. G'oyasiz, bilimsiz, maqsadsiz, kasbiy madaniyat ham shakllanmaydi. Ma'naviy madaniyat maxsulida esa moddiy shakldagina o'z ifodasini topadi. Ular huddi ana shu tarzda moddiylashadi va ijtimoiy hayot damiga aylanadi. Kasb madaniyati mohiyatini aniqlashtirib, aytishimiz mumkinki, kasb madaniyati yoki madaniyatining har qanday tashqi ifodalanishini insonning rivojlanish yoki kamolati darajisini ko'rsatadi. Demak madaniyat inson kamolatining o'lchovi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Tashxis markazi "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish" o'quv qo'llanmasi
2. Toshimov R. G'oziev Ye. G'. "Zamonaviy individual va guruh psixologiya". Toshkent, "Universitet" 1999y.
3. Ye. G'oziev, SH. V. Azizova "Tashkiliy psixologiya" Toshkent-1999y.
4. M. Rajabov "Eksperimental psixologiya metodlari to'plami".
5. M. G. Davletshin . Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T. 2004
6. V. Karimova. Oila psixologiyasi. T. 2007
7. www.Expert.psychology.ru
8. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish usullari ma'ruzalar matni

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLLARI

Xoliqova Dilfuza Mamatkobilovna
Surxondaryo viloyati Termiz shahar 5-maktab psixologi

Bu dunyodagi barcha xatti-harakatlarimizning ibtidosi yashashga bo'lgan intilishga borib taqaladi. Aslida esa yashash uchun unchalik ko'p narsa zarur emasdek go'yo. Lekin inson ongli mavjudot bo'lgani bois shunchaki yashash, havo, suv, ozuqa, issiqlik, yorug'likka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilangina kifoyalana olmaydi. U yaxshi yashashga intiladi, ehtiyojlarini imkon qadar to'liqroq qondirish payida bo'ladi.

Odamzod dunyoga kelibdiki, yaxshi yashash yo'llarini izlaydi. Bu esa unda olamni bilishga, o'zligini anglashga intilish, qavmdoshlari bilan o'zaro muloqotda bo'lish va ma'lumot almashish kabi ma'naviy ehtiyojlarni ham vujudga keltiradiki, bugun endi aynan shu ehtiyojlar qay darajada qondirilayotgani farovon yashash sharti, to'kin-sochinlikning asosiy omili hisoblanmoqda. Bugungi kunda insonning o'zi xohlaganchalik umr kechirishining muhim omillaridan biri munosib kasb egasi bo'lish bilan ham belgilanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi tarbiyasi qanchalik muhim bo'lsa, uni qobilyat va qiziqishlari asosida kasbga yo'naltirish ham bugungi kunda muxim pedagogik-psixologik muammolardan hisoblanadi. Chunki yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyat demokratik qadryatlarni mustahkamlash bilan mamlakatimiz kelajagini jaxon xam jamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari xayotga kirib kelmoqda". Yangi avlodni kasb-hunarga yo'naltirish kelajakda jamiyatimiz uchun salohiyatli kadrlarni yetkazib chiqishda ahamiyatli rol o'ynaydi.

Umumta'lim maktablarining o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirish muhim masalalardan biri bo'lib, asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda, o'z hoxishi bilan kasbiy moyilligini aniqlash orqali kelgusi hayoti, faoliyati va yutug'ini ta'minlab beradigan kasb tanlashini to'g'ri tashkil etishdan iboratdir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jaroyandir.

Mehnat faoliyatini boshlash uchun kasb tanlashda bu ishga ongli ravishda yondoshmoq va uni mustaqil ravishda hal qilmoq kerak. Muayyan iqtisodiy tumannig xodimlarga bo'lgan ehtiyoji, tanlanadigan kasbga o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, so'g'lig'i to'g'ri kelsagina kasbni ongli ravishda tanlash mumkin.

Kasb tanlashda mustaqillik deganda kushining bu sohadagi maksimal dahlsizligi, o'zining tashabbuskorligi to'la namoyon bo'lishi tushuniladi. Lekin bu bilan o'quvchi hoxlagan kasbni o'zi tanlashi lozim degani emas, bunda eng avvalo oiladagi katta yoshli kishilarning fikrlari nazarda tutiladi. Kasb tanlash to'g'risidagi masalada o'quvchining va ota-onalarning fikri bir joydan chiqsa yaxshi, albatta. Mabodo bunday hamfikrlik bo'lmasa, o'z imkoniyatlarini chamalab, katta yoshli kishilarning fikr mulohazalarini tahlil qilib ko'rish lozim.

Bundan tashqari o'quvchilarga mehnat faoliyatiga amaliy va axloqiy tayyorgarlikni bilish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozimligi aytib o'tildi:

1. Kasbning mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarga inson jamiyat taraqqiyotidagi o'z o'rniga ega bo'lish;
2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash va avaylashga o'rgatish;
3. O'quvchilarga kasbga nisbatan muhabbatni o'rgatish;
4. O'quvchilarni kasb tanlashda ongli ravishda, vijdonan yondashishga odatlantirish;
5. Kasb tanlaganda uning hayotiy zarurat ekanligi, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;
6. O'quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;
7. Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va hakoza.

Kasb tanlashda onglilik va mustaqillik insonning o'z qiziqishi qobiliyatlari, irodaviy sifatlariga o'zi baho berishini taqozo etadi. Lekin har bir o'quvchi o'z imkoniyatlarini

to'g'ri baholay olmaydi. Shuning uchun fan o'qituvchilarining, murabbiylarning fikrlariga quloq solish va amal qilish muhim ahamiyatga egadir.

Chunki har bir pedagog o'quvchining xulq - atvorini qiziqishlarini, mayillarini, xarakterini va mehnatga qay darajada tayyor ekani to'g'risida hammadan ko'ra yaxshiroq fikr bildiradi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samarali usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida o'smir yoshdagi o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faol ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularning qiziqishi, jismoniy va aqliy imkoniyatlari, mehnat bozoridagi kasblarga bo'lgan ehtiyojga qaratish muhimdir .

O'quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish usullaridan biri esa kasbiy tashxis metodikalari yordamida ularning kasbiy yo'nalganligini aniqlashdir. Barchamizga ma'lumki hozirgi kunda 9-sinf bitiruvchilari bilan „Qiziqishlar anketasi“, „Kasbiy motivatsiyani aniqlash“, „Deferensial-diagnostik so'rovnoma“, „O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasi“, „Shaxs sifatleri va kasbiy qobiliyatlarni o'rganish metodikasi“, „Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash metodikasi“, „Qiziqishlar xaritasi“ kabi kasbiy tashxis metodikalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari maktab psixologlari va kasbga yo'naltiruvchilar, mehnat va boshqa fan o'qituvchilari tamonidan turli usullar yordamida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlash mumkin.

Kasb tanlash katta hayot yo'lidagi eng muhim qadamdir. Inson o'zini baxtli his qilishi uchun albatta atrofida sevimli insonlar bo'lishi bilan birgalikda ,o'zi qiziqqan kasb egasi bo'lishi lozim. Ba'zi yoshlar ko'p yillar orzu qilgan mutaxassislik uchun oliy ta'lim tizimiga hujjat topshirish vaqti kelganda, ikkilanish yuzaga keladi. Chunki uning o'z bilimiga nisbatan ishonchi bo'lmaydi. Shuning uchun ham bilimdan kelib chiqib kasb tanlash emas, balki bilimni maqsadga qarab oshirib borish zarur. Buning uchun esa bolaga yoshligidanoq o'zi yoqtirgan kasb haqida oilada va maktabda to'g'ri tushuncha berish va bolada qiziqish va layoqatni shakllantirib borish lozim.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov „Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch“ asarida ta'kidlaganidek; "Har kuni, har soatda fidoyi bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari toliqmay tinimsiz safarbar etib

borish, bu fazilatni, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish –haqiqiy qahramonlik aslida mana shu ...”. Zero, umumta’lim maktablarida psixologik xizmatning asosiy yo’nalishlaridan biri sifatida o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish o’quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, iqtidorini aniqlash, ularni o’z jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos kasblarga yo’llash ularning kelgusida el-yurt ravnaqi uchun qo’shadigan hissasiga asos bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda kasbga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o’quvchilarni ilm fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasidagi yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy psixologiya . E. G’oziyev. Toshkent-2002
2. Turmush tarzi, ta’lim va milliy o’ziga xoslik. A.Jabborov, Sh.Bekova. Qarshi-2002
3. Maktab va hayot ilmiy metodik jurnal

ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ – ДАВЛАТ ВА ЖАМИЯТ КЕЛАЖАГИ

*Кучкоров Искандар Мардонович
Тойлоқ педагогика коллежининг ишлаб чиқариш
таълими бўйича директор ўринбосари,
Хайдаров Ботир Маширапович
Педагогик инновациялар институти катта ўқитувчиси*

Аннотация. Ушбу мақолада кейинги йилларда Ўзбекистон Республикасида барча таълим соҳасидаги ислохотлар, таълимни тарбиядан, тарбияни таълимдан ажратиб бўлмаслиги, улар узвий олиб борилиши ҳақида сўз боради. 2016 йилдан кейин мактабгача таълимни ривожлантириш, мактабгача ёшдаги болаларни ушбу таълимга тўлиқ жалб этиш, мактабгача таълим муассасаларига мутахассис тайёрлаш, уларнинг малакасини ошириш соҳасида янги давр бошланди. Умумий

ўрта таълим тизимини ҳам тубдан ислоҳ қилиш, жамият ўртасида ўқитувчиларнинг обрўйини ошириш, уларни тўлиқ ижтимоий ҳимоя қилиш борасида янги “Ўқитувчининг мақоми тўғрисида”ги Қонун лойиҳаси ишлаб чиқилиб, умумхалқ муҳокамасига қўйилгани ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар: ислохот, таълим, профессионал таълим, ўқитувчининг мақоми, мактабгача таълим, таълим ва тарбия бирлиги, олий таълим.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются реформы во всех сферах образования в Республике Узбекистан за последние годы, неотделимость образования от воспитания, воспитания от образования, их целостная реализация. После 2016 года началась новая эпоха в развитии дошкольного образования, полноценного вовлечения дошкольников в это образование, подготовки специалистов дошкольного образования, их профессионального развития. Также разработан и вынесен на общественное обсуждение новый законопроект «О статусе учителя» по коренной реформе системы общего среднего образования, повышению престижа учителей в обществе, их всесторонней социальной защите.

Ключевые слова: реформа, образование, профессиональное образование, высшее образование, педагогический статус, дошкольное образование, учебно-воспитательный блок.

ABSTRAKT

This article discusses the reforms in all areas of education in the Republic of Uzbekistan in recent years, the inseparability of education from upbringing, upbringing from education, their holistic implementation. After 2016, a new era began in the development of preschool education, the full involvement of preschoolers in this education, the training of preschool education specialists, and their professional development. Also developed and submitted for public discussion is a new draft law "On the status of a teacher" on a radical reform of the general secondary education system, increasing the prestige of teachers in society, and their comprehensive social protection.

Key words: reform, education, vocational education, higher education, pedagogical status, preschool education, educational unit.

Таълим ва тарбия ҳар бир давр ва ҳар бир миллат ҳамда давлатнинг асосий ва долзарб масаласи бўлиб келган. Чунки жамиятни кишилар ташкил этади. Уларнинг савияси, тарбияси, олган таълими эса давлатнинг келажагига катта таъсир ўтказади. Шунинг учун ҳам ривожланиш йўлига кирган Янги Ўзбекистонда муҳтарам Президентимиз ташаббуслари билан таълим-тарбияга жуда катта аҳамият берилмоқда, бу соҳада мислсиз ислохотлар амалга оширилмоқда. Президентимиз фаолиятида барча жабҳада кишиларнинг турмуш даражасини ошириш, камбағалликни камайтириш борасидаги чиқишлари аввало халқни рози қилиш, давлатимизни ривожланган давлатлар қаторига қўшиш, миллатимизни бошқа миллатлардан кам бўлмаган бир миллат эканлигини исбот қилиш, бир сўз билан айтганда, мустақилликнинг 29 йиллигига бағишланган тантанали нутқида таъкидлаганларидек, учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратиш учун ҳам таълим ва тарбияни узвийликда олиб бориш асосий ўринни эгаллайди.

2017 йил 9 сентябр куни Президентимиз «Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарорни имзолади. Мана уч йилдирки, мамлакатимизда таълимни боғча ёшидан бошлаш, мактабгача таълим тизимини кейинги таълим тизими билан узвий боғлаш, мактабгача ёшдаги болаларни таълим-тарбия жараёнига тўлиқ қамраб олиш борасида бошлаган ислохотлар натижасида биргина 2019 йилда 5 минг 722 та давлат, хусусий, оилавий болалар боғчалари ташкил этилди. Шунинг ҳисобидан фарзандларимизни мактабгача таълим билан қамраб олиш даражаси бир йил давомида 38 фоиздан 52 фоизга кўтарилди².

Бизга маълумки, болани қанча таълим ва тарбия жараёнига эрта жалб қилсак, шунча ютуқларга эришиш мумкин. Олимлар таъкидлаганларидек, 3 ёшдан 7 ёшгача бола интелектининг тафаккур даври ривожланади. Бу даврда

² <https://president.uz/uz/lists/view/3313>

бола “Мен”ни англайди, нутқ ҳам жуда тез ривожланади, катталар ишончини қозонишга ҳаракат, жавобгарлик ҳиссини сезиш, топшириқни ўз вақтида ва кўнгилдагидек бажаришга иштиёқли бўлиш, атрофдаги нарса ва ҳодисаларга қизиқувчанлик билан идрок қилиши ортиб, табиат ва турмуш воқеаларини кузатиши ривожланади, майда-чуйда нарсаларгача синчковлик билан кузатиш хусусиятлари устуворлик қилади. Шунинг учун ҳам мактабгача таълим вазирлигининг ташкил этилиши, давлат ва хусусий шерикчиликдаги МТТларнинг фаолият кўрсатилишига йўл очилиши бу борада амалга оширилаётган ишларга пойдевор бўлмоқда.

Таълим тизимидаги ислохотларнинг кейинги босқичи бевосита умумий ўрта таълим соҳаси – мактаб таълими билан боғлиқ. Бир неча йиллар давомида таълим тизимимизда жуда катта бўшлиқлар ҳосил бўлган эди. Ўқитувчиларга паст назар билан қараш, уларни кераксиз, ишига умуман алоқаси бўлмаган ишларга жалб этиш, ўзи кам ойлик-маошини талон-тарож қилиш каби миллатимизга хос бўлмаган, давлатимизнинг фожеаси бўлган ишлар содир бўлди. Бу каби муаммоларни бартараф этиш учун ҳам кейинги йилларда ҳаммамизга маълумки, муаллимларнинг обрўсини ошириш, уларни жамиятимизда энг нуфузли ва обрўли кишиларга айлантириш учун ҳаракатлар бошланиб кетди. Биринчи ўринда “Ўқитувчининг мақоми тўғрисида”ги Қонун лойиҳаси ишлаб чиқилди³. Мана шу Қонун билан муаллимнинг давлат ва жамият, ўқувчилар ва уларнинг ота-оналари олдидаги мақомлари мустаҳкамланади. Ахир қаддини тик тутиб тура оладиган, ўзининг фикрига эга муаллимгина тоғ сингари болаларни тарбиялайди, таълим бера олади. Фикрлашга ўргата олади.

Яна бадиий адабиёт ва ижод соҳаларига қизиқадиган, иқтидорли ёшларни истеъдодни янада ривожлантириш учун барча ҳудудларда шароит яратиш, иқтидорли ёшларга адабиёт, тилшунослик ва чет тилини мукамал ўргатиш мақсадида бутун Республикамизда Президент мактаблари, ижод мактаблари барпо этилмоқда. Масалан, ҳозирда атоқли адиб ва шоирларимиз номлари билан аталган 9 та ижод мактаби фаолият кўрсатмоқда. Жумладан, Хоразмда

³ https://uza.uz/uz/posts/oqituvchining-maqomi-togrisida-qonun-qabul-qilinadi_244822

Муҳаммадризо Огаҳий, Наманганда Исҳоқхон Ибрат, Тошкентда Абдулла Қодирий, Жиззахда Ҳамид Олимжон ва Зулфия, Қорқалпоғистон Республикасида Ибройим Юсупов, Фарғонада эркин Воҳидов, Қашқадарёда Абдулла Орипов, Сирдарёда Ҳалима Худойбердиева, Андижонда Муҳаммад Юсуф номларидаги ижод мактабларида 1 623 нафар ўқувчига 246 нафар педагог таълим бермоқда. Бундай ташаббус келажакда бошқа вилоятларда ҳам давом этади.

Кейинги йилларда ўқувчи ёшлар ўртасида китобхонликни ривожлантириш, болаларимизни энг дурдона асарларимиз билан, жаҳон адабиёти билан таништириш, уларни ҳар томонлама баркамол бўлиб етиштиришлари учун “Ёш китобхон” кўрик-танловининг ташкил этилиши ва ғолиблар муносиб тақдирланиши натижаси ўлароқ халқимиз ичида ёш-ёш ўғил-қизларимиз қаҳрамонга айланаётганликлари тўғри йўлда эканлигимизни кўрсатмоқда.

Чунки айнан мактаб ёшидаги болаларда шахсининг бир қатор фазилатлари ва хусусиятлари: қатъийлик, нисбий мустақиллик, ўз олдига мақсад қўя олиш, хулқ-атвори ижтимоий жамоатчилик нуқтаи-назардан баҳолашга интилиш, ваъдага садоқат, катталарни ҳурмат қилиш, бурч ва жавобгарлик, ўз ҳис-туйғуси ва ички кечинмаларини бошқариш уқувига эгалик, кўзлаган мақсадига эришиш учун интилиш, уддабуронлик ва тиришқоқлик каби сифатлар шаклланади. Шунинг учун ҳам бу даврда бола тарбияга жуда муҳтож бўлади. Аҳолисининг аксари мусулмон бўлган давлатимизда болаларимизга инсонпарвар динимиз - ислом дини, ислом маданиятини тўғри тушунтириш бугунги глобаллашув жараёнида ҳар доимгидан-да муҳимроқ саналади.

Ана шу маънода узлуксиз маънавий тарбия концепцияси” доирасида умумтаълим мактабларида биринчи марта “Тарбия” фанининг ташкил этилиши жуда катта воқеа бўлмоқда. Албатта, бу борада амалга оширилиши зарур бўлган вазифалар ҳам улкан. Бу фанни ислом дини, минг йиллик маърифатимиз, маънавиятимизни тўғри англай оладиган, ўзида миллий ғурурни шакллантирган, оилавий, ижтимоий жиҳатдан бошқаларга ўрнак бўла оладиган, болаларда ватанпарварлик, комиллик сифатларини

шакллантиришда фидоийлик касб эта оладиган ўқитувчиларга ишониш мумкин. Бу борада олий таълим муассасаларига мумтоз адабиётимиз тарихини яхши ўзлаштирган, шарқ ҳикматлари, донишмандлигидан хабардор бўлган мутахассисларни тарбиялашдек вазифа ҳам кўндаланг бўлади. “Тарбия” фани дарслигининг асосини болаларга энг кичик амаллар – қўл ювишдан бошлаб, салом бериш, ота-она, қариндошлар, қўшничилик, ислом ва оила, миллий кадриятларни сингдириш, она тилини севишга ўргатиш, моддий ва маънавий мулкни сақлаш, кадрлаш, умуман олганда, ҳалол ва харомни ажратишга ўргатиш ҳамда энг асосийси она тилини севиш ва кадрлаш, Ватанни кўз қорачиғидай асрашга тарғиб қилиш ташкил этиши керак.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрда “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги фармонида мувофиқ, Ўзбекистонда шаклан ва мазмунан мутлақо янги, узлуксиз профессионал таълим тизими барпо этилиши, мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиб 3 тоифадаги таълим муассасалари: касб-ҳунар мактаблари, коллежлар ва техникумлар фаолият кўрсатиши белгиланди. Жорий ўқув йилида профессионал таълим тизимида республика бўйича жами 726 таълим муассасаси, яъни 339 касб-ҳунар мактаби, 211 коллеж ва 176 техникум фаолият кўрсатади. Ушбу 3 тоифадаги профессионал таълим муассасаларида халқаро стандартларга мувофиқлаштирилган таълим дастурлари асосида оилавий бизнес, томорқа бизнеси, қурилиш, хизмат кўрсатиш, чорвачилик, паррандачилик, асаларичилик, балиқчилик каби иқтисодиётимизда муҳим ўрин эгаллаган 200 дан ортиқ ишчи касблар бўйича кадрлар тайёрланади. Бу каби ислохотларнинг бош мақсади инсон манфаатларини ҳимоя қилиш, камбағалликни тугатиш, аввало ҳар бир шахс ўзини, шу орқали давлатни таъминлаши, бой қилиши мумкинлиги кўзда тутилган.

Кейинги 6 йилда барча таълимнинг асоси саналган олий таълим тизимимиздаги чорак асрдан бери йиғилиб келаётган кўпгина муаммолар ҳал этилди. Сўнгги олти йилда мамлакатимизда олий таълим муассасалари сони икки бараварга ошган. 2020 йилда олий ўқув юртларига кириш учун бир ярим миллионга яқин болаларимиз ўқишга ҳужжат топширди. Бу рақам ўтган йилга

нисбатан 40 фоиз кўп демакдир. Бундан ташқари мавжуд ОТМларда ҳам зарурий мутахассисни тайёрлаш мақсадида йўналишлар сони ошди. Олий таълимни ривожлантириш учун биргина 2019 йили 19 та янги олий ўқув юрти, жумладан, 9 та нуфузли хорижий университетнинг филиали очилди. Етакчи хорижий университетлар билан ҳамкорликда 141 та кўшма таълим дастури бўйича кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилди. Шу йили Олий таълим муассасаларига жами 146 минг 500 нафар ёки 2016 йилга нисбатан 2 баробар кўп талаба ўқишга қабул қилинди. Жорий йилда бу кўрсаткич яна оширилиб, олий таълим билан қамраб олиш даражаси 25%га кўтарилиши кутилмоқда.

Олий таълим муассасасига ўқишга кираётган фарзандларимизнинг қобилиятига қараб фақат ижодий имтиҳон билан ўқишга қабул қилиш мумкин бўлган йўналишлардан тест олиб ташланди. Бу жараённи тўғри ва шаффоф, адолатли ва жаҳон стандартларига мос шаклда ўтказишга жуда катта аҳамият берилмоқда. Гендер тенглиги масаласида ҳам Янги Ўзбекистон босқичма-босқич ислохотлар қилиб бормоқда. Кўмакка муҳтож оилалардан чиққан, олий маълумот олиш истагида бўлган иқтидорли хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш мақсадида Республика олий таълим муассасаларига улар учун 4%ли грант ажратилди. Бундан ташқари, 6 та йўналиш бўйича ўқиш муддати 3 йил қилиб белгиланди. Янги 2021-2022-ўқув йилидан бошлаб магистратура таълим йўналишига тўлов-контракт асосида ўқишга кирган хотин-қизларнинг шартнома суммалари давлат томонидан тўлаб берилиши белгиланди.

Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, кейинги йилларда Ўзбекистон Республикасида таълим соҳасида олиб борилаётган ислохотлар яқин йилларда ўз самарасини беришни бошлайди. Мамлакатимизда мактабгача, умумий ўрта таълим, профессионал таълим ва уларни малакали мутахассислар билан таъминловчи олий таълим соҳасини ривожлантиришда олиб борилаётган ишлар кенг суръатда давом этади.

Фойдаланилган манбалар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги «Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3261-сонли Қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 2019 йил 6 сентябрдаги 5812-сонли фармони
3. <https://daryo.uz/k/2020/01/24/ozbekistonda-bolalarning-bogchalar-bilan-qamrab-olish-darajasi-52-foizga-yetdi>
4. <https://president.uz/uz/lists/view/3313>
5. https://uza.uz/uz/posts/oqituvchining-maqomi-togrisida-qonun-qabul-qilinadi_244822

ЎСМИРЛАРДА ОИЛА ТЎҒРИСИДАГИ ТАСАВВУРЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Абдуқундузова Шаҳзода Насвалиевна
Наманган вилояти Чуст туман 41-мактаб психологи*

Аннотация. Бугунги кунда оила масалалари энг долзарб масалалардан бири десак адашмаган бўламиз. Бунга сабаб ходимнинг ишдаги масъулияти, ўқувчининг мактабдаги фаоллиги, инсонларнинг шахслараро муносабатларнинг барчаси оила аталмиш энг кичик ижтимоий қатламга боғлиқ. Шундай экан ўсиб келаётган ёш авлоднинг оила ҳақидаги тушунчаси, қарашлари, муносабати ва қадриятларининг шаклланишига алоҳида эътибор қаратиш зарур.

Калит сўзлар: оила, ота-она, коллеж ўқувчилари, ўспиринлар, оила институти, оила типлари, соғлом психологик муҳит.

Мустаҳкам ва бахтли оила қуришга йигит-қизларни илк ёшлиқдан тайёрлаш, оила муҳитида ҳамда барча таълим бўғинларида бу ишларни босқичма-босқич

изчил давом эттириш олиб бораётган сиёсатимизнинг нақадар истиқболга қаратилганлигини кўрсатади. Мақсадимиз пок ниятли, жисмонан бақувват, соғлом, интеллектуал салоҳияти юксак, ҳар томонлама етук миллатпарвар, оилапарвар, ватанпарвар ёшларни вояга етказиш экан, бу борада оила институтининг барча имкониятларидан тўла ва ўринли фойдаланишни билишимиз, бу йўлдаги самарали механизмларни илмий жиҳатдан тадқиқ этишимиз лозим бўлади.

Ижтимоий психология Ўзбекистонда жадал ривожланиб бораётган фан тармоғи сифатида ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш, уларда оила тўғрисида аниқ тасаввурларни шакллантириш йўлларини ўрганар экан, энг аввало, оиланинг қайси модели ёки типи ҳозирги замон ёшларига маъқул эканлиги, бу типларнинг замонавийлик ҳамда анъанавийлик тамойилларига қанчалик мос келишига ва йигит ва қизларнинг бу борадаги ижтимоий тасаввурларига алоҳида эътибор қаратади. Зеро, никоҳга икки шахс - йигит ва қиз киради. Улардаги жинсга оид психологик хусусиятларнинг қандай эканлиги, оила муҳитида рўй берувчи психологик ҳодисаларнинг ёшлар онгига таъсири кўламини билган ҳолда, шахслараро муносабатларни мустаҳкамлаш йўлларини белгилаш фан учун ҳам, амалиёт учун ҳам фойдалидир. Ушбу ҳолатларга оид тасаввурларни билиш шахс ижтимоий хулқини олдиндан башорат қилиш, оила мустаҳкамлигини таъминловчи шахсий ва гуруҳий омилларнинг таъсирини мақсадли бошқариш имкониятини беради. Зеро, ёшларда ижтимоий психологик тасаввурлар ва улар асосида шаклланадиган установкаларнинг ўзгариб бораётганлиги ҳаёт тарзи ёки ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларнинг ўзгариб бораётганлиги билангина изоҳланмайди, балки бунда инсон омили ва унинг психологиясида рўй бераётган ўзгаришларнинг ўрни ва роли ҳам сезиларлидир.

Ёшларнинг оила ва оилавий муносабатлар тўғрисидаги тасаввурлари кўплаб ижтимоий психологик тадқиқотларнинг предмети сифатида ўрганилган. Умуман психологлар йигит ва қизларнинг бўлғуси оиласи ва унинг қандай бўлиши тўғрисидаги тасаввурларини ўрганишни умуман улардаги оила ва никоҳ тўғрисидаги тасаввурларини ўрганишдан бошлайдилар. Чунки А.Б.Шнейдернинг фикрича, ўз оиласида кўрган-кечирганлари, тажрибасини умумлаштирмай туриб,

ёшларда истиқболдаги оила образи бўлиши мумкин эмас. Калининградлик психолог С.В.Овчинникова ҳам Л.Шнейдер лабораторияси аъзолари билан замонавий ўсмир ёшларнинг идеал, низоли, анъанавий ва типик оила тўғрисидаги тасаввурларини ўрганган ва унда асосий методик қурол сифатида оиланинг проектив расми методикасидан фойдаланган. Бунда ёшлардан оилага ким бошчилик қилиши, ҳар бир оила аъзоси нима билан шуғулланиши, шу оилада айнан ким бўлишни исташлари, ким бўлишни аниқ хоҳламасликлари, бу оилада ким бола тарбияси билан шуғулланиши, оиладагилардан кимга бола кўпроқ яқинлиги: отагами, онагами, бобо ёки бувигами, ўзаро бир-биригами каби саволларга жавоб бериб, қандай муаммоларни билиши ҳақида сўралган. Олинган натижаларда турлича фикрлар орасида айнан идеал оила деб аталмиш категорияда “ҳамма бирга”, яъни, ота-она ва боладан ташқари, бувилар ва боболар ҳам акс этган расмлар тавсифланди. Бундай расмлар 55%ни ташкил этган. 20% дан ортиқ расмларда идеал оила “Эр – болалар - хотин” тизимида ифодаланган ва бундай тасаввурни тадқиқотчилар россияликлар учун анъанавий, деб ҳисоблайдилар.

Олиб борилган кузатишлар мақсади нуқтаи назаридан ушбу тадқиқотлардан олинган яна бир жиҳат муҳимки, у ҳам бўлса, ёшларнинг идеал оила тўғрисидаги тасаввурларида ўзларининг тутган ўрнини аниқлашдир. Масалан, “Айни шу идеал оилада сен ким бўлишни хоҳлардинг?” деб берилган саволга кўпчилик болалар ўзларининг психологик жинсига мос келадиган ролларни ифодалаганлар, яъни, ўғил болалар – эр ролини, қизлар – рафиқа ролини. Фақатгина сўралганларнинг учдан бири бола ролини қайд этиш билан чекланган. Бу ўринда ўғил болалар берган жавоблар барибир бизнинг эътиборимизни тортди. Чунки 10 % ўғил бола оилада етакчи, оила бошлиғи бўлишни истамаганлигини билдирди, яъни, улар ўз бўйнига масъулият олишни хоҳламайди, 35 % ўғил болалар бола позициясини бошқа ҳар қандай ролдан афзал билади. Низоли оила тўғрисидаги тасаввурлари ўрганилган болаларнинг 40 %и оила бошлиғи сифатида аёлни, 35 %и отани тасаввур қилади. Бошқалар эса “Ҳеч ким” ёки “Ким хоҳласа” деган жавоблар билан чекланганлар. Фақат анъанавий оила тўғрисидаги тасаввурларда бирорта жавобда она оила бошлиғи сифатида эътироф этилмаган, 15% ҳолатда оила

бошлиғи – бобо, қолган 85% ҳолатда бу ролни ота-эркак киши ўйнайди. Она бундай оилада ҳамиша уй-рўзғор ишлари билан банд бўлган бека ролида тасаввур этилади. Шундай бўлсада, ўғил болаларнинг 30 %и бундай оила моделини хоҳламаслигини, 20 % қизлар умуман уй бекаси бўлиш фикридан йироқ эканлигини, 25 % болалар бола ролини рад этишларини баён этганлар. Ёшларнинг бундай муносабатига сабаб бўлган омиллардан бири – бу оилада бола тарбиялаш усулларининг қаттиқлиги ва улар учун маъқул эмаслигидир. Чунки уларнинг эътирофича, асосий тарбия методларига қатъий тартиб-интизом, қаттиққўллик ва жазолаш усуллари киритилган. Буни замонавий ёшлар мутлақо қабул қила олмайдилар.

ХУЛОСА

1. Илмий психологик манбаларда келтирилган оила ва оилавий муносабатларнинг бошқа турлари шу икки тоифа асосида намоён бўладиган ўзаро муносабатлардир. Оила типини танлаш ва унга йўналтирилган шахс сифатларининг шаклланиши ушбу оиладаги узоқ муддат давомида мулоқот қилиш вазиятининг оқибати ёки ҳосиласи бўлиб, у аслида шахсдаги мавжуд оилавий мулоқот эҳтиёжидан келиб чиқади. Шунга қарамай, оилада тарбиялаётган ёшларнинг оила типини танлаши оилавий муносабатлар чегарасидан ҳам биров чиқадиган, унинг кенг ижтимоий муносабатлар тизимида олган ижтимоий тажрибасининг ҳам маҳсулидир. Шу боис ҳам, ота-онанинг оила типига нисбатан ижтимоий установа ва ижтимоий тасаввурлари фарзандларникидай бўлмаслиги мумкин ва, аксинча.

2. Оила типини танлашга таъсир этувчи ва шахсдаги ижтимоий тасаввур мазмунини ташкил этувчи ижтимоий институтларга қуйидагилар киради: а) оила – дастлабки ижтимоийлашувнинг маскани сифатида ва у ердаги норасмий мулоқотларнинг ижтимоий тажрибага асос бўлиши сифатида; б) ота ва онанинг жамиятда қабул қилинган, ижтимоий стереотипларда муҳрланган маскулинлик ва фемининлик роллари таъсирида шаклланадиган ижтимоий тасаввурлар; в) ижтимоийлашувнинг бошқа масканлари, масалан, таълим масканларида ўзаро муносабатлар таъсирида шаклланадиган эркаклик ва аёллик роллари ҳамда бошқа

ижтимоий ролларнинг таъсири; г) оиладаги барча аъзолар, жумладан, боболар ва момолар, ота-оналар тажрибасида оиладиги етакчилик мақомларининг қай тарзда тақсимланганлиги; д) болалар жамоасида шахснинг тутган ижтимоий психологик мақоми (фаоллик - пассивлик).

KASBIY YO`NALTIRUV ISHLARINI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGNING O`RNI

Shoxobiddinova Mohidil Shamsitdin qizi
Namangan davlat universiteti psixologiya yo`nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning kasbga yo`naltirishda psixolog kasbining ahamiyati, o`rni va amalga oshiradigan ishlari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so`zlar: kasb-hunar, professional targ`ibot, kasbiy maslahat, kasbga yo`naltirish, psixolog, kasbiy axborot.

Аннотация: В данной статье рассматриваются значение, роль и роль профессии психолога в профориентации.

Ключевые слова: профессия, профессиональная адвокатура, профессиональное консультирование, профориентация, психолог, профессиональная информация.

Ключевые слова:

Annotation: This article discusses the importance, role and role of the profession of psychologist in career guidance.

Keywords: profession, professional advocacy, professional counseling, career guidance, psychologist, professional information.

Shaxsning kasbiy rivojlanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, ular orasida kasb tanlash jarayoni muhim o'rin tutadi. Bu insonning hayot yo'lining bir qismi, uning keyingi kasbiy taqdirini belgilaydigan bir qator qarorlarni qabul qilish jarayoni. Kasb

tanlash jarayoni har doim shaxs hayotidagi hal qiluvchi daqiqadir va bu qandaydir psixologik yordamni talab qiladi. Kasbiy yo'l-yo'riqlar tizimi bunday ko'makni ta'minlashga mo'ljallangan.

Kasb-hunarga yo'naltirish deganda insonni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashga, uning qiziqishlari, moyilligi va qobiliyatlariga muvofiq ravishda va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasb tanlashda yordam beradigan chora-tadbirlarning ilmiy asoslangan tizimi tushuniladi.

Kasb-hunarga yo'naltirishning aniq yaqin maqsadlari jonli mehnatdan oqilona foydalanish, ishchilar sifatini oshirishda ifodalanadi; tibbiy qarshi ko'rsatmalarni aniqlash va kasbiy rejalarini tuzatish orqali yoshlarning sog'lig'ini saqlashda; kelajakdagi kasbiy sohaga eng mos keladigan shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish.

Kasb-hunar ta'limi talabalarning kasblar dunyosi, kasbiy tanlov qilish usullari va shartlari haqidagi bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Kasbiy ta'limning ikki shakli mavjud: kasbiy ma'lumot va kasbiy targ'ibot.

Professional ma'lumot bu yoshlarga asosiy kasblar va mutaxassisliklar haqida ma'lumot. Maktab o'quvchilariga mehnatning mazmuni, moddiy va ijtimoiy muhit sharoitlari, moddiy rag'batlantirish tizimi, mehnat va dam olish tartibi, ushbu kasbni rivojlantirish istiqbollari, o'qitish shakllari va muddatlari, rasmiy va malakaviy o'sish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etiladi. Ushbu kasb inson salomatligi holatiga, uning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga, shaxsiy xususiyatlariga va umumiy ta'lim va maxsus tayyorgarlik darajasiga qo'yadigan asosiy talablarni yoritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kasbiy axborot faoliyati nafaqat passiv tanishish, balki faol ta'lim funktsiyasini ham bajaradi. Shuning uchun, ba'zi hollarda, nafaqat kasblar haqida ma'lumot almashish, balki ularning ayrimlarini targ'ib qilish ham muhim o'rin egallaydi.

Professional targ'ibot ishlab chiqarish hajmining ko'payishi yoki rekonstruksiya qilinishi sababli kadrlar etishmasligi yoki ularning tayyorgarligini kengayishi kutilayotgan kasblar bilan shug'ullanadi. Professional targ'ibot, agar to'g'ri

shakllantirilgan bo'lsa, o'z vaqtida kasbni tanlash muammolariga faol munosabatni shakllantirishga, yoshlarning o'z tanlovini qilish istagini faollashtirishga yordam beradi.

Davlat va xususiy korxonalar, universitetlarning ish jarayonida turli xil bosma materiallarni nashr etish, ochiq eshiklar kunlarini tashkil qilish, ommaviy axborot vositalarida turli kasb vakillari chiqishlari, televizion filmlar va reklama roliklarini yaratish va namoyish etish kabi kasbiy ta'lim shakllari eng keng tarqalgan. Jamiyat hayotining keng kompyuterlashtirilishi Internet-resurslarni ushbu ish bilan bog'lashga imkon berdi.

Shu bilan birga, ta'lim ishlarining samaradorligi axborotni taqdim etish sifati va shakliga bog'liq. Ushbu turdagi ishlarda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun professional ma'lumotlarga qo'yiladigan bir qator talablarga rioya qilish kerak. Ma'lumot:

- keng qamrovli. Kasb haqidagi bilimlarning sarhisobida kasbiy hayotning barcha jabhalariga e'tibor berish kerak, alohida e'tibor - ushbu professional sohada o'sish istiqbollari;
- ishonchli. Kasblar haqida ma'lumot ishonchli manbalardan olinishi kerak, ular bosma nashrlar, mutaxassislardan olingan ma'lumotlar, faoliyatni psixologik tahlil qilish ma'lumotlari va hk.;
- ob'ektiv. Kasbning barcha afzalliklari va qiyinchiliklari bilan haqiqiy rasmini berish kerak. Kasb-hunarga mavjud bo'lmagan xizmatlarni ta'kidlab, ayrim partiyalarning haddan tashqari reklamasi qabul qilinishi mumkin emas.

Kasbiy konsultatsiya insonga kasbiy faoliyat sohasini tanlashda yordam berish uchun uni psixologik tekshirish tadbirlari tizimini o'z ichiga oladi. Kasbiy maslahatlashuvning asosiy maqsadi insonning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini, uning har xil sharoitdagi xulq-atvorining xususiyatlarini o'rganishdir. Professional konsultatsiya bir qator funktsiyalarni bajaradi, ular bir tomondan uning asosiy maqsadini aks ettiradi, boshqa tomondan uning faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi.

Kasbiy maslahatning uchta asosiy vazifasi mavjud:

- o'quvchiga kasbning o'ziga xos xususiyatlari, ularning kasbiy rejalarini amalga oshirish usullari va usullari to'g'risida ma'lumot berishni o'z ichiga olgan axborot;

- diagnostika - sog'liqni saqlash holatini va insonning psixologik xususiyatlarini rivojlanish darajasini kasb talablariga muvofiq ravishda tekshirish;
- tuzatuv, bu tegishli kasbiy faoliyat sohasi va undagi aniq kasblar bo'yicha optik mutaxassisni (kasbni tanlagan kishini) tavsiya etish, shuningdek, kasb talablari va shaxsiyat xususiyatlari o'rtasida nomuvofiqlik bo'lgan taqdirda professional rejalarni tuzatishdan iborat.

Biror kishi bilan professional maslahatchining o'ziga xos ishi individual ravishda amalga oshiriladi va bir qator majburiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ bosqich optik bilan aloqa o'rnatishni, maslahat berish jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning samaradorligi, bir tomondan, maslahat berishga kelgan maktab o'quvchilarining munosabatiga, boshqa tomondan, kommunikativ mahoratga va maslahatchining psixologik taktik darajasiga bog'liq.

Kasbiy konsalting ishining psixodiagnostik bosqichi - bu sub'ektning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini ifodalash darajasini o'rganishga asosiy e'tibor beriladigan bosqich. O'quv predmetlari:

- qiziqishning xususiyatlari, qiymat yo'nalishlari va optant sifatida kasb tanlashning boshqa motivlari, ularning mazmuni, chuqurligi va barqarorligi berilgan shaxsning motivatsion sohasi;
- sub'ektning qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari. Asosiy aqliy jarayonlar (xotira, diqqat, fikrlash) xususiyatlarining namoyon bo'lish darajasi, psixomotor fazilatlar, shaxsiy xususiyatlar o'rnatiladi;
- shaxsiyatning tayyorligi. Ilm-fan va amaliyotning aniq yo'nalishlari bo'yicha bilim, qobiliyat va ko'nikmalar baholanadi. Faqatgina bilimlarni ko'paytirishga emas, balki uni muayyan muammolarni hal qilishda qo'llash qobiliyatiga ham alohida e'tibor beriladi;
- o'zini o'zi qadrlash va kasbiy rejalarni shakllantirish xususiyatlari. Bunday holda, o'z-o'zini hurmat qilish haqiqati, hayotiy rejalarning mazmuni va asosiligi, ularni qurishda mustaqillik darajasi aniqlanadi.

Tuzatish bosqichi uning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq professional sohani topish nuqtai nazaridan optant bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning

asosiy nuqtasi - bu faoliyat printsiptiga rioya qilishdir, unga ko'ra kasb tanlash bo'yicha qarorni optikning o'zi qabul qilishi kerak va maslahatchining vazifasi uni bunga olib borishdir. Ushbu bosqichda kasb talablarini shaxsiy xususiyatlar va optantning kasblar dunyosidagi yo'nalishi bilan yanada samarali ravishda bog'lash uchun kasb tasniflari keng qo'llaniladi.

Kasblarni tasniflash quyidagi sabablarga ko'ra kasbiy maslahat va kasbga yo'naltirish ishlarida muhim bosqich hisoblanadi:

- kasblar dunyosi haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirishga va unda yo'naltirishning asosiy usullarini belgilashga imkon beradi;
- yangi kasblar va mutaxassisliklarni barpo etish uchun zamin yaratadigan ularning rivojlanish tarixi va asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi;
- amaliyotchiga professional maslahat narxini sezilarli darajada minimallashtirishga imkon beradi. Masalan, optikning istaklari yoki imkoniyatlari bilan u tanlagan kasb o'rtasida nomuvofiqlik bo'lgan taqdirda, psixolog boshqa psixodiagnostik tekshiruv o'tkazmasdan unga tegishli kasbni tavsiya qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.V.Batarshchev Yoshlarni o'qitish va kasbiy rag'batlantirish: darslik Akademiya 2009.
2. Klimov E.A Professional o'zini o'zi aniqlash psixologiyasi Rostov-Don 1996.
3. Klimov E.A Kasbni qanday tanlash kerak –M. Ta'lim, 1990
4. Rogov E.I Kasb tanlash: Professional bo'lish. –M. Vldos 2003.
5. WWW.instudy.uz
6. www.info-tashxis.uz

YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIDA MILLIY VA DINIY QADRIYATLAR

Mohinur Avazova

UrDu pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi,

Nilufar Shomuratova

UrDu pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya milliy va diniy qadriyatlarimiz, ularning mazmunmohiyati, asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganishning ahamiyati haqida so'z boradi.

Аннотация. В статье рассматривается важность систематизации бесценного наследия наших предков, внесших значительный вклад в развитие наших национальных и религиозных ценностей, их содержание, сохранение, мировая наука и культура.

Annotation. The article discusses the importance of organizing our national and religious values, their content, preservation, invaluable heritage of our ancestors, who made a significant contribution to the development of world science and culture.

Kalit so'zlar: milliy va diniy qadriyatlar, islom sivilizatsiyasi, inson kamoloti, hadisnavis olimlar, hadis namunalari, buyuk allomalar, ma'naviy meros, sharqona ta'lim va tarbiya.

Ключевые слова: национальные и религиозные ценности, исламская цивилизация, человеческое совершенство, хадисоведы, примеры хадисоведов, великие ученые, духовное наследие, восточное образование и воспитание.

Keywords: national and religious values, Islamic civilization, human perfection, hadith scholars, examples of hadith, great scholars, spiritual heritage, oriental education and upbringing

Buyuk bobokalonimiz Bahouddin Naqshbandning "Ibodot o'n qism bo'lsa, shundan to'qqiz qismi halollikni talab qilish, qolgan bir qismi boshqa ibodatlardir", degan o'g'itlari halollik maqomi qanchalar yuksak ekanini ko'rsatib beradi. Halollik har tomonlama poklikni ifodalaydi. Shu o'rinda yana Navoiy o'g'itlari yodga keldi. Buyuk mutafakkir barkamollik namunasi bo'lgan Farhodni tavsiflab, "Demangkim, ko'zi poku

ham so‘zi pok, Dili poku, tili poku ham o‘zi pok”, deydi. Milliy va diniy qadriyatlarimizdan biri halollik hisoblanadi.

Halollikning eng muhim jihatlaridan biri o‘g‘rilik, poraxo‘rlik, firibgarlik, davlat mulkini talon-taroj qilish kabi bu kishilar mulkiga tajovuz va xiyonat qilishdan tiyilish sanaladi. Halollikning muhimligidan, unga olib boruvchi vositalarning barchasi, ayniqsa, mehnat qilish, kasbu hunar bilan shug‘ullanish ham islomiy qadriyatlar orasida alohida o‘rin tutadi. Kishilar haqiga ko‘z olaytirish, tama‘girlik muqaddas dinimizda qoralanadi.

Ijtimoiy nazorat- shaxsning fe'l-atvoriga, dunyoqarashiga va ustanovkalariga nisbatan jamiyatdagi guruhlarining yoki jamoatchilikning ta'siridir.

Ijtimoiy nazoratning quyidagi shakllari mavjud:

Tabu — shaxsning biror-bir fikri yoki harakatlariga nisbatan cheklovlar tizimini qamrab oladi.

Urf-odat — yoshlikdan o‘zlashtiriladigan va jamoaviy odatlilik xarakteriga ega. Urf-odatning asosiy belgisi tarqalganlikdir.

Urf-odat jamiyatda ma'lum bir davrga xos bo‘lgan va vaqtincha davom etuvchi tavsifga ega.

An'ana — shunday urf-odatki, ma'lum bir xalq madaniyati bilan bog‘liq holda shakllangan, avloddan avlodga o‘tuvchi, xalqning mentaliteti bilan aniqlanadi. Urf-odat va an'analar ommaviy harakatlarni qamrab oladi va jamiyat integratsiyasida muhim rol o‘ynaydi. Ma'naviy ahamiyatga ega va aynan guruh yoki jamiyatda yaxshilik va yomonlikni tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus urf-odatlar mavjud.

Axloq — ma'lum bir davrda jamiyat kishilarining xulq-atvorida, xatti-harakatlarida, o‘zaro muloqot jarayonida o‘z aksini topadigan ijtimoiy kategoriyadir.

Odat — shaxs hayotida ko‘p takrorlanaverganligidan avtomatlashganlik darajasiga aylanib qolgan, anglanilmagan holda bajariladigan harakat shaklidir. Bu bir tomondan mustaqillik biz uchun avvalo o‘z taqdirimizga o‘zimiz egalik qilish huquqi, kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan barpo etish, yurtimiz boyliklaridan faqat xalqimiz va vatanimiz manfaati yo‘lida foydalanish huquqini bergani O‘zbekiston yoshlari ham ana shu oliy ne‘matdan barhamand bo‘layotgani bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan,

mustaqillik yillarida ana shu muqaddas qadriyat va milliy an'analariga tayangan holda yashash huquqini ham berdi. Uni saqlab qolish uchun mustaqillikni asrab-avaylash kerak bo'ladi. Ma'lumki, mustaqillikgacha milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilar edi. Navro'z, ramazon, qurbon hayiti kabi muqaddas milliy bayramlar taqiqlangan edi. Amir Temur, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Baxouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilinar edi. Bugun mustaqillik tufayli ularning nomlari, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz tiklanib, o'zligimizni chuqurroq anglab bormoqdamiz. Bugun yoshlar o'z milliy tarixini o'rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf-odat va an'analarning qayta tiklanib borayotgani ularni o'zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yutiqdur. "Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma'naviy qadriyatlarini o'rganib qolayotgani yo'q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo'lmoqda. Xorijiy davlatlarda o'qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg'or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari majmuidir. Qadriyatlar ahloqiy qoida va me'yorlar, g'oyalar va maqsadlardagi baholash mezoni hamda usullarini o'zida aks ettiradi: Ular halollik, poklik, o'zaro yordam va adolatliligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar: burch, vijdon, or-nomus, mas'uliyat kabi ahloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llabquvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir... Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki

undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi”. Istiqlol yillarida mamlakatimizda milliy tarbiyani amalga oshiradigan o‘quv muassasalari va umumta’lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e’tiborni kuchaytirish eng muhim va jiddiy masalaga aylandi. Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirilmoqda, uning uzviy va mantiqiy davomi bo‘lmish 2004-2009-yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi qabul qilindi. Unga muvofiq, yurtimizda mavjud bo‘lgan o‘n mingga yaqin umumta’lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o‘qituvchilarning mehnatini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko‘lami va mohiyatiga ko‘ra ulkan ishlarimiz biz ko‘zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo‘lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma’naviy yuksalishi yo‘lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, uning o‘sishi va taraqqiyoti uchun moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni yaratishda o‘z ajdodlaridan yuqoriroq darajaga ko‘tarilmog‘i darkor. Yoshlarni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan to‘g‘ri tarbiyalashda zamonaviy meditsina, pedagogika, psixologiya fanlari tavsiyalarini har qaysi oilada joriy qilish ayniqsa zarur. Har bir oila, ota-ona, eng avvalo, bola timsolida shaxsni ko‘rishi, uning uchun shaxsga tegishli barcha huquq va erkinliklar ta’minlashi borasida o‘zining mas’ul ekanligini doimo his etib turishi nihoyatda muhim. Milliy tarbiyada milliy g‘oyaga, milliy g‘ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, buyuk ajdodlar tavallud sanalarini nishonlash ham ma’naviy va tarixiy ahamiyatga ega. Bunday marosimlarni o‘tkazish orqali yoshlar yangi qadriyatlar asosida tarbiyalanadilar, ular qalbiga tarixni anglash va qadrlash, o‘tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g‘ururlanish tuyg‘ulari singdiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дилова Н.Г. (2018). Буюк аждодларимизнинг таълимотларида мужассамлашган ўқитувчи билан ўқувчилар ҳамкорлигининг педагогик хусусиятлари. Замонавий таълим. №3, 63-68 б.
2. Дилова Н.Г. (2013). Требования к учителю по организации сотрудничества учащихся начальных классов в учебном процессе. Актуальные проблемы современной науки. № 4 (72). С. 55-57.
3. Dilova N.G. (2017). Opportunities of Pupils' Complex Development on the Bases of Modernization the Content of Primary Education. Eastern European Scientific Journal. No. 1, pp. 1-4.
4. Dilova N.G., Saidova M.J. (2020). Formative assessment of students' knowledge as an innovative approach to education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2:12, P. 190-196.
5. Dilova N.G. (2017). Activity Areas of Primary School Teachers. Eastern European Scientific Journal. No. 6, pp. 1-6.
6. Dilova N.G., Saidova M.J. (2021). Innovative approach to education is a factor for developing new knowledge, competence and personal qualities. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). 1:10, P. 148-153.
7. Дилова Н.Г. (2017). Ўқувчи шахсини ривожлантиришда ҳамкорлик педагогикасининг ўрни. Замонавий таълим. 1-сон.
8. Nurjahan Ismoilova, Dilbar Abdullayeva Ijtimoiy psixologiya o'quv qo'llanma. Toshkent- 2013

TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYA NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mahmudova Madina Zayniddinovna

Navoiy Davlat Pedagogika instituti

Ta'lim muassasalari boshqaruvi yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Hozirgi kunda, ta'lim sohasini isloh qilish, xalqaro talablar asnosida o'quv jarayonini tashkil etish, yuqori kompetensiyalarga asoslangan yondoshuvlar asosida ta'lim maqsadlarini aniqlash kabi ishlar, yurtimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor maqsadlaridan biridir. Qolaversa, insonning ijodiy kamoloti, ijodiy tayyorgarligi, ijodiy bilim va ko'nikmalarni egallash tajribasi, ijodiy o'z-o'zini anglashi kabi masalalar, jamiyatimiz fanlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi. SHunday ekan, bu holat psixologiya fani oldiga ham muhim vazifalar quyishi tabiiy.

Psixologik mazmunga ko'ra, insonning biror sohaga bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarligi kompetentlik sanalib, u ijodiy kompetentlik bilan kengroq tushuntiriladi. E.M.Pamoxovaning aytishicha, "ijodiy kompetentlik" mohiyatan, keng qamrovli psixologik tushuncha sanalib, unda shaxsga xos reflektiv, prognostik, analitik, tashkiliy, kommunikativ, proeksion hamda tashkiliy jihatlar mujassamdir⁴. Demak, ijodiy kompetensiya – insonning qadriyatlar olamiga kirishi hisoblanib, aynan unda inson mutaxassis sifatida o'zini anglaydi va yangilik yaratadi. SHuningdek, ijodiy kompetensiya insondagi sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, qobiliyat, iste'dod, ijodiy faziyatlar, motivatsiya hamda qator xarakterologik sifatlar mazmuniga ham javob beruvchi fenomen hisoblanadi. Uni tadqiq etish kasb va shaxs haqida o'ta ahamiyatli, qiziqarli ma'lumotlarni aniqlashga imkon berishi ehtimoldan holi emas.

Katta psixologik lug'at kitobida keltirilishicha, ijodiy kompetensiyasi quyidagicha izohlanadi: "ijodiy kompetentlik bu- bilim, ijodiy o'z-o'zini anglash, tajriba to'plash, ijodiy istiqbolni baholay olish, xatti-harakatlar strategiyasini tanlash

⁴Пахомова Е.М. Конкурс профессионального мастерства как средство повышения квалификации учителя: Дисс. канд. пед. Наук — М., 2003. — 208 с.

qobiliyati, ijodiy vazifalarni samarali bajarish tajribasidir”⁵. Mazkur ta’rifga muvofiq, ijodiy kompetensiya - faoliyat samaradorligini ta’minlovchi psixologik xususiyat sanalib, unda ijodiy vazifalarni hal etishning individual uslubi ham mavjud.

E.G.Islamgalievning aytishicha, ijodiy kompetentlik fenomenining mazmuni faoliyat jarayoniga xos bilim, ko‘nikma va usullar tizimida tahlil etilishi lozim ya’ni⁶:

- SHaxs faoliyati sifatida;
- SHaxsning o‘ziga xos xususiyati sifatida;
- Mustaqil, samarali, mas’uliyatli xatti-harakat turi sifatida;
- Akmeologik tushuncha sifatida;
- Ijodiy mahoratning muhim tarkibiy komponenti sifatida.

Muallifning nazaricha, ijodiy kompetentlikning ushbu komponentlari, ijodiy faoliyatdagi muvaffaqiyatni ta’minlab, unda shaxsda mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

SHuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, ijodiy kompetentlik fenomeni keng qamrovli kategoriya sanalib, unda psixologik, sotsiologik, pedagogik, falsafiy yondoshuvlar ham farqlanadi. Quyida ushbu yondoshuvlarda aks etgan o‘ziga xos qarashlar haqida to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz. Psixologik yondoshuvga ko‘ra, ijodiy kompetensiya – hozirgi zamon talablari asosida ijodiy vazifalarini mohirona bajara olish, o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotga qo‘llay olish qobiliyatidir. Bunda, bilim kasb uchun olingan barcha kerakli ma’lumotlar tizimi sanaladi. Malaka esa, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash tajribasi sifatida qaraladi. SHuningdek, mazkur yondoshuvga binoan, ijodiy kompetensiyani tahlilida insondagi ishlash qobiliyati, motivatsiya darajasi, hayotiy vaziyatlarga tez moslasha olish ko‘nikmasi kabilar ham, e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Tadqiqotchi T.V.Dobudkoning aytishicha, ijodiy kompetentlikka oid yondashuvlar ichida psixologik qarashlar o‘ziga xos sanalib, unda kasb va shaxsga ko‘plab xarakterologik sifatlar, ijodiy muvaffaqiyatni ta’minlovchi psixologik

⁵ Большой психологический словарь / Авдеева Н. Н. и др. ; под ред. Б. Г. Мещерякова, В. П. Зинченко. - 4-е изд., расш. - Москва : АСТ ; Санкт-Петербург : Прайм-Еврознак, 2009. – С.417.

⁶ Исламгалиев Э.Г. Профессиональная компетентность педагога (социология, анализ): Дисс. канд. соц. наук Екатеринбург, 2003. – С.77.

omillarning mazmuni aks etgan ⁷. Mazkur yodashuvda ko‘ra, muammoni o‘rganishning ko‘plab uslubiy jihatlari e‘tirof etilib, ularga ijodiy faoliyatda shaxs imkoniyatlarini tekshiruvchi metodikalar, so‘rovnomalar, testlar kabilarni misol qilish mumkin.

Ikkinchi konseptual yo‘nalish sotsiologik yondashuv hisoblanib, unda “ijodiy kompetentlik” hayotiy va ijtimoiy muammolarni samarali hal etish bilan tushuntiriladi. G.B.Korablevaning so‘zlariga ko‘ra, shaxsning ishbilarmonlik qobiliyati, muvaffaqiyatli biznes faoliyati, boshqaruvda to‘g‘ri qaror qabul qila olish malakalari kabilar ijodiy kompetentlikni belgilovchi sotsiologik komponentlar sanaladi⁸. Demak, jamiyat va shaxs munosabatlarining muvofiqligida ijodiy kompetentlikka ega bo‘lish ham o‘ta muhim hisoblanadi.

Uchinchi yondoshuv sifatida, “ijodiy kompetentlik” ni tushuntiruvchi pedagogik qarashlar ham farqlanib, unga ko‘ra ijodiy kompetentlik pedagogik faoliyat va uning samarador tashkil etilishi bilan bog‘liq ravishda tushuntiriladi. Ya‘ni pedagogik faoliyatda shaxsning ijtimoiy va ijodiy harakatchanligi, o‘zaro munosabatlarga ochiqligi, ijodiy izlanishi hamda o‘zini o‘zi sohada namoyon qila olishi kabilar bilan xarakterlanadi. Hozirga qadar pedagogika sohasida, ijodiy kompetentlik masalasida ko‘plab xorij va mahalliy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ular asosan bo‘lajak pedagoglarda ijodiy o‘ziga xos sifatlarni shakllantirish texnologiyalari mavzulariga bag‘ishlangan. E‘tiborga molik tadqiqotlar sifatida, V.V.Kraevskiy, A.V.Usova, G.P.SHedrovitskiy, V.A.Slastenin, S.E.SHishov, A.V.Xutorskoy, S.G.Vershlovskiy, N.O.Verbitskaya, S.I.Zmeev, I.A.Kolesnikovalarning ilmiy izlanishlarini tan olish mumkin.

⁷Добудько Т.В. Формирование профессиональной компетентности учителя информатики в условиях информатизации образования. Самара: СамГПУ, 1999. – 340 с.

⁸ Кorableва Г.Б. Профессия и образование: социологический аспект связи. Екатеринбург, 1999. – С.98.

UZOQ UMR KO'RISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Sohiba Boymirzayeva
Norin tumani 30-maktab psixologi

Xalqaro so'g'liqni saqlash tashkilotining bergan ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligi 50% ziyod holatlarda uning turmush tarziga, 20% nasliy omillarga 20% ekalogiyaga, yani atrof –muhit ta'sirlariga, 10% tibbiy yordamning samaradorligiga bo'g'liq ekan. Turmush tarsi deganda, odatda aylangan, barqaror xulq-atvor va muomala normalari tushuniladi. U o'z navbatida odam organizimining muayyan ritm va ko'nikmalariga ega bo'lishi orqali salomatligini ma'lum me'yorlarida ushlab turish, chiniqish, dam olish va oqilona tashkil etishga o'rganib qolishini ta'minlaydi.

So'g'lom turmush tarsi va ruxiy salomatlik odamning tabiiy va organic extiyojiga aylanishi lozimki, u ushbularga ongli, ixtiyoriy tarzda butun hayotiy mobaynida rioya etmog'I lozim. Takidlaganimizdek, psixik salomatlik nafaqat tana vujudning gigenasini, balki ma'naviy sohasini, axloqiy normani, o'z-o'zini tarbiyalashni nazarda tutadi. Shu bois ham bolani ilk yoshlikdan so'g'lom turmush tarziga o'rgatish lozim. Ularda eng avvalo, so'g'lom va uzoq yashash tarzini shakllantirish kerak.

Inson umri va uning salomatligi xususida gap borar ekan ,Shuni takidlash joizki ,inson sog'va salomatlik paytida salomatlikning qadriga yetmay ,xattoki ,uni xis qilmaydi ham.Sog'liq to'g'risida o'ylash ,o'ziga g'amxo'rlik qilish istagi faqat salomatligida jiddiy muammolar paydo bo'lgan ondan boshlanadi.Biroq xastalikka chalinib ,davolangandan so'ng ham yana eski odat –salomatlikning qadriga etmaslik boshlanadi.

Xozirda uzoq umr ko'rish ,yuz bilan yuzlashganlar "psixologiyasini o'rganish ,ularning tipik xususiyatlari borasida muayyan ilmiy tajriba bor .Keksalik davri fanda odatda gerentogenez atamasi bilan tushuntiriladi.Ko'pchilik tadqiqotchilar bu davrning jinsiy o'ziga xosligi to'g'risida fikr yuritib ,bu davrning ayollarda 55 yoshdan so'ng ,erkaklarda esa60 yoshdan so'ng boshlanishini qayd etadilar.Yosh davrlari psixologiyasida esa ayni shu davrning o'zini uch qismga bo'lib o'rganadilar.:keksalik,va uzoq umr ko'rganlar,nuroniylk.

90-yoshdan oshganlar –umrboqiydirlar.Uzoq va boqiy umr ko'rgan insonlar shaxsiga oid umumiy qonuniyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin.Uzoq umr ko'ruvchi insonlar ma'naviyatiga oid umumiylik shundan iboratki ,ular kelalikka ishonadilar,ular uchun be'mani yashash kabi qusurlar yotdir.Ularning fel-atvoriga e'tibor bersak ,etakchi fazilat sifatida bosiqlikni ajratish mumkinki,bunday odamlar bo'lgan –bo'lmaganda sarosimaga tushmaydi,ular faol ,jonsarak,ochiqko'ngildirlar.Emotsional xusiyatlardan hayotga chanqoqlik ,yomon kayfiyatdan yaxshisiga o'tishning engilligi ,ruxiy evrilishlardan o'zini saqlay olish ,xushchaqchaqlik ,optimizm,yumor xissi ,xodisa va muammolarga nisbatan mulohazalilik,o'zini tuta bilish ,kuchli xayajon va zo'riqishlardan o'zini tiya bilish ,badjaxllik,zolimlilik ,hasaddan yiroqlik borligini ta'kidlash mumkin.

MULOQOT PSIXOLOGIIYASI

Boyqulova Go'zal Panjiyevna
Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 41-makta psixologi

Tayanch tushunchalar:

Kommunikatsiya (psixologiyada) — til yoki boshqa belgilar vositasida axborot berish.

Muloqot — ikki yoki undan ortiq kishilar o`rtasidagi axborot ayirboshlash, o`zaro ta`sir va bir - birini tushunishdan iborot jarayon.

Monologik nutq — bir kishining o`ziga yoki boshqalarga yo`naltirilgan nutqi.

Refleksiya — sub`ektning u bilan munosabatga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab etish.

Til — so`z belgilari yig`indisi.

Insonning uning o`rab turgan olamga o`zaro ta`siri ob`ektiv munosabatlar tizimida namoyon bo`ladi, ob`ektiv munosabat va aloqalar so`zsiz har qanday real guruhlarda paydo bo`ladi. Guruh a`zolarining bu ob`ektiv o`zaro munosabatlari

sub`ektiv shaxslararo munosabatlarda aks etadi. Har qanday ishlab chiqarish odamlarning o`zaro birlashishini talab qiladi. Hech bir kishilik jamiyati agar unda odamlar bilan munosabat o`rnatilmasa, ular bir - birini to`g`ri tushunmasdan to`laqonli, birgalikdagi faoliyatni tashqil eta olmaydi. Masalan, o`qituvchi o`quvchilarga biror narsani o`rgatish uchun ular bilan munosabatga kirishishi kerak.

Muloqot kishilarning hamkorlikdagi faoliyati ehtiyojlari asosida tug`iladigan ular o`rtasidagi aloqa rivojlanishining ko`p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o`rtasida axborot almashinishni o`z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ tomonini ifodalaydi. Odamlar bir - biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar. Muloqotning ikkinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning o`zaro ta`siridir. Bunda faqat so`zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi. Masalan, sotuvchi bilan haridor o`rtasida biror so`z aytmasdan muomalaga kirishish mumkin. Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir - birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir -birini to`g`ri tushunishi muhim ahamiyatga ega. SHunday qilib, muloqotning shartli uch tomonini ajratish mumkin: kommunikativ (axborot berish), interaktiv (o`zaro ta`sir) va pertseptiv (o`zaro idrok qilish). Muloqotning bu uch tomonining birligi muomalaga kirishuvchi kishilarning o`zaro munosabati va hamkorlikdagi faoliyatining tashqil etish usuli sifatida namoyon bo`ladi. Muloqotning qonuniyatlarini, malaka va qobiliyatlarining shakllanishi bilish pedagog uchun g`oyat muhimdir. Bu to`laqonli pedagogik muloqotni yoki muomalani yo`lga qo`yishini ta`minlaydi. Pedagogik muloqot-pedagog va o`quvchilarning o`zaro ta`sir etish usullari yig`indisidir. Muloqotning mazmuni - axborot almashish, o`qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o`quvchilar bilan o`zaro tushunish va o`zaro munosabatlarni tashqil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarni o`qituvchi hamda o`quvchilar jamoasi o`rtasida munosabatlarni ta`minlamay turib amalga oshirib bo`lmaydi.

Pedagogik faoliyatdagi muloqot:

1. O`quv vazifalarini bajarish vositasi.
2. Tarbiyaviy jarayonni ta`minlashning ijtimoiy - psixologik tizimi.

3. Ta`lim va tarbiya jarayoni muvafaqqiyatini ta`minlovchi o`qituvchi va o`quvchilarning o`zaro munosabatlarini tashqil qilish usuli.

4. O`quvchining individual xususiyatlarini tarbiyalash jarayoni sifatida namoyon bo`ladi.

Pedagog bu muloqotning o`quv tarbiyaviy jarayonlarni hissiy foni va vosita mazmunini tashqil etadi. Muloqot ikki va undan ortiq kishilar o`rtasida bilish yoki baholash tarzidagi axborot almashishda namoyon bo`luvchi o`zaro ta`sirdir.

Muloqotning turlari va vazifalari.

Hamkorlikdagi faoliyatda zaruriyat tufayli inson boshqa kishilar bilan birlashishi, ular bilan munosabatga kirishishi, aloqa o`rnatishi, o`zaro tushunishga erishishi va kerakli axborotni olishi, shunga mos javobni berishi kerak. Bunda muloqot faoliyatning bir tomoni, uning axborot aspekti-kommunikatsiya sifatida namoyon bo`ladi. Biroq predmet yasash bilan birga inson o`zi yasagan predmetda o`zini “translyatsiya” qiladi, ya`ni o`zini boshqalarda davom ettiradi. Hosil qilingan predmet (ko`rilgan bino, yozilgan qatorlar, o`tkazilgan daraxt) bir tomonidan faoliyat predmeti, ikkinchi tomondan inson o`zini ko`rsatadigan vositadir. CHunki bu boshqa kishilar uchun hosil qilingan. SHunday qilib, faoliyat muloqotning bir qismi, uning tomoni; muloqot faoliyatning bir qismi va tomonidir. Lekin muloqot va faoliyat barcha hollarda yaxlit (buzilmas) birlikni tashqil etadi.

Muloqotning verbal va noverbal vositalari

Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o`rtasidagi kommunikatsiyani ta`minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (retsipient) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir - birini to`g`ri tushunolmaydi. Axborot almashish muomala qatnashuvchilariga tushunarli belgi va mazmunga ega bo`lishi kerak. Til so`z belgilari yig`indisidan iboratdir. So`zning ma`nosi uning mazmuniy tomonidir. Har bir alohida odamning harakatlari va faoliyatlarini alohida odamning harakati va faoliyatlarini 3 ta muhim omil belgilaydi. Birinchidan, butun insoniyatning yoki bir muncha tor doiradagi kishilar jamoasining ijtimoiy -tarixiy tajribasi belgilaydi. Kichkina bola dunyoni mustaqil

ravishda bilab olmaydi, u ota - onasiga savollar beradi va ular unga javob beradilar, bu javoblardan bola o'z faoliyatini keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu ozginagina qismini bola til shaklida, til yordamida so'z belgilari tizimida hosil qila oladi. Maktabda ham xuddi shunday bo'ladi, o'quvchi olam haqida barcha bilimlarni o'qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya'ni til yordamida o'zlashtiradi. Bu erda til o'zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya'ni yashash vositasi ijtimoiy -tarixiy tajribani berish va o'zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, har bir alohida odamning ish -harakati va faoliyati ko'pincha ijtimoiy qiymatga ega bo'lmagan o'zga kishilarning bevosita tajribalari belgilaydi. Masalan, men oshxona tomon yo'l olaman. Yo'lda o'rtog'im uchrab menga: "oshxona yopilgan", deydi. SHu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma'lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo'nayman. Bu erda til o'zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya'ni vosita yoki kommunikatsiya usuli yoki olamning xatti -harakatlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo'ladi. Natijada har qanday kommunikatsiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta'sir qilishdan iboratdir. Uchinchidan, har bir alohida odamning ish -harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning "shaxsiy" tajribasi, o'z individual tajribasi boshqa kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o'ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli ularoq, o'z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirishdan va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Bu erda biz tilning uchinchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to'qnash keldik. So'z belgilari tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniladi.

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy -tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Til aloqa vositasi yoxud quroldir, nutq faoliyati yoki nutq esa aloqa jarayonining o'zidir. Nutq faoliyatining faol va passiv turlari farqlanadi: So'zlovchining nutqi faol nutq, tinglovchining nutqi esa passiv nutq hisoblanadi. Nutq ichki va tashqi nutqqa bo'linadi. Tashqi nutq-yozma va og'zaki nutqqa, ogzaki nutq esa monolog va dialogik nutqqa bo'linadi. Monolog - bir kishining

o`ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqidir. Bu o`qituvchining bayoni, o`quvchining to`laroq javobi, ma`ruza va boshqalardir. Monologik nutq ma`lum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapirayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, grammatik qoidalarning saqlanishiga, mantiq va aytilayotgan fikrlarning izchilligiga e`tibor berish kerak. Dialogik nutqqa nisbatan monologik nutq kechroq shakllanadi. Maktabda o`qituvchilar o`quvchilarda monologik nutqni rivojlantirishga alohida e`tibor berishlari kerak. Ikki yoki undan ortiq kishilar o`rtasidagi nutq dialog deyiladi. Dialogik nutqda bayon qilinayotgan fikr ko`p jihatdan undan oldingi fikrga bog`liq bo`ladi. Dialogik nutqda suhbatdoshlarga ma`lum bo`lgan ayrim so`zlar tushirib qoldiriladi. SHuning uchun yozib olingan dialog boshqalarga unchalik tushunarli bo`lmasligi mumkin. Dialogik nutqda har xil turdagi shablonlar, ya`ni odatlanib qolingan so`z birikmasi ko`p uchraydi (qoyil, marhamat qilib aytingchi). Nutqning ichki nutq deb atalgan turi nutq faoliyatining alohida turi hisoblanadi. Ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasi sifatida namoyon bo`ladi. Biz so`zni chala - yarim aytishimiz bilanoq tushunaveramiz. Ichki nutq ayrim og`zaki nutq aktlaridan ilgariroq, xuso`san ixtiyoriylik darajasi ancha yuksakroq bo`lgan og`zaki nutqdan ilgariroq sodir bo`lishi mumkin. YOzma nutq monologik nutqning turlaridan biri bo`lib yozma nutq monologik nutqqa nisbatan batafsilroqdir.

Noverbal kommunikatsiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), ko`z yosh, kulgu va boshqalar kiradi. Bu vositalar verbal kommunikatsiya - so`zni to`ldiradi, kuchaytiradi va ba`zan uning o`rnini bosadi. Bolgarlarda boshni qimirlatish yo`q degani, ruslarniki teskarisi bo`ladi. Turli yosh guruhlarida noverbal kommunikatsiya vositasi turlicha bo`ladi. Masalan, bolalar ko`pincha kattalarga ta`sir etish, ularga o`z xohish va kayfiyatlarini o`tkazishda yig`idan vosita sifatida foydalanadilar. Axborotni so`z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga noverbal kommunikatsiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turidir. Bu ayniqsa pedagog uchun g`oyat muhimdir.

Muloqot kishilar o`rtasidagi o`zaro ta`sir etish

Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o`z oldiga boshqalarga ta`sir etish, shu narsani ularga

tushuntirish maqsadini qo'yadi. Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o'zaro ta'sir sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro'y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus xulq - atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan. Ijtimoiy normalar ko'lami nihoyat keng - mehnat intizomi harbiy burch va vatanparvarlik xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidandir. Ijtimoiy nazariya muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning "repertuar"iga mos holda namoyon bo'ladi. Psixologiyada "rol" deganda ijtimoiy (sotsial) mavqeni egallab turuvchi har bir kishidan atrofdagilar kutadigan, normativ tomonidan ma'qullangan xulq - atvor namunasi tushuniladi. (yosh, mansab, jins va oiladagi, o'qituvchi va o'quvchi shifokor va bemor, katta kishi yoki bola, boshliq yoki xodim, ona yoki buvi, erkak yoki ayol, mehmon yoki mezbon rovida namoyon bo'lishi mumkin). O'z navbatida har bir rol' o'ziga mos talablarga javob berishi kerak. Bir kishi turli muloqot vazifalarida turli rollarni bajarishi mumkin. Masalan, xizmat joyida direktor, kasal bo'lsa shifokor ko'rsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada keksa ota - onasining qobil farzandi, mehmondo'st oila boshlig'i bo'ladi. Turli rollarni bajaruvchi kishilarning o'zaro munosabati rolli kutishlari bilan boshqariladi. Xohlaydimi yoki yo'qmi atrofdagilar undan ma'lum namunaga mos keluvchi xulq -atvorni kutadilar. Agar rol' yaxshi bajarilmasa ijtimoiy - nazorat tomonidan baholanadi, ozmi -ko'pmi cheklanishlar qilinadi. Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o'zaro ta'sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq - atvor namunasi qo'llanishidadir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va unda nimani ko'rishga tayyor ekanligini to'g'ri, aniq, xatosiz ko'chira olish qobiliyati takt deb ataladi. O'qituvchi o'quvchilar jamoasi kishilardan tashqil topganligini unutmasligi har bir o'quvchi shaxsini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. O'quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo'lsada yo'qolishi, og'ir oqibatlarni vujudga keltiradi.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHDA DASTLABKI PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Toshmatova Zilolaxon Abdusattarovna

Namangan viloyati Norin tumani 24-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda barcha sohalar qatori ta‘lim tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning samarasi, yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo, ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog‘liqdir.

Olib borilayotgan islohatlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish boyicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishda ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san‘at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ka‘bi vazifalar belgilangan [1].

Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo‘yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida o‘qituvchi va murabbiylarimizning hissasi beqiyos ekanini ta’kidlash lozim.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi nafaqat o‘quvchilarga ilm-fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiradi. O‘quvchi bolaligidan biror bir kasbga mehr qo‘yadi, uni orzu qiladi, o‘sha kasb egasi sifatida o‘zini tasavvur qiladi.

Mazkur tasavvurning realligini ta‘minlashda o‘qituvchining katta o‘rni bor. Negaki, o‘qituvchi hali mukammal shakllanmagan bola tasavvurida go‘yoki bir “sehrGAR”, tengsiz murabbiydir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo'lishi kerakki, yuqori sinflardagi o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari, o'y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo'lsin.

Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari bor, bular:

- Mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom;
- mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash;
- o'z ishini rejelashtira va nazorat qila bilish;
- ish joyini to'g'ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo'lish;
- toqatlik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish;
- materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarning hammasini o'quvchilarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim [2, b. 6].

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlar:

- kognitiv (axborotga ega ekanligi);
- kasbga qiziqish mezoni;
- amaliy mezon [3, b. 46].

Kasbni to'g'ri tanlash har bir o'sib kelayotgan avlodning obektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'ligini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'prok o'z ifodasini topadi va namoyon bo'ladi.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan.

O'qituvchining vazifasi — o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan,

inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat [2, b. 9].

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo'naltirish ishida o'quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko'rsatib o'tish mumkin [2, b. 12-14].

Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash — moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o'quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni, eng muhimi — jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo'lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo'ldan keladigan o'z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag'ishlashga va bundan ma'naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to'g'risida qishloq maktablarining o'quvchilari uchun jamoa xo'jaligida, shahar maktablarining o'quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Ekskursiyalar chog'ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e'tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli o'qitirib o'tiladi.

Ikkinchi bosqich (V-VII) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash — biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqish, odatda, kasbga bo'lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichida kasbga yo'naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o'quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat obyektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish muhimdir.

Kasbga yo'naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashg'ulotlar, viktorinalar, o'yinlar katta rol o'ynashi lozim. Bu bosqichda o'quvchilarda ijtimoiy

maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo‘naltirish ham boshlanadi.

Uchinchi bosqich (asosan VIII-XI) sinflarning o‘quvchilarini qamrab oladi — bu bosqichida o‘quvchilar o‘z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko‘radilar, o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O‘quvchilar bu bosqichda o‘z kasbiy niyatlarining birmuncha umumiy kasblar bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o‘zlashtirish yo‘llarini belgilash bilan tugaydi. O‘quvchilarni qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo‘yicha to‘garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish jarayonini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- kasbga yo‘naltirishda yakka tartibda ishlashga e‘tibor qaratish;
- mavzu yuzasidan davra suhbatlarini tashkil etish;
- turli kasblarga oid audio-video materiallar bilan tanishtirish;
- sinfdan tashqari ishlarni kasb tanlashga yo‘naltirish;
- turli soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- madaniy tadbirlar tashkil etish;
- kasblar burchagini tashkil etish va shu mavzuda ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil etish.

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, o‘quvchilarni o‘z vaqtida to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha, harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi PF-4947-son Farmon. www.lex.uz.
2. Jumaboyeva M. Umumiy o‘rta ta‘limda kasbga yo‘naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo‘jaligi instituti, 2014. — 21 b.
3. Mardanov D. Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b.

BOLALARDA JAHLI TEZLIK VA UNI YO‘QOTISH YO‘LLARI

*To‘raeva Zohidaxon Saydaxmadovna
Namangan viloyati Norin tumani 24-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Jahl boshqa emotsiyalar singari insonning atrof muhitga moslashish vazifasini bajaradi. Jahl odamlarda ham, hayvonlarda ham ma‘lum maqsadga yetishish yo‘lida paydo bo‘ladigan to‘siqlarni yengish uchun kerak bo‘ladi. Shuning uchun jahlni hamisha ham kasallik deb qarash noto‘g‘ri. Jahl – ma‘lum vaziyat taqozosi bilan paydo bo‘ladigan harakat va shuning uchun o‘sha vaziyatdan inson chiqmas ekan, unda jahl saqlanib qolaveradi. Agar jahl ma‘lum vaziyatda emas, doimiy saqlanib qolsa, buni endi sog‘lomlik deb bo‘lmaydi. Bu ma‘lum ma‘noda o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmining buzilganligidan dalolat beradi.

B.Spokning fikricha, quyidagilar normal holat hisoblanadi: bir yoshga kirgan bola onasi qilgan noxush harakatga qarshilik ko‘rsatsa; - ikki yashar bolaning o‘zga bolani urishi; agar uning biror narsasini tortib olishsalar va h.k. Mazkur jahldor harakatlar ma‘lum vaziyatlardan kelib chiqayapti. Biroq ular kasallik chegarasiga ham o‘tib qolishi mumkin. Har qanday buzilish o‘z ibtidosini ma‘lum vaziyatdan olishi mumkin.

Normal jahl holatining kasallik holatiga o‘tib qolish shartlari quyidagilar:

Ota-onalarning doimiy jahlli hatti-harakatlari. Bunday xulqqa bolalar taqlid qiladilar, beixtiyor o‘sha jahlni o‘zlariga yuqtiradilar. Bu hodisaning psixologik mexanizmi quyidagicha: bolaning emotsional o‘z-o‘zini boshqarish tipiga moslashadi;

- bolaga ota-ona muhabbatining berilmasligi. Bu narsa bolada himoyasizlik tuyg‘usini shakllantiradi, atrofdagilarga nisbatan shafqatsizlikni paydo qiladi;

- ota-ona tomonidan bolaning haqorat qilinishini va kamsitilishi. Bu tarbiyadagi xususiy hol bo‘lishi mumkin, biroq bola shaxsi rivojida bu narsa o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi;

- ikki yo‘ldan birini tanlash holatini bolada tez-tez paydo qilish. Bola qay tomonni tanlashga qiynaladi. Agar noto‘g‘ri quyilgan qadam uchun jazo oladigan bo‘lsa, jahl kasallikka aylanib ketishi mumkin.

Bunday ota-onalar bilan ishlash juda murakkab, chunki jahldor bolasi bor ota-ona odatda unga nisbatan o'zlarida adovat tuyg'usini his qiladi va ular psixolog-konsultantga yordam uchun emas, balki uni tinchlantirib qo'yish uchun murojaat qilishadi. Ularga qolsa bolani tinchlantiruvchi bitta dori berishlarda, bola birdaniga jahldan tushib qolsa. Ular bilishmaydilarki, boladagi jahlning ildizlari ularning turmush tarzlariga borib taqaladi. Aksariyat hollarda o'sha ota-onalarning o'zlari yoshligida serjahl bo'lgan bo'lishadilar. Ular o'zlaridagi psixologik holatlarini o'z farzandlariga uzatishadi. Shuning uchun psixolog odatda ilk ishini jahli tez bolaning ota-onalaridan boshlamog'i kerak.

Birinchi, ular bilan ishlaganda ularning o'z-o'zini baholashiga salbiy ta'sir ko'rsatib qo'yishdan ehtiyot bo'lish kerak. (Siz o'z bolangizni yaxshi bilmaysiz, men sizga o'rgatib qo'yaman qabilidagi gaplar ularning shaxsiyatiga tegishi mumkin). Aksincha, ularni o'z farzandlarini yanada bilishlikka chorlash lozim.

Ikkinchi, ota-onaning bolaga bo'lgan munosabatini o'zgartirish zarur. Ular serjahl bolasini noshukurlikda ayblashadilar. Ular bolani tergaganlarida, urishganlarida bolalari kechirim so'rashlarini, aybdor ekanligini aytishini kutishadi. Bola bu ishni qilmaganligini ko'rgach, ularning jahli chiqadi va bolani beodoblikda buzilib ketganlikda ayblashadi. Iloji boricha, ota-onalarda o'z bolalariga nisbatan rahm-shafqat tuyg'usini uyg'otish kerak. Serjahl bola-bu avvalom bor baxtsiz bola ekanligini ularga uqdirish kerak. Ota-onalarga jahlning paydo bo'lish mexanizmini, jahlitezlik bolaning emotsional jihatdan kasallanishi ekanligini tushuntirish lozim.

Uchinchi, ota-onalarning o'z bolalıkları haqidagi xotiralarini tiklash kerak. O'zlarining ham qilgan jahlli xulq-atvorining sabablarini birgalikda muhokama qilish zarur. Ehtimol, bu narsa bola bilan ota-onalar o'rtasidagi muomalaning shaxsiy sabablarini ochishga yordam berar va shu yo'l bilan psixologik yordam olar.

To'rtinchi, ota-onaning bolaga tug'ilguncha va tug'ilgandan keyingi birinchi oylardagi munosabatini aniqlab olish zarur. Agar bola boshidanoq istalmagan bo'lsa (balki bola tasodifan yoki majburlikdan tug'ilgandir), ota-ona bilan hamkorlikda aniq bir qarorga kelish zarur. Masalan, bola istalmagan bo'lsa-da, har qalay unga g'amxo'rlik ko'rsatish zarurligi uqtirilishi darkor.

Serjahl xatti-harkatni yomon deb bo'lmaydi. Kutilmagan vaziyatlarda u himoya vazifasini bajaradi, ba'zida ma'lum vaziyatdan chiqishga xizmat qiladi. Jahlitezlik bolalarda aksariyat hollarda kuzatiladi. O'tish bosqichlari – bu ijtimoiy muammolar bilan paydo bo'ladigan krizislar bo'lib, inson hayotining turli bosqichlarida kuzatiladi. Amerikalik psixolog E.Erikson inson hayotida 8 ta krizisni farqlaydi. Bular quyidagilar:

1) Birinchi krizisni bola umrining birinchi yilida boshidan kechiradi. Bu bola fiziologik ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liq. Agar yaxshi qondirilmasa, bolada atrofdagilarga ishonchsizlik paydo bo'ladi.

2) Ikkinchi krizis bolaning tozalikka o'rgatish paytiga to'g'ri keladi. Agar bolaga qat'iy tashqi nazorat o'rnatilsa, unda uyat va shubha paydo bo'ladi.

3) Uchinchi krizis ikkinchi bolalik davriga to'g'ri keladi. Bunda bola mustaqil faoliyat ko'rsata boshlaydi. Agar uning omadsizligini hadeb ro'kach qilinsa, unda aybdorlik tuyg'usi shakllanadi.

4) To'rtinchi krizis maktab yoshida sodir bo'ladi. Maktabdagi muhitga moslasha olmagan o'quvchida o'ziga ishonchsizlik tuyg'usi paydo bo'ladi.

5) Beshinchi krizis o'smirlarda kuzatiladi. Undagi biologik yetilish bilan sotsial jihatdan yetilmaganlik o'rtasidagi ziddiyat bu krizisni keltirib chiqaradi.

6) Oltinchi krizis yosh yigit-qizlarda kuzatiladi. Bunda ayrim yoshlarda izolyatsiya ya'ni o'z-o'zi bilan bo'lish kuzatiladi.

7) Yettinchi krizis 40 yoshda kuzatiladi. Unda ham oilaviy munosabatlarda turg'unlik kuzatiladi.

8) Sakkizinchi krizis qarilikda sodir bo'ladi. U o'limdan qo'rqish va yangidan hayot boshlay olmasligidan nadomat tuyg'usi bilan xarakterlanadi.

Shu 8 ta krizisning har biridagi salbiy holatlar odamda jahlni chiqaradi va u xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Jahlitezlikni tahlil qilganda albatta bu psixosotsial krizislarni hisobga olmoq lozim.

Bola xulq-atvoridagi serjahlilik ular bilan munosabatni qiyinlashtirsa ham jahlni mutlaqo salbiy sifat deb baholash noto'g'ri. Unutmaslik kerakki, boladagi faollikning oshishi uning bo'lishi mumkin. Agar maxsus tuzatish ishlarini olib borilsa, unda atrofdagilar bilan normal muomala paydo bo'ladi.

Boladagi jahlni tuzatish ishlari uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlashdan boshlanadi. Agar jahl bolaning emotsional – motivatsion olamidagi buzilish bo‘lmasa, unda ishlar jahlni olib tashlash yo‘lidan emas, balki bola xulq-atvoridagi jahlni yumshatish, bolaga yaxshi tomondan ta’sir qilish ishlarini olib borish talab qilinadi. Bundan tashqari, ota-onalarni boladagi o‘zgarishlarga tayyorlash kerak.

O‘zga holatda, agar jahlitezlik bola shaxsining emotsional – motivatsion sohasidagi buzilish bo‘lsa uni bola xulq-atvoridan yo‘qotish yo‘lidan bormoq lozim.

Jahli tezlikni yo‘qotish yo‘lida qo‘llaniladigan psixokorreksion usullar uni keltirib chiqargan sabablarning xarakteriga bog‘liq. Korreksion metodlarni tanlashda konkret hodisadan va konkret boladan kelib chiqqan holda tanlash kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Е.И.Рогов. Настольная книга практического в образовании. М.“Владос” 1996.
2. Ж.Годфруа. Что такое психология. Том 2. М. “Мир” 1992

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILAR XOTIRASI XUSUSIYATLARI

*Abdurahmonova Munosib Abdurashitovna
Namangan viloyati Norin tumani 24-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Hozirgi davr talabi ma`naviy jihatdan yetuk, har tomonlama bilimdon, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish bo`lib, bu muammo shaxsning bilish jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Shaxsning ma`naviy yetukligi, bilimdon, zehnliligi ta`lim jarayonida namoyon bo`ladi. Ta`limning sifatli tashkil qilinishi o`quvchilarning bilish jarayonlaridan biri hisoblangan xotira jarayoniga bog`liq bo`ladi. Shunday ekan, o`quvchilarning esda saqlash, esda olib qolish, qayta esga tushirish jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotira mavzusi yosh davrlari psixologiyasi, umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, eksperimental psixologiya

yuridik psixologiya kabi psixologiyaning turli tarmoqlarida o`rganilgan hamda ko`pgina tadqiqotlar o`tkazilgan. Yosh davrlari psixologiyasida xotira masalasi inson shakllanib, turli yosh davrlariga qadam qo`yishi bilan xotira jarayoni ham shakllanib rivojlanib borishi xususida ma`lumotlar olishimiz mumkin. Umumiy psixologiya darsliklari orqali xotira haqida tushuncha, xotira turlari xotira jarayoni haqidagi nazariyalar haqida ko`pgina ma`lumotlar keltirib o`tilgan. Pedagogik psixologiya fanida xotira jarayonining pedagogik jarayondagi ahamiyati, o`qituvchi hamda o`quvchi, talabalar xotira jarayoni va buning ta`lim jarayoniga ta`siri hususiyatlari o`rganilgan.

Tibbiyot psixologiyasi fanida xotiraning nerv fiziologik asoslari, xotira buzilishlari va korreksiya qilish usullari haqida ma`lumotlar mavjud. Eksperimental psixologiyada xotira bo`yicha o`tkazilishi mumkin bo`lgan turli yosh davrlari bilan bog`liq holda metodikalar majmuyi mavjud.

Man bir necha yildirki, psixologiya fanida insondagi xotira masalasiga to`xtalغانimizda turfa qarashlar hamda psixolog olimlarimiz tomonidan bildirilgan fikr mulohazalarga guvoh bo`lamiz. Ularning har qaysisi o`z nuqta`i nazarlaridan kelib chiqqan holda inson xotirasini mustahkamlash, undagi faollikni orttirish hajmini kengaytirish va shu kabi boshqa masalalar haqida taklif hamda tavsiyalarni keltirib o`tmoqdalar. Demak, bundan ko`rinadiki, ushbu mavzuda qancha gapirilsa eskirmaydi. Chunki insoniyat tirik ekan, albatta uning eslab qolish qobiliyati bir-biridan qiziq savollarni keltirib chiqaraveradi.

Shu o`rinda bugungi kun kishilaridagi xotiraning qay darajada mustahkam ekanligi va buning sabablari nimalarga bog`liq ekanligi haqida to`xtalib o`tsak. Biz aksariyat hollarda tevarak atrofdagi sezgilarimiz yordami bilan idrok qilgan narsalarni o`zimizga kerak bo`lgan vaziyatlarda esga ololmay, ba`zan xafa yoki ba`zan jig`ibiyron bo`lamiz va o`zimiz istamagan holda afsus esimdan chiqib qolibdi degan jummlarni aytamiz. Biroq unutmashimiz lozimki, kundalik hayotimizdagi tajribalar shuni ko`rsatadiki, eslab qolgan narsalarning hammasi ham esimizga to`laligicha tushavermaydi. Ularning bir qismi unutiladi va aynan mana shu unutib qoldirish ham xotiraga oid xodisadir.

Inson xotirasining qonuniyatlarini o`rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo`lib hisoblanadi. Ma`lumki insonning har qanday kechinma, xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma`lum bir sharoitda qayta namoyon bo`luvchi izlar qoldiradi. Xotira bu biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g`oyaviy yo`nalishi kata o`rin egallaydi. Ko`pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta`riflanadi: “Individning o`z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi”

Psixologiya fanida xotira muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud bo`lib, ular mohiyati jihatidan bir kategoriyani har xil mezonlar bilan o`lchashda o`z ifodasini topadi. Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog`liq tadqiqotlarda markaziy o`rin xotira jarayonining asoslariga ajratilgan. Xotira jarayonining asoslari uch yo`nalishda o`rganilgan. Bular: psixologik, neyro-fiziologik, bioximik. Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog`liq bo`lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi.

Rus psixologiyasida xotira jarayoni bo`yicha o`tkazilgan tadqiqotlarda eydetik obrazlarning namoyon bo`lishi shaklida o`rganilgan. Jumladan A.R.Luriya tomonidan eydedik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta`riflab berilgan. Eydetik obrazlar harakatlanish xususiyatiga ega bo`lib, subyektlarning oldiga qo`yilgan vazifa va uning tasavvurlari ta`siri ostida o`zgartirish mumkin.

Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli psixolog G.Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo`lib oliy ruhiy jarayon bo`lgan xotirani tajriba metodi negizida tekshirgan va keng ko`lamda turmushga tatbiq etgan. Xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo`nalishini ishlab chiqdi. German Ebbingauz o`z “sof” xotira qonunlarini o`rganish imkonini beruvchi, boshqacha so`z bilan aytganda tafakkurga bog`liq bo`lmagan holda izlarning esda qolish jarayonini tadqiq etishning yangi uslubini taklif qilgan, ya`ni ma`nosiz bo`g`inlarni yod olishdan iborat bo`lgan bu uslub materialni esda olib qolishning egri chiziqiga oid qonunni kashf qilishga, uning

asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlarni xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so`nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratdi.

Bolalarda xotiraning yuksak(yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilish taniqli psixolog L.S.Vigotskiyga nasib etgan. U maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va o`z shogirdlari A.N.Leontev va A.V.Zankov bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllarini ruhiy faoliyatning murakkabshakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiyligini ko`rsatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko`ra esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini isbotlab bergan.

A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, P.A.Ribnikovlar bolalar xotira faoliyatini o`rganganlar. Shuningdek ular o`qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o`quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar. Ular tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turl tasavvurlar orasidagi bog`liqlik esda olib qolingan materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog`liqdir. A.N.Leontev tadqiqot ishlarida kata yoshdagilarning ma`nosiz bo`g`inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esad saqlab qolishi ta`kidlagan. Kata yoshdagilar ma`nosiz bo`g`inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog`lay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma`no kasb etadi. Shuningdek ma`no anglatmaydigan materialni o`zlashtirish jarayoni tez ko`chadi, mahsuldorroq bo`ladi. Ma`nosiz materialni egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar muhim ahamiyatga egadir.

Nemis psixologiyasida ham xotira bo`yicha turli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo`lib, jumladan psixolog Vilyam Shtern bolalarda ham kattalarda ham ma`nosiga qarab tushunib o`zlashtirishga nisbatan mexanik egallash miqdori kam miqdor ekanligini ilmiy ishlari davomida aniqlab shu xulosaga kelgan.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar oldida bilish jarayonlaridan biri bo`lmish xotiraning kuchli bo`lishi va ko`lamining kengligi muhim va dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda olimlar bolalarda uzoq muddatli xotira qaysi yoshdan boshlab ishlay boshlashini aniq aytib berishga qiynaladilar. Xotirada ikkinchi darajali nasa yoki voqealar eslab qolinmaydi. Eslab qolingan narsa va voqealar miyada sintez qilinadi va maxsus kodga aylanadi. Hozirgi kunda o`qitish muassasalarida berilgan materialni

yaxshi eslab qolish ustida ko`plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki yaxshi esda olib qolingan materialni tushunish oson bo`ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Nishanova Z. Qarshiyeva D. Atabayeva N. Qurbonova Z. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya// Toshkent, 2014;
2. Ibdullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi // Toshkent Iqtisod-Moliya, 2008;
3. Nishanova Z. Alimbayeva Sh. Sulaymonov M. Psixologik xizmat// Toshkent, 2014;
4. Xaydarov F.I. Xalilova N.I Umumiy psixologiya// Toshkent, 2010.

BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA ROSTGO`YLIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH

Yuldasheva Gulshanoy Kozimjonovna

Namangan viloyati Norin tumani 24-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya: Bizga ma`lumki ,boshlang`ich sinf o`quvchilari ertak o`qishni,ertak eshitishni yaxshi ko`radi.Ertak o`qish darslarining muhim vazifalari darsni qanday tashkil etish kerak,nazmiy va nasriy usulda berilgan ertaklar o`qilishi haqida o`qituvchi qisqacha ma`lumot ham berib o`tish kerak.Xulosa qilib aytganda,ushbu maqola orqali boshlang`ich sinf o`quvchilari qanday usul va metod bilan o`quvchilarni ertakni ifodali o`qishga ,u orqali rostgo`ylikka o`rgatish haqida nazariy ,amaliy-uslubiy ma`lumotlarni berib o`tish joiz deb topdik.

Kalit so`zlar: milliy qadriyat,an`ana ,Vatanga muhabbat,tarbiya, rostgo`ylik pedagogik texnologiya.

Bugungi kunda kelajagimiz egalari bo`lgan yosh avlodni tarbiyalash, ularni vatanparvarlik ruhida kamol toptirish, insonparvarlik tuyg`ularini rivojlantirish bevosita ta`lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Bola maktabga qadam qo`ygan ilk kunlarda o`quvchi qarshisida yangi dunyo, rang-barang va jozibali o`quv predmetlari turadi. Ularning o`z yurtinig haqiqiy egasi qilib, yurtimiz taqdiri va taraqqiyoti uchun mas`uliyatni o`z zimmasiga olishga qodir shaxslar qilib tarbiyalash biz o`qituvchilarning o`z oldimizga qo`ygan ustuvor vazifalarimizdir.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkar Mirziyoyev Miromonovich “O`zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi” to`g`risidagi farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari” bandida qayd etilganidek,jismonan ,sog`lom va ruhan ,mustaqil fikrlaydigan ,Vatanga sodiq ,qat`iy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ,demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularni ijtimoiy faolligini oshirish” dan iboratdir.1

Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ertaklar orqali rostgo`ylikka o`rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Umumiy o`rta ta`limning boshlan`ich sinflarida o`qish fani o`quvchilarni ongli ,to`g`ri va ifodali o`qishga o`rgatish bilan bir qatorda, ularda kitobxonlik va nutq madaniyatlarini oshirish, fikrlab berilgan hikoya va ertaklardan ,she`rdan o`zi uchun ibratli xulosa chiqarishga o`rgatadi. Dunyoqarashini kengaytirib, har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi

“Rostgo`y bola “ertagida podsho o`ziga merosxo`r tanlab olish maqsadida vaziriga barcha bolalarga gul urug`lari tarqatishni buyuradi. Oradan vaqt o`tib, gullarni ko`rish uchun shahar aylangani chiqadi va ko`zi bir chekkada gulsiz tuvak ushlab turgan bolaga tushadi. Bola gul unib chiqmaganini aytib, yig`laydi. Podsho esa, aynan shu yigitni o`ziga farzand etib

tayinlaydi. Chunki, gul urug`lari qaynatilgan edi. 2 Bundan o`quvchilar rostrgo`ylik hislatini yanada rivojlantirib boradi.

Inson faoliyatida ma`naviyat 1- darajali ahamiyat kasb etadi. Ammo uni ilmsiz shakllantirib bo`lmaydi. Ilm inson uchun muqaddas fazilatlardan biridir. Ilm tufayli inson ona yurtning taraqqiyotiga ko`mak beradi. Yuqoridagi ertak ham yomon xulq-atvordan, jaholat qorong`uligidan saqlab, yaxshi xulq sohibi qiladi, insoniy fazilatlarini kamol toptiradi.

Ertak qahramonlarini tasvirlashda kichik yoshdagi bolalarda axloqiy tushunchalardan foydalanishda, so`z boyligi chegaralangan bo`ladi. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to`g`rilik, mehnatsevarlik, rostgo`ylik, yaxshilik tushunchalarini ko`p ishlatadi. O`qituvchining vazifasi o`quvchilar bilan ertakni tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy intellektual, emotsional sifatlarni tasvirlovchi so`zlarni iritishdan iboratdir.

Qahramonlarning harakteri ularning axloqiy sifatlarini anglash asosida tushuniladi. Bunda qahramonning nima qilishi emas, nima uchun shunday qilishi kerakligini bilish muhimdir. Ushbu jarayonda ertak qahramonlarining axloqiy sifatlari haqida ko`proq ishlash lozim.

O`zbek xalq ertaklari o`qituvchilarga bolalarni axloqan, ma`naviy jihatdan tarbiyalashda juda katta yordam beradi. Ertakni o`qib yoki aytib berayotganda, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish va shu ertak qahramoni tasvirlangan rasmlardan foydalanish kerak. bu orqali bola o`qishni bilmagan taqdirda ham, rasmi orqali ertaklarni nomini ajratib oladigan malakaga ega bo`ladi.

“Rostgo`y bola” ertagi ham ijobiy harakteri bilan bolalarga namuna bo`lib xizmar qiladi.” Zumrad va Qimmat “ertagini o`qib berib, so`ng so`raydigan bo`lsak, Zumradning mehnatsevarligini, Qimmatning axloqi yomonligini, yalqovligini aytadi.

Hozirgi zamon pedagogik texnologiyalar umumiy o`rta ta`lim maktablarida keng qo`llaniladi. Ya`ni kompyuter texnologiyalaridan foydalanmoqda. Foydali

tomonidan ertak kitoblarini hoʻxlaganini topish va professional aktyorlar tomonidan ijro etilgani boʻlsa, salbiy tomoni bola kompyuter monitori oldida uzoq vaqt oʻtirishi mumkin emas. Oddiy ertaklarni har doim ham oʻqish mumkin, lekin kompyuterdagi ertaklarni albatta, kattalar yordamida oʻqish kerak.

Xalqimizda “Taʼlim –tarbiya beshikdan boshlanadi”-degan hikmatli gap bor. Faqat maʼrifatli insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotiga yetaklaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida ilm-maʼrifat va texnologiyalar rivojlanishiga alohida ahamiyat qaratdi: “Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik-bu aql zakovat va ilm, eng katta meros –yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu ilmsizlikdir”

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda xalq ogʻzaki ijodi bilan tanishtirish, nafosat va goʻzallikka intilishi, uni his etishi va bu jarayondan zavqlanishi milliy badiiy qadriyatlarni va oʻzidan keyingi avlodga uni yetkazish uchun maʼsul ekanini his qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi.

2. www. ziyo uz kutubxonasi

3. T.Gʻaffarova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva 1-sinf oʻqish kitobi

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisidagi Farmoni. www.uza.uz

5. Jumaboyeva M. Umumiy oʻrta taʼlimda kasbga yoʻnaltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xoʻjaligi instituti, 2014. 21 b.

6. Mardanov D. Maktabda kasbga yoʻnaltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b.

BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARINING MAKTABGA MOSLASHUVIDA EMOTSIONAL – IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRUVCHI KORREKSION MASHG'ULOTLAR

Umarova Mohira Qodir qizi

Namangan viloyati Norin tumani 31- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisiy

Maktabga moslashish – bu har bir 1- sinf o'quvchisi o'z hayotida boshdan kechiradigan va tushunadigan yangi maktab sharoitlariga ko'nikish jarayonidir. Bola maktabga borgan paytidan boshlab, moslashishi jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Bolalar maktabga moslashishi uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktab amaliyotchi – psixologlari hamda ota – onalar uchun kuch va vaqt kerak bo'ladi. Bolaning maktabga moslashish jarayoni 2 – 3 haftadan olti oygacha davom etadi. Bu ko'pgina omillarga bog'liq: bolaning individual xususiyatlari, o'quv muassasasi turi, o'quv dasturining murakkabligi darajasi, bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi va boshqalar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, boshlang'ich ta'lim davri maktabga kelgan barcha bolalar uchun yetarlicha qiyin. O'quv jarayonining birinchi haftalari va oylarida 1 – sinf o'quvchisining tanasi uchun ortib borayotgan talablarga javoban, bolalarda charchoq, bosh og'rig'I, uyqusizlik kabi shikoyatlar paydo bo'lishi mumkin. Bolalarning ishtahasi va tana vazni kamayadi. Shuningdek, psixologik qiyinchiliklar ham mavjud. Masalan, qo'rquv hissi, tortinchoqlik, kamgaplik hamda o'qishga nisbatan salbiy munosabat kabi.

Birinchi sinf o'quvchisi uchun eng muhim narsa o'qituvchi bilan aloqa o'rnatishdir. Zero, birinchi muallimning shaxsi uning kelgusidagi maktab hayotiga, maktabga bo'lgan munosabatiga aniqlik kiritadi. Shu sabab, to'g'ri tarbiyalash sizning birinchi sinf o'quvchilaringizga maktabga tezda moslashishga yordam beradigan bir nechta korreksion – rivojlantiruvchi mashg'ulotlar mavjud.

Ushbu mashg'ulotlarning maqsadi:

- Bolalarning psixik taraqqiyotiga ta'sir etuvchi salbiy hissiy faktorlarni bartaraf etishga o'rgatish;
- Hissiy – irodaviy sferasini rivojlantirish;

- O'qishga tez moslashishini shakllantirish;
- O'z – o'ziga bahoni oshirish;
- Yomon xatti – harakatlardan muhofaza qilish;

Mahg'ulotlar strukturasi:

- Muammolarni muhokama qilish;
- Bolalarni o'ylantirayotgan mavzularda suhbatlashish;
- O'z muammolarini chiza olish va ularni bartaraf etishga o'rgatish;
- O'z – o'ziga yordam bera olishni shakllantirish, irodaviy o'z – o'zini tarbiyalash,

relaksatsiya, enerjazerlar.

Mashg'ulotlar 30 daqiqadan 40 daqiqagacha davom etishi mumkin.

1 – mashg'ulot

Maqsad: bolalarda himoya mexanizmlarini aniqlash, rasm chizish orqali salbiy emotsiyalarini bartaraf etishga o'rgatish.

1. Suhbat. Mavzu: Qachon men o'zimni yomon his etaman?

- Inson qalban qachon o'zini yomon his etadi? (hayajon, g'azab, tushunmovchilik, alam va boshqalar)

- Eslab ko'ring, qachon o'zingizni yomon his etgansiz? Shunday paytlari nima qilgingiz kelgan?

- O'zingizni yaxshi his qilish uchun nimalar qilasiz?

Trener: Barcha insonlar shunday vaziyatga tushishlarini va bundan chiqish avvalom o'zi boshqalarga zarar qilmaslik kerak ekanligini unutmaslik lozimligini uqtirish.

2. Do'stimdan xat.

Bolalarga ularning tengdoshi yuborgan xat o'qib beriladi.

“Aziz do'stim! Sen o'zingni yomon his qilganingda va noxushliklaringda nima qilish kerakligini aytishni istayman. Bilasanmi, bunday hollarda men rasm chizaman.

Agar:

- seni qo'rquvlar qiynasa, ularning rasmini chiz va qora qalam bilan ustidan chizib tashla;

- seni hafa qilgan odamning rasmini bilganingcha chiz va barcha aytmoqchi bo'lgan gaplaringni shu rasmga ayt;

- rasm chizib fantaziya qil, o'z orzularingni chiz.

2 – mashg'ulot

Maqsad: Inson psixikasini shikastlovchi vaziyatlarni yengishni, xatti – harakatlarni irodaviy boshqarish yo'llarini o'rgatish.

1. Suhbat. Mavzu: Qachon va nima uchun uyalaman?

Trener bolalardan uyat bu qanday his ekanligini so'raydi.

- Nima uchun biz uyalamiz?
- Uyat nimaga o'xshaydi?
- Uning rangini aniqlay olasizmi?
- O'zingiz uyalganingizda nimalarni his etasiz?
- Shunday paytlarda nima qilish kerak?
- Uyalish kerakmi?

2. Rasm chizish. Mavzu: Mening uyatim.

Trener bolalarga uyatni qanday ifodalashimiz mumkinligini, uning rangini ifodalashni so'raydi. Rasm mazmuniga ko'ra suhbat amalga oshiriladi.

3 – mashg'ulot

Maqsad: Irodaviy o'zini boshqarishni rivojlantirish, relaksatsiya qilishga o'rgatish, o'z – o'zini boshqarishni shakllantirish.

- Suhbat. Mavzu: Ayb ish qilganimizda o'zimizni qanday tutishimiz kerak?

Trener: Bolalar ba'zida biz nojo'ya xatti – harakatlar qilib qo'yamiz va u Atrofimizdagilarni hafa bo'lishiga yoki ranjishiga olib keladi. Ba'zan biz ularni hafa qilmaslik yoki o'zimizni oqlash maqsadida yolg'on gapiramiz va natijada vijdonimiz azoblanadi. Aybga iqror bo'lish har doim ham yengil emas. Aytingchi?

- Insonni o'z aybiga iqror bo'lishiga nima xalaqit beradi?(jazolanish, ishonchni yòqotish, sevgi, hurmat va h.k)
- Aybga iqror bo'lish bo'lish nima qilish kerak?(irodaga zo'r berish, qo'rquvni yengish)

Quyidagi hikmatli so'zlarni qanday tushunasiz?

1. Aybini yashirsang istimasi oshkor qiladi.
2. Shirin yolg'ondan achchiq rost yaxshi.

- Rasm chizish. Mavzu: Quvonch.

Trener: bolalarga quvongan paytlarida qanday ranglar ko'z oldilarida namoyon bo'lishini chizib berishlarini so'raydi. Shundan so'ng, ranglar muhokamasi amalga oshiriladi.

4 – mashg'ulot

Maqsad: Bolalarda qo'rquv, o'zini aybdor his qilish hissini yengishga o'rgatish, o'zini himoya qilish mexanizmlarini shakllantirish, biqlikni yengishga o'rgatish.

Rasm chizish. Mavzu: Mening kayfiyatim.

Trener rangli bo'yoqlar yordamida o'zlarining yaxshi kayfiyatlarini chizishni taklif etadi. Sòng rasmlar muhokama qilinadi.

1. “Gullar ifori” o'yini.

Turli gullar rasmlari bolalarga tarqatilib, kimga qanday gul tekkan bo'lsa uning iforini ifodalab berish taklif qilinadi.

Trener: Aytingchi, bu gullar sizda qanday kayfiyatni yuzaga keltirdi?

Kattalar uchun yo'llanma. Bolalar gullarni ifodalayotganlarida hissiyotlariga e'tibor bering. O'yin tugagach, bolalardan ularning kayfiyati yaxshilanganligi haqida fikr bildirish so'raladi. Quyidagi maslahatlar beriladi. “Kayfiyatingizni buzishgan bo'lishsa, yoting, o'zingizni bo'sh qo'ying va gullar to'la keng bog'ni tasavvur qiling. Ularni isidan hidlang va ko'rayotgan narsalaringizdan bahra oling.”

5 – mashg'ulot

Maqsad: Bolalarning qilayotgan ishlariga javob berishga o'rgatish, salbiy vaziyatlardan o'zi uchun ijobiy jihatlarni topishga harakat qilish.

1. O'yin.

Bolalar doira shaklida turib oladilar. Trener ularga koptokni otib “Men hafa qilmayman...” gapini tugatishini aytadi tugatishini aytadi. Masalan: “Men ustozimni hafa qilmayman va h.k”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E.F. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). – T.:O'qituvchi,1994.

2. Yosh psixologiyasi va pedagogic psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. Ped. Institutlarning talabalari uchun o'quv qo'llanma.tuzuvchi: A.I. Sherbakov tahriri ostida. – T.: “O'qituvchi”, 1991.

3. G'oziyev E.F. Umumiy psixologiya.T.: 1995

FANLARNI O'ZLASHTIRISHI PAST BO'LGAN O'QUVCHI YOSHLARDA MUAMMOLARNING SABABLARI VA ULARGA YORDAM KO'RSATISH

Toshmatova Sarvinoz Abduqaxorovna

Namangan viloyati Norin tumani 31-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

O'zbek zaminida farzand tarbiyasi jamiyatning eng ustuvor vazifalaridan biri sifatida azal-azaldan muqaddas sanaladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov: “Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O’zining qadr-qiymatini anglaydigan irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotga aniq maqsadga ega bo’lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo’lamiz.” deb ta’kidlaganlaridek, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham barkamol shaxs tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Bolalarimizni birovlarining qo’liga berib qo’ymasdan, ularni o’zimiz tarbiyalahimiz lozim.”

Har tomonlama yetuk sog'lom mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashda boshlang'ich sinflarda beriladigan ta'lim va tarbiyaning roli beqiyosdir.Chunki o'quvchi oladigan bilimlari ,ko'nikma va malakalariga asos xuddi shu boshlang'ich sinflarda qo'yiladi.Har bir sinflarda 3-4 tadan bo'lsada, o'zlashtirmovchi o'quvchilar mavjud.Bunday o'quvchilarni bilish jarayonlari orqada qolibgina qolmay, bevosita sinfdoshlarining ham o'zlashtirihiga bilim asoslarini egallashiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.Xuddi shu bois boshlang'ich sinflardagi o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish va uni korreksiya qilish pedagogik va yosh psixologiyasidagi doizarb muammolardan biridir.Har bir alohida

olingan o'zlashtimaslikning vujudga kelish tarixi har xildir, bu shaxsning individual xususiyatlari va atrofida bilan munosobatlarining xususiyatlariga bog'liqdir. Shu bilan birga o'zlashtirmovchi o'quvchilarning ma'lum tiplarini ajratish mumkin. P.P. Blonskiy "Qiyin o'quvchilar" asarida psixik va jismoniy tayyorgarlik turli xususiyatlarning birikuvchi xarakterga bog'liq ravishda o'zlashtirmovchi o'quvchilarni quyidagi tiplarga ajratgan. P.P. Blonskiy o'zlashtirmovchi o'quvchilarni tavsiflaganda birinchi o'rinda jismoniy sog'likka katta e'tibor beradi. O'quvchi sog'lig'iga bog'liq quyi ishchanlik qobiliyati, o'zini to'g'ri tashkil eta olmaslik "ishlay olmaslik" o'qishga qiziqishning yo'qligi, o'quvchilarni bo'sh rivojlanganligi.

O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar uchun eng avvalo o'zini kuchsiz boshqarish, o'z psixik jarayonlari (diqqat, xotirasini) boshqara olmaslik, o'quv ishining oqilona usullari shakllanmaganligi, o'quv masalalarini yechishda o'ylashni istamaslik, bilimlarni shartli o'zlashtirish xos. Bunday o'quvchilar aqliy ishdan qochishga intilib, faol fikrlash zaruratidan ularni xalos qiladigan har xil aylanma yo'llarni izlaydilar.

Bolada vujudga kelishi mumkin bo'lgan qinyinchiliklarni o'qituvchi asosan o'zlashtirish bilan belgilaydi. Bunda bolalar bir xil baholanadi: a'lochi demak yaxshi o'quvchi, ikkichi-yomon o'quvchi. Bunday o'quvchiga qo'llaniladigan choralar ham bir xil. Bolaning ota-onasi maktabga chaqirilib, farzandi bilan shug'ullanmayotgani haqida ma'lumot beradi. Yoki o'qituvchi oqibatini o'ylamasdan, o'quvchini butun sinf oldida baqirib haqoratlaydi, izza qiladi. Ko'pchilik tajribali o'qituvchilar o'quvchilar o'zlashtirmasligini uning dangasaligi, tarbiyasizligi, ishyoqmasligi bilan bog'laydilar. Ko'p kasal bo'luvchi zaif bolalar organizmi darmonsizligi tufayli ishga va o'qishga qobiliyatlari kamayadi. Bunday bolalar bilan individual shug'ullanmasa tez orada ular o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar qatoriga kiradilar.

Biron narsadan qo'rqqan bolalarga asabiylashish alomatlari –duduqlanish, enurez va boshqalar paydo bo'ladi. Bunday bolalar bilan ham o'qituvchi maxsus shug'ullanmasa, o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar soni ortishi mumkin. O'quvchilar o'zlashtirmasligining sabablaridan biri bolaning psixik taraqqiyotdan vaqtincha orqada qolishi bilan ko'pincha bog'liq. Turli mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'zlashtirmaslik 50% psixik

taraqqiyotga orqada qolish bilan, 24% xulq-atvorning buzilishi, 4% aqliy yetishmaslik va nutqning rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Ko'pincha o'qituvchilar o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazadilar. Bunda ular darsda o'tilgan materiallarni qaytarish, bir mashqni bir necha marta yozdirish bilan chegaralanadilar. Bunda bola nimada xato qilayotganiga e'tibor berilmaydi.

Ko'pincha o'qituvchilar sababini tushunmasdan o'zlashtirmovchi o'quvchilarni “qobilyatsizlar”, “aqli yetishmaydiganlar” safiga kiritib qo'yadilar. Tez orada o'qituvchilar o'zlashtirmovchi o'quvchilarga e'tibor bermay qo'yadilar, sinfdan qolmasliklari uchun “uch” baho qo'yadilar.

Keyinchalik bunday o'quvchilarda maktabga nisbatan salbiy munosabat rivojlanadi, shaxs xarakteri potologik shakllanadi. Psixik taraqqiyotda vaqtinchalik orqada qoladigan bolalarga individual ishlashning mahsuldor usullari qo'llanilsa, umumta'lim maktabida bemalol o'zlashtiruvchi o'quvchilar qatorida bo'ladilar.

Har qanday o'qituvchi shuni aniq idrok etadiki, yoshi teng tarbiyalanuvchilar bir-biridan nafaqat o'zlarining jadalligi bilan aynan bir xil topshiriqni bajarishdagi aqliy salohiyati yoki toliquvchanligi bilan ajralib turadi. Qaysidir o'quvchining “matonati” bir-ikki darsga yetadi, kimdir kun bo'yi intensiv ishlashi mumkin, boshqa bola esa birinchi darsdanoq diqqatini ob'yekt ustiga to'play olmaydi. Bola diqqatining ko'chuvchanligi va tarqoqligi uning darsni to'liq o'zlashtira olmasligiga olib keladi.

Xolerik-temperamentli bolalarning asab sistemasi turg'un emas, ularda tashqi ta'sirga javob berish faollikka nisbatan ustunroq.

Flegmatiklar og'ir –bosiqdirlar. Ishga jiddiylik bilan yondoshib uzoq va unumli mehnat qilishadi.

Sangviniklar odatda yuqori faollikka ega. Yangi ish ularni toliqtirmaydi.

Melanxoliklarda bu jarayon biroz qiyin kechadi. Chunki ularning oliy nerv faoliyati zaifroq. Ularda faollik deyarli sezilmaydi.

O'qituvchilar o'quvchilarning ishchanligini oshirish maqsadida oliy nerv faoliyati to'rtta tur tafovutini yodda tutishlari kerak.

O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar asosiy psixik jarayonlar bo'lgan xotira va diqqat shakllanmaganligi kuzatiladi. Lekin tafakkurning rivojlanmaganligi o'quvchilarning bilimlarni past o'lashtirishiga asosiy sabab hisoblanadi. Masalan past o'zlashtiruvchi o'quvchilar tanish bo'lgan matndagi so'zlar va sonlarni oson eslab qolishlari mumkin, lekin murakkabroq, ularni eslab qolish uchun mantiqiy xotira zarur bo'lgan, tafakkur jarayoni bilan uzviy bog'liq matnlarni eslab qolmaydilar.

O'quvchilarda o'quv faoliyatiga ijobiy motivasiya shakllanmaganligi past o'lashtirishning yana bir sababi bo'lishi mumkin. Motivasion sohaning shakllanmaganligi bilimlarning o'zlashtirishga salbiy ta'sir etib, natijada bola shaxsiga ma'naviy ziyon yetadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra o'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablari quyidagilardan iborat.

1. Oiladagi nosog'lom muhit. Ota-onalarning befarqligi.
2. Oilada har xil avlod yashashi.
3. Ota-onalarning ajralishi.
4. Ota-onalarning ish bilan bandligi.
5. Ota-onalarning bilim saviyasi pastligi va savodsizligi.

Tadqiqot natijalari o'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablari asosan ota-onalarning befarqligi, farzandlarining uy vazifalarini bajarishini nazorat qilishga vaqt ajrata olmasligi, o'quvchilarni ko'p dars qoldirishi, ularda bilish jarayonlarini yetarli rivojlamaganligi ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytish kerakki, har bir pedagog o'quvchilarning past o'zlashtirish sabablarini va bu muammoni bartaraf etish mazmunini bilishi zarurdir. Bu jarayon samarali bo'lishi uchun ota-onalar bilan doimiy hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish va ularning o'zini ham bunga jalb etish kerak.

Adabiyotlar

1. Blonskiy P.P. Trudniye Shkolniki. -M. Rabotnik Prosvesheniya. 1930
2. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Bu kitobda :Barkamol avlod orzusi. -T.:Sharq. 1999. -B.13

3.Nishonova Z.Alimova G. “Bolalar psixologiyasiva uni o’qitish metodikasi”
T.:2006y.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNIKALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA BOLA PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI

Xamraqulova Marxabo Sulstonovna

Namangan viloyati Norin tumani 1- maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Ta’limga beriloyatgan katta e’tibor tufayli ta’lim-tarbiya sohalaridaham islohatlar va yangilanish jaroyonlari bo’lmoqda. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakillanip kelayotgan boshlang’ich sinflarda o’qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarini ta’lim jaroyanida mohirona tadbiq etaolishi, ta’limning yangidan yangi yo’l va usullarini izlash ilg’or pedagogik tajribalardanani jobiy foydalana olishi juda muhimdir. Chunki hozirgi texnika asrida bola ongi va tafakkuri kattalarga niabatan tezroq, jadalroq rivojlanmoqda. Maktab yoshiga yetmasdanoq telefon, kompyuter, planshet kabi elektron gadjetlarni o’zlashtirip olmoqdalar. Bu holatni e’tiborga olgan har bir pedagog zamon bilan hamnafas bo’lib, zamonaviy texnologiyalarni chuqur bilishlari lozim.

Bola birinchi sinfga qadam qoygan ilk chog’ida brinchi ustoziga mexri bo’lakcha bo’ladi, bola uchun dunyoda eng blimdon, aqlli va qadrdon inson bu birinchi uztozi bo’ladi. Birinchi muallimini allomalarni ulug’lagandek ulug’laydi har bir so’zini tinglab, harbir gapini bajarishga oshiqadi. Oila a’zolaridan ham ulug’ ko’radilar lekin bu holat vaqt o’tgan sari o’zgarib boradi. Bola mukammal deb bilgan insonining oddiy telefon yoki komputerdan foydalana olmasligi bolada hayrat va uztozga nisbatan ishonchsizlik hisi paydo bo’lishiga olib keladi. Bola tarbiyasida va texnologiyalarni qo’llashda qolipga tushib olihs va o’zgarishlardan qochish o’qitiuvchining obro’si tushishiga sabab bo’ladi. O’zbek xalqi yosh avlodga ta’lim tarbiya berishda ko’p asrlar davomida qo’llagan usul va vositalar, shakillari o’ziga xo urf-odatleri va an’analari,

ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Hozirgi kunda shu meroslardan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Bir metod va usulni harkuni qo'llash bolada zerikish, bezish kabi holatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Maktabga kelayotgan bola har kuni yangidan yangi o'yin, texnologiya va mtodlarni ko'rsa darsni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Yosh avlod erkin fikirlaydigan, o'z mulohazalarini ochiq bayon qilaoladigan, mustaqil qaror qabulqilaoladigan va ularning shu hislatlarini rivojlantiradigan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz kerak. Har kuni bitta parta va bitta partadosh emas tanlash imkoniyati va hohishiga qarab joylashishi bolaning ruhiyatigaham ijobiy ta'sir qiladi.

Dehqon dalaga urug' qadashdan oldin yerga ishlov berip tayyorlab olganidekpedagoklarham bolaga bilim berishdan oldin uning ruhiy holati haqida bilimga ega bo'lishi lozim. Buyuk bobomiz Ibn Sino aytgnidek "bola darsdan darsga o'tganda huddi turli bog'ni kezgandek, turli gullar hidlagandek bo'lsin". Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolaga huddi shunday holatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. O'quvchi birxillikda o'zining turli hislarlarini ochib beraolmaydi. Darsda bir og'izham gapirmaydigan o'quvchi tanafus chog'ida bul-buldek sayrab, burro burro gaplar tuzip she'r va latiflar aytadi.

Har bir alohida dars darslar zanjirining bir bo'g'inini tashkil qiladi. Dars ma'lum tuzilishga ega bo'lgan murakkab tizimdir. Dars strukturasi deganda darsning asosiy komponentlarining maqsadli ketma – ketligi, o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Dars strukturasi zamonaviy talqini barcha qismlarning egiluvchanligi, mashg'ulot maqsadidan kelib chiqib turli bog'lanishi va ketma – ketligini nazarda tutadi. Interfaol darsning strukturasi 5 asosiy elementdan tarkib topadi: Motivatsiya (vaqtning5%) Maqsad – o'quvchilarning diqqatini muammoga qaratish. Mavzu muhokamasiga qiziqish uyg'otish. Bu savol, iqtibos (sitata), kichik hikoya, topshiriq ko'rinishida bo'lishi mumkin. Kutilayotgan natijalarni e'lon qilish (vaqtning 5%) Maqsad- o'quvchilarning o'z faoliyatlari mohiyatini tushunib yetishlarini ta'minlash, ya'ni dars yakunida ular nimaga erishadilar va o'qituvchiulardan nimani kutyapti. Zarur axborot bilan ta'minlash (vaqtning 10%) Maqsad- ta'lim oluvchilarga amaliy mashq va topshiriqlarni bajarish uchun yetarli axborot taqdim etish. Bu kichik ma'ruza, tarqatma

material, uy ishini tekshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Interfaol mashqlar (vaqtning 60 %) Maqsad- materialni amaliy o`zlashtirish, mashg`ulot (dars) maqsadlariga erishish. Bunda o`qituvchi topshiriqni tushuntiradi. O`quvchilar yakka–juftlikda kichik guruhlarda ishlaydilar, natijalarni taqdimot qiladilar. O`qituvchi kuzatishlariga asoslanib, ishni umumlashtiradi. Yakun yasash (o`rganilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash) (vaqtning 20%) Maqsad-refleksiya, qayta bog`lanish, mashg`ulot davomida amalga oshirilgan, faoliyatni anglash, maqsadga erishilganlik, olingan BKM larni hayotda qo`llash imkoniyatlarini tahlil qilish. Dars strukturasi to`g`risida fikr yuritganda “dasr rejasi”, “texnologik xarita”, “dasr turlari” kabi tushunchalarni aniqlashtirish zaruriyati tug`iladi. Dars rejasi: Sana, Sinf, Fan, Mavzu, Maqsad, Darsturi, Metodlar, Dars jihozi, Darsning borishi.

Yuqorida dars rejasining tarkibiy qismlari ifodalangan bo`lib, dars rejasi har bir dars ishlanmasi, texnologik xaritaning ajralmas qismidir.

Texnologik xarita-bir soatlik dars ishlanmasining o`qituvchi foydalanishi uchun qulay sxemasi bo`lib, darsni tashkil etishda tushuncha va bilimlarning muayyan izchilligi va axborotli modellarni o`rganish usullari, yo`llari, ko`rsatmalari hamda ko`rgazmali –texnologik topshiriqlar yig`indisidan iborat.

Maqsad nima? Ko`pincha o`qituvchilar maqsad bu – “biz intilayotgan narsa”, “oldimizga qo`ygan reja, ish”, “orzu” deb ta`rif beradilar.

Hayotiy misol

Keling ,bu masalani kelin olish misolida ko`rib chiqaylik. Inson farzandi dunyoga kelganda “katta bo`lsa, yaxshi to`ylar qilsam” deb orzu qiladi. O`g`il farzand voyaga yetganda, nasib qilsa, to`y – tomosha qilaman, elga osh beraman” deb yana o`ylaydi, orzusi yaqinlashgandek bo`ladi (qizlarning ishi biroz murakkab, sababi to`yning qachon bo`lishi ota – ona yoki qizga bog`liq emas).Lekin bularning barchasi hali orzu.

Orzuni qanday qilib maqsadga aylantirish mumkin?

Birinchidan, farzandingiz oila qurishga, oilani boshqarishga jismoniy va ma`naviy jihatdan tayyorligini hisobga olasiz.

Ikkinchidan, to`y qilishga moddiy ta`minot yetarlimi?

Uchinchidan, yoshlar to`ydan keyin qayerda yashaydilar?

To`rtinchidan, siz qanday oiladan, qaysi kasbdagi, ma'lumoti, yoshi qanday qizni kelin qilmoqchisiz?

Beshinchidan, to`yni qaysi oyda o`tkazmoqchisiz?(Albatta o`g`lingiz kelinni topibq o`ygan bo`lsa, ishingiz osonlashadi). Barcha savollarning javobi topilganidan keyin, orzu maqsadga aylanadi. Keyingi harakatlaringiz (qo`shimcha mablag` topish, uyni ta`mirlash, sovchilikka boorish va h.k.) maqsadni amalga oshirish, ya`ni natijaga erishishga qaratiladi.To`y kuni natijaga ega bo`lasiz.

Demak, maqsadni belgilashda biz 5 ta mezonni hisobga olishimiz zarur. Mazkur mezonlar inglizcha so`zlarning qisqartmasidan olingan bo`lib, SMART mezonlari deyiladi.

Ta`limiy maqsad o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan bilim hajmini belgilaydi.U quyidagicha bo`lishi mumkin: "O`quvchilar gap turlari haqida tushunchaga ega bo`ladilar" , "Undalma haqidagi bilimlarini kengaytiradilar", rivojlantiruvchi maqsadda o`quvchilar ega bo`ladigan ko`nikma va malakalar ko`rsatiladi. Ko`pincha o`qituvchilar aynan rivojlantiruvchi maqsadni belgilashda qiynaladilar. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda "o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish", "so`z boyligini oshirish", "og`zaki va yozma nutqni o`stirish" kabi rivojlantiruvchi maqsadlarning bir soatlik dasr davomida amalga oshishi mushkulligi barchaga ayonligini ta`kidlash lozim, tarbiyaviy maqsadda bunda asosan, o`quvchilarda shakllantirilishi muhim bo`lgan fazilatlar, ularning psixologik holatiga e`tibor qaratish muhim.

Xulosa. Ilg`or pedagogik texnologiyalar ta`lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o`quvchilarning mustaqil fikirlash jarayonini shakillantiradi. O`quvchining bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o`zlashtirish ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko`nikma va malakalrini shakillantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G`. Yo`ldashov. S.A. Usmanov "Pedagogik texnologiya asoslari" T.O`qtuvchi 2004.
2. T.G`afforova "Boshlang`ich ta`limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar" T.:Tafakkur 2011.

DIQQATNING RIVOJLANISHI VA BUZILISHI

Dauletova Go'zal

Qoraqalpoq davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi,

Ismaylova Guljaxan

Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Diqqat-ongimizning muayyan obyektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holatdir. Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayoti va faoliyatdagi roli ham benihoya katta. Chunki eng sodda ish-xarakatlardan tortib, eng murakkab ilmiy ishlarni ham diqqatning doimiy ishtirokisiz mutlaqo bajarib bo'lmaydi.

Diqqat ba'zi bir xususiyatlarga ega bo'lib, xar xil odamlarda turlicha darajada ko'zga tashlanadi.

Diqqat aql, hissiyot va iroda singari mustaqil ong sohasini tashkil qilmaydi, u har bir ong funksiyasi bilan birgalikda namoyon bo'ladi: shaxs diqqat bilan idrok, tasavvur va tafakkur qiladi, diqqat bilan esda qoldiriladi va esga tushiriladi.

Psixologiya fanida diqqatga har xil ta'rif beriladi, uni yoritishda psixologlar turli nazariyaga asoslanib yondashadilar. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga aktiv (faol) qaratilishiga aytiladi (P.I.Ivanov). P.I.Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimiz qilgan ishimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obyekti bo'la oladi.[1]

Hammamiz bilamiz odamga har bir daqiqada atrof muhitdan juda ko'p narsa hodisalar ta'sir etib turadi. Diqqat psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan ob'ekt ustida to'planishidan iborat bilish jarayonidir. Yo'naltirish deganda psixik faoliyatning tanlovchilik tabiati ob'ektni ixtiyoriy va beixtiyoriy tanlash tushiniladi.

K.D.Ushinskiy aytgandek "Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona eshigidirki onggimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi" degan fikrlari o'z ahamiyatiga ega. Odam biror narsaga zor diqqat bilan kirishgan paytida insonning tashqi qiyofasida ham ayrim o'zgarishlar ko'zga tashlanadi.

Diqqat depressiyasi (lot.deprezyu-pasayish)-turli tashqi va ichki omillarga ko'ra obyektga to'planish va mustahkamlanishning kuchsizlanishi va buzilishi.Paradoks fazasi-kuchli qo'zg'atuvchilarga qaraganda kuchsiz qo'zg'atuvchilarning kuchli reaksiyasini vujudga keltirishi (patologik holatlar nazarda tutiladi). Orientirovka refleksining elektrofiziologik simptomlarining barqarorlashuvi-ixtiyoriy diqqat buzilganda maqsadga muvofiq topshiriq berish va oqilona instruksiya yoki ustanovka berish hamda vaziyatga qarab uni o'zlashtirish orqali insonda orientirovka refleksini qaytadan tiklashdan iborat korreksion faoliyat.Diqqat korreksiyasi (lot.tuzatish)-insonda diqqat patologik holatga (buzilishga) uchraganda maxsus usul va uslublardan foydalanib tuzatishdan iboratdir.

Kuchli diqqat paytida kishining nafas olishi sekinlashib va pasayib qoladi.Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir.Parishonxotirlik diqqatni uzoq vaqt davomida biron ishga layoqatsizlikda diqqatning osongina va tez bólinib turishida namoyon bo'ladi.Parishonxotirlikning bu ko'rinishi ko'pincha ish qobiliyati susayib ketishining va xulq atvoridagi uyishmaganlikning sabablaridan biri hisoblanadi.

Parishonxotirlikka qarshi birinchi navbatda irodaviy sifatlarni shakllantirish yóli bilan kurash olib borish kerak.Bunda bola salomatligining yaxshi emasligi nerv tizimining umuman buzilganligi bilan izohlash mumkin.Bazi hollarda parishonxotirlik qisqa muddatli ham bo'lishi mumkin o'qish ish haftasining oxirida namoyon bóladir.Diqqatning parishonxotirlikdan boshqa xildagi buzilishlari ham borligi e'tirof etiladi.

Diqqatning haddan tashqari harakatchanligi bir ob'ektdan va faoliyat turidan boshqalariga doimiy ravishda ótib turishi yoki aksincha harakatsizligi diqqatning sust harakat qilishi uning tor doiradagi tasavvurlar va fikrlarga potologik tarzda qayd etilishi shular jumlasiga kiradi.Diqqatning bu xildagi buzilishlari miyaning organik kasalliklari natijasida yuz beradi.

Shunday ekan óquvchilarning óquv jarayonida ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi.Dars davomida sinfda ótirish dars mashg'ulotlari chalgimaslik bularning hammasi ixtiyoriy diqqatni tarbiyalashda katta rol óynaydi.Biror narsaga qiziqib kelgan maktab yoshidagi óquvchi uzoq vaqt diqqatni bólishi

mumkin. Lekin kattalar nazorati pasayib qolsa u zarur vazifani bajarishdan chalg'ib qolsa u boshqa narsaga kirishib ketishi mumkin.

Diqqatning buzilishi turli darajalardagi uzviy mag'lubiyatlarda hosil bo'ladi. Asosiy yo'sinda miyaning peshana va boshqa qismlarida hamda oddiy charchash holatlarida diqqatning buzilishi 3 turga bo'linadi: I tur. Diqqatning tarqoqligi - boshqarib bo'lmaydigan o'zgaruvchan va kuchsiz diqqat-e'tibor bilan xarakterlanadi. Ushbu tip maktabgacha bo'lgan bolalarda hamda holsizlik tufayli va charchoqqa chalingan kattalarda ham uchraydi. II tur. E'tiborsizlik - boshqa fikrlarga diqqatning qaratilishi va intensivligi murakkablashgan o'zgaruvchan diqqat bilan xarakterlanadi. Ushbu tipga miyasiga bir fikr o'mashib qolgan shaxslar mansub. III tur. Parishonxotirlik-diqqatning jamlanganligi va qiyinchilik bilan almashishi sezilarli darajada murakkabligi bilan tavsiflanadi. Ushbu tipga nerv tizimi kuchsiz va e'tiborsizligi vaqti-vaqti bilan yoki doimiy namoyon bo'luvchilar kiradi. Bunday holat ma'lum muddat holdan toygan va parishonxotir bo'lib qolgan sog'lom odamlarda ham to o'z holati tiklanguniga qadar sodir bo'lishi imimkm.[3]

Diqqat ba'zi bir xususiyatlarga ega bo'lib, xar xil odamlarda turlicha darajada ko'zga tashlanavdi. Diqqatning xususiyatlari uning barqarorligi, hajmi bo'linishi, ko'chirilishlardir.

Har qanday vaziyatlarni o'zingizni diqqat bilan ishlashga o'rgating, faoliyatingizga xalal beradigan narsalarga e'tibor bermaslikka xarakat qiling.

Shunday qilib, muntazam ravishda bir nechta obyektlarni kuzatish bo'yicha mashq qiling, bu mashqlar davomida idrokingizni tiniqligini saqlashga xarakat qiling.

O'zingizni irodaviy sifatlaringizni rivojlantiring bu diqqatni turg'unligini ta'minlaydi. Doimo diqqatni jamlash mashqlarini bajarib turing. Tana xolati ham diqqatni jamlash imkonini beradi.

Diqqatni aynan sizga zarur bo'lgan faoliyatda rivojlantiring. O'z kasbingiz faoliyatingiz sizga yoqsa diqqatni rivojlanishi ham tezlashadi. Iloji boricha faoliyatingizni ijobiy xissiyotlar bilan boyitib boring.

Atrofdagi odamlarga e'tiborli-diqqatni rivojlantirishni eng yaxshi uslubidir. Diqqatni rivojlantirish xotirani rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar:

- 1.A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya.O'quv qo'llanma.-T.: «Barkamol fayz media», 2018.
- 2.F.I.Xaydarov,N.I.Xalilova “Umumiy psixologiya“,Toshkent-2009
- 3.James W.Kalat.Introduction to Psychology.285-290 p.

BOLALARNING TARBIYASIDA OTA-ONALARGA MASLAHATLAR

Xaytboyeva Nargiza
Xorazm viloyati Gurlan tumani 16-maktab psixologi

Oila tarbiyasi ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama etuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, o'z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko'rsatadi. Shaxs shakllanishiga ta'sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o'ziga hos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday xislat psixologik qarama-qarshilik hamda harakterlar to'qnashuvidan iborat ijtimoiy munosabatlardan toliqqan inson organizmi ning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mo'tadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuyg'u halqimiz ruhiyatidagi o'ziga hos xususiyatlardan biridir. Oila tarbiyasida ob'ektiv va sub'ektiv omillarning roli katta. Oilaning moddiy ta'minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila byudjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar ob'ektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo

munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o'zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar sub'ektiv omillar sirasiga kiradi.

Bolalarda ijtimoiy-dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan intilish, ijtimoiy faoliyatning shakllanishida ota-onalarning samarali ishtirok etishlari hal qiluvchi omil bo'lib, bu oia tarbiyasini muvafiqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri. Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri yuritish ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir. Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo'nalishlari — jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy hamda jinsiy ta'lim berish, ularda faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Oila muhitida tashkil etiladigan jinsiy tarbiya o'zida bolani jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amho'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi. Bolalarning sog'lom bo'lishlarida ularning kundalik hayotiy rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-onalar yoki oilaning katta vakil avlodlari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak.

Organizmning bir maromda ishlashi bola salomatligini saqlash va mustahkmlashgagina yordam berib qolmay, shu bilan birga uning barcha yumushlarni tartibli va sifatli bajarishi uchun imkon yaratadi. Markaziy asab tizimining mustahkamlanishi uchun yaxshi dam olish talab etiladi. Tiniqib uhlash bosh miya asab hujayralarini to'la orom olishini ta'minlaydi. Bu esa butun organizmning mo'tadil o'sishiga, uning ish qobiliyatini saqlash va qayta tiklashga yordam beradi. Inson salomatligini saqlashda ertalabki badan tarbiyaning ahamiyatini bolalarga tushuntirish hamda ularning ertalabki badan tarbiya bilan shug'ullanishga ko'niktirib borish ota-ona nazoratini talab etadi. Badan tarbiya bolani saranjomlik, intizomga ham o'rgatib boradi.

Ovqatlanishning to'g'ri tashkil etilishi ham bolaning sog'lom bo'lib o'sishining asosiy omillaridan biridir. Ota-onalar tomonidan bolaning belgilangan muayyan soatlarda ovqatlanish, ovqatlanishdan avval qo'lni yuvish, ovqatdan keyin og'izni chayish, shuningdek, kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) tish tozalash, haftada bir marta vanna (yoki dush, hammom)da cho'milish, qo'l va oyoq tirnoqlarini olishga odatlantirib borishlari zarur. Ushbu holatlar bolalarda jismoniy madaniyat unsurlarini shakllantiradi. Oila tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, hotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iborat.

SHuningdek, ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bolada qiziqishni uyg'ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Bu borada ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qiladi. Oila muhitida bolaning aqliy jihatidan tarbiyalab borishda konstruktorlik o'yinlari (kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar asosida fano (tasvir)lar hosil qilish va boshqalar), fikr doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o'yinlari (shahmat, shashka)ni tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish, teatr, muzey va ko'rgazmalarga tashrif buyurish hamda ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti yuzasidan suhbatlarning uyushtirilishi bu borada o'zining ijobiy samarasini beradi. Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, sahovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondoshuvilaridagi umumiylik, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir hil bo'lishi oila tarbiyasida

ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi. Oilada muayyan an'ananing qaror topganligi, unga oila a'zolari tomonidan bildirilayotgan hurmat, shuningdek, keksa avlod vakillarining shaxsi, ularning ijobiy sifatlari, mehnatda erishgan (garchi u oddiy bo'lsa ham) yutuqlari, atrofdagilar bilan munosabati borasidagi suhbat yoki hotiralarning tashkil etilishi bolalarda hayotiy e'tiqodning shakllanishini ta'minlaydi.

Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o'zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyani to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq sohta go'zalliklar (yarim yalang'och yoki yalang'och badan, me'yoridan ortiq qo'llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar «mahsuli», o'ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go'zallikning timsoli emasligini anglab etishlari lozim. Bola tasavvurida haqiqiy, tabiiy go'zallik (yam-yashil tabiat, nafis qor uchquni, nozik gullar, beg'ubor osmon, viqorli tog'lar, tiniq zilol suv, toza, musaffao havo, bepoyon dalalar, qushlarning yoqimli ovozi, sharqiroq suv, «chuchvara»lar hosil qilayotgan yomg'ir tomchilari, kamalak jilosi, shuningdek, ochiq, hushsurat, chiroyli tabassum, shirali ovoz, ta'sirchan badiiy va san'at asarlari, yuksak mahorat bilan yaratilgan o'yinchoqlar (bolaning asabini junbushga keltiradigan elektron o'yinchoqlar emas), yarashikli liboslar va boshqalar)ning namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarda haqiqiy go'zallikni his etish tuyg'usi tabiat bag'rida, muzey, ko'rgazma, kino va teatrlarda bo'lish tufayli shakllanadi. SHu bois maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tabiat bag'riga, muzey, ko'rgazma, kino va teatrlarga uyushtiriladigan ekskursiya va tashriflar katta tarbiyaviy kuchga egadir. Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shaxsning mustahkam karakter va qat'iy iroda egasi bo'lib voyaga etishida mehnatning roli kattadir. Bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalashda oila ho'jaligining odilona tashkil etilishi, bolalarni oila ho'jaligini yuritish ishiga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Bolalar tomonidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamoloti

darajasidan ortiq bo'lmasligi, ularning tezda toliqishlari yoki mayib bo'lishlariga sabab bo'lmasligi lozim. Bolalar zimmasiga ularning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarning taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishi va ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy bahosiga ega bo'lgan havasini oshiradi, unda o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yuzaga keltiradi. Oilada mustaqil ravishda, ayrim yumushlarning hamjihatlikka asoslangan holda bajrilishiga erishish katta ahamiyatga ega. Mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalarning ibratini, shuningdek, ota-onaning bola bilan birga ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir. Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo'lish, ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo'lish, shuningdek, o'zgarar mehnati, inson mehnatining mahsuli bo'lgan ne'matlarni asrab-avaylashga o'rgatadi.

Oilada, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi (ekologiyasi)ga oid tarbiyaviy ishlar ham tashkil etiladiki, bu jarayonda bolalarda «inson-tabiat-jamiyat» tushunchalari o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro muvofiqlik borasidagi g'oyalarning qaror topishiga zamin hozirlaydi. Oila muhitida tashkil etilayotgan hovli sahnini supirib-sidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko'chatlarni o'tkazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kabi harakatlar bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas'ullik tuyg'usini shakllantiradi. Oilaviy hayotning me'yorida bo'lishi ko'p jihatdan oila byudjetining holatiga ham bog'liq. SHu bois oila a'zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag'larni tejab-tergab, ulardan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. SHu bois bolalarni ham yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o'rgatish, o'zining shaxsiy hamda oila a'zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas'uliyatli yondashishga ko'niktirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bolalarga pulning inson mehnatiga to'nadigan qiymat ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlari uchun ishlatish lozimligini uqtirish, ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi. Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. SHaxs psixodiagnostikasining proektiv metodlari.G.I.Niyozmetova T;2013
2. Psixologik xizmat. Z.T.Nishonova, SH.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymanov. T:2014.
3. Umumiy psixologiya N.Nishonova T;2014

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISHDA PSIXOLOG FAOLIYATINING AHAMIYATI

Maxmudova Sohiba Ravshan qizi
Respublika Ixtisoslashtirilgan San’at maktab internati psixologi

Ixtisoslashgan maktablarda bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda mavjud ilmiy psixologik bilimlarni amalga oshirilishi hamda ta’lim tizimi samaradorligini har tomonlama takomillashtirish uchun ta’lim muassasalarida psixologik xizmat joriy etilgan. Uning asosiy hodimlari- Psixologiya sohasi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan professional psixologlardir.

Mana shu mutahassislar o‘quvchilarning ijtmoy psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari hamda layoqatlarini inobatga olgan holda kasb hunarga yo‘naltirish, zamonaviy texnologiya hamda zamonaviy kasblar haqida ma’umot berish, bolaning psixoemotsional xususiyatlaridan kelib chiqib kerakli tavsiyalar berib borishadi.

Psixologik xizmat 4 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha ish faoliyatini olib boradi:

- Psixodiagnostika;
- Psixologik maslaxat;
- Psixoprofilaktika;
- Psixokorreksiya yo‘nalishi.

Psixodiagnostika nazariy jihatdan bolalarning individual psixologik xususiyatlarini, rivojlanishning yosh normalarini, psixodiagnostika usullarini ishlash chiqilsa, amaliy

ji hatdan diagnostika usullarini, ma'umotlarni qayta ishlash, ta'riflash usullarini qo'llashdan iboratdir.

Diagnostika qilish jarayonida avvalo maqsad yotadi- shaxsning uni har qanday guruhdagi boshqa odamlardan ajratib turadigan individuallikni ochib berish yotadi.

Psixologik maslaxat esa diagnostika natijalardan kelib chiqib pedagogik-psixologik tavsiyalar ishlab chiqish, bolalarga tushunarli shaklda taqdim etishdir.

Psixoprofilaktika- profilaktik xarakterga ega muammolarni hal qilish, bolani rivojlanishidagi istalmagan ruhiy oqibatlarni paydo bo'lishini oldini olishdan iborat.

Psixokorreksiya yo'nalishi usullari psixoterapiya, ijtimoiy psixologik trening, autotrening texnikalari orqali ma'lum usullarni professional darajada o'tkazadi.

Shaxsni shakllantiruvchi va uning rivojlanishiga hissa qo'shadigan sotsializatsiya jarayoni shuningdek, shaxsning o'zini o'zi anglash jarayoni ko'p jihatdan uning ijodiy faolligiga, muloqotga, o'z o'zini anglash jarayoni rivojlantirishga bog'liq.

Kelajakdagi shaxsning xulq atvori bevosita zamonaviy talabning bilim darjasi, uning dunyoga hissiy qiymatli munosabatiga, voqelikni idrok etish darajasiga bog'liq. Uning axloqiy hamda psixologik jarayonlariga bog'liqdir. Shu bois bugungi kunda maktab oldida jamiyatdagi iqtisodiy ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida samarali ijodiy faoliyatga tayyor, rivojlangan estetik va axloqiy fazilatga ega ijodkor shaxsni tarbiyalash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunda o'quvchi yoshlarni kasb-hunar maktabkari, texnikumlarda o'zlari tanlagan kasb va mutahassislik asosida ta'lim olishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim, tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan 2021-2022 o'quv yilidan boshlab umumta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlashi, jamiyatda munosib o'z o'rnini topishi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishi uchun "Kasbga yo'naltirish tizimi" joriy etilgan.

Mazkur farmonda 7-8-9-sinfdan boshlab o'quvchilar o'rtasida interaktiv so'rovnomalar o'tkazish, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, o'quvchilar bilan har oyda bir marta "kasblar olamiga sayoxat" mavzusida maxsus kurslar olib borilishi

to'risida aytilgan. Interaktiv so'rovnomalar orqali o'quvchilarning qiziqish sohalari o'rganilib, tahlil qilinadi va shu asnoda kasbga yo'naltiriladi. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan amaliyotchi psixologlar maktab o'quvchilari bilan kasb tanlash, kasbga yo'naltirish borasida turli xil so'rovnomalar, jumladan, "maktabdagi kasblar", «Kasblar zanjiri» amaliy mashg'ulotlar, "Mening kelajagim" kabi so'rovnomalar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda, tanlangan kasbga shaxsning moyilligi, layoqati va zarur bo'lgan sifatlariga oid ma'lumotlar beriladi.

Psixologlar o'smirlarni o'rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirish jarayonida ularning e'tiborlilikini ifodalaydigan materiallarni tavsiflaydigan holatlar kuzatiladi. Shuningdek kasbiy qiziqishini shakllantirishni ta'minlaydigan intellectual komponentlarning tarkibiy qismlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- Analiz;
- Diqqat va kuzatuvchanlik;
- Ajratish va umumlashtirish;
- Klassifikatsiyalash va isbotlash.

Kasbga yo'naltirish bu kasbiy o'zini o'zi aniqlashga yordam berishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Kasbga yo'naltirish maqsadi – shaxsning ma'lum bir kasbiy faoliyat yo'nalishiga moyilligini aniqlashdir. Ushbu amaliyot har bir bola iste'dodli va ma'lum bir sohada o'z iste'dodini tadbiq qilish degan fikrga asoslanadi.

Bunda psixologning asosiy vazifasi mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, kasbiy qobiliyatlarini ribojlantirish, shaxs rivojlanishining salbiy variantlarini va tendentsiyalarining oldini olishga qaratilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kasb tanlash sifatini oshirish uchun yaratilgan shart sharoitlar qatorida ta'lim muassasasidagi har bir o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, o'quvchilarni qo'llab quvvatlash uchun shart sharoitlarni yaratishga, maktab o'quvchilarinig kasbiy qiziqishlarini, moyilliklarini aniqlashda u yoki bu imkoniyatlaridan foydalanishda har bir bolaning shaxsiy psixolog mutahasisi bo'lishi uning real imkoniyatlarini ochib berishda yordam berishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- aprel PF 5712-son farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi
2. Ismagilova F.S. Kasbiy maslaxat asoslari. 2010 yil.
3. Klimov E. A. Qanday qilib kasb tanlash kerak. 2013 yil
4. Shuara Marta O. Rivojlanish va tarbiya psixologiyasi. 1992 yil
5. Yosh davrlari va Pedagogik Psixologiya

SHAXSIY RIVOJLANISHDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING AXAMIYATI

Atabayev Navro'zbek Ilhombek o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Psixologiya yo'nalishi magistranti

Shaxslararo munosabatlar - bu shaxslararo o'zaro ta'sir jarayonida odamlarning bir-birining sub'ektiv ravishda tajribali, shaxsiy ahamiyatli, hissiy va kognitiv aksidir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, shaxslararo munosabatlar - bu odamlar o'rtasida his-tuyg'ular, mulohazalar shaklida yuzaga keladigan aloqalar to'plami.

Lazurskiy shaxsiy munosabatlar kontsepsiyasini nazariy g'oyalar to'plami sifatida ko'rib chiqadi, unga ko'ra shaxsning psixologik o'zagi uning faoliyatga sub'ektiv-tanlangan munosabatlarning individual qadriyatlar tizimi va ijtimoiy muhitdagi boshqa odamlar bilan munosabatlarning ichki tajribasini ifodalaydi. V.N. Myasishchevning ta'kidlashicha, munosabatlar tizimi shaxsning kechinmalarining tabiatini, voqelikni idrok etish xususiyatlarini, tashqi ta'sirlarga bo'lgan xatti-harakatlar reaksiyalarining xarakterini belgilaydi. Shaxslararo munosabatlarning ijobiy va salbiy tajribasi shaxsning ichki munosabatlar tizimini shakllantiradi.

Shaxslararo munosabatlar tizimida inson o'zida idrok qilgan narsasini jamiyatga berib, o'zini anglaydi. Aynan shaxsning faoliyati, uning harakatlari shaxslararo

munosabatlar tizimining eng muhim bo'g'inidir. Inson shaxslararo munosabatlarda shaxs sifatida tarkib topadi va rivojlanadi. Boshqalar bilan bo'lgan munosabatlar unga o'zini baholash imkonini beradi.

Bilim va harakat ob'ektiga ongli munosabatning shakllanishi psixikaning barcha jabhalarining rivojlanishi bilan bog'liq. Atrof-muhitga bo'lgan munosabatini anglash tegishli his-tuyg'ularni va hissiyotlarni keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida faollikni rag'batlantiradi va shaxsning yo'nalishini rivojlanishiga ta'sir qiladi. Albatta inson ongli tarzda bajarayotgan faoliyati uni ko'proq shaxs sifatidagi rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Xox bu shaxslararo munosabatlardagi faoliyat xox boshqa. Oddiygina misol tariqasida biron bir ishni anglab va anglamagan holda bajarayotgan insonlarda o'z o'ziga va faoliyat yo'nalgan subyektga nisbatan bo'lgan munosabati bir biridan anchayin farq qiladi. Ijtimoiy munosabatlar sinfiy, milliy, guruh va oilaviy munosabatlarni shakllantiradi. Ular insonga o'zini jamiyatning ijtimoiy birligi sifatida anglash, munosabatlarni o'rnatishning ijtimoiy tajribasini qabul qilish va saqlashga yordam beradi. U yoki bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilar guruhlari darajasi ishlab chiqarish, ta'lim, teatr va boshqalarni o'rnatishga yordam beradi. Guruhlardagi odamlar o'rtasidagi munosabatlar darajasini shaxsning guruhdagi o'z o'rnini anglash, o'z xatti-harakatlariga adekvat baho berish qobiliyati deb hisoblash mumkin. Shaxsiy munosabatlar ichidagi daraja insonning o'ziga nisbatan hissiy-irodaviy munosabatlarini boshlaydi, ya'ni. o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini hurmat qilishni shakllantiradi.

Shaxslararo munosabatlar murakkab va dinamik tuzilma bo'lib, uni erta yoshdan boshlab qurishga o'rganamiz, shuning uchun ham aytishimiz mumkinki, shaxslararo munosabatlarni yaratish qobiliyatiga oilada, maktabda va hokazolarda olgan tarbiyamiz ta'sir qiladi.

Har qanday daraja (sifatiy , moddiy) boshqa bir darajaga nisbatan ya'ni qiyosan olinadi. Demakki bir insonning rivojlanishi boshqa bir insonga qiyoslangan tarzda baholanadi va shundan kelib chiqib ma'lum bir daraja beriladi. Shaxslararo munosabatlar va jamiyat bu borada insonning rivojlanishi u yoki bu holatdaligini aniqlovchi mezon vazifasini ham o'tab beradi. Inson o'zara munosabatlar zamirida shaxs sifatida shakllanadi va har tomonlama kamol topadi. Jamiyatsiz inson individ

sifatida shakllanishi mumkin ammo shaxs sifatida shakllanishi bir muncha qiyin masala.

Shaxsning yuksak fazilatlarini shakllantirishning amaliy usullari quyidagilardir:

- a) ushbu shaxs va u kiritilgan jamoaning umumiy yashash sharoitlari;
- b) ma'lum bir jamoa va unga kiritilgan shaxs uchun tashkil etilgan tarbiyaviy ta'lim tizimi;
- v) jamiyat nazorati ostidagi bizning sharoitimizda ommaviy kommunikatsiya vositalarining shaxsga ta'siri.

Shaxsga ta'sir qilishning barcha turlari, qoida tariqasida, jamoa orqali amalga oshiriladi, ular birinchi navbatda shaxsning kognitiv sohasiga ta'sir qiladi, asta-sekin bilim, ko'nikma, qobiliyat, odatlarning ma'lum tajribasi shaklida mustahkamlanadi.

Ular insonning boshqa odamlarga, mehnatga va o'ziga bo'lgan munosabati bilan qo'shib, uning shaxsiyatini shakllantiradi. Insonning har qanday mulki jamoada o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kollektiv fikrlash bilan jamoaning har bir a'zosining yuzaga kelgan muammoni hal qilishda maqsadliligi kuchayadi.

Jamoaning har bir a'zosi uni yanada ko'p qirrali tarzda o'ylash va yoritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Muammoni birgalikda hal qilish har birining yanada jasoratli tashabbusi namoyon bo'lishiga yordam beradi, shu bilan birga, etarli darajada asoslanmagan qarorlarga tanqidiylik kuchayadi. Bu, o'z navbatida, jamoaning har bir a'zosida o'z-o'zini tanqid qilishning rivojlanishiga xizmat qiladi, uning bilim va tajribasini boyitadi, raqobatni rivojlantiradi, ijobiy emotsional ohang hosil qiladi.

Bularning barchasi muammoni hal qilish vaqtini qisqartiradi va uning ob'ektivligini oshiradi. Va nihoyat, bitta muammoni hal qilish jamoaviy fikrlash jarayonida paydo bo'lgan yangi muammolarni hal qilishga undaydi, bu esa jamoani doimiy ravishda oldinga siljitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Е. П. Ильин. «Психология общения и межличностных отношений» Питер 2009.
2. Лурия, А. Р. Лекции по общей психологии — СПб.: Питер, 2006.
3. Карпенко Л.А. Категориальный анализ по нятому общению и

коммуникации // Мир психология. - 2006.

4. Богомолова Н.Н. Социальная психология массовых коммуникаций. Три. пособие для студентов вузов. - М.: Аспект Пресс, 2008

YENGIL ATLETIKA ELEMENTLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA 6-7 YOSHLI MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUVCHILARINING HARAKAT FAOLIYATINI OSHIRISH

Muradov Farxat Maxmudjanovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi,

Omurullayeva Maftuna Xabibulla qizi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi yengil atletika elementlaridan foydalangan holda 6-7 yoshli maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining harakat faoliyatini oshirish bo'yicha keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Sog'lomlashtirish, yugurish, sakrash, yengil atletika, harakat.

Аннотация. В данном тезисе представлена обширная информация о том, как повысить подвижность дошкольников 6-7 лет с помощью элементов легкой атлетики.

Ключевые слова. Оздоровление, бег, прыжки, легкая атлетика, движение.

Annotation. This thesis provides extensive information on how to increase the mobility of preschoolers aged 6-7 years using the elements of athletics.

Keywords. Recovery, running, jumping, athletics, movement.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda 2707-son "2017-2021 yillarga mo'ljallangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2017 yil 30 sentabrda 5198-son "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 5 aprelda PQ-3651-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 30 sentyabrdagi 3955-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorilarining qabul-qilinishi [1,2,3,4,5] hamda mazkur sohaga tegishli me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ma‘lumotlari, muayyan darajada xizmat qiladi. Faoliyatning barcha jabhalariga kirib borayotgan asrimizda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot juda dolzarb bo‘lib bormoqda. O‘tirgan turmush tarzi inson tanasini turli kasalliklarning rivojlanishiga zaif qiladi. Bu, ayniqsa, katta maktab yoshidagi bolalarni tashvishga soladi. Misol uchun, ko‘plab bolalar semirib ketishadi. Bolalarning sog‘lom bo‘lib o‘sishi uchun to‘g‘ri jismoniy tarbiya, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini saqlash kerak.

Yengil atletikaning asosini insonning tabiiy harakatlari tashkil qiladi. Yengil atletika mashqlari insonlarning har tomonlama jismoniy rivojlanishiga, salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ma‘naviy boylik, axloqiy poklik va jismoniy barkamollik uzviy uyg‘unlashgan yangi shaxsni tarbiyalash talab etiladi. Jamiyat tarixida hech qachon harakat inson uchun hozirgidek ajralmas bo‘lmagan.

Tadqiqotning maqsadi. Yengil atletika elementlaridan foydalangan holda 6-7 yoshli maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining harakat faoliyatini oshirish hamda har xil turdagi yurish, yugurish, sakrash va uloqtirish orqali o‘olib borayotgan bolaning tanasining keyingi jismoniy rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratish.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot oldiga qo‘yilgan maqsaddan kelib, quyidagi vazifalar hal etiladi:

- sog‘lomlashtirish;
- jismoniysifatlarni rivojlantirishni;
- asosiy harakat ko‘nikmalarini va malakalarini orgatish va takomillahtirish;

Tadqiqotning uslublari. Yengil atletika elementlarini o‘rgatishda maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari uchun quyidagi usullardan foydalaniladi so‘z uslubi, ko‘rgazmali uslub, qat‘iy tartiblashtirilgan mashq uslubi, musobaqa, o‘yin usullari qo‘llaniladi.

Tadqiqotning muhokamasi. Yurish tezligi qadamlar chastotasiga (temp) va qadam uzunligiga bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolaning tezligi daqiqada 148-172 qadam, qadam uzunligi 42-68 sm.

6-7 yoshli bolalar bilan ular yurish qobiliyatlarini yaxshilashda davom etadilar. Asosiy e'tibor harakat paytida to'g'ri qaddi qomatni shakllantirishga, aniq va ritmik qadamni rivojlantirishga, qo'llarning tabiiy va keng tebranishiga qaratiladi. Yurishda diqqat va chidamlilik mashqlari ular uchun foydalidir: signalda to'xtash, ma'lum bir holatni egallash, burilish va harakatni davom ettirish va hokazoda tarbiyalanuvchi fazo va vaqtda mo'ljal olishni o'rganadi. Yugurishning o'ziga xos xususiyati, uni yurishdan ajratib turadigan, "parvoz" bosqichi bo'lib - oyoq bilan yerdan deyingandagi uchish holati bilan farqlanadi. Yugurish paytida qo'llarning harakati yurishdan ancha farq qiladi: ular tirsaklarda egiladi, tebranishlari yanada kuchayadi. Yugurish paytida mushak apparatlariga, ayniqsa nafas olish va yurak-qon tomir tizimlariga yuklama ancha ko'proq tushadi. Shu boyis yurishga qaraganda tezroq charchash kuzatiladi.

Turli xil tayyorgarlik mashqlari yugurish malakasini egallashga yordam beradi:

- a) tizzalarni baland ko'tarib yugurish, "kiyik kabi";
- b) kublar, to'plar, kegli lar orasidan ilon bolib yugurish
- v) "halqalar" ustiga sakrab-sakrab yugurish (bir-biridan 60-80 sm masofada yerga chizilgan doiralar) va boshqalar.

Bu yoshda tarbiyalanuvchilarning to'satdan bergan signallariga tezda javob berish qobiliyatini rivojlantirish ham muhimdir (yugurishni boshlash va tugatish, signalda to'xtash, yugurish paytida burilishlar).

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yugurish mahoratini oshirish uchun poyga bilan harakatli o'yinlar, estafeta o'yinlarida tezlik va epchillik raqobati katta ahamiyatga ega bo'lib, bu yerda bolalar o'zlarining tezlik qobiliyatlarini rivojlantira olishlari mumkin.

6-7 yoshli bolalar uchun o'rtacha tezlikda yugurishning davomiyligi 30-35 sekundgacha. 5-6 yoshli bolalar maksimal tezlikda 20-25 metrgacha, 7 yoshda - 30-35 metrgacha yugurishlari mumkin.

Sakrash mashqlari bolaning tanasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: ular oyoq mushaklariva paylarini mustahkamlaydi, harakatlarni muvofiqlashtiradi. Biroq, esda tutish kerakki, sakrashlardan noto'g'ri foydalanish (qo'nish joyining tayyor emasligi, sakrash balandligi bo'yicha tavsiya etilgan talablarga rioya qilmaslik va boshqalar) maktabgacha yoshdagi bolalarda jarohatlar va yassi oyoqlar paydo bo'lishi olib kelishi mumkin.

Joydan turib uzunlikka sakrash. Sakrashdan oldin dastlabki holat "suzuvchi starti" (oyoqlari yarim egilgan, tanasi oldinga egilgan, qo'llar orqaga - yon tomonlarga). Ular bir vaqtning o'zida qo'llarni oldinga silkitib, ikkala oyog'i bilan depsinadilar. Parvoz paytida oyoqlar tizzada egilib, oldinga ko'tariladi. Qo'nish paytida bola egilib, qo'llarini oldinga – orqaga olinadi.

6-7 yoshli bolalar uchun bu harakatdagi eng qiyin element qo'nishdir. Bola yana sakrashga urinib, maksimal kuch bilan depsinadi va oyoqlarini oldinga tashlaydi (parvoznining so'nggi bosqichida tovoniga qattiq tushadi, ko'pincha muvozanatni yo'qotadi. Shuning uchun asosiy e'tibor yumshoq va barqaror qo'nishga qaratiladi.

Arg'imchoqda sakrash. Arg'imchoq bolaning bo'yiga qarab tanlanadi. Ikki oyog'i bilan arqonning o'rtasida turib (oyoqlari yelkalarining kengligida, yuqoriga qo'tiqqacha tortiladi.

Dastlab, arqon faqat oldinga sakraladi, shunda bola sakrashni yengil o'zlashtiradi. Arqonni qo'llar aylantiradi, sakrash paytida oyoqlar bir oz egiladi, gavda tekis bo'ladi. Ko'nikmalarni shakllantirishning dastlabki bosqichida sakrashlar sekin sur'atda amalga oshiriladi, keyin arqonning aylanish tezligi asta-sekin tezlashadi.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari uchun qo'llaniga yengil atletika elementlari o'z samarasini berdi.

6-7 yoshli bolalarda yurish qobiliyatlarini yaxshilandi. Harakat paytida to'g'ri qaddi qomatni shakllantirishga, aniq va ritmik qadamni rivojlantirishga, qo'llarning tabiiy va keng tebranishiga qaratilgan mashqlar bolani harakat faoliyatini to'g'ri va yanada faol bo'lishini ta'minladi. Yurishda diqqat va chidamlilik mashqlari ular uchun foydali bo'ldi. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari uchun qo'llanilgan Signalda

to'xtash, ma'lum bir holatni egallash, burilish va harakatni davom ettirish mashqlari bolaning aqliy holati hamda jismoniy faoliyatini yanada rivojlanishiga erishildi.

Joydan turib uzunlikka sakrash texnikasi bolalar uchun biroz qiyinlik qilishiga qaramay, bolalarning depsinishi, uchish fazalari, qo'nish holatlari hamda natijalari qoniqarli darajaga yetdi.

Joyidan turib uzunlikka sakrashda va arg'amchida sakrashlar bolalarning barcha jismoniy sifatlarini birdek rivojlantirishi barcha tadqiqotlarda o'z isbotini topgan bo'lib, bolalarning faoliyatini rivojlantirishning eng samarali usularidan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son "2017 – 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. Ozolin N.G. Makarov D. P. "Yengilatletika" Moskva, 1972 y.
3. Normurodov A.N. Yengil atletika. Toshkent: 2002 yil.
4. IAAFning bolalar engil atletikasi dasturi. 2006 yil

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNINI

Choriyeva Sharofatoy Hatam qizi
Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani 12-DMTT

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u nikoh va qon-qarindoshlikka asoslanishi, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Insonparvar demokratik davlatda mavjud bo'lgan oilaga quyidagicha ta'rif mavjud: "Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini bo'lib, yuridik ma'noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarning doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog'langan shaxslar doirasidan iborat bo'lgan milliy mustaqillik mafkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an'analarga asoslangan

oilaviy munosabatlarni ririvojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ittifoqidan iboratdir”. Oila bola dunyoga kelgandan boshlab uning butun umri davomida o`shishi, rivojlanishi, kelajakdagi o`rni, individual xususiyatlari va iqtidorini ochib beradigan va alohida ahamiyatga ega bo`lgan maskandir. Oila asosiy tarbiya o`chog`i ekanligini bilamiz. Ayniqsa oila muhiti maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar uchun muhim ahamiyatga ega. Qanday masala bo`lishidan qat`iy nazar albatta bola tarbiyasi muhim masala hisoblanadi. Masalan qaysidir bola loydan biror narsa yasashga qiziqsa, qaysidir bola o`zi o`ynaydigan o`yinchoqlarning qanday yasalganligiga qiziqib, uni buzib ko`radi. Ba`zi bolalarda iqtidor bo`laturib uni o`zi anglamasligi, yoki unda o`zida qiziqish bo`lmasligi mumkin. Bunday hollarda ota-onalar bolaning iqtidorini anglab, uni yanada rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim. Masalan bola biror bir cholg`u asbobini chalishga qiziqadi, ammo u juda kichik. Bu holda ota-onalar bolaga shu musiqa asbobining o`yinchoq maketini olib bersalar ,unda o`zi qiziqqan soha bo`yicha ilk tushunchalar paydo bo`ladi, bolada yanada ko`proq qiziqish uyg`onadi. Bolaning yoshi o`sgan sayin unga yanada yetarli sharoitlarni yaratib berish va turli musiqa maktablariga olib borish orqali uni yanada rivojlantirish mumkin. Bu bola iqtidorini oshirishning ilk ko`rinishlari hisoblanadi. Mutaxasis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko`ra, inson o`z umri davomida oladigan barcha axborot va ma`lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo`lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o`zi bolaning yetuk, barkamol, iqtidorli shaxs bo`lib voyaga yetishida oila,bog`cha,ota-ona tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini ko`rsatib turibdi. Ba`zi vaqtlarda ota-onalar ma`lum ish bilan band (uy yumushlari, sevimli kinofilm ko`rayotgan yoki kim bilandir telefon orqali suhbatlashayotgan vaqtlarda) bo`lganda bolalarning oddiy savollarini e`tiborga olmay: “shoshmaytur”, - deb o`z ishlarini bajarishda davom etishadi. E`tibor bering, bolani tinglashga vaqti bo`lmagan ota-ona uning nimaga qiziqishi-yu, iqtidorini bilishi, u bilan vaqti vaqti bilan shug`ullanishi, iqtidorini oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishi mumkinmi? Yo`q albatta. Statistika ma`lumotlarga qaraganda bugungi kunda 90 % bolalar ota ham, ona ham ishlaydigan oilalarda tarbiyalanadi. Shuni inobatga olib aytish mumkinki bolalar tarbiyasiga ota-onalar jiddiy e`tibor qaratishlari, ya`ni ishdan bo`sh vaqtlarda ko`proq bolalar bilan

shug`illanishlari, ular bilan turli o`yin mashg`ulotlar o`tkazishlari, eng birinchi navbatda bolalarning har bir savoliga aniq va tushunarli qilib javob berishlari lozim. Shundagina bunday bolalardan teran fikrli, o`z dunyoqarashiga ega, yurtini sevadigan bolalar vujudga keladi. Tinimsiz rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yurtimizda yaratilayotgan imkoniyatlarni ko`rib insonning bahri dili ochiladi. Yangidan barpo etilayotgan maktabgacha ta`lim muassasalari, musiqa maktablari, sport maktablari, turli xil dam olish maskanlari bularning barchasi bolalar, yoshlar uchun, ularning kelajakdagi o`rni, yurtimiz ravnaqi uchun qo`shadigan munosib hissalarini uchun yaratilayotgan imkoniyatlardir. Bu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda har bir ota-ona bolalarini qiziqishiga qarab to`garaklarga olib borishi lozim, shunda mustaqil vatanga munosib farzand tarbiyalagan bo`lamiz. Bejizga oila yoshlarning tarbiya, imkoniyat va iqtidorni oshirish o`chog`i deb ta`kidlamadik. Biz maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarga shunday tarbiya beraylikki, kelajakda ulardan Alisher Navoiydek komil insonlar, Zulfiyaxonimdek iboli qizlar bo`lib kamol topsinlar. Biz ularga shunday imkoniyat yaratib beraylikki, kelajakda ulardan buyuk ixtirochilar, zukko bilimdonlar shakllansin. Biz ularning iqtidorini oshirish uchun shunday yo`l tutaylikki, kelajakda yurti, xalqi, mahallasi eng asosiysi oilasining tom ma`nodagi ustuni, yetuk kadr bo`lib yetishsinlar.

Ta`lim muassasalarida olib borgan turli bosqichdagi pedagogik ham psixologik faoliyatimiz shuni asosladiki, jamiyatning oila deb atalmish kichik bir bo`g`ini orqali asrlar silsilasidan sayqallanib e`zoz topib kelayotgan ming asrlilik an`ana va qadriyatlar kelgusi avlodga yetkaziladi. Yurt manfaati, jamiyatning bugungi kuni va kelgusi taraqqiyoti uchun zamin yaratib beradigan muqaddas go`sha bu – Oila hisoblanadi. Ana shu muqaddas dargohda o`sib, ulg`ayadi, tarbiyalanadi. Jumladan, har bir bola organizmi individual holda rivojlanadi. Rivojlanish bosqichi ma`lum bir ketma-ketlikka asoslangan bo`ladi. Ana shu bosqichlarning har birida bir xil yoshdagi bolalar uchun umumiy bo`lgan xususiyatlar kuzatiladi. Bolalar o`zining ontogenetik taraqqiyoti davrida yuzaga keladigan turli ruhiy holatlarga qay yo`sinda javob topish va uni bartaraf etish yo`lini oila muhitida o`rganadi.

Psixologlarning ta`kidlashlaricha, oila a`zolarining o`zaro munosabatlari bola shaxsini shakllanishiga bevosita ta`sir ko`rsatadi. Bolaning o`zini namoyon etishi,

rivojlanishi, qiyinchiliklarni yengishi, oq-qorani ajrata olishi oila aʼzolarining oʻzaro muloqotiga bogʻliq. Amerikalik mashhur ruhshunos Bronfenbrinner uzoq yillar davomida oʻtkazgan tadqiqotlar natijalariga koʻra shunday xulosaga keladi: ota hukmron boʻlgan oilalarda oʻgʻil bolalar yaxshi tarbiya oladi, masʼuliyatni his qiladigan boʻladi. Tobe tabiatli, mustaqil harakat qila olmaydigan, ota-onasiga qaram boʻlgan, oʻziga juda kam ishonadigan bolalar ota-ona teng hukmron boʻlgan oilalarda ulgʻayadi. Bunday oilalar muloqotga kirishishga qiynaladigan, qaror qabul qilishda boshqalardan koʻmak kutadigan farzandlarni tarbiyalaydi. Oilaviy munosabatlardagi muammolar maktabgacha yoshdagi bolalarning individual xususiyatlarini shakllanishida salbiy taʼsir koʻrsatadi. Ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishida oʻziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon boʻlishini yodda tutishlari lozim. Baʼzi bolalar endigina birinchi soʻzlarni oʻzlashtirganlarida ularning tengqurlari allaqachon maʼlum bir iboralar bilan gaplasha oladigan boʻladilar. Bola imkoniyatlarini namoyon boʻlishi maʼlum darajada nasliy omillarga ham bogʻliqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning oʻziga xos xususiyatlaridan biri temperamentdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar oʻz temperament xususiyatlariga koʻra ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Xushchaqchaq, sergap, quvnoq, hayotning oʻzgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar -sangvinik, koʻpincha noxush kayfiyatda yuradigan, taʼsirchan, kamgap, sust bolalar melanxolik, xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar - flegmatik, jaxldor, betoqat, serzarda, harakatchan bolalar - xolerik hisoblanadilar. Temperament turlarining mutlaqo ijobiysi yoki salbiysi boʻlmaydi. Ularning har birida oʻziga xos afzallik va kamchilik jihatlar mavjud. Bolaning u yoki bu temperament tipiga mansubligi uning oʻyin, taʼlim, faoliyat jarayonida muvaffaqiyatlarga erishishiga yordam berishi ham, xalaqit qilishi xam mumkin. Flegmatik bolaga mashgʻulotda uning sabr-toqatliligi va qunti yordam beradi. Xolerik bola oʻquv materiallarini tez oʻzlashtirib oladi. Sangvinik temperamentga mansub boʻlgan bola oʻqishni oson egallaydi, lekin unda bilimlar maʼlum bir tizim asosida oʻzlashtirilmaydi. Bolalarga tarbiya berish jarayonida ularning temperament xususiyatlarini hisobga olinishi, yaʼni uning afzallik tomonlari rivojlantirilib, kamchilik jihatlarini bartaraf etib borilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarda turli mavzuga oid ertaklar tinglash, sahnalashtirilgan ertaklarni tomosha qilish ular ruhiyatida ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Bolalar xulq-atvorida yuzaga kelgan salbiy holatlar ertak qahramonlari tilidan qoralanadi. O'zgacha qiziqish va zavq bilan tinglangan ertak ularga albatta yaxshi ta'sir etadi. Farzandlarimiz ertaklar olami orqali real olamga kirib boradi. Ertangi porloq kelajagimiz bo'lgan aziz farzandlarimizning qalbida o'z Vatani va oilasiga mehr va muhabbatli qilib tarbiyalash bizning asosiy vazifamiz hisoblanadi.

PAST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH

Yakubova Naima Urazboyevna
Xorazm viloyati Gurlan tumani 44-maktab psixologi

Har tamonlama yetuk, sog'lom mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning ro'li beqiyosdir. Hozirgi kunda ta'limda aqliy rivojlanishda orqada qoluvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish va korreksiya qilish pedagogik va yosh psixologiyada dolzarb muommalardan biridir. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'ziga xos xulq atvori ko'p holatlarda o'quv yilining boshida namoyon bo'ladi. Nutqi sensomotorikasi rivojlanishi orqada qolgan bolalarga boshlang'ich sinfdanoq o'qituvchi tomonidan alohida e'tibor qaratilishi lozim, aks holda yozish ko'nikmasini egallay olmay qolishlari mumkin. Sensomotorikaning rivojlanishidagi zaiflik boshlang'ich sinf o'quvchisining past o'zlashtirishida asosiy sababchi hisoblanadi. O'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishi va bilimni oshirishi uchun ikkita muommoni hal etish talab qilinadi. Birinchidan, sinfning yoki ayrim o'quvchilarning individual xususiyatlarni inobatga olgan holda, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasini takomillashtirish. Ikkinchidan o'quvchilarda o'qishga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi tarbiyaviy vositalar tizimini qo'llash bilim olishda uchraydigan qiyinchiliklarni

yengib o'tishda yordam beradi. Yosh xususiyatlariga ko'ra o'zlashtirmaslik sabablari profilaktikasi.:

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini va ishchanlik faoliyati rivojlantirish

O'rta sinflarda zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish

Yuqori sinflarda ta'lim olishning ijtimoiy muhim motivlarini shakllantirishga e'tiborni qaratish. Ta'lim jarayonida past o'zlashtiruvchi o'quvchilarda namoyon bo'ladigan sifatlar quyidagilar: Darsga e'tiborli emas, darsda bir joyda o'tira olmaslik, topshiriqlarni muaffaqiyatli bajarish yo'riqnomasini tinglab bilmaslik, o'quv topshiriqlarini bajarishda xatoga yo'l qo'yish, chidamsiz maqsadga intiluvchanlik tashabbuskorlik yo'qligi, sinfda ko'pincha intizomni buzishi, tengdoshlari va o'qituvchilar bilan munosabatlarda qo'pol boshlagan ishini oxiriga yetkazmasligi.

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ikki tipga ajratish mumkin.

Birinchi tipga kiritilgan o'quvchilarning tafakkur opertasiyalari (analiz,sintez, umumlashtirish va boshqalarning bo'sh rivojlanganligida namoyon bo'ladi. Bunda o'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. O'qishda orqada qolishlik bolaning o'quv jarayoni bosqichlaridan birida o'zlashtira olmaslikda ifodalanuvchi maktab talablarini bajara olmaslik bilan belgilanadi.

Ikkinchi tipga tafakkur faoliyatining yuqori sifati o'qishga nisbatan salbiy munosabat bilan birikadi. Bunday o'quvchilar maktabga yaxshi tayyorlanib, yaxshi o'qish istagi bilan kelishadi, ammo ularning o'qish ishlari sifatiga faqat o'zlariga yoqqan narsa bilan shug'ullanishga o'rganib qolganligi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilardagi bilish jarayonlarining asosiy komponentlari quyidagi tiplarga bo'linadi.

Pedagogik qarovsizlar,

Intellektual sustlar ,

Uquvchanligi past o'quvchiar.

Tan olish kerakki past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash ancha qiyin va murakkab jarayon hisoblanadi. O'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy dars o'tish usullaridan foydalanishi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan yakka tartibda ish olib borishi natijasida uni samarali amalga oshirish mumkin. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish, yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ta'limga uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularga biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishga ishonch uyg'otish lozim.

O'quvchida ideal o'quvchi tushunchasi shakllantirish va idrok ko'lamini kengaytirish diqqat va harakat idrokini rivojlantirish, relaksatsion mashqlar o'tkazish o'quvchilardagi bo'shliqlarni aniqlab bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi mashqlarni bajartirish ijobiy natija beradi. O'quvchilarni mustaqil faoliyatga undashda quyidagilarni amalga oshirish samarali natija beradi.

- Topshiriqlarni osondan qiyinga , soddadan murakkabga qarab yo'naltirish
- Ishni bajarishda bolalarda ishonch hissini uyg'otish , dadil harakatlanishiga sabab bo'ladi.
- Topshiriqlar turini almashtirishga alohida ahamiyat berish zarur.
- Topshiriqni ma'lum vaqtda boshlab ma'lum vaqtda tugatishga ko'niktirish lozim.
- Ish stoli har doim saranjaom sarishta bo'lishiga o'rgatish.
- Darslik didaktik materiallar bilan ishlashda uzviylik bo'lishi maqsadga muvofiq

O'quvchiga mustaqil uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil bir ishning turidir. Sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish , uyga vazifalar berishda me'yorga amal qilish zarur. O'zlashtirishda qiynalayotgan o'quvchilarga quyidagi usullar qo'llaniladi.

1. Kuzatuv xaritasini yuritish
2. Guruh yoki juft bo'lib ishlash
3. Individual maslahatlar

5. Didaktik o‘yinlar
6. To‘garaklarga jalb qilish
7. Uy vazifalarini bajarishda yordam berish kuchli o‘quvchilarni biriktirish
8. o‘quvchi qiziqishini e‘tiborga olish
9. Bolalarda o‘zlashtirmaslik sabablari yuzasidan ota onalar yig‘ilishlarini o‘tkazish
10. Ota onalar bilan individual ishlash

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.T.Nishonova, N.A.Asqarova, F.F.Rasulova, G.Yu.Baykunosova “O‘quvchilarda past o‘zlashtirish diagnostikasi va psixokorreksiyasi. Uslubiy qo‘llanma
2. Sh.A.Do‘stmuhammedova, Z.T.Nishonova, P.S.Ergashev, N.Rasulova, T.F.Mirusmonova, D.A.Soliyeva “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar psixologiyasi” Toshkent 2012
3. “Zamonaviy ustoz. “ Gazetasi 2021-yil 13 -may 7 –son 19- bet

O‘SPIRINLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Toxirova Sabohat Yo‘ldosh qizi
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani 2-IDUM psixologi,
Quryozova Risolat Botirboyevna
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani 38-maktab psixologi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘spirinlik davri haqida tushuncha, o‘spirinlik davrida psixik rivojlanish hamda o‘spirinlik davrida kasb tanlashning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: O‘spirinlik. Kasb tanlash. Kasbga yo‘llash. O‘rtoqlik. Do‘stlik. Jamiyatga foyda keltirish orzusi.

O‘smirlikdan keyingi navbatdagi bosqichni o‘spirinlik davri deb bir bosqich hisoblashimiz ham mumkin, lekin hozirgi ko‘pchilik psixologlar klassifikatsiyasi

bo'yicha ikki bosqichga ajratishimiz ham mumkin. Avval o'smirlikdan keyingi bosqichni o'smirlik, keyingisi ilk o'spirinlik yoki yigitlik davri deb aytilardida 14 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan davrlarni qamrab olar edi. Hozir ko'pchilik psixologlar 15–18 yoshni qamrab oladigan davrni ilk o'spirinlik deb atashni ma'qul ko'rmoqdalar, bu umumta'lim maktabining 8-9-10-11- sinflariga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchi jismonan baquvvat, o'kishni tugatgach mutsaqil mehnat qila oladigan, oliy maktabda o'zini sinab ko'radigan imkoniyatga ega bo'ladi.

Mazkur davrning yana bir xususiyati – mehnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iborat. Ijtimoiy hayotda faol qatnashish, ta'lim xarakterining o'zgarishi, yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e'tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy xis-tuyg'uning vujudga kelishiga, bilimni o'zlashtirishga ijodiy yondoshuv kuchayishiga olib keladi.

Hayotda o'z o'rnini topishga intilish kasb – hunar o'rganish, ixtisoslikni tanlash, itsiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuch-g'ayrat, shijoat, qaxramonlik ko'rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat xodisalariga romantik munosabatda bo'lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi.

O'spirin xar bir ishda yetakchi, birinchi bo'lish itsagi bilan yashaydi. Lekin xar doim xam uddasidan chiqa olmaydi. L.A.Umanskiy fikricha buning uchun o'spirin quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak.

a) axloqiy xislatlar – jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mexnatsevarlik;

b) irodaviy xislatlar – matonat, qat'iyat, mutsaqillik, tashabbuskorlik, batartiblik, intizomlilik;

v) emotsional xislatlar – xushchaqchaqlik, tetiklik, xazilkashlik va yangilikni xis etish, o'z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar.

O'spirinlarda mavjud bo'lgan yana bir muxim xislat ularda yuksak darajadagi do'stlik, o'rtoqlik, ulfatchilik, muxabbatning vujudga kelishidir. Shu sifatlarning qay darajada shakllanganligi tarbiyaviy ta'sir o'tkazish mezoni xisoblanadi.

O'spirin o'quvchilarning fanlarga munosabatlari asosan xar qaysi fanning inson dunyoqarashidagi roliga, bilish faoliyatidagi va ijtimoiy ahamiyatiga, amaliy xususiyatiga, o'zlashtirish imkoniyatiga va uni o'qitish metodikasiga bog'liq bo'ladi.

O'spirin barcha faoliyat bosqichida mutsaqil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilikdir. Bu kamchilikni bartaraf qilishda dars jarayoni katta imkoniyatlarga ega. Darsda o'quv materialini bayon qilishda mazmuni ixcham, mantiqiy bog'langan bo'lishini ta'minlash, o'quvchining javobi albatta kitobdagiday, yodlab olingan qoidalardan iborat bo'lib qolmay, uning «o'z so'zi bilan» izoxlanishini talab qilinishi kerak. Tinglangan yoki o'qilgan materialda mutsaqil xulosa chiqarishni talab qiladigan xolatlar bo'lishiga aloxida e'tibor berilishi kerak.

Tafakkur rivojlanishi bilan birga o'quvchining nutq faoliyati ham o'sadi. Bu esa o'quvchida o'z fikrini to'g'ri, aniq ifodalash malakasini tarkib toptiradi. Nutqining tuzilishini takomillashtiradi va lug'at boyligini yanada oshiradi.

O'spirin adabiy asarlarni o'qish va tushunish orqali mutsaqil fikrlashga, muloxaza yuritish va munozaraga o'rganib boradi.

Shunday qilib ta'lim jarayonida turli fanlarni o'qitish tufayli keng ko'lamli bilimlar tizimi o'zlashtirilishi orqali yuqori sinf o'quvchilarida tafakkurning faolligi, mustaqilligi, mazmundorligi, maxsuldorligi ortadi.

Endigina o'sib kelayotgan o'spirin o'quvchilar kasbga qanday yondoshadilar? Bu muammo ko'pchilikni qiziqtiradi. Kuzatishlardan va turmush tajribasidan ma'lumki, odatda ilk o'spirinlik yoshidagi og'il-qizlar xayotda mutsaqil qadam tashlash to'g'risida aniq asosli fikr bildirishga qiynaladilar. Shu sababli kasb tanlash davrida oqilona va to'g'ri yo'l tutishni bilmay dovdirab qoladilar yoki tavakkaliga ish ko'radilar. Natijada noxush kechinmalar, umidsizliklar, jiddiy –ijtimoiy sustlik xolatlari vujudga keladi.

Yuqori sinf o'quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlari, itse'dodlari asosida tanlagan kasblariga to'g'ri yo'naltirish o'spirinlar uchun katta xayotiy masaladir. O'spirinlarga o'qituvchilar, ota-onalar jamoatchilik, o'z kasbining utsalari, murabbiylar aloxida e'tibor berishlari kerak.

O'rta maktabni bitirgunicha xamma o'quvchilar kasbini qat'iy tanlaydi deyish mumkin emas. Kasb – xunarga xar-xil munosbatlar xosil bo'lishining asosiy sababi maktabda o'qish davrida kasb tanlash bo'yicha turli xil niyatlar paydo bo'lishidir.

V. A. Krutetskiy o'spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni aloxida ifodalaydi:

a) biror o'quv faniga qiziqish; b) vatanga foyda keltirish itsagi (o'ziga xos psixologik xususiyatini xisobga olmagan xolda); v) shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish; g) oilaviy an'analarga rioya etish (vorislik); d) do'stlari va o'rtoqlariga ergashish; e) ish joyi yoki o'quv yurtining uyiga yaqinligi; j) o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi.

Shuningdek boshqa turdagi motivlar masalan, shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, maqsadi, unga intilishi, kasb to'g'risidagi ma'lumoti, o'zining sixat salomatligi, asab tizimining va temperamentining xususiyati va xokazolar xam bo'lishi mumkin.

O'spirinlarda kasblar xaqida yaqqol tasavvur bo'lmasligi sababli ular ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. O'z qobiliyatlarini oqilona baxolay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq xarakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar. Biroq xozir mazkur ko'ngilsiz xolatlarning oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun quyidagi pedagogik–psixologik omillarga aloxida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

Kasblarni o'rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lo'nda qilib ifodalash.

O'qituvchining kasblar bo'yicha tashviqot ishlarini olib borishi.

O'spirinlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish.

Texnologiya darslarida yuqori sinf o'quvchilarini kasbga tayyorlash va qiziqish uyg'otish.

Psixodiagnostik va kasb tanlash usullarining amaliyotga tadbiiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish.

Joylarda zamon talabiga mos kasb tanlash xonalarini tashkil etish.

Kasb tanlash targ'iboti yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositalariga jalb qilish va psixologik tayyorlash.

Tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yo'naltirishning usul va vositalari ishlab chiqilgan. E. A. Klimov kasbga yo'naltirish uchun kasb turlarini «inson-tabiat», «inson-texnika», «inson-inson», «inson-badiiy obraz» «inson-belgilar tizimi» singari komplekslarni tavsiya qiladi.

Kasb tanlashga yo'llash va kasblarni targ'ib qilish usullaridan yana biri – ko'rsatmali vositalar, ya'ni fotostendlardan, kitoblar ko'rgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining maxsulidan, naqqoshlik va texnika to'garagi ishlaridan foydalanishidir. Bundan tashqari muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali xam ayrim kasblarga qiziqish uyg'otish mumkin.

Mehnat psixologiyasining mutaxassislari kasbga yo'naltirishning boshqacha usullarini: barcha fanlarni o'qitishning politexnik jixatini chuqurlashtirishni; tabiiy matematik fanlardan atrofda ishlab chiqarishdan ob'ekt sifatida foydalanishni; ijtimoiy turkumdagi fanlarni o'qitishda o'lkashunoslik materiallarini qo'llab o'quvchilarning kasbga qiziqishini oshirishni; mehnatga ishtiyok uyg'otishni; darslarda kasblar haqida axborotlar berib borishni; mehnat soxalari bilan o'quvchilarning mustaqil tanishishi uchun sharoit yaratishni tavsiya etmoqdalar.

Qishloq maktablarida kasb tanlash bo'yicha imkoniyatlar xam mavjud. Chunonchi yozda yuqori sinf o'quvchilarini ishlab chiqarishga bemalol jalb etish mumkin. Bunda jismoniy mehnatga o'spirinlarni qiziqtirish, mehnat natijasidan baxramand etish, ularda mamnuniyat xissini tarkib toptirish, ularda rejali mehnat qilish ko'nikmasini vujudga keltirish, javobgarlik va ma'suliyat xissini tarkib toptirish lozim.

Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaxsning erta o'spirinlikdagi eng muhim xislatlaridan biri o'z-o'zini, hurmatlash, o'z-o'ziga baho berish hamda uzviy shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O'spirinlar o'zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. O'z-o'zini tarbiyalash masalalarida bir butun ma'naviy psixologik qiyofasini shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: o'g'il bolalar, qahramonlik, yaxshi ota, o'qituvchi, vrach yoki badiiy asar haqida kinofilmdagi

obrazlarni o'zlariga ideal deb bilsalar, qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va hokazo. O'zaro munosabat va emotsional hayot o'z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o'spirinlar o'zi hal qila olmaydi. Bu masalani o'spirinning ota-onasi, o'z tengqurlari, o'qituvchilar ishtirokida ularning qo'llab-quvvatlashida hal qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida.»- T., 1998.
2. Nemov R.S. «Psixologiya».-Kn.1.-M., 1998 yil
3. G'oziev E. Psixologiya. T., O'qituvchi, 1994 yil
4. G'oziev E. Intellect psixologiyasi. T., O'qituvchi, 1996 yil
5. Psixologiya V.Karimova. Toshkent, 2002 yil

ПСИХОЛОГИК КОНСУЛЬТАЦИЯГА МУРОЖААТ ҚИЛУВЧИ ШАХСЛАР ТИПОЛОГИЯСИ

*Халимова Сайида Абдурахимовна
Наманган вилояти Чуст туман 21-мактаб психологи,
Исоров Фаррухбек Фахриддинович
Наманган вилояти Чуст туман 71-мактаб психологи*

Аннотация. Жаҳонда глобаллашув жараёнининг кучайиб бориши жамиятда шахсларнинг психологик адаптацияси, рухий ҳолати, психологик саломатлигига ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди. Ҳозирги кунда психология соҳаларининг ривожланиши ва психологик хизмат турлари кўпайиб бормокда, психологик консультацияга муурожаат этувчи шахсларнинг ҳам сони кундан кунга ортиб бормокда. Турли шахс типларига индивидуал хусусиятлар хос бўлганлиги сабабли уларда ҳар хил когнитив хусусиятлар, турли кутилмалар, ҳар хил қадрият ва дунёқараш хос.

Калит сўзлар: шахс, шахс типлари, психологик хизмат, психологик консультация, психолог консультант, индивидуал психологик хусусиятлар.

Психологик консультацияга мурожаат этувчи шахсларнинг индивидуал-психологик ва типологик хусусиятларини инобатга олиш ёш психолог-консультантлар учун услубий йўриқнома сифатида хизмат қилиши мумкин. Шунингдек, шахсларнинг типологик хусусиятларини эътиборга олиш консультатив хатоларнинг камайишига, нотўғри таъсирларни бартараф этиш, тавсиялар тайёрлашда конкретликни тақозо этади.

“Аҳолига, айниқса ёшларга сифатли психологик хизмат кўрсатиш, психологик хизмат фаолиятини бошқаришни мувофиқлаштириш, таълим муассасалари билан профилактика инспекторлари ва жамоат вакиллари ўртасидаги ҳамкорликни янги сифат даражасига кўтариш, психологик мактабни ривожлантириш ҳамда олий таълимда тор ихтисосликлар бўйича кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш, давлат-хусусий шериклик асосида психологик марказлар ташкил этишни йўлга қўйиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши, Мактабгача таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқиқот марказининг Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши қошидаги Ёшларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш маркази негизида таълимнинг барча босқичларида психологик хизмат кўрсатувчи тузилмалар учун мулоқот майдонига айланадиган, тегишли давлат идоралари билан ҳамкорликда иш олиб борувчи “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази қошида Ёшларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш республика маркази (кейинги ўринларда Марказ деб аталади) этиб қайта ташкил этиш тўғрисидаги таклифлари маъқуллансин.”

Хилма-хил психологик муаммолар манбалари ичида мактаб ҳам муҳим ўрин эгаллайди. Масалан: тиббиёт мезонларига қараганда, мактаб ёшидаги болаларнинг 18-20% қисқа муддатли ёки доимий психотерапияга мухтождирлар. Мактаб, коллежда кенг тарқалган муаммолар жуда кўп: Ўқув мотивацияси, йўқлиги паст ўзлашиши ўқитувчи тенгдошлари билан низоми муносабатлар, ўз-

ўзини паст баҳолаш, жамиятга қарши группаларда иштирок этишга лаёқатлилиқ ва бошқалар. Юқори санаб ўтилган муаммоларнинг кўпайиши ҳозирги мактаб, коллежларда шахс ривожланиши босқичларини етарлича ҳисобга олмаслик, барчага бир-хилда талаб қўйиш натижасида уларнинг индивидуал психологик ва психофизиологик хусусиятларни эътиборга олмаслик сабаб бўлмоқда. Боланинг кўпгина нисбий хусусиятлари, масалан, меҳнатга, математикага, мусиқага, ва бошқаларга нисбатан эрта кўринган муваффақият ёки психологик тараққиётни, жуда олдинда бўлиши кўпгина психологик ва педагогик вазифаларнинг муаммоси келтириб чиқаради.. Шунга қараб психологик маслаҳат беришнинг умумий вазифаси бола психик тараққиётининг боришини, бу жараёндаги даврларга бўлиш ва белгиланган нормага мувофиқ тасаввурлар асосида назорат қилишдан иборат.

Психологик маслаҳат вазифалари чет элларда яхши ривожланган ота-оналар боласи тақдири билан ёшлигидан қизиқиб эътибори кучлидир. Улар ўсиши ривожланиши даврларида фарзандидаги ҳар бир ўзгаришга аҳамият бериб, ўз вақтида психологик кўриқдан ўтиб туришади, ўз вақтида маслаҳатни олиб муаммоли вазиятни тез хал қиладилар. Бизда психологик хизматлар эндигина йўлга тушмоқда, агар ота-оналар, психолог, шифокор ва тарбиячи ва педогоглар, психологик ишларни, яъни ўз вақтида бажарилса психологик муаммолар кам учраган қанча боладаги камчиликлар, касалликлар вақтида олдини олиб, ёш авлодларимиз соғлом ақлли ва жисмонан бақувват, бўлар эди.

Мижознинг бир эмас, балки бир неча муаммолари мавжуд, уларнинг ҳар бирини ҳал этиш алоҳида консултацияни талаб этади.

Психолог - консултантда мижоз унинг индивидуал хусусиятлари сабабли ўз муаммосини дарҳол ва қўшимча ёрдамсиз ҳал эта олишига тўла ишонмайди. Агарда мижоз ўзига етарлича ишонмаса, ўз ҳаяжонлари ва хулқини бошқара олмаса, агарда унинг интеллектуал ривожланиш даражаси қийин вазиятларда оқилона, тўғри ечимни мустақил қабул қилиш учун етарли бўлмаганда бундай ҳоллар учраб туради. Психологик хизматнинг психокоррекция йўналиши психологдан инсон шахси ва индивидуаллигини таркиб топтириш жараёнига фаол таъсир ўтказишни тақозо қилади. Халқ таълими тизимидаги психологнинг

вазифаси психологик хизматни муайян қоида, мезонга асосланиб ташкил қилишдан иборат бўлиб, ёш давр хусусиятларига биноан (болалар, ўқувчилар, талабалар) психиканинг ривожланиши, шахснинг шаклланиши қонуниятларини амалиётда ҳисобга олган ҳолда фаолият олиб бориш, ишчи жамоасига болалар, ўқувчилар ва талабалар таълим-тарбиясини индивидуаллаштиришда ёрдамлашиш, уларнинг қобилияти, майлининг даражасига қараб ўқитувчиларга коррекцион ишларни амалга оширишда кўрсатмалар беришдан иборат. Психологик хизматнинг ушбу йўналишида алоҳида аҳамият касб этадиган нарса - бу болалар, ўқувчилар, талабалар ўсишида (ривожланишида) кечикиш (орқада қолиш), уларда хулқнинг бузилиши, таълимда ўзлаштиришнинг ёмонлашуви ҳисобланади.

Психик тараққиётни тузатишлар «коррекция қилиш» атамаси дастлаб деффектологияда касал болаларга нисбатан ишлатилган бўлса, амалий ёш психологиясининг ривожланиши билан «тузатиш» тушунчаси нормал психик тараққиёт учун ҳам қўлланила бошлади.

ХУЛОСА

Ҳар доим ҳам мижоз психолог-консультантдан олган тавсияларини амалга оширишга кириша олмайди. Кўпинча ўзининг тажрибасизлиги ёки билмаслиги сабабли хатога йўл қўяди ва психолог-маслаҳатчи томонидан кундалик ёрдамга муҳтож бўлади. Психолог-маслаҳатчи эса мижозни тинглаб, ўзи ва у учун муаммони аниқлаштириб, уни тўғри ҳал этиш бўйича тавсиялар таклиф этиб, ўзининг профессионал бурчини тўла бажарди деб ўйлаши керак эмас. Мижознинг олган маслаҳат ва тавсияларини хатосиз амалга оширишни таъминлаш ҳам психологмаслаҳатчининг вазифаси ҳисобланади. Тўғри мижоз психолог-маслаҳатчидан олган тавсияларни бажаришни хоҳламаслиги ҳам мумкин. Одамлар ҳаётларида дуч келадиган муаммолар шундай бўлади-ки, улар такроран юзага келади, уларни бир маротаба ҳал қилиниши улар келажакда яна бир бор юзага келмаслигига тўла кафолат бўла олмайди. Шунинг учун мижоз билан маслаҳат бериш ишларини олиб борганда келажакда бундай муаммолар юзага келмаслигига ҳаракат қилиш керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Полина, Л.В. Особенности консультирования клиентов находящихся в кризисе семейных отношений Л.В Полина Вестник Костромского государственного университета им. А.Н. Некрасова. Н.В. Кузьмина, Н.П. Фетискин. 2011.
2. Бондаренко А. Ф. Психологическая помощь: теория и практика. М., 2010.

MASAL – ADABIY JANR SIFATIDA

*Hamroboyeva Sevara Nematjonovna
Andijon viloyat Shaxrixon tuman 61-maktab psixologi*

Annotatsiya. Maqolada masal janrining o‘ziga xos xususiyatlari, uning satirik xarakterga ega ekani, axloqiy qarashlarni aks etilishi, insonga xos xususiyatlar majoziy obrazlarga ko‘chirilishi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: masal, majoziy obraz, satirik xarakter, liro-epik janr.

“Masal – axloqiy, satirik va kesatq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she’riy, ba’zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o‘simliklar dunyosiga ko‘chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo‘lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko‘pincha masalning kirish qismida, ba’zan pirovardida qissadan hissa – ibratli xulosa chiqariladi”

Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida she’riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa syujetli asar deb ta’rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi.

Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo‘lgan kichik pyesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo‘la oladi.

Antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo'lgan. O'z ma'nosidan ko'chirilgan (majoziy) so'z va kinoyaviy iboralar orqali qilinadigan "yashirincha" tanqidning tili va uslubi Ezopga nisbatan berilib, "Ezop tili" deyilgan va shu ta'bir joriy qilingan.

Ezop quldorlik jamiyati sharoitida hukmron doiralarning jirkanch kirdikorlarini ochiqdan-ochiq tanqid qilish ilojini topolmagach, o'zining satirik asarlarini kinoyaviy til va uslubda yozishga majbur bo'lgan. Feodal istibdodi sharoitlarida yashab ijod etgan mashhur rus masalchisi I. A. Krilov ham, atoqli o'zbek masalchisi Gulxaniy ham "ezop tili"da yozganlar. Fransuz shoiri Lafontenning masallari ham mashhur. A. Navoiy dostonlarining bir qancha epizodlari, "Sher bilan Durroj", "Kabutar" singari masallari yaxshi xislatlarni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

O'zbek adabiyotida Sayido Nasafiy, Maxmur, Gulxaniy kabi shoirlar ham Navoiy an'analarini davom ettirganlar, bolalarbop ko'pgina masallar yozganlar.

Hayvonlar, parrandalar, hashorotlar, gullar haqidagi majoziy asarlarni bolalar qiziqib o'qiydilar. Mana shu nuqtai nazardan Sayido Nasafiyning "Bahoriyot" ("Hayvonotnoma") asari ahamiyatlidir. Nasafiyning masallari, axloqiy va tarbiyaviy masalalarga doir fikr hamda qarashlari bolalarning o'qish va tarbiyasida katta ahamiyat kasb etishi bilan birga, ularning kitobxonlik doirasini ham kengaytiradi. Mashhur masalnavis Gulxaniyning "Toshbaqa bilan Chayon", "Maymun bilan Najjor" masallari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do'stlik, rostgo'ylik, qo'lidan kelmaydigan ishga urinmaslik kabi g'oyalar ilgari suriladi. Ma'lumki, tarbiya ko'proq ta'lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kundan boshlab, bilim olishga havas tuyg'usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo'ladi va bu orqali o'quvchilar ma'naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofdillik, ona Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo'ladi. Masal janrida ijod qilgan O. Qo'chqorbekovning "Qaysar buzoqcha" masali oilasi, o'rtoqlari, do'stlaridan ajralib, yomon yo'llarga kirib qolgan, oqibatda ko'ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ushbu masaldagi asosiy xulosa masal oxirida

berilgan qissadan hissada, ya'ni ota- bobolarimiz yaratib, bizga nasihat sifatida qoldirgan “Bo‘linganni bo‘ri yer” hikmatida o‘z ifodasini topgan. Bu hozirgi kunda maqol tusini olgan. Shoir esa bundan juda ustalik bilan foydalangan.

“Chumoli va Tipratikan” masali esa nasriy turga mansub bo‘lib, unda chumoli timsoli orqali bolalar halollikka o‘rgatiladi, har bir narsani, u katta yoki kichik bo‘lishidan qat’iy nazar, so‘rab olishga, egasining ruxsati bilan foydalanishga da’vat etiladi. Masalni o‘qishda bolalar Tipratikan timsoliga tanqidiy nazar bilan yondashadilar, agar o‘zining hayotida biron-bir shunday holat-voqea yuz bersa, uni boshqa takrorlamaslikka o‘rganadilar.

Masalning, avvalo, ixchamliligi, tilining qisqa va lo‘ndaligi, soddaligi, o‘tkirligi va xalqchilligi bola hissiyotiga qattiq ta’sir qiladi. Bular o‘quvchilar nutqini o‘stirishda ham muhim material hisoblanadi. Masal qahramonlarining xatti-harakatlari, fe‘l-atvorlari, nutqiy o‘ziga xosliklari o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qiladi.

O.Qo‘chqorbekovning “Qaysar buzoqcha”, H.Yoqubovning “O‘jar Toshbaqa”, “Chumoli va Tipratikan”, “Chayondan so‘radilar” kabi masallarning qahramonlari ham hayvonlar: buzoqcha, chumoli, tipratikan, toshbaqa, chayon. Majoziy qahramonlarni tanlashda ham yozuvchi har bir hayvonning xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, buzoqchalar arqondan bo‘shatib yuborilsa, shataloq otib, uzoquzoqlarga ketib qoladi. Qaysar buzoqcha ham to‘dasidan ajralib, bo‘riga duch keladi, ya'ni ko‘ngilsiz voqea yuz beradi. Buzoqcha orqali onasidan uzoqlashib ketgan bolalar, vatanidan yiroqda turli kulfatlarga duch kelayotgan kishilar nazarda tutilgan.

Masal tahlil qilinayotganda, voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o‘quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so‘z bilan tasvirlash, ba’zilariga o‘qituvchi yordamida tavsif berish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo‘lib o‘qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Qahramonlarga tavsif berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o‘ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Masalni ifodali o‘qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, muallif tilini yaxshi tushunish zarur.

Aziz Abdurazzoq “Baqa bilan Taqa” masalida baqa timsoli orqali yozuvchi o‘ziga mos bo‘lmagan, o‘ziga to‘g‘ri kelmaydigan narsalarni orzu qilish va bu orzuni

amalga oshirishda boshqalarning maslahati, nasihatiga quloq solmay, o'z aytganidan qaytmaydigan, o'jar kishilarni tanqid ostiga oladi. Baqa otlar kabi taqa bilan tovush chiqarib yurishni, yurganda yerni jaranglatib, odamlarga bu dunyoda o'zining borligini bildirib yashashni istaydi. U taqachining "Taqani o'ylama, uni otga chiqargan, senga taqa qoqsam, sakrashdan mahrum bo'lasan ... Sen taqa bilan yo'rg'alay olmayсан. Yo'rg'alashni ham otga chiqargan", "Sen borligingni bildirib yurmoqchi bo'lsang, sayrab yuraver" deyishlariga quloq solmaydi. Bu o'jarlik uning boshiga kulfat keltiradi: suv tagiga cho'kib ketadi. Yonidagi baqalar bo'lmaganda halok bo'lishi ham tayin edi. Kech bo'lsa ham baqa xatosini anglab yetadi, taqachi oldida xijolat chekadi. Bu holatlar o'quvchini o'z hayotiga, xatti-harakatiga bir nazar tashlashga undaydi. Ular o'z tengqurlari kabi yashash kerakligini anglaydilar.

Demak, masal janri hajm jihatdan qisqaligi, satirik xarakterga ega ekani, axloqiy qarashlarni ajoyib tarzda bayon etishi, insonga xos xususiyatlar majoziy obrazlarga ko'chirilishi, qissadan hissa – ibratli xulosa chiqarilishi bilan boshqa janrlardan farqlanib turuvchi asar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aziz Abdurazzoq. Sho'x yomgir". –Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
2. K.Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent, 2009.
3. O.Qo'chqorbekov. "Qaysar buzoqcha". –Toshkent, 1974.
4. G`afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. "O'qish kitobi". Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. «Sharq» nashryot-matbaa aksionerlik kompaniyasi Bosh tahririyati nashriyoti. –Toshkent, 2018.

O'QITUVCHGA QO'YILADIGAN TALABLAR, KASBIGA XOS XISLATLAR VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

Atajanova Dilorom Mo'minovna
Qaroqolpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani 28-maktab psixologi

Annatsiya: Ushbu moqoladahozirgi jamiyatimizda o'qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoyi bo'lisi lozim aytilgan, o'qituvchining kasbiga xos xislatlari, shaxsiy xislatlari haqida bilimlarni yetkazib berish.

Kalit so'z. O'qituvchining kasbiga xos xislatlari, Shaxsiy xislatlari, Zamonaviy o'qituvchi, O'qituvchining pedagogik qobiliyatlari.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat - kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan.

Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbatini uyg'otishi

yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedaggika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lish

O'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lish

ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi, o'z ishiga ijodiy yondashishi bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi.

pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lish

o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi

O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida tevarak – atrofidagi kishilar, maktab ma'muriyati,, ham kasblari, o'quvchilar va ularning ota –onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim.

O'qituvchining eng muhim xislatlari quyidagilardan iborat. O'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash, o'z xalqining tarixi va madaniyatini bishishi;Olijanoblighi, aqli, farosati, ma'naviy pokligi, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi Ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi; O'zini qo'lga ola bilishi, sabr –toqatli, bardam matonatligi.

O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligining o'ziyoq muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga kelsada, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu talablar hamma vaqt tarbiya ham bir – biriga mos kelmasligi mumkin. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha xalq ta'limi bo'limlari va maktab derktorlari o'qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishini talab qilsalar, maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchil o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota – onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lishini bilishini naqadar ahamiyatga ega bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar.

O'qituvchining kasbiga xos xislatlariOta - onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar.O'quvchilar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar.birinchidan, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari ikkinchidan, tashqi xislatlari va xulq - atvoriga qarab;uchinchidan, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira bilishi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi

fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asosida o'quv – tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi. Jumladan, maktabning o'qituvchi – murabbiysi professiogrammasini misol qilib keltiramiz. Professiogrammada muhim xislatlaridan borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining qo'yidagi xislatlari ko'rsatib berishi lozim.

1. O'qituvchining shaxsiy xislatlari:

1.o'z bilimini oshirishga intilish..uddaburonlik, kuchli xarakterga ega bo'lish,kamtarlik.oldamiylik,dilkashlik,mehribonlik,jamoat ishlarida faollik,mehnatsevarlik,amaliy – psixologik aql – farosatlilik,bolalarni sevish kerak

O'qituvchining kasbiga xos bilimi:

- ✓ Ota - onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi;
- ✓ O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi;
- ✓ O'z fanini o'qitish metodikasini bilishi;
- ✓ Maktab yoshida bolalarning psixologik – pedagogik xususiyatlarini tushunishi;
- ✓ Hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallaganligi
- ✓ Entopsixologik bilimlarni egallash
- ✓ Psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilish;
- ✓ Ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;
- ✓ Kasbiga xos bilimi:

Pedagogik kasb, ma'lumki, har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatdan yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faoliyat bilan shug'ullanishga moyil, oqibat natijada esa pedagogik qobiliyatga ega bo'lgan kishilargina erisha oladi.

Bu xislatlar o'qituvchi ma'lum o'quvchidan kelgusiga kim chiqishini ko'z oldiga keltirishida, tarbiyalanuvchilardan u yoki bu xildagi xislatlarni o'sib rivojlanishini

oldindan ko'ra bilishida namoyon bo'ladi. Bu qobiliyat pedagogik optimizm tarbiyaning kuchiga o'quvchilarga bo'lgan ishonch bilan bog'liqdir.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zining diqqat e'tiborini o'quv materialini qanday bayon etilishiga, uning mazmuniga, o'z fikrlarini atroflicha qilib qanday ochib berishiga yki o'quvchi fikriga baralla qaratadi va shu bilan birga bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni kuzatib, ularni toliqqan toliqmaganligiga e'tiborli yoki e'tiborsizligiga, darsni tushunish tushunmasligiga ahamiyat berib, o'quvchilarning intizomini kuzatadi hamda oqibat natijada o'zining shaxsiy xulq atvoriga (yurish turishiga, o'zining qanday tutishiga, mimika va pantamimikasiga) e'tibor beradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qobiliyatlardan tashqari o'qituvchi inson shaxsining maqsad sari intilishi, uddaburonlik, mehnatsevarlik, kamtarlik, kabi qator ijobyuiy xislatlariga ega bo'lishi lozim. U o'quvchilarni tarbiyalar ekan, o'zining xulq- atvori, yurish-turishi, xullas, butun o'qituvchilik shaxsi bilan o'quvchilarga o'rnak bo'lishi kerak. O'qituvchining o'zini qo'lga ola bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib, shuni aytish joizki, o'qituvchining barcha ijobiy, umum insoniy axloq me'yorlariga mos keluvchi xislatlari katta ahamiyatga ega. Agar biz quyidagi xislatlarni olib qaraydigan bo'lsak, bularning barchasi ham o'ta muhim omillardir. Jumladan, o'qituvchining tashqi qiyofasi uning obro'si shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ozodaligi, ixchamligi, uning pokizaligi, sarishta- saranjonligi, sipogarchiligi, uning qiliqlari, o'zining chiroylik tutishi, uning qaddi- qomati va yurish-turishlari o'quvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi. Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina – o'qituvchi bo'la oladi, agar u o'qishni to'xtatib qo'yar ekan. Unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb juda haqqoniy aytganlar. Bu haqiqatni yoshi qancha bo'lishidan qa'tiy nazar barcha o'qituvchilar yaxshilab bilib olishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov (Barkamol avlod orzusi. T.: -2000. 140-b.)
2. 2 O. Musurmonova "Umumiy pedagogika "T "O'zkitobsavdo"-2020.
3. 3 Mirashirova N.A. Raximova .I ,G. Muxamadjanova D.K "kasb etikasi va kommunikatsiya si –T: Faylasuflar 2014

O'QUVCHILARDAGI DIQQATNI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Munisa Abdullayeva Abdulmajitovna
Chust tumani 8-maktab psixologi

Inson bu hayotda yashar ekan o'zidan yaxshi nom va yaxshi farzandlar qoldirishni xoxlaydi. Ta'lim tizimida yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish jarayonida ularning psixologik holatlari va yosh xususiyatlarini inobatga olib, har bir yosh avlodimizga individual tarzda yondashish talab etiladi. Hammaziga ma'lumki, so'nggi vaqtlarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo'lgan turli ilmiy-texnik, ma'naviy, iqtisodiy ta'sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan turli psixologik vaziyatlarni ham oshirmoqda. Shulardan biri insonlardagi diqqatning beqarorligi hisoblanadi.

Inson borki, xoh u yosh bo'lsin, xoh katta yoshda bo'lsin, diqqatimizning tarqoqligidan shikoyat qilamiz. Diqqat insonning eng oliy xususiyatlaridan biri deb bilaman. Diqqatni jamlab olmasdan turib xech bir kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olmaydi. Misol uchun, diqqatni bir yerga to'play olmagan bola matematikada misol yecha olmay qiynalsa, diqqati tarqoq tikuvchi esa ko'ylagini andozasini bicha olmaydi. Diqqat qachon buziladi. Qachonki inson ruhiyatida biror bir salbiy hodisalar ro'y berganda, asabiylashganda, vahimaga tushganda, jahli chiqqanda, tushkunlikka tushib qolganda va hokozolarda. Odamga har bir daqiqada atrof-muhitdan juda ko'p narsa va hodisalar ta'sir etib turadi. Lekin odamga ta'sir etayotgan bu narsa va hodisalarning hammasi bir xil aniqlikda aks ettirilmaydi. Ulardan ayrimlari aniq yaqqol aks ettirilsa, boshqa birlari shunchaki juda xira aks ettiriladi, yoki umuman aks ettirilmaydi. Bu esa ana shu odamga ta'sir etayotgan narsalarga diqqatning qay darajada qaratilishiga bog'liqdir. Demak, diqqatimiz qaratilgan narsa va hodisalar aniq va to'la aks ettiriladi. E.B.Pirogovaning ta'kidlashicha, diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqazo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va biror narsaga qaratilganligidir. Diqqat shunday muhim

jarayondirki, u odamning barcha faoliyatlarida albatta ishtirok qiladi. Eng sodda faoliyatdan tortib eng murakkab faoliyatni ham diqqatning ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi roli benihoya kattadir. K.D.Ushinskiyning "diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi" degan fikrlari uning ahamiyatini bildiradi. haqiqatdan ham diqqat eshigidan tashqarida qolgan narsa ongimizga yetib bormaydi. Diqqatning tashqi ifodalanishiga rassomlarning rasmlari, turli jurnallardan olingan suratlar eng yaxshi illyustrativ material hisoblanadi. Ular yordamida kishi diqqatining tashqi ifodasiga xos bo'lgan mimika va pantomimikani ko'rsatish mumkin. Diqqatning barqarorligi- odam o'z diqqatini biror narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytiladi. Diqqatning kuchi va barqarorligi inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. Chunki diqqatni ma'lum muddat biror narsaga muttasil, ya'ni uzluksiz tarzda qaratib odam ishlay ham olmaydi, o'qiy ham olmaydi va hatto o'ynay ham olmaydi. Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir. Parishonxotirlik diqqatni uzoq vaqt davomida biron ishga layoqatsizlikda diqqatning osongina va tez- tez bo'linib turishida namoyon bo'lishi mumkin. Parishonxotirlikning bu ko'rinishi ko'pincha ish qobiliyati susayib ketishining va xulq-atvordagi uyushmaganlikning sabablaridan biri hisoblanadi.

Ayrim ruhiy kasallik holatlarida diqqatning inertligi (sustligi) yoki mutlaqo harakatsizligi, qandaydir biron ob'ekt ustida to'xtab qolish holatlarini kuzatish mumkin. Bola hayotining bir oylik davrlarida uning uchun faqat ixtiyorsiz diqqat xos bo'ladi. Bu davrda bola dastavval tashqi qo'zg'atuvchilardan, ularning keskin o'zgarishlaridan ta'sirlanadi. Masalan, to'satdan paydo bo'ladigan qattiq ovozlardan harakatning o'zgarishidan va boshqa narsalardan ta'sirlanadi. Ixtiyoriy diqqatning alomatlari odatda bola yoshiga to'lgandan so'ng yoki ikki yoshga qadam qo'ygan davrda paydo bo'la boshlaydi. Ixtiyoriy diqqat tarbiya jarayonida yuzaga keladi, bolaning atrofidagi odamlar nima qilish lozimligini asta-sekin o'rgatadilar. Bolalar o'z diqqatlarini rivojlantirishda ulardan talab qilinayotgan harakatlarni bajarishga o'zlarining bevosita mayllaridan voz kechishlariga to'g'ri keladi. Bolada, albatta juda sodda go'daklik shakli bo'lsa ham onglilik namoyon bo'ladi. Bolani ozodalikka, tartiblilikka, ma'lum

intizomlilikka, jamoat qoidalariga rioya hilishga o'rgatar ekanmiz, buning bilan biz bolada ixtiyoriy diqqatni rivojlantiramiz. Bog'cha yoshidagi davrda bolaning ixtiyoriy diqqatini rivojlantirish uchun o'yin katta ahamiyatga egadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati juda barqaror bo'ladi. Mashq qilish usuli bilan o'z diqqatini to'plash qobiliyati asta-sekin rivojlanadi.

Bu shart-sharoitlarga rioya qilinsa, o'smir diqqatini boshqarishga halal beradigan ba'zi impulsiv (ixtiyorsiz) harakatlarga qaramay, o'z diqqatini ixtiyoriy ravishda boshqarish va to'xtab turish mumkinligini tezda egallab oladi. U o'zi uchun qiziqarsiz va qiyin ishni diqqat bilan bajarish zarur bo'lsa, o'zini bu ishga majbur eta oladi. Agar kichik yoshdagi maktab o'quvchining yuz ifodasi va gavda holati uning qanchalik diqqatliligini aniq belgilab bersa, o'smir esa o'zining diqqatsizligini yashira oladi. Faqat o'qituvchining kuzatuvchanligi orqali buni aniqlashi mumkin.

Maktab yoshidagi bolalarning diqqatini rivojlantiruvchi usullar:

1. Bolalar matnni eslab qolishlar uchun, uni ovoz chiqarib o'qishlari, yoki biror bir tovushga oid so'zlarni hisoblashlari kerak.

2. Uydagi bor predmetlarning shakli, rangi, o'lchamini so'rash. Bu bolaga xonadagi hamma narsaga e'tiborni qaratishga va kerakli narsalarni eslab qolishga imkon beradi.

3. Ota-ona bolaga matni o'qib eshittirishi va vaqti-vaqti bilan "takrorla" deyishi. Bu bolani qayta hikoya qilishga undaydi.

4. Sanash. Juft sonlarda qo'lini tepaga ko'tarish, toq sonlarni aytishida pastda ushlab turish.

5. Biror bir predmet belgisini ko'ptok otish, ilish yo'li bilan aytish. Masalan: olma-deb ko'ptokni otish, bola esa uning belgisini aytib. qizil deb ko'ptokni qaytarib otishi kerak.

6. Shaxmat va shashka. Ular o'yin harakatlariga e'tibor berishni va mantiqiy fikrlashni o'rganadilar.

7. "Uchadi-uchmaydi" o'yinlari. Uchadigan hashoratni aytsak, qo'llarni silkitish, uchmaydigan hashoratlarni aytganda, qo'llarni pastga tushirish.

8. "Farqini top" o'yinlari

9. “Eslab qol” o'yini. To'rtta rasm ko'rsatiladi. Rasmlar nomi aytib bo'lingach, teskarisiga o'qib qo'yiladi. Boladan nima esida qolganligi so'raladi...

10. “Ortiqchasini top” o'yini

11. “Eshitaman va sanayman” o'yini. Bu o'yinda ota-ona bolaga kichik bir hikoyani qalam bilan har bir so'zini aytishda stolga urib, o'qib eshittiradi. Bola ham matn mazmunini eslab qolishi va qalamning taqillaganini sanab, nechta so'zdan iboratligini aytishi kerak.

12. “Nima o'zgardi?” o'yinlari.

Albatta bu o'yinlar turli yoshdagi va sog'lom, hamda biror bir nuqsonga ega bo'lgan bolalar bilan o'tkazilsa bo'ladi. Lekin nuqsonga ega bo'lgan bolalar kamchiliklarini hisobga olgan holda bu o'yinlarni sodda variantini qo'llash lozimdir. Diqqatni jamlovchi o'yinlar orqali biz bolalarning diqqatini to'g'ri rivojlantirishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гамезо М.В, Домашенко И.А Атлас по психологии М; «Просвещение» 1986 г
2. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002 y
3. Джемс В. Психология.- М., 1991.

IRODA NAZARIYASI VA TADQIQOTI TO'G'RISIDA TUSHUNCHA

Otaboyeva Yoqut Maxmudjonovna
Dang'ara tumani 28-maktabi psixologi

Irodaning tadqiqoti uzoq tarixga ega bo'lib, inson ongining moshiyatini kashf qilish jarayonidan boshlab, muayyan bilimlar to'planishi tufayli shaxsning irodasi tabiatini tushunishga ilmiy yondashuv vujudga kelgan. XVII asrdayoq Gobbs va Spinozalar ta'kidlab o'tganlaridek, faollik manbai bemahsul sohaning paydo bo'lishi deb tushunish mumkin emas, chunki uni shaxsiy kuch-quvvatining hissiy intilishi bilan uzviylikda qaramoqlik lozim. Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unga bunday tasdiqiy munosabatning tug'ilishi irodani ilmiy nuqtai nazardan tushunishni shakllantirgan bo'lsa, ikkinchi bir tomondan u mustaqil substansiya sifatida

tan olindi ham. V.Vundtning mulohazasicha, irodaning negizida appersepsiya aktining sub'ekti tomonidan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Uning bu konsepsiyasi emosional yoki affektiv nom bilan psixologiya faniga kirib keldi. U. Djemsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishtirib bo'lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Har qanday g'oya dastlab dinamik tendensiyaga ega 158 bo'lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g'oyaning boshqasi ustidan ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir. Psixologiyada yetarli darajada qat'iy fikr qaror topgankim, iroda-bu insonning qo'yilgan maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan ongli faolligidir. Iroda tushunchasi moshiyatiga inson tomonidan maqsad qo'ya olish qobiliyati, o'z emosiyasini boshqarish, shaxsiy gavdasini va xulqini idora qilish kiritiladi. V. I. Selivanov irodani tadqiq etish negizidan kelib chiqqan holda ayrim xulosalar chiqaradi: a) iroda- bu shaxsning o'z faoliyatini va tashqi olamdagi o'zini o'zi boshqarilish shakllarini anglashning tavsifidir; b) iroda-insonning yaxlit ongining bir tomoni shisoblanib, u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir; v) iroda-bu amaliy ong, o'zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning o'zini ongli idora qilishlikdir; g) iroda-bu shaxsning xissiyoti va aql-zakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatning motivi (turtkisi) shisoblanmaydi. V.I.Selivanov irodaning psixologik jabshalarini yoritayotib, u shunday g'oyani ilgari suradi, insoning ongini jarayonlar, holatlar, xislatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish mumkin. Shaxsning u yoki bu ongli harakati o'zining tuzilishiga ko'ra, u bir davrning o'zida ham aqliy, ham shissiy, ham irodaviy shisoblanadi. Tadqiqotchi V.A.Ivannikov esa irodani motivasiyaning ixtiyoriy shakli sifatida tushunadi, shuningdek, harakat ma'nosining o'zgarishi shisobiga uni tormozlovchi yoki qo'shimcha turtki yaratuvchi imkoniyat, yangi real motivlarni harakat bilan birlashtiruvchi yoinki vaziyatning tasavvur motivi tariqasida talqin qiladi. Irodaviy boshqariluv esa harakatni "ixtiyoriy boshqariluv ko'rinishlarining bittasi sifatida" tushuniladi, bunda boshqariluv motivasiyaning ixtiyoriy o'zgarish orqali amalga oshirilishi ta'kidlaniladi. Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, psixologiya fanida irodani tushunish, ta'riflash bo'yicha bir xil munosabat yaratilmaganiday, irodaviy sifatlarning ma'noviy asosini tashlil qilish yuzasidan ham

umumiylilik, umumiy qarashlar majmuasi mavjud emas. Jumladan, V.A.Kruteskiy o'z asarida irodaviy sifatlar tarkibiga sobitqadamlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlikni kiritadi. P.M.Yakobson bo'lsa, irodaning muhim sifatlarini mustaqillik, qat'iyatlilik, tirishqoqlik, o'zini uddalashga ajratadi. Insonda namoyon bo'ladigan irodaviy sifatlar sarasiga A. I. Shcherbakov mana bularni kiritadi: sobitqadamlik va tashabbuskorlik, tashkillashganlik va intizomlilik, urinchoqlik va tirishqoqlik, dadillik va qat'iyatlilik, chidamlilik va o'zini uddalashlik, botirlik va jasoratlik. Lekin aksariyat ilmiy psixologik adabiyotlarda irodaviy sifatlar qatorida "ishonch" atamasi sanab o'tilmaydi. Shunga qaramasdan, ishonch iroda sifati tariqasida tadqiq etilishiga shaqlidir. Buning uchun A.I.Shcherbakov tadqiqotidan namuna keltirishning o'zi yetarlidir. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, bir talabaga institutni qisqa vaqt (fursat) ichida tugatish taklif qilingan, lekin sinaluvchi bu 159 ishni uddasidan chiqa olmaslikni oshkora bildirgan. Shundan so'ng eksperimentator talabada o'z kuchiga ishonch uyg'otishga maqsad qilib qo'ygan va unda irodaviy zo'r berish, qiyinchiliklarni yengish vositalarini shakllantirgan. Buning natijasida talaba o'z maqsadiga erishishga muharraf bo'lgan. Bunga o'xshash tajribalar boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham o'tkazilganligi ilmiy adabiyotlarda uchraydi. Shuning uchun ham o'z kuchiga ishonch psixologik hodisa sifatida o'rganilishi ko'pchilikni qiziqtiradi, chunki kuchli irodaviy zo'r berish qanday omillar bilan hartlanganligini kashf qilish muhim ilmiy muammo shisoblanadi. Xuddi shu bois Hozirgi zamon psixologiyasining irodaga oid nazariyasi zaifligi tufayli irodaviy sifatlarni tasniflashning asosiy tamoyili (prinsipi) ishlab chiqilmagandir. Ushbu psixologik muammoni shal qilish maqsadida V. K. Kalin irodaviy sifatlarni tasniflashga (klassifikasiyalashga) qaror qiladi. Uning nuqtai nazaricha, bazal irodaviy sifatlar irodaviy jarayonlar asosida vujudga keladi, ammo bunda uning intellektual va axloqiy jabshalari ishtirok etmaydi. U bazal sifatlarni aniqlash uchun ongning quyidagicha namoyon bo'lishini tanlaydi: A) faollik darajasining ortishi; B) zarur bo'lgan faollik darajasini quvvatlash; V) faollik darajasining pasayishi. Ana shulardan kelib chiqqan holda tadqiqotchi quyidagi sifatlarni mulohaza uchun tavsiya qiladi; g'ayratlilik, chidamlilik, vazminlik. Agarda bu jarayonda intellektual negiz ishtirok etmasa, shu narsani tushunib bo'lmaydi, qaysi shal

qiluvchi qurilma shisobiga vaziyat basholanadi va harakatni kuchaytirish, quvvatlash, pasaytirish to'g'risidagi komanda beriladi. V.K.Kalin bazali tizimga kirmagan irodaviy sifatlarni ikkilamchi deb nomlaydi, chunki ularda bilimlar, ko'nikmalar, emosiya va intellektning paydo bo'lishi mujassalashadi. Muallif qat'iyatlikni ikkilamchilar qatoriga kiritadi, vasholanki uning fikricha, u o'ziga mashliyo qiladigan shis-tuyg'ularni yengishdan, shuningdek, rad etilgan variantlardan, ishonchsizlikni to'sishdan tashkil topadi. U tirishqoqlikni ham ikkilamchi sifatlarni tarkibiga kiritadi, Chunki ularda ob'ektning to'planganligi ifodasi o'z aksini topgan, ravshan shayotiy qadr-qiyamat mujassamlashgan. Chidamlilik tavsifida "qo'shimcha impuls", "qo'shimcha irodaviy zo'r berish", "iroda kuchi", "sabr-toqat" jabshalari ifodasining o'rne mavjud. Chidamlilikka turtkining xususiyatlari tirishqoqlik irodaviy sifatga mos tushish shollari uchraydi. Ye. P. Ilinning rang jadvalida tirishqoqlik sifati chidamlilikdan keyin joylashgan bo'lib, quyidagi ta'rifga ega: " Tirishqoqlik qiyinchilikka va muvaffaqiyatsizlikka qaramasdan, maqsadga erishish yo'lida uzluksiz ravishda intilishning paydo bo'lishidir". Tadqiqotchi D. N. Uihakovning mulohazasicha, "chidam" tushunchasi quyidagi ma'no anglatib keladi: 1) aksil harakat qilmasdan, shikoyatsiz, shasratsiz shalokatli, mushkul, noxush holatlarni dildan kechiradi; 2) aksil harakat qilmasdan, o'zgarishlarni kutgan tarzda taqdir shaziliga rozi bo'lish; 3) biror holatga muhtalolik; 160 4) nima bilandir kelishish, biror ortiqcha kechinmaga parvo qilmasdan, og'irchilikni muruvvatkorona o'tkazish; 5) imkon darajada amal qilishga ko'nikish; 6) shoshqaloqlikka yo'l qo'yimaslik; 7) paysalga solishga, kutishga imkoniyat yaratish; Shuni aloshida ta'kidlab o'tish joizki, tirishqoqlik, qat'iyatlik sifatlari bilan bir qatorda chidamlilikni irodaviy xislatlarning yetakchisi tariqasida tan olish, qiyinchiliklarga qaramasdan, harakatni davom ettirishga intilish tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etishi shak-shubshasiz. Lekin og'riqqa chidash, bardoshlikka moyillik nuqtai nazardan yondashinilganda esa irodaning erkinligi ta'biri, irodaviy sohaning paydo bo'lishi va amalga oshishi moshiyati yuzasidan metodologik nuqsoniy talqin yuzaga kelishi mumkin. Tibbiyot psixologiyasida ma'lumki, inson tomonidan og'riqqa bardosh berish chidamlilik sifatining vujudga kelishi, kechishi jarayonining yorqin ifodasidir. Shayot va faoliyat tajribalari ko'rsatishicha, shaxs og'riqqa ko'nika

olmaydi, chunki buning negizida boshqa mexanizmlar yotishi turgan gap. Fiziologik me'yorlarga binoan shaxs og'riqni sezish, idrok va tasavvur qilishning murakkab jismoniy qurilmasiga ega. Shunga qaramasdan, og'riqni inson har xil shis qilishi, unga bardosh berishi, sabr-toqat bilan boshidan kechirishi mumkin, bunda individual tafovut aniq namoyon bo'ladi. Diqqatning og'riq sezgilariga to'planishi tufayli og'riq zarbi kuchayadi-bu psixofiziologik qonuniyatdir. Xuddi shu boisdan odam og'riq sezgilariga tobe bo'lib qolmasligi lozim, aks holda u bu noxush kechinma, ruhiy holat ta'sirida uzoq muddat qolib ketishi kuzatiladi. Og'riqni boshdan kechirish jarayonida nafaqat chidamlilik zarur, balki mushkul haroitlarda faollik ko'rsatish ko'nikmasi, qiyinchilikni yengish odati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan insonlarda o'z shissiy a'zolarini, ularning harakatlarini idora qilish uquvi mavjuddir, aksincha nozik tabiatli, ichki intizomsiz, sabr-toqati zaif, mo'rt ruhiy kechinmali shaxslar chidamsizligini namoyish qiladilar. Yuqorida bildirilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, to shozirgacha psixologiya fanida asosiy, muhim irodaviy sifatlarni tasniflashning umumbirlik tamoyili mavjud emasligi tufayli aksariyat shollarda bir irodaviy xislat qo'shaloq atama bilan belgilanishi davom etib kelmoqda (masalan, mustaqillik va tashabbuskorlik, jur'at va dadillik, tirishqoqlik va qat'iyatlik, vazminlik va o'zini uddalash kabilar. Psixologiyada irodani eksperimental o'rganishga oid qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularning ayrimlaridan namunalar keltirib o'tamiz. Ko'pchilik tadqiqotchilar Ye. I. Ignatev qo'llangan metodikasi va uning natijalariga xayrishoshlik bildiradilar. Lekin muallifning o'zi uni basholashda juda eshtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi. Uning mulohaza bildirishicha, ushbu metodika yetarli darajada ishonchli, irodaning tormozlashi paydo bo'lishini tadqiqot qilishda qoniqarli natijalar berishi mumkin, lekin undan "test" sifatida foydalanish ko'ngildagidek ko'rsatgichlarga olib kelmasligi eshtimoldan sholi 161 emas. Ushbu metodikaning moshiyati shundan iboratki, muskulning kuchli qisqarishidan keyin o'zining tinch holatiga qaytishdagi qarshiliklarini yengish xususiyatini tajribada tekshirishdir. Xuddi shu vaziyatda irodaviy zo'riqishni bartaraf etish namoyon bo'ladi. Muallifning ta'kidlashicha, zo'riqishdagi muskullarning qisqarishini bir lashza to'xtatib qolish irodaning hartli ko'rsatkichi tariqasida qabul qilish mumkin, chunki mazkur jarayonda

inson o'z tana a'zolari muskulini ongli boshqarish o'quvi aks etadi. Ye.I.Ignatev tadqiqotida maksimal qisilishdan keyin irodaviy zo'riqishni (zo'r berishni) 5kg ortiq bo'lmagan oqirlikda pasaytirishga yo'l beriladi, uning taxminicha, bu kattalik (og'irlik) zo'riqish kuchini kamaytirmaydi va zo'r berishni vaqtincha to'xtatib qolishga ta'sirini o'tkazmaydi. Tadqiqotchi materiallarini tashlil qilishning ko'rsatishicha, muskul zo'r berishi 9-17 yoshdagi sinaluvchilarda 14 kgdan 40 kggacha og'irlikni tashkil qiladi, zo'r berishning 5kg kamayish doirasi maksimal holatga nisbatan 35,7 prosentdan to 12, 5 prosent miqdorlarda mujassamlashadi. Iroda sifatlarini tadqiqot qilishga intilgan V. I. Makarova test o'rnida gimnastik stoldan matga (gollandcha, inglizcha "mat"-polga yoziladigan matoga sakrashni tanlagan, chunonchi: oldingi 180 ? aylanish bilan old tomonga, orqaga. Tajriba davomida tomir urishi, tayyorgarlik vaqti, mimika, gavda holat, barmoqlarni bukish qayd qilib berilgan. Shunday qilib, irodaviy sifatlarni aniqlash va basholash metodlari o'zlarining rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchilar o'z faoliyatlarida harakatlarning odatiy va qiyinlashtirilgan haroitlardagi xususiyatlari, ularning mashsuldorligi kabi hodisalarni qayd qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar To'plangan ma'lumotlar taxlilining ko'rsatishicha, iroda motivlarda, maqsadlarda, o'zini o'zi basholashda, harakatlarda, faoliyatda o'z ifodasini topar ekan. Xuddi shu bois iroda- bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1 .G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya.Toshkent 2002.1- kitob
- 2.Nemerov P.S."Psixologiya'Kh.1-M. 2003
- 3."Psixologiya'Uch.t-2 Moskva 2004
4. Drujinina B "Psixologiya"

BOLADA SALBIY O‘ZGARISHLARNI KELTIRIB CHIQUARUVCHI TA’SIRLARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Esanova Mohina Mashraf qizi
Navoiy viloyati G'ozg'on shahar 2-maktab psixologi

Hozirgi davrda mamlakatimizda, shu jumladan xalq maorifi tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar o‘qituvchilar, barcha pedagoglar oldiga o‘quvchining bilimlarni yuksak darajada o‘zlashtirishi; o‘quvchilar mustaqil tafakkurini, ular aktivligini rivojlantirish; ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash; ularning tafakkur, muloqot, o‘qish, mehnat qilishga bo‘lgan qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi murakkab va mas’uliyatli vazifalarni qo‘ymoqda. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun faqat pedagogika fanining nazariy asoslarini, har bir o‘qituvchi predmetni o‘qitish metodikasini, maktab o‘quvchilarining fiziologiyasi asoslari, maktab o‘quvchilari gigiyenasi asoslarinigina bilish emas, balki ma’lum darajada psixologik bilimlarga ham ega bo‘lish lozim. Har bir pedagog ma’lum darajada psixolog ham bo‘lishi talab etiladi, chunki ular har biri faqat o‘ziga xos bo‘lgan, turli yoshdagi, turli individual xususiyatlarga ega bolgan o‘quvchilar bilan ish olib boradi. Har bir bola faqat o‘ziga xos bilish faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabdagi ta’lim tarbiya berish jarayonida ham shu xususiyatlarni bilish va shunga asoslanib ularga individual munosabatda bo‘lish lozim. Oila kichkintoy hayotidagi birinchi barqaror jamoa. Aynan bola rivojlanishining ilk davrlaridan boshlab atrofini o‘rab turgan olam, oila muhiting ta’siri natijasida uning xarakteri, odobi, atrofida gilariga kelajakda qilishi mumkin bo‘lgan muomalasi asta sekin shakllanib boradi. Bolani oppoq qog‘ozga, uning xotirasini esa to‘xtash nimaligini bilmasdan tinmay yozadigan ruchkaga qiyoslasak bo‘ladi.

Bugungi kunda hayotda ko‘plab muammolarga duch kelamiz. Bulardan eng avvalosi bu- inson xarakteridir Inson xarakteri qaerdan va qanday shakllanadi? Albatta bu oiladan boshlanadi. Oila – bu juda nozik muassasa. Bu

farzand dunyoga kelganidan, ota-onaning bir-biriga boʻlgan munosabatidan boshlanadi. Ota-onaning bosayotgan har bir qadami bolaning ongiga oʻrnashib qoladi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan milliy mentalitetimizga xos va mos boʻlmagan gʻarbona hayot tarzini targʻib etuvchi turli sayoz va jangari film, multfilm, shou dastur ham bolaning jismonan sogʻlom boʻlib voyaga yetishida sportning ahamiyati katta. Sport inson hayoti davomidagi faoliyat turlaridan biridir. Yoshu qari borki umr davomida sport bilan shunchaki xavaskorlik yoki professional shugʻllanadilar. Xavaskorlik bilan sportda shugʻullanuvchilar hayoti davomida turli sabablar bilan shugullanishlari kuzatiladi. Masalan sogʻligini tiklash yoki qiziqish bilan, yani biron bir sportchiga yoki sport turiga qiziqishi ustun boʻlsa, yana biron bir insonning taklifi va maslahatiga koʻra sport bilan shugʻullanadilar. Xavaskorlik bilan shugʻullanuvchi sportchilar turli sabablar tufayli ham hammasi sport bilan umrining oxirigacha shugʻullanishi yoki koʻp vaqt davomida shugullanmasligi yoki butunlay sportni tark etishlari ham mumkin. Sport bilan shugʻullanishning dastlabki bosqichi asosan bolalarda kuzatiladi.

Maʼlumki, rivojlanish qonuniyatiga koʻra, har qanday taraqqiyot koʻrgazmali obrazlilikdan abstract mantiqiylikka qarab boradi. Agar bola hali oʻqishga aqliy, maʼnaviy-ruhiy jihatdan tayyor boʻlmay turib, unga harf va raqamlarni yozish, oʻqish oʻrgatilsa psixik rivojlanishning teskari tomonga ketishiga sabab boʻladi. Psixolog olimlarning fikricha, psixik va evolyutsiya taraqqiyot qonunlari ham fizik qonunlardek buzilmas, hamda universaldir. Bundan kelib chiqadiki pedagoglar, ota-onalar, bolalarni erta maktabga berishning foyda yoki zarari toʻgʻrisida oʻylaganlarida inson miyasi rivojlanishining neyrofiziologik qonuniyatlarini ham alohida eʼtiborga olishlari lozim.

Tarbiyasi qiyin bola yoshligidan diqqat-eʼtiborga, izzat-hurmat, mehr muhabbatga gʻoyat tashna boʻladi. Bunday bolalar bilan ishlaganda mehribon

va g'amxo'r bo'lishni unutmazlik kerak. Chunki bunday bolalar salbiy beqarorlikka yo'liqqanligi uchun ularning xulq-atvori izdan chiqqan bo'ladi. O'qituvchilar ham bunday hollarda sinfdagi xuddi ana shunaqa bolalar bilan shug'ullanishga vaqt topishmaydi, ularga "tarbiyasi qiyin" bolalar deb qaraydilar. Zero, o'smir hayotining shunday mas'uliyatli va qaltis davrida unga to'g'ri yo'l ko'rsatish, unda endigina kurtak otayotgan illatning oldini olish, bolaning kelgusi taqdirida muhim rol o'ynaydi.

O'smir kamolotining eng og'ir davri uning xarakterining shakllanish jarayoni maktabda ta'lim olish yillariga to'g'ri keladi. Xarakterining shakllanishi esa o'spirinning atrofdagilar bilan bevosita aloqasiga bog'liqdir. Qaysi hayotiy va kasbiy yo'lni tanlashi, ustozining uni qanday tarbiyalashi va yo'naltirishi kuniga besh-olti soat maktabda bo'ladigan bolaning kelajagini ko'p jihatdan belgilaydi. Uni kamolotning to'g'ri yo'lidan olib boradigan, olamni tanitadigan, oqil, olijanob, abadiy ezguliklarga o'tgatadigan muassasa bu –maktabdir. Ba'zi bir maktablarning "zaif" tomoni shundaki, o'qituvchilarning hammasi ham muallimlik va tarbiyachilik vazifasini birga uyg'unlashtirib olib bora olmasliklaridadir. Odatda ular o'quvchilariga o'z darsini o'zlashtirishi yoki o'zlashtira olmasligiga qarab baho beradilar. Shuni doimo esda tutish lozimki, yomon o'qiydigan bolalar yomon odam emas, ya'ni bilimga qo'yilgan baho shaxsga berilgan baho bo'la olmaydi.

Shaxs tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti hisoblanadi. Shaxsning kamol topishida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi bir xil bo'lmaydi. Shaxsning rivojlanish holatini to'g'ri baholash va bilish uchun uni turli munosabatlar doirasiga qo'yib tuzatish lozim. Pedagogika shaxsning kamoliga etishishning murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxs qaysi o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalashda ya'ni o'z ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina, tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa buladi. Bolajonlar nihoyatda mas'um. Ularning bu mal'umlik laridan foydalanmang! Jismonan sizga

hech narsa qila olmaydilar, lekin ruhan sizni tark etadilar! Ko'ngillarining tub tubida siz tirnagan jarohatlar izi qoladi. Islohi mushkul holatlarga tushirasiz.

Jamiyat o'rtasidagi xilma-xillik munosabatlarida bola ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda o'zini boshqalar bilan taqqaslaydi va o'zida boshqalarga o'xshash yoki farq qiladigan hislarlar topadi. Bolada o'zi haqida, uning o'zligi haqida ma'lum bir fikr paydo bo'ladi. Bola asosan oilada va maktabda boshqalar bilan munosabatda bo'ladi. Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir vazifasi tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Shaxs tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti hisoblanadi. Shaxsning kamol topishida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi bir xil bo'lmaydi. Har bir pedagog ma'lum darajada psixolog ham bo'lishi talab etiladi, chunki ular har biri faqat o'ziga xos bo'lgan, turli yoshdagi, turli individual xususiyatlarga ega bolgan o'quvchilar bilan ish olib boradi. Har bir bola faqat o'ziga xos bilish faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabdagi ta'limtarbiya berish jarayonida ham shu xususiyatlarni bilish va shunga asoslanib ularga individual munosabatda bo'lish lozim. Shaxsning rivojlanish holatini to'g'ri baholash va bilish uchun uni turli munosabatlar doirasiga qo'yib tuzatish lozim. Pedagogika shaxsning kamoliga etishishning murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxs qaysi o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalashda ya'ni o'z ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina, tarbiya jarayoninisamarali deb hisoblasa buladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E.G'oziyev "Yosh va pedagog psixologiyasi"
2. M.Vohidov. Bolalar psixologiyasi 1982
3. Internet ma'lumotlari

O‘SMIRLARDA KUZATILADIGAN SALBIY XULQ-ATVOR GURUHLARI

Usmanov Nusratillo Raxmatullayevich
Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari "Yosh chegarachilar"
xarbiy-akademik litseyi psixologi

Komil inson deganda biz: “Ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan, bilimli, hozirgi davrda o‘smirlarni tarbiyalashdaging o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, mexanizmlari o‘zida qamrab olgan shaxs”ni tushunamiz. Shuni alohida takidlash kerakki, o‘smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatlarda anglashilmovchilikni bartaraf qiladi, iliq psixologik iqlimni yaratadi. Hozirgi kunda o‘smirlar taqdiri masalasi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘smirlik davri taqlidchanligi, muhim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta’sirlarga beriluvchan o‘smir o‘g‘il-qizlarga alohida e’tibor berish zarur. O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko‘chish jarayoni sodir bo‘ladi. O‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, talaba bilan o‘qituvchining muloqatida, kattalar bilan o‘smirlarning muomalasida hayotiy o‘zgarishlar vujudga keladi. Bu o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug‘iladi.

Bular avvalo ta’lim jarayonida ro‘y beradi: yangi axborot ma’lumotlarini bayon qilish shakli, uslubi va usullari o‘smirni qoniqtirmay qo‘yadi. O‘smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning qayg‘urishi, koyishiga qaramay, o‘zining fikrini o‘tkazishga harakat qiladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatining ajralmas qismiga aylanadi. Ayrim pedagoglar kuyinib gapiradilar, ba’zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar, lekin mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqa olmaydilar. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotni ta’minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o‘smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo‘qotish mumkin. [1. 184-b]

Xulq-atvor motivlarining noto'g'ri rivojlanishi yoki kuchli affektli his-tuyg'ular ya'ni turli tartib intizomsizliklar, atrofdagi insonlar bilan noto'g'ri munosabatda bo'lish natijasida turli konfliktlarning vujudga kelishi, turli tasodifiy guruhlariga kirish, jamoada o'zini ko'rsatishga intilish kabilarda kuzatiladi.[2.132-b]

O'quvchi o'smirlarning maktabdagi tartib qoidalarni tushunib yetmaslik yoki o'zlarining xulq-atvorini boshqara olmaslik, agressivlik ya'ni jismoniy kuch ishlatish, qo'rqitish, serzardalik kabi bu ikki faktor asosida vujudga keladi. Birinchidan temperament xususiyati, ikkinchidan o'qituvchi va tengdoshlari bilan noto'g'ri munosabatda bo'lish. Tarbiyasi qiyin o'smirlar shakllanishining yana bir asosiy omili bu o'smirlarning shaxsiy psixologik xususiyatlaridir:

Sangvinik temperamentdagi o'smirlarda his-tuygular tashqi ko'rinishda yorqin ifodalangan bo'ladi: Ma'noli mimika, aniq imo ishora, tez harakat qilish, tez gapirish, beqarorlik, harakatchanlik, chaqqonlik. Sangvinik o'smirlarning kayfiyati tez o'zgaradi. Bu tipdagi o'smirlar boshqalar bilan tez topishib ketadi. Ularda o'quv ishlarida, mehnatda va jamoat ishlarida faollikni tarbiyalash lozim. Ularni boshqa ishlarga berilib ketmasligi uchun doimo nazorat qilish va kuchi yetadigan ish bilan band qilish kerak.

Flegmatik temperamentdagi o'smir og'ir, vazmin, harakatlari salmoqli bo'ladi. Ular boshlagan ishini oxiriga yetkazadi. Flegmatik tipdagi o'smirlarda barcha psixik jarayonlar sust rivojlangan bo'ladi. Ularning jahlini chiqarish yoki ranjitish qiyin, ba'zi hollarda bu temperamentli o'smirlarda mehnatga, tevarak atrofga, hayotga kishilarga va o'ziga nisbatan beparvo munosabat hollari uchraydi. Shuning uchun ulardagi sovuqqonlik, beparvolik, bo'shanglik, faoliyatsizlikning nomoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Xolerik temperamentdagi o'smirlar chaqqon, harakatchan, qo'zgaluvchan bo'ladilar. Ularda barcha jarayonlar tez sodir bo'ladi. Bu tipdagi o'smirlar hissiyotlari kuchli, yorqin ifodalanib tez paydo bo'ladi, ba'zan kayfiyati keskin o'zgaradi. Xolerik tipdagi o'smir boshqalar bilan munosabatda qat'iylik, serjahllik va o'zini tuta olmaslikka yo'l qo'yadi. Natijada kishilar xatti-harakatini ob'yektiv baholay olmaydi va ziddiyatli vaziyatlar tug'diradi. Haddan ortiq dangallik, serjahllik, ko'ngilga qattiq tegadigan so'zlar ishlatishi tufayli bunday o'smirlarni jamoada yoqtirmaydilar. Xolerik

tipdagi o'smirlardan doimo muloyimlik bilan, ammo qat'iyatli, shoshilmay, o'ylab javob qaytarishlarini talab qilish, ular xatti-harakatlarida o'rtoqlari va kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida o'zini tutishlikni tarbiyalab borish lozim. Bunday o'smirlardan mehnat faoliyatida izchillikni va ishda tartibli bo'lishni tarbiyalash hamma topshiriqlarni ish mobaynida yaxshi bajarishlarini talab qilish lozim.

Melanxolik temperamentdagi o'smirlarda psixik jarayonlarning sust o'tishi qayd qilinadi. Ular kuchli qo'zg'ovchilarga qiyinchilik bilan javob qaytaradilar, diqqatlarini bir narsaga uzoq vaqt va kuchli jalb eta olmaydilar. Bunday tipdagilar ishga passiv, kam qiziquvchan bo'ladilar, ularda hissiyot va hayajonli holatlar keskin paydo bo'ladi va chuqur, davomli bo'ladi. Ularni ranjitish oson, xafagarchilikka bardosh bera olmaydilar. Melanxolik tipdagi o'smirlar odamlar bilan aralashmaslikka va yolg'izlikka moyil bo'ladilar lekin odatlangan sharoitda o'zlarini erkin his qiladilar va unumli ishlaydilar. [3. 146-b]

Maktab, akademik litsey, kasb-hunar ta'limi tizimi va ishlab chiqarishdagi ta'lim tarbiya nuqsonlari, ko'cha, mahalla salbiy xulq atvorini "qaxramon" tarzida talqin qiluvchi ko'chadagi guruhbozlik ta'sir etadi. O'smirlik yoshida katta yoshdagilar, ota-onalar va o'qituvchilar bilan kelishmovchilik ro'yobga chiqadiki, bu faqat tabiiy o'sish jarayonidagi o'zgarishlar bilan nomaqbul oilaviy shart-sharoitlar tarbiyasi og'ir o'smir shaxsining shakllanishida eng asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ota-onalarimizning janjal to'polonlari, o'smirlarning jismoniy jazolanib turilishi tabiiy ravishda tormozlashuv me'yorlarining buzilishiga, qiziqqonlik yoki qo'zg'aluvchanlik, o'zini qo'lga ola bilmaslik kabi illatlarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Biroq yomon ota-onaning bolasi albatta yomon bo'ladi deb hisoblash xatodir. O'smir nomaqbul tashqi ta'sirlarni o'zi istaganicha rang barang tarzda idrok etadi va o'zlashtiradi. U salbiy ta'sirlarni qabul qilmasligi, rad etishi, ularga qarshi kurashishi mumkin. Odatda dastlabki tergovda voyaga yetmagan xuquqbuzarning shaxsi quyidagi reja bo'yicha o'rganiladi:

1. Nasliy biologik omillar: ota-onalardan birining asab va psixik kasalliklarga moyilligi, homiladorlik qilishning salbiy ta'siri va hokazolar.

2. O'smirning eng yaqin ijtimoiy iqtisodiy mavqelari, oiladagi o'zaro munosabatlar, ular tanlagan qadriyatlar, o'smirlarning tarbiyalanish xususiyatlari,

maktabga, o'qishga munosabat, o'smirning sinfdagi tutgan o'rne, sinfdoshlarining ma'naviy yo'nalganligi, do'stlar, ularning ijtimoiy mavqei, do'stlar guruhida o'smirning mavqei.

3. O'smirning shaxsiy ta'rif tasnifi: xarakteri va temperamentining xususiyatlari, qadriyat motivatsiya majmui, o'smirning qanday qadriyatlarga yo'nalganligi, da'volarining darajasi, o'z-o'zini baholashi va o'z-o'zini baholashdagi murosasizlik ehtimollari, kasbkorga munosabati, huquqiy ongi.

4. Voyaga yetmagan gumondor yoki ayblanuvchining turmushi va tarbiyaviy sharoitlarini bilib olish uchun boshqa sohalarning: oilasi, ish yoki o'qish joyini ham o'rganish lozim. O'smir jinoyat sodir etgunga qadar darslarga qatnaganligi, maktabda nimalarga qiziqqan, jamoatchilik topshiriqlariga qanday yondashardi, boshqa maktabdoshlari bilan muomalasi qanday edi, odamlarga kirishuvchan yoki ichimdagini top, rostgo'y yoki saxiy, jamoa fikrini inobatga oladimi, o'qituvchilari va ota-onalarga bevosita munosabati qanday bularning hammasini surushtirib bilish talab qilinadi. Psixologiya fani faqat nazariyagina emas, amaliyotni ham qamrab oluvchi ko'p tarmoqli belgilar majmuidan iborat bo'lib, turli tuman fanlar uyg'unlashtirilgan holda tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi. Ana shunday tadqiqotlarning xulosalari psixologiyaning umumnazariy va metodologik konsepsiyalarini qayta mushohada etish imkonini yaratadi. [4. 178-b]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Petrovskiy A.B. tahriri ostida: "Psixologiya". Toshkent, "O'qituvchi", 1979
2. Platonov K.K. "Qiziqarli psixologiya". Toshkent, "O'qituvchi", 1971.
3. Safoyev N., Gaffarov B. "Muomala sirlari". Toshkent, "Navro'z", 1992
4. Xoxlova L.P. "Talabalar uchun psixologiyadan topshiriqlar". Toshkent, "O'qituvchi", 1977.

O'SMIRLIK DAVRIDA ME'YORDAN OG'ISHNI, DEVIATSIYA HOLATLARINI PAYDO BO'LISH SABABLARI

Halimova Sayida Abduraximovna
Namangan viloyati Chust tuman 21-maktab psixologi

Annotatsiya: Deviatziya holatlarini keltirib chiqaruvchi omillar, ota-onalarning yo'l qo'yadigan ayrim xatolari .

Kalit so'zlar: Deviant xulq, o'smirlik davri, psixologik yondashuvlar, me'yordan og'ish

Psixologiyada o'smirlik davri o'tish bosqichi deb qaraladi. Yosh davrlari psixologiyasida o'tish bosqichi eng qiyin va murakkab davrdir. O'sish bosqichida bolalikdan kattalikka, bola xarakteridan, yetuk inson bo'lib shakllanadigan o'ziga xos jarayonlar davriga o'tiladi. O'smirlik yoshida bolaning hayoti va faoliyati jiddiy o'zgaradi va uning psixikasi qayta shakllanadi; tengdoshlari bilan munosabatlarning yangi shakllari vujudga keladi. O'smirning jamiyatdagi mavqei, jamoadagi o'rni, holati almashinadi, unga kattalar yuqoriroq talablar qo'ya boshlaydilar. Bu yosh davrida jinsiy etilish faollashadi, biroq ijtimoiy shakllanish orqada qoladi. Bu esa jinsiy tarbiyada ijtimoiy-psixologik muammolarni vujudga keltiradi.

O'smirlik yoshida bolada o'z-o'zini anglashga ehtiyoj paydo bo'ladi. "Men kimman?"- degan savolga javob izlaydi. Bolada shaxsiy qarash, mulohaza yuritish, o'z bahosini berish kabi xususiyatlar shakllanadi. Bu yoshda vaqtinchalik oila va maktabdan psixologik uzoqlashish holatlari ko'payadi. O'smir shaxsining shakllanishida tengdoshlarining ta'siri kuchayadi; o'zini erkin sezadi, uni hurmat qiladigan muhitni ko'proq xush ko'radi.

Bu yoshda o'smirlarning kattalar, ayniqsa ota-onalari bilan muammoli vaziyatlari ko'payadi. Olimlarning kuzatishlariga qaraganda, oiladagi "qahr-g'azab" asosidagi munosabatlar bolalarni uydan bezdiradi. Uydan bezish, oila muhitini tan olmaslik o'smirlarda oila muhitiga nisbatan deformatsiyalashuvni keltirib chiqaradi. Natijada o'smir oiladan tashqari ko'cha muhitini o'ziga ma'qul ko'radi. Ko'cha muhiti esa ba'zan kriminal mazmunga ega bo'lishi mumkin. Natijada noaxloqiy va

g'ayriqonuniy xulq-atvor muhitiga tushib qolgan o'smirda xulq og'ishining kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratiladi. Ota-onalarning "qahr-g'azab" asosidagi munosabati bolalar va o'smirlarda salbiy xarakter xislatlarining, xususan, qo'rqqoqlik, tobelik, asabiylik, hissiyotlarga beriluvchanlik va mustaqil tafakkurning sustligi kabilarning shakllanishiga olib keladi. Qo'rqqoq, tobe o'smirlar birovlarining qistovi, zo'rlashi natijasida turli xil g'ayriqonuniy guruhlarga qo'shib ketadilar. Ulardagi asabiylik, qo'zg'aluvchanlik, hissiyotlarga beriluvchanlik xususiyatlari tez-tez nizoli vaziyatlarga duch kelishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ulardagi mustaqil fikrlash layoqatining sustligi nizoli vaziyatlarning chigallashuviga, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini noto'g'ri qo'llashga olib keladi. Natijada bunday vaziyatlarda o'smir o'zining yosh davri xususiyati va hayotiy tajribasizligi tufayli g'ayriqonuniy harakatlarga qo'l urishi mumkin. Oilada bolaga keragidan ortiq erkinlik berish ularni o'z bilganicha ish tutishga, qilayotgan ishining to'g'ri yoki noto'g'riligini anglab yetmaslikka olib keladi. Ota-ona nazoratidan, tergashidan chetda qolgan bola ko'ngli tusagan ishni qilishga odatlanadi. Bunday hatti-harakatlarning noqonuniyligini anglagunicha, kech bo'lib qoladi.

Ota-onalarning farzandlari hayoti va faoliyati bilan qiziqmasliklari, ularni nazoratsiz qoldirishlari ko'pincha o'smirni yomon muhitga qo'shib qolishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, ota-ona farzandlarining, ayniqsa o'smirlik Yoshi davridagi faoliyatlarini, bo'sh vaqtlarida nimalar bilan shug'ullanayotganliklarini doimiy ravishda nazorat qilib borishlari maqsadga muvofiqdir. Oilada ota-onalarning o'smirlarga nisbatan e'tiborsizliklari, tarbiya shunday bo'lishi kerak deb qarashlari bolalar va o'smirlarda xulq og'ishini kelib chiqishiga imkon yaratadi. Oilada ota-onalarning farzandlariga "mustaqil faoliyat yuritish" asosidagi munosabati ham ularda og'ishning kelib chiqishiga sabab bo'lganligi kuzatiladi. Demak, oilada o'smir-bolaga pozitiv, direktiv, avtoritar munosabatlarni me'yorida, o'tish davri xususitlarini hisobga olgan holda qo'llash ular xulqida ijobiy fazilatlarining shakllanishiga olib keladi.

Psixologlar o'smirlarda xulq og'ishining bir necha sabablarini ko'rsatib o'tadilar, bular quyidagicha:

- qarovsizlik, boshpanasizlik;

- nosogʻlom muhit;
- bolaning nazoratsizligi, oʻz holiga tashlab qoʻyish holatlari;
- oʻsmirning zararli odatlarga berilishi;
- ota-onaning jamiyat normalariga zid turmush tarzi;
- moddiy, maishiy shart-sharoitning etarli emasligi;
- maʼnaviy qashshoqlik;
- kattalarning haddan ziyod qattiqqoʻlligi, adolatsizlik;
- milliy qadriyatlardan uzoqlashish;
- ijtimoiy mehnat qilishdan yiroqlik;
- moddiy ahvolni yaxshilashga ehtiyoj sezmaslik;
- irsiyat va tashqi muhit h.k.lar.

Kuzatuvlarga qaraganda oʻsmirlarda xulq ogʻishi, jinoiy harakatlarning sodir etilishi asosan, oʻqish, mehnat bilan shugʻullanmaydigan, bekorchi yoshlar oʻrtasida koʻproq kuzatilmoqda. Bolalarning sport, texnika, ijodiy ishlarga yetarlicha jalb qilinmayotganligining ham oʻz sabablari bor: madaniy, maʼrifiy, maʼnaviy sohalardan foydalanishning imkoniyati cheklanganligi, oila aʼzolarining mehnatini qadrlamaslik, ularni tushunmaslik, taʼlim muassasasi bilan oila oʻrtasida aloqaning sustligi, qiziqishning sustligi, ijtimoiy sust hayot tarzini xush koʻrishlik, mehnat qilish koʻnikmalarining yoshlikdan shakllanmaganligi, taʼlim-tarbiya, madaniy va maʼrifiy sohalarga nisbatan qarashlarining sayozligi, bolaning kelajagi haqida oʻylamasligi, yengil turmush tarziga odatlanganlik, bolaning nazoratsiz qolishi, boʻsh vaqtini toʻgʻri taqsimlanmaganligi va h.k. Oʻsmirlarda xulq ogʻishi quyidagi omillar bilan xarakterlanadi.

Biologik omil: Bola organizmidagi noqulay fiziologik yoki anatomic xususiyatlar, uning ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi. Avloddan avlodga oʻtuvchi aqliy rivojlanish, eshitish va koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalar ona qornidayoq notoʻgʻri ovqatlanish, onaning kasallanishi (jismoniy va psixik jarohatlar, surunkali yuqumli kasalliklari), ichkilikbozlik, chekishga ruju qoʻyishi; irsiy kasalliklarning taʼsirida boʻladilar;

- inson organizmiga ta'sir etuvchi psixo-fiziologik og'ir tashvishlar, janjalli vaziyatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, energiyaning yangi turlari, somatic (yunon tilidan soma- tana degan ma'noni beradi ya'ni, organizmdagi psixikaga qarama-qarshi bo'lgan holat), allergik kasalliklari turlari sabab bo'ladi;

- Fiziologik (nutqda, tashqi qiyofadagi) nuqsonlar sababli atrofdagilar bilan munosabatda chekkaga chiqish, odamovilik kuzatiladi.

Psixik omil: Bola psixopatologiyasida haddan tashqari zo'riqish bilan ifodalanadi. Bu hulqiy og'ishganlik bolaning ruhiy xastalanganligi orqali vujudga keladi. Bunday bolalar turli psixologik ta'sirlarga o'ta sezgir, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasiga muhtoj. Ularga nisbatan tarbiyaviy chora-tadbirlar ko'rilishi talab etiladi.

Ijtimoiy-pedagogik omillar: Oila va maktabdagi ijtimoiy tarbiyaning nuqsonlarida namoyon bo'ladi. Bola ta'lim standartlarini o'zlashtirmaganligi sababli maktab bilan aloqani uzishga harakat qiladi. O'smir yoshda maktabdan to'la bosh tortishga sabab bo'ladi.

Xulq og'ishi holatlarining uzluksiz ravishda o'sib borishi jamiyat oldiga ular bilan olib boriladigan ishlarning shakl va usullarini, texnologiyalarini ishlab chiqish vazifasini qo'ygan. Deviant va delinkvent xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlashning profilaktik va reabilitatsion usullari nazariya va amaliyotda keng tarqalgan. Profilaktika (oldini olish) – o'smirlardagi ijtimoiy xulq og'ishganligining turli ko'rinishlariga sabab bo'luvchi sharoitlardan ogohlantirish, ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan davlat, jamiyatning ijtimoiy-tibbiy va tashkiliy-tarbiyaviy chora-tadbirlarining yig'indisidir. O'smirlarda deviant xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan bir necha yondashuvlari mavjud.

1. Axborotli yondoshuv Ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televidenie), kino, teatr, badiiy adabiyot va boshqa san'at asarlari orqali voyaga etmaganlarni ijtimoiy axloq normalari, ularning burch va majburiyatlari, huquqlaridan xabardor qilish.

2. Ijtimoiy-profilaktik yondoshuvning maqsadi – negativ holatlarning sabablari va sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish, neytrallashtirishdan iborat.

Voyaga yetmaganlar giyohvandlik moddalarini iste'mol qilingani uchun jinoiy javogarlikka tortilishlarini, ichkilikbozlik va alkologizmning og'ir ijtimoiy va psixonevrologik oqibatlarini anglamaydilar. Giyohvandlik har bir insonning shaxsiy ishi, faqat giyohvandlik moddalarini tarqatish jinoyat deb hisoblaydigan yoshlar ko'p. O'smirlar o'rtasidagi ichkilikbozlik, giyohvandlik profilaktikasi muammosi ijtimoiy pedagogikada juda muhim.

3. Tibbiy-biologik yondoshuv. Sog'ligida nuqsoni bo'lgan o'smir-yoshlar ma'naviy-axloqiy me'yorlarni buzishi, xulq og'ishini namoyon qilishi tabiiy. Ularga nisbatan tibbiy-profilaktik xarakterdagi faoliyat olib borish, ruhiy nosog'lomlikni o'z vaqtida aniqlash juda muhimdir. Bunday bola psixiatr mutaxassislar ko'rigidan o'tkazilib, shunga muvofiq tibbiy davo choralari ko'rilishi lozim.

4. Ijtimoiy-pedagogik yondoshuvning mohiyati xulqida og'ish holatlari kuzatilayotgan yoshlarning axloqiy-irodaviy xususiyatlarini tarbiyalashdan iborat. O'smirda quyidagi xislatlarning shakllantirilishi ijtimoiy- pedagogning vazifasiga kiradi: So'zida turish, qilgan ishiga javobgarlik, jinoyatga boshlovchi, jamiyatga zarar yetkazuvchi illatlarga bo'lgan ,qiziqish va harakatlarini to'xtatish, foydali mehnat bilan band qilish, qonuniy , puxta o'ylab chiqilgan maqsadlarni qo'yishga o'rgatish.

5. Sanksiya qo'llashning mohiyati qonunni buzgan shaxsga nisbatan jinoiy jazo choralari qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G.Q.Tolaganova, —Tarbiyasi qiyin o'smirlar|| Toshkeny;,2005. 65- bet.
2. Lombroso Cesare. Its Causes and Remedies. Boston, 1911 3. Entoni Giddens. Sosiologiya, toshkent 2012. 149-bet.
4. B.M.Umarov.: psixologiya. toshkent 2012, 61-bet.
5. B.Sodiqov. —Tarbiyasi qiyin o'smirlar psixologiyasi|| Termiz.; 2003 yil
6. Bola va Zamon. 4/2007. 29-bet.

O'SPIRINLIK DAVRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Isorov Farruxbek Faxriddinovich
Namangan viloyati Chust tuman 71-maktab psixologi

Annotatsiya: O'spirinlik davrida yuz beradigan o'zgarishlar, o'spirinlar hayotida uchraydigan asosiy vaziyatlar.

Kalit so'zlar: O'spirinlik davri, intellekt, bola "Meni", xarakter, ahloqiy norma, publitsistika, psixologik struktura,

Ilk o'spirinlik davrini ikkinchi o'tish davri deb hisoblash mumkin. Agar birinchi o'tish davridagi ko'proq bolalikka yaqin bo'lsa, ikkinchi o'tish davrida bo'lgan o'spirin ko'proq yoshlik davriga yaqindir va shu jixatidan o'rganiladi, hamda tadqiq etiladi. Ilk o'spirinlik davri asosan unda mustaqil hayotning boshlanishi bilan (o'rta maktabni tamomlab litsey, kollejlarga kirishi) xarakterlanadi. Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinlik shaxsiga, uni o'z-o'zini anglashiga to'liq taosir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki snda ishtirok etadilar. O'spirinlarni hali to'la katta deb hisoblab bo'lmaydi. Chunki ularning shaxsiy xususiyatlari hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaklari munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'spirinlar maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb tanlashga nisbatan ma'suliyatsiz yondoshadilar. Bu davr o'spirinning ahloqan o'z-o'zini anglashi shuningdek, ahloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Intellekti yaxshi rivojlangan o'spirinlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushina oladilar va ularni muhokama eta oladilar.

O'spirinlar juda ko'p muammoli savollarga javob o'ylaydilar. Ularning diqqatini ko'proq ahloqiy masalalar tortadi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun ahloqiy masalalarni yechish manbai bu ular uchun o'qituvchilar bo'lsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasida qidiradilar. O'spirin

yoshdagilar esa savollarga to'g'ri javobni topishda ko'proq kattta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy – ommabop badiiy, publitsistik adabiyotlar,

sanoat asarlari, matbuot, radio, televideniya bo‘lib hisoblanadi. Bugungi o‘spirinlarga hayotga nisbatan xushyor, aqliy –amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik hos. Ular haqqoniy bo‘lish tushunchasiga ham real tarzda yondoshmoqdalar. Masalan o‘rgan yillardek «xaqqoniylik bu hammaga bir hil emas, balki har kimdan imkoniyatiga qarab va hammaga ishiga yoki inson manfaatalriga qo‘shgan hissasiga qarab belgilanadi» deb tushunadilar va talqin etadilar. Maktabni tugallash vaqtiga kelib juda ko‘p o‘smirlar ahloqiy jixatdan shakillangan va ma’lum ahloq normalari qatoylashgan xususiyatlarga ega bo‘ladilar.

O‘spirinlar (16 –18 yoshlar) o‘zlarining psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar jismoniy, ham aqliy jixatdan voyaga yetgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o‘z –o‘zini boshqarishi kabi yetuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo‘ladi. SHu tufayli ular vazmin,muloxazali bo‘ladilar, katta yoshdagilarga hurmat –ehtiram bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko‘zlaydigan, kelajak uchun qayg‘uradigan, ota –onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O‘quv faoliyati o‘spirinning asosiy faoliyati bo‘lib qolaveradi, lekin o‘qishga nisbatan faqat o‘smirlik yoshiga qaraganda o‘spirinlikda bir muncha yuqoriroq bo‘ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligini o‘z –o‘zini anglash bilan motivlar bu davrda yetakchi o‘rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishga intilish insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu davrda o‘spirinlarning kelgusi hayotiy va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko‘ra fanlarga nisbatan qiziqishlari ham o‘zgaradi va bu o‘z navbatida o‘spirinning fanlarga, hamda shu fan o‘qituvchilariga nisbatan munosabat ham o‘zgaradi. O‘spirinlik davrida o‘z ko‘zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan motivlar birinchi o‘ringa ko‘tariladi. O‘smirlar o‘zlarining o‘qishga bo‘lgan munosabatlari va ularning o‘qish –o‘rganishga undovchi sabablarni yaxshi anglaydilar. O‘spirinlik yoshida boshdan kechiriladigan his tuyg‘ularning boyligi, xilma –xilligi bilan, hayotning turli tomonlariga emotsional munosabatda bo‘lish bilan ajralib turadi. Ahloqiy va ijtimoiy siyosiy hislarning rivojlanishi ayniqsa xarakterlidir. Ular odatda muayyan ahloqiy talablar bilan o‘zaro to‘g‘ri munosabatda bo‘ladilar. Boshdan kechirgan his tuyg‘ularni anglab etish mahorati ham rivojlanadi. O‘spirinlik yoshida o‘quvchilarda o‘rtoqlik hissining rivoj topishi xarakterlidir. Rossiya

psixologlari I.V.Straxov bilan A.L.Shirman tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'spirinlik yoshidagi do'stlik o'smirlik yoshidagi do'stlikdan ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladi.

O'spirinlarda ahloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa soxalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, haqiqat va noqonuniylik, ahloqiylik va ahloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabat hos bo'lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvchi yoshlardir.

O'spirinlar ongli ravishda egallangan ahloq normalari asosida o'z xatti-harakatlarini yo'lga solishiga intiladilar. Bu esa, avvalo o'spirining o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi. O'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: Birinchidan bolada tashqiolamdagi predmet taosiridan paydo bo'lgan sezgilari o'z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi. Ikkinchidan o'zining shaxsiy "Men"ligini aktiv faoliyati asosida anglashi. Uchinchidan o'zining psixik xususiyati va hislatlarini anglashi. To'rtinchidan ijtimoiy, ahloqiy o'z-o'ziga baho berishning ma'lum sistemasini anglashi. Mana shu elementlarni barchasi bir-biri bilan funksional va genetik bog'lagandir. Lekin bularni hammasi sizga ma'lumki, bir vaqtning o'zida shakllanmaydi. Bolaning «men»ligini anglashi taxminan yoshda paydo bo'ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: men, meniki, mendan va hakozo. O'zining psixik sifatlarini anglash va o'z-o'ziga baho berish o'spirinlik yoshida, borgan sari ko'proq ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O'spirinlar har joyda o'zini ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan o'smirlik vaqtidayoq, o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini kuzata boshlaydilar. Ya'ni o'zlarining tashqi qiyofalariga tanqidiy qaray boshlaydilar: bo'yining pastligi yoki aksinchasi semizlik, xusn yuzdagi xusnbuzarlar yigit va qizlarni bezovtalantiradi, ular iztirob chekadilar. Kech yetiladigan o'g'il va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o'z obrazi—bu o'pirinlikning o'zini anglashi ancha muhim komponent bo'lib hisoblanadi.

O'spirinlikda o'z shaxsiy hislatlariga baho berish kuchayadi. O'spirin ham o'smir singari o'z qimmatini nimalarni qilishga arzishi va nimalarga qodir ekanligini benihoya bilgisi keladi. O'ziga baho berish 2 usulda bo'ladi.

1. Kishi o'zi qo'lga kiritgan yutuqlari natijasi bilan baholaydi. Masalan: Bola qiyin vaziyatda o'zini yukotmaydi yoki yosh bolani yongindan qutkazdi -"men qo'rqqo emasman" deydi. Ma'lum qiyin topshiriqni bajardi. «Men qobiliyatliman»-deydi. Ahloqqa oid bunday xatti –harakatlar, o'spirinning o'z qattiyatliligini sinashi hamdir.

2. Ijtimoiy taqqoslash, ya'ni o'zi haqidagi boshqa ishlarni fikrlarni solishtirishdan iboratdir. Masalan: o'quvchilar tomonidan "mardlik" deb ma'qullangan xatti-harakatni o'qituvchi "qalbaki o'rtoqlik" deb aytadi. Bunda bolalar o'z xatti –harakatlari to'g'sida o'ylab, bosh qotira boshlaydilar. Shaxsiy "men" obrazi, juda murakkabdir. Xatto kattalarning o'zini anglashi qarama-qarshiliklardan holi emas. O'spirinlarda yanada kuchliroq bo'ladi.

O'spirin o'quvchining o'smirlik davridagi boladan o'zgacharoq yana bir xususiyati–bu murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissini anglash, o'z qadr-qimmatini e'zozlash, sezish va faxmlashga kuproq moyilligidir. O'spirin o'quvchida o'z-o'zini anglash negizida o'z-o'zini tarbiyalash istagi tug'iladi. Natijada unda o'z-o'zini tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiiq qilib ko'rish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni o'spirin o'quvchisi ruhiyatidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy hislatlarni shakllantirish bilan kifoyalaniq qolmasdan, balki voyaga yetgan kishilarga xos ko'p qirrali, umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilar o'zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o'quv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning muayyan bir fazilatlarini va hislatlarini hosil qilishga xarakat qiladilar; o'z-o'zini tarbiyalash muammolarini, yaxlit maonaviy–ruxiy qiyofani shakllantirishga intiladilar.

O'spirin o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni o'quv muassasa jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy taosiri doirasida bo'lmog'i shart.

Toki o'z-o'zini tarbiyalashning takomillashtirish jamoada munosib o'rin egallashga, ijtimoiy burchni anglash, foydali mehnatga jalb etish ishiga xizmat qilsin. O'z-o'zini

tarbiyalash to'g'ri izga solib yuborish uchun uyg'un birlikni tashkil etgan tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasi tarzida taosir o'tkazish jamoa majburiyati, o'zaro yordam va nazorat qilish, o'zaro baholash va tanqid qilish kabilar maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy turmushda uchraydigan baosi bir yaramas yurish-turish ko'rinishlariga, illatlariga, sarqitlariga qaqshatkich zarba berish, ularning ta'siridan yigit va qizlarning asrash, yot tashviqot moxiyatiga qarshi kurash olib borish pedagoglar jamoasining bosh vazifasidir.

O'spirinlarda balog'atga etganlik tuyg'usi takomillashib borib, o'z-o'zini qaror toptirish, o'z maonaviy qiyofasini ifodalash tuyg'usiga o'sib o'tadi. Bu narsa ularning aloxida shaxs ekanligini tan olishga intilishida o'z ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo'yish, murakkab ta'sviriy san'atga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga maftunkor qiziqishlarini namoyish qilishga xarakat qiladilar. O'quv va mehnat jamoalari taosirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, halollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi, xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rqqoqlik, g'ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

O'spirinlar shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarini roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda faollik, tashabuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlik, ma'suliyatlik, o'z xarakatlarini tanqidiy baholash singari fazilatlari barqaror xususiyat kasb etib boradi. O'spirin yigit va qizlarning jamoatchilikda faol ishtirok etishi orqali muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon buladi. O'zining kimligi, qandayligi, qobiliyatlari, o'zini nimaga xurmat qilishini aniqlashga intiladirlar. Do'st va dushmanlari kimligi, o'z istaklari, o'zini va tevarak-atrofni, olamni yaxshi bilishi uchun nima qilish kerakligini anglashga xarakat qiladi. Ma'lumki o'spirinlarning hamma savollari anglangan bo'lmaydi. Ba'zan o'spirinlar o'zlaridan hech qanoatlanmaydigan, o'z oldilariga xaddan tashqari ko'p vazifalar qo'yadigan, lekin uning uddasidan chiqa olmaydigan bo'ladi. Mana bulardan ko'rinib turibdiki, o'spirinlar o'z-o'zini analiz qilish teranligi va yuksak talablarni bajarish kerakligini o'zida aks ettira boradi. Bu esao'spirinlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir.

O'z-o'zini xurmatlash va uning xususiyatlari quyidagilardan iborat. Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaxsning erta o'spirinlikdagi eng muhim hislatlaridan biri o'z-o'zini hurmat qilish, o'z-o'ziga baho berish hamda o'zini shaxs deb tan olish

yoki olmaslik darajasidir. O'spirinlar o'zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. O'z-o'zini tarbiyalash masalalarida bir butun ma'naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega.

Hozirgi yigit va qizlarni 30 –40 yil avvalgi tengqurlari bilan solishtirganda ularning umumiy saviyalari naqadar o'sganligini ko'rish mumkin. Intelektual qiziqishlar doirasi keng va ko'pqirralidir. Radio, televidenie, telefon, internet tarmog'i, ilmiy –ommabop asarlar, kinofilmlar, fan vatexnika taraqqiyotida muhim rol yo'namoqda. Lekin o'spirinlar qiziqishlari aksariyat hollarda o'z tanlagan kasb va yo'nalish shuningdek, hayotiy rejalariga asoslangan bo'ladi. O'spirinlik yoshiga kelib yigit, qizlarning dunyoqarashlari yuksak pog'onaga ko'tarila boshlaydi. Bu esa o'spirinning tashqi olamni tushunishiga, baholashiga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. O'spirinlar dunyoqarashi endi ularning ilmiy, falsafiy, siyosiy va diniy qasharlari tizimidan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat.
2. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr, 2008.
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
5. Основы педагогического мастерства / Под ред. А.Зыузина. – Москва: Просвещение, 1989. Sul'tonova G.A. Pedagogika / O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent:

ЎҚУВЧИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

*Фарагатова Мерей Туймухамедовна
Конимех тумани 28-мактаб психологи*

Ватанимиз келажаги ислохотларнинг тақдири ва уларнинг натижалари, халқимизнинг билим даражаси давр талабига ва тарраққиётига қанчалик мослигига, қандай мутахассислар етказиб бериб, ўрнимизни эгаллашларига боғлиқдир. Шунинг учун мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев барча соҳаларни жумладан таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишга катта эътибор қаратаётгани таълим тизими соҳасида туб бурилаш ясамоқда десак муболаға бўлмайди. Шунга кўра, юқори малакали кадрлар тайёрлаш давлат сиёсати даражасидага кўтарилмоқда.

Психология фанида қобилият тушунчасини таҳлил қилишда шахс шақлланишига таъсир этувчи уч омил ҳисобга олинади. Яъни шахсга ота-она томонидан ўтган ирсий белгилар, шахс шақлланган ижтимоий муҳит ва шахсга бериладиган таълим-тарбия натижаси. Демак қобилият тушунчасини таҳлил қилишда юқоридаги уч омил таҳлили асосий ўринда туради.

Психологик луғатларда қобилият шахснинг муайян фаолият турини муваффақиятли бажаришга бўлган лаёқат даражасини ифодалайдиган, турмуш жараёнида ҳосил қилинган индивидуал хусусиятлари йиғиндисидир деб таъриф берилади.

Билим, кўникма, малакалар орттириш шу хусусиятларга боғлиқ бўлади, лекин шу хусусиятларнинг ўзлари мазкур билим, кўникма, малакаларга тааллуқли бўлмайди. Қобилиятлар билим, кўникма, малакаларни эгаллашда намоён бўлса ҳам, билимлар ва кўникмаларни эгаллаш билан боғланиб қолмайди. Қобилиятлар ва билимлар, қобилиятлар

ва малакалар, қобилиятлар ва кўникмалар айнан бир-бирига ўхшаш нарса эмас.

Қобилиятлар билим, малака ва кўникмаларнинг ўзида кўринмайди, балки уларни эгаллаш динамикасида намоён бўлади, яъни, бошқача қилиб айтганда, мазкур фаолият учун муҳим бўлган билимлар ва кўникмаларни эгаллаш жараёни турли тенг шароитларда канчалик тез, чуқур, осон ва мустаҳкам амалга оширилишида намоён бўлади. Худди ана шу ўринда юзага чиқадиган фарқлар бизга қобилиятлар ҳақида гапириш ҳуқуқини беради.

Ақлий истеъдод даражаси баланд болалар изланувчан, ҳар нарсага қизиқувчи ва уйғоқ қалбли бўладилар. Қобилиятлилик шахснинг ақл-фаросат, характер, хотира ва руҳий кечинмалари билан бевосита боғлиқдир. Психологияда қобилиятларни миқдор жиҳатдан ўлчаш муаммоси узок тарихга эгадир. XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида қатор психологлар (Кеттел, Термен, Спирмен ва бошқалар) оммовий ихтисослар учун касб танлашни амалга ошириш зарурияти билан боғлиқ бўлган талаблар таъсири остида таълим олаётганларнинг қобилиятини аниқлашни тақлиф қилиб чиқдилар. Уша пайтларда қобилиятларни ўлчаш усули сифатида ақлий истеъдод тестларидан фойдаланилди.

Киши ўзида муайян фаолиятга қобилият бор ёки йўқлигини сезиш ёки сезмаслигини билдирадиган омил таълим методикаси ҳисобланади. Таълим методикаси қаерда ожиз бўлса, ўша ерда қобилиятларнинг туғма эканлиги ҳақидаги гаплар пайдо бўлади. Ўз-ўзидан маълумки, методика доим такомиллашиб боради, бу эса «туғма қобилиятлар» доирасини торайиб боришига олиб келади. Қобилиятлар ва истеъдодларни шакллантириш муаммоси катта ижтимоий ва давлат аҳамиятига эга бўлган масаладир.

Дастлабки қобилиятлар ижтимоий муҳит таъсирида оилада, мактабгача таълим муассасаси ва мактаб таълимида босқичма-босқич ривожланиб боради.

Психологлар ўқувчи қобилияларини диагностика қилишда ўқувчининг асосий етакчи фаолият хусусиятларини инобатга олиши керак чунки, қобилият фаолиятда намоён бўлади.

Психологиянинг методологик асосининг кўрсатишича, қобилиятлар – имкониятлар тизимидан ташкил топган бўлиб, у ёки бу фаолиятдаги зарурий маҳорат даражасидир.

Ташкилотчилик қобилиятларини эса узоқ вақт Л.И.Уманский ўрганган. Қобилият муайян табиий борлиққа боғлиқ бўлсада, лекин улар фақат табиатнинг инъоми эмас, балки инсоният тарихий тараққиётининг бебаҳо (қимматли) маҳсулидир. Шунинг учун ҳам қобилиятларнинг намоён бўлиши шахслар томонидан ижтимоий эҳтиёжларни қондириш давомида ижтимоий шартланган билимлар ва кўникмаларни таркиб топтиришнинг яққол усулларига бевосита боғлиқдир.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки Ўзбекистонда бугунги кунда ўсмир ёшларнинг қарийб 70 % интернетдан кенг фойдаланиб келади, лекин уларнинг қанчаси бу тармоқдан тўғри мақсадда фойдаланиши бизнинг энг оғриқ нуқтамиз бўлиб қоляпти. Чунки дунёдаги барча бузғунчилик ҳаракатларининг келиб чиқиш сабаблари вертуал олам орқали ёшларимизга бузғунчи ёд ғояларни уларнинг онгига таъсир этиш орқали амалга оширилмоқда. Бизнинг мақсадимиз уларда юқоридаги келтириб ўтилган қобилиятлар билан бир қаторда танқидий фикрлаш қобилиятларини ҳам шакллантириб боришимиз керак.

Ойнани ҳар икки тарафи бўлгани каби ижтимоий тармоқларда маълумотларнинг барчаси ҳам инсон учун манфаатли бўлавермайди. Ёшларимиз бу тизимдан фойдаланар экан ҳар бир материалларни салбий ва ижобий томонларини чуқур тафаккур қила олиши, нима учун кераклиги, қандай мақсадни кўзлаб веб сайтларга жойлаштирилганини онгли тарзда фаҳмлашлари керак.

Президентимиз таъбири билан айтганда ёшларимизда мафкуравий иммунитетни шакллантириш учун ёшларимизга таълим-тарбия жараёнида, оилада, ОАВларда ва ахборот хавфсизлигига оид тарғибот-ташвиқот ишларини олиб боришда ижтимоий тармоқларнидан фойдаланишни чекламасдан улардан тўғри ва мақсадли фойдаланиш маданиятини шакллантириб боришимиз керак.

Билдирилган фикрлардан шундай хулоса чиқариш мумкинки, қолган барча қобилиятлар тузилиши ҳам махсус хусусиятларга эга бўлиб, ўзига хос касбий аҳамият касб этиши билан кўп жихатдан характерланганини мактаб амалиётчи психологларимиз эътиборга олишлари керак бўлади.

Адабиётлар:

1. Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболнинг асосий тамойиллари. Т.: 1995.
2. М.Т.Давлетшин. Укувчиларда қобилиятнинг таркиб топиши. "Ўқитувчи".Т., 1965.
3. Умумий психология. А.В. Петровский таҳририда. Т. 1992й.

RADIATSIYANING TIRIK ORGANIZMGA TA`SIRI

*Normatova Nigora Abdushukurovna
Namangan viloyari Norin tumani
30-maktab 1-toifali fizika fan io'qituvchisi*


Annotatsiya: Ushbu maqolada radiatsion nurlarning paydo bo'lish sabablari , ularning tirik organizmga salbiy ta'sirlari va tibbiyotdagi foydali xususiyatlari xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: radiatsiya, ionlashtiruvchi nurlanish, rentgen, gamma nurlanish, alfa zarralar, elektronlar, neytronlar, protonlar, radiatsion nurlanish dozasi, yutilgan doza, ekvivalent doza.

Radiatsiyaning tirik organizmga taʼsirini oʻrganayotgan tadqiqotchilar radiatsiyaning keng tarqalayotganidan jiddiy havotirda. Bitta tadqiqotchi aytgan ekan, zamonaviy inson radiatsiya ummonida choʻmilmoqda. Koʻzga koʻrinmaydigan radioaktiv zarralar tuproqda va havoda, suvda va oziq-ovqatda, bolalar oʻyinchoqlarida, qurilish materiallarida va bosh qalarda. Ilk nigohda eng beozor koʻringan narsalar aslida sogʻliq uchun juda xavfli boʻlishi mumkin.

Radiatsiya soʻzi lotincha "radiation"- yaʼni nurlanish energiyasi maʼnosini anglatadi. Radiatsiya ionlashtiruvchi nurlanish hisobiga paydo boʻladi. Ionlashtiruvchi nurlanishning bir qancha turlari: rentgen, gamma nurlanish, alfa zarralar, elektronlar, neytronlar va protonlar oqimi koʻrinishida boʻlishi mumkin.

Atom yadrosi proton va neytronlardan tarkib topgan.




Ularning tarkibiy tuzilishi, soda qilib aytganda, unchalik omadli emas. Aynan shu tufayli yadrolar nostabil holatga oʻtadi. Bunday yadrolarda har doim ortiqcha energiya mavjudligidan undan halos boʻlishga intilish kuzatiladi.

Alfa zarralar- nisbatan katta massaga ega boʻlganligi uchun, oʻz energiyasini tezda yoʻqotadi va arziyas yugurish yoʻliga: havoda 20-100 mm, biologik toʻqimalarda 30-150 mm, alyuminiyda 10-70 mm gacha boʻlib, shuncha qalinlikka kira oladi.

Betta zarralar - bu elektron va pozitronlar oqimi boʻlib, katta kiruvchanlik va alfa zarralarga nisbatan kichik ionlashtiruvchi qobiliyatga ega. Ular radioaktiv parchalanish paytida paydo boʻlib, nurlanish paytida yorugʻlik tezligiga yaqin tezlikga ega boʻladilar. Oʻrtacha eneigiyalarda betta zarralarni yugurish yoʻli havoda bir necha metr, suvda 1-2 sm, odam toʻqimalarida-1 sm ga yaqin, metallarda - 1 mm atrofida boʻladi.

Gamma nurlar- elektromagnit nurlar bo'lib, yorug'lik tezligida tarqaluvchi energiya kvantlar oqimidir. Gamma nurlar odam tanasi va boshqa materiallardan sezilarli darajada kuchsizlanmasdan o'ta oladi (rasmga qarang). Gamma nurlanishning intensivligi nuqtaviy manbagacha bo'lgan masofa kvadratiga teskari proporsional ravishda kamayadi.



Rentgen nurianishi- moddalarni elektronlar oqimi bilan bombardimon qilganda hosil bo'luvchi yuqori chastotali va qisqa to'lqinli elektromagnit nurlanishlardir.

Neytron nurlanish- bu neytral zarralar oqimidir. Bu zarralar ba'zi yadro reaksiyalari, jumladan, uran yoki plutoniy yadrosining bo'linish reaksiyasi vaqtida yadrodan uchib chiqadi.

Radiatsion nurlanish dozasi. Turli turdagi nurlanishlar turlicha energiya va kiruvchanlik qobiliyatlariga ega bo'lganligi uchun ularning tirik oiganizmlarga ta'siri ham turlicha bo'ladi.

Nurlantirilayotgan jism yoki organizm to'qimasi birlik massasiga to'g'ri keluvchi eneigiya yutilgan doza deyiladi va u Xalqaro Birliklar Sistemasiida Grey (Gy) larda o'lchanadi. Lekin bu kattalik bir xil yutilgan dozada misol uchun, alfa nurlanishni betta yoki gamma nurlanishdan juda katta xavfli ekanini hisobga olmaydi.

Biror turdagi nurlanish dozasi shu turdagi nurlanishni to'qimalarga zararini ko'rsatuvchi koeffitsiyentga ko'paytmasi ekvivalent doza deyiladi va u xalqaro birliklar sistemasida Zivert (Sv) larda o'lchanadi. Misol uchun bir xil yutilgan dozada alfa nurlanish boshqa nurlanishlaiga qaraganda 20 marta xavfli hisoblanadi ($1 \text{ Zivert} = 1 \text{ J/kg}$).

Radioaktiv manbadagi nuklidning aktivligi Xalqaro Birliklar Sistemasiida Bekkerl (Bq) da o'lchanadi. 1 bekkerl *har* qanday radionuklidda 1 sekunda bitta parchalanish (bitta zarra chiqishi) yuz berishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari bu kattaliklarning sistemadan tashqari birliklari ham ishlatiladi. Bular Kyuri ("Ci[^]-izotopning aktivlikbirligi (1 Cu= $3,7 \cdot 10^{10}$ Bq),rod (rad) yutilgan nurlanish doza birligi (lmd=0,01 Gy), ber — ekvivalent doza birligi (1 ber = 0,01 Sv).

Inson asosiy radiatsiyani tabiiy manbalardan oladi. Ba'zilaridan qochib qutilishning umuman iloji yo'q. Inson nurlanishni ikki xil usul bilan oladi. Radioaktiv modda organizmdan tashqarida bo'lib uni tashqaridan nurlantirgan tashqi nurlanish haqida gapiriladi. Agar ular inson nafas oladigan havoda bo'lsa, oziq-ovqat yoki suv orqali inson organizmiga tushsa, bunday nurlanish ichki deyiladi. Inson eng katta nurlanishni Yerdagi manbalardan oladi. Radiatsiyaning qolgan qismini esa koinotdan oladi. Kosmik nurlar, asosan, bizga koinotning uzoq joylaridan, ba'zi qismi esa Quyoshning chaqnashlari vaqtida yetib keladi. Kosmik nurlar Yer atmosferasigacha yetib kelib u bilan ta'sirlashadi va ikkilamchi nurlanishlar paydo qiladi hamda har xil radionuklidlar paydo qiladi.

Balandlik ortishi va havoning siyraklashishi hisobiga ham nurlanish darajasi ortadi. Buni samolyotlarda tez-tez uchadigan odamlar bilishi juda zarur. O'rtacha 70% nurlanishni inson tabiiy radioaktiv manbalarning oiganizmga tushgan oziq-ovqat, suv va havo orqali oladi.

Tirik organizmlarga radioaktiv nurlar ta'sir ettirish ma'lum foyda keltirishi ham mumkin. Zararli shishlar (rak) dagi tez ko'payadigan hujayralar nurlanishga normal hujayralardan ko'ra sezgirroqdir. Rak kasalligini gamma nurlar bilan yo'q qilish shunga asoslangan. Qishloq xo'jaligida o'simliklarning yangi turini olish maqsadida, urug' zararkurandalariga qarshi kurashishda, meva va sabzovotlarni konservalashda, meditsina asbob va uskunalarni sterilizatsiya qilishda ionlashtiruvchi nurlanishlar radiatsiyasidan keng foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Sh. Turdiyev. Fizika. Umumta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik.T.: 2018

2.N.Sh.Turdiyev.Fizika. Umumta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik.T.:2017

3 O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. - T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004

O'SPIRINLIK DAVRIDA STRESS HOLATI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK JIHLARI

*Abduraximova Xurshida Madumarovna
Andijon viloyati Buston tumani 52-IDUM psixologi*

Kundalik hayotning tobora shiddatli tus olayotgani insonga bo'layotgan axborot xurujining ko'pligi, ijtimoiy muammolarning haddan ziyod zidlashuvi natijasida asablarning taranglashishi juda ko'p insonlarni stress holatiga duchor etmoqda. O'z navatiga ko'ra o'spirinlik davri ham undan mustasno emas. Bu kabi muammolar insonlarning yosh davrlar psixologiyasiga ko'ra har xil namoyon bo'ladi. Olimning talqiniga binoan, go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarsa, bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oralig'ida o'sish davri o'smir oldi yoshidan iborat bo'lib, toki 12-13 yoshga qadar davom etadi. Bu davr olimlar tili bilan aytganda yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho'qqisiga hamohangdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilishidan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib boradi.

Psixologik zo'riqishlar organizmning turli funksional tizimlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib, oshqozon yarasi yoki yurak infarktigacha olib kelishi mumkin. Hissiy zo'riqishlarning namoyon bo'lishi har bir shaxs uchun turlicha bo'ladi. Kimdadir kayfiyat yoki hayajon bo'lsa, kimdadir stres va tushkunlik ko'rinishida o'tadi. Kun tartibining buzilishi, uyquning qisqarishi, ish vaqtining tungi davrga o'tib qolishi, foydali odatlardan voz kechish,

hissiy zo'riqishlarni bartaraf etishning mos keluvchi usullarini topa olmaslikda ko'rinadi. Ijtimoiy rollarga xos vazifalardagi buzilishlar, yaqinlar va do'stlar bilan munosabatga yetarlicha vaqt yetishmasligi, nizolarning kuchayishi, muloqot davomida sezgirlikning pasayishi, ijtimoiy qoidalarga zid xulq-atvor belgilarining ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, uzoq muddat hissiy zo'riqishda bo'lgan o'spirin ijtimoiy me'yor va standartlarga e'tiborsiz bo'lib qoladi. Hatto o'zining tashqi ko'rinishiga ham e'tibor bermasligi mumkin. Bunda muhim ob'ektlar ustida diqqatning to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'ish kuzatiladi.

Ongning doimo hissiy zo'riqishni vujudga keltirgan sabablarini tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo'llarini axtarish xotira ko'lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushirishni qiyinlashtiradi. Aqliy faoliyatning susayishi stressni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan vaziyatdan chiqish yo'llarini topishni cheklaydi.

Bu salbiy ko'rsatkichlarni bartaraf etish eng katta vazifalardan biridir. Psixologiya fanining markaziy kategoriyasi hisoblanmish shaxs ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan funksiyalarni bajarish orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'spirinlik davrida psixologik muammolarni bartaraf etish hamda tarbiyalash masalalari hozirgi davrning eng dolzarb muammosiga aylangan. Bugungi kunda kelajak avlodga ta'sir qilayotgan hamda uning kechinmalarini o'zgartiradigan ichki va tashqi omillarni ko'z oldimizga keltirish juda qiyin. Shunday qilib stress o'zi nima?

Stress – inglizcha (stress) so'zidan olingan bo'lib, asabiylik, keskinlik degan ma'nolarni anglatadi. Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlar xaddan oshib ketishi, xavfli vaziyat tug'ilgan paytlarda, zarur choralarni zudlik bilan topishga majbur bo'lganda vujudga keladigan ruhiy holatdir. Stressning psixologik ta'rifiga kora affektiv holatga yaqin turadi. Stress kishining o'ta faol yoki o'ta sust harakatida ifodalanadi. Hissiy zo'riqish holatida individning hatti-harakati kishi nerv tizimining tipiga, nerv jarayonlarining kuchliligi yoki o'zligiga jiddiy ravishda bog'liqdir. (Masalan, imtihon oldidagi holat). His-tuyg'ularning hissiyot (emotsiyalar), kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilariga ham ega bo'ladi. Yuzning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning

ma'noli harakatlari, kabilar shular jumlasiga kiradi. Kishi o'zining qahr-g'azabini tevarak atrofdagilarga qo'llarini musht qilishi, ko'zlarini chimirib qarash, do'q – po'pisali ohang bilan namoyish qiladi.

Stressning sodir bo'lishiga asosan ikki yo'nalishdagi omillar sabab bo'ladi:

Ish faoliyatidan qoniqmaslik stressga sabab bo'luvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. O'spirin undan nima kutilayotganligini, bu ishni qanday qilish kerakligi va bu ish qanday baholanishini bilsagina xotirjam ishlaydi. Ish qobiliyati va omadsizlik inson salomatligiga qattiq ta'sir ko'rsatadi. Haddan tashqari ko'p ish yoki, aksincha, ishsizlik xam stressga olib keladi. Bunday sabablar tufayli sodir bo'lgan asabiylashish eng ko'p tarqalgandir. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, ish qancha qiziqarli bo'lsa, inson shuncha kam bezovtalanadi, kam betob bo'ladi. Yana bu sabablarga qo'shimcha yomon ish sharoitlari, ish jarayonida odamlarning bir-biriga asossiz talablarni qo'yishi, o'quvsiz ota-onaningning o'quvsiz muomalasi, demotivlashtirishning ustuvor ekanligi va boshqalar ham stressni vujudga keltiradi. Xullas o'spirinlik davrida stressni bartaraf etish, uning tasir doirasini kamaytirish eng muhim choradir. Eng avvalo nazorat ko'proq natija beradi. Stressni bartaraf etishda asosan inson sabr-qanoatli bo'lish, har qanday mushkul vaziyatga tayyor bo'lish, o'zini chalg'itish lozim. Mashakqatli mehnatni yaxshi dam bilan birga olib borish, hech bo'lmasa bir oz orom olish, tinchlanish kerak. Ishda xush fe'l, tavozelik bo'lish, o'zaro hurmat va xushmuomalali inson bo'lish lozim.

Stressni bartaraf etish uchun birinchi navbatda shaxs psixologik jihatdan tashqi ta'sirlarga nisbatan ongli munosabat (psixologik immunitet)ni shakllantira olishi zarur.

1. Har qanday stress holatini yengish uchun uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va xolisona baholash darkor.

2. Yuz bergan stress holatini bartaraf etish uchun aniq yo'l-yo'riq izlab topish kerak.

3. Biror muammo va tashvishga duchor bo'lsangiz, bu haqda kamroq o'ylashga va doimo nima bilandir band bo'lishga harakat qiling. Mehnat sizning qalbingizdan behalovatlik tuyg'usini siqib chiqaradi.

4. Arzimagan narsalarni deb asabingizni yeb tugatmang. Hayotda nima muhim va nomuhimligini anglab oling. Arzimas narsalarning aksariyati umringizni qisqartiradi.

Stress holatiga tushgan shaxs xuddi shu stressga qarshi quyidagi usul va vositalarni qo'llash yaxshi natija beradi:

a) stress holatiga nisbatan antistress kayfiyatini shakllantirish (ro'y bergan vaziyat, holat, emotsiyalarga nisbatan o'z ruhiyatidagi munosabatni o'zgartirish);

b) ko'proq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish (badantarbiya, sport turi, jismoniy mehnat);

v) o'z-o'zini bo'shashtirish (rasslabneniya) tananing oyoq uchi qismidan to qo'l barmoqlarigacha bo'shashishga erishish ;

g) autotrening (O'z-o'zini ishontirish)

d) relaksatsiya (o'z-o'zini yengillashtirish) orqali stress holatiga barham berish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Stress,nafaqat o'spirinlik,balki barcha yosh davrlarida xam shaxs taraqqiyotiga muxim to'siq bo'luvchi omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008 y.
2. Y.Jumanazarov"Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013 y.
3. T.Sodiqova "Sevib qolgan qizning onasiga maslaxat" qo'llanma. Toshkent 2018.

MILLIY O'Z-O'ZINI ANGLASH VA UNING PSIXOLOGIK OMILLARI

*Abduqodirova Fotima Maxmudovna
Norin tumani 31-maktab amaliyotchi psixologi*

Insonning baxti-saodati, kelajak hayotini yaxshi yoki yomon bo'lishi davlat mustaqilligini mustaxkamlsh bilan bir qatorda turli millatlar, elatlar, sinflar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi hamkorlik, hamjihatlik munosabatlarning yakomillashishi bilan

ham uzviy bo'liqdir. Bu ayniqsa, ko'p millatli davlatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi uchun juda kata ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, millat ijtimoiy-etnik birlikning murakkab shakllari jumlasiga kiradi. Millat, asosan kishilarning tarixan tarkib topgan birligi bo'lib, iqtisodiy hayot, til, hudud va madaniyatining milliy o'zligini anglash va milliy psixologik xususiyatlarning birligi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy turmushi birligi asosida til va hudud birligini paydo bo'lishi millatning asosiy belgilaridir. Millatning til, hudud, iqtisodiy va siyosiy birlashishi elatlarning yozma adabiy tili va og'zaki ijodining rivojlanishi asosida yagona milliy tilning paydo bo'lishiga olib keladi. Millatning tarixiy taraqqiyot xususiyatlari, uning iqtisodiy tuzumi, odat va an'nalari, yashash muhiti uning ma'naviy qiyofasiga ta'sir etadi. U yoki bu millatga mansub bo'lgan kishilarning o'ziga xos milliy xususiyat va psixologiyasi, milliy tili va madaniyati bo'ladi. Til millatning eng muhim belgilaridan biridir.

Kishilarning milliy birligini davlat yoki irqiy birliklar bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Millatlar bir irqdan yoki turli irqlardan tashkil topishi va aksincha millatlar bir irqqa mansub bo'lishi, ba'zi millatlar turli dinga, yoki bir necha millatlar bir irqqa mansub bo'lishi, ba'zi millatlar turli dinga e'tiqod qilishi mumkin. Irqlarga bo'linish –gavda tuzilishi, qiyofasi, rang-ro'yi va boshqa alomatlariga qarab bo'linishidir. Millatlar va yuqorida aytib o'tgan etnik belgilar bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bir tomondan za'rurlanishda belgi bo'lmaydi. Ikkinchi umumiylik va farqlar borligiga e'tiborga olishga to'g'ri keladi. Ularning har ikkisiga xos bo'lgan umumiylik shundaki millatlar ham, sinflar ham tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida yuzaga kelgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga bevosita bo'g'liq bo'lgan ijtimoiy xodisadir.

Dunyoning turli mamlakatlarida xozir o'zining turmush tarzi, tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, rivojlanish darajasiga ko'ra bir- biridan farqqiladigan xalqlar ko'p.

Xar bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qa'tiy nazar eng avvalo, o'zining ong va psixologoyasida ifodalanadi.

Ijtimoiy ongning barcha shakllari, siyosiy mafkura, psixologik qarashlar, sa'nat, fan, axloqiy normalar, shu jumladan milliy qadr-qimmat normalari ham ijtimoiy borliq negizida vujudga kelib, uning ayrim shakllari ijtimoiy voqeillikning muayyan uning ayrim shakllari ijtimoiy voqeillikning muayyan bosqichlarida nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan holda oldinga chiqib rivoj topadi.

IJTIMOIIY XULQ – ATVOR VA ODATLARNI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Muminova Jumagul Valijonovna
Namangan viloyati Chust tumani 16-maktab psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xulq-atvor va odatlarni shakllantirish shaxsni tarbiyalashdagi psixologik xususiyatlarini namoyon etishdagi rolini nazariy va amaliy tadqiq etish orqali umumlashtirilgan xulosalar olish va shu asosda psixologlarga amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy psixologiya, ta'lim-tarbiya, metodika, oila, mahalla, xulq-atvor, muomila madaniyati, shaxs, fikr, mafkura.

Shaxsga taalluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishligidir. Shaxsga taalluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib, so'ngra shu ta'sirlarning subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir.

Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qushiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'kidlanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki,

shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi subyekt bo'lsa, jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta'sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshqa.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida kutarilsa, va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, elu - yurtiga xizmat qiladi. Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi. Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga kuyishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hakoza. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy

tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muxrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mehanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta muysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblovi ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbeh berishi, juda kam xollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning kulidan to'tib, nima qilish kerakligini o'rgatib, «ko'zini moshdan qilib ochib qo'yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli - tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir «tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli» deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi. Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli

ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniksa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezrok moslashish uchun ba'zan bir - biriga zid hislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshligi, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. V.M.Karimova . Ijtimoiy psixologiya–Toshkent.2010 yil.
2. G'oziyev E.G. “ Muomala psixologiyasi” 2001yil

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BARMOQ O'YINLARINI TASHKIL QILISHDA ZAMONAVIY AKTLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

*Bayzakova Gulbeke Ulug'bekovna
Samarkand davlat universiteti 3-kurs talabasi*

Raqamli texnologiyalar iqtisodiy yuksalishning muhim omili. Shuningdek,bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor

vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shuningdek, 2020- yilning “ Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb e’lon qilingani bejiz emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 9-yanvar kuni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligiga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. 2018-yilda xalqaro tajribani, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi tendensiyalarini inobatga olgan holda, “2018-2021-yillarda “Elektron hukumat” tizimini yanada rivojlantirish strategiyasi”ni ishlab chiqildi. Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash borasida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldida o‘ta muhim va dolzarb vazifalar qo‘yilgan.

— Raqamli iqtisodiyot, birinchi navbatda, korrupsiyadan xoli hududda ishlash imkoniyatini yaratadi. U “xufiyona iqtisodiyot”ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi. Kerak paytda ma’lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biror ma’lumotni bekitish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to‘liq axborot bermaslikning iloji qolmaydi. Buning natijasida esa iqtisodiyotga yo‘naltirilgan qonuniy mablag‘lar joy-joyiga sarflanadi. Ayniqsa, soliqlarning o‘z vaqtida to‘g‘ri hisoblanishi va to‘lanishi, byudjet taqsimoti oshkoraligi, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan mablag‘lar, maktablar, shifoxonalar, yo‘llarga ajratilgan pullar to‘liq o‘z manziliga maqsadli yetib borishiga zamin yaratiladi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni bizni taraqqiyotga eltadigan eng qisqa yo‘l, deya atash g‘oyat oqilona va odilona ta’rif bo‘ladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – ma’lumotlarni o‘zida to‘plash, saqlash, qayta ishlash, ulardan foydalanish vositalari orqali barcha sohalarda keskin rivojlanishga imkon beruvchi texnologiyalar. Kompyuter imkoniyatlarini oshiruvchi yangi texnik va dasturiy vositalarning paydo bo‘lishi sekin-asta "kompyuter texnologiyalari" atamasining "Axborot texnologiyalari" atamasi bilan siqib chiqarilishga olib kelmoqda. Bu texnologiyaning asosini axborot (informatsiya) va ularni qayta ishlash vositalari (asosan, kompyuterlar) tashkil qiladi. Bu texnologiyadan hozirgi vaqtda deyarli barcha sohalarda keng foydalanilmoqda.

Shu jumladan ta'lim tarbiya jarayonida ham. Ayniqsa, ta'lim jarayonida boshqa sohalarga nisbatan samaraliroq foydalanish imkoniyatlari mavjud va dunyo miqyosida keng tadbiiq etilgan. O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunini bajarish maqsadida Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirliklari tomonidan qator me'yoriy hujjatlar va dasturlar ishlab chiqilib, qabul qilingan edi, shuningdek axborot tarmo g'ini shakllantirish, axborot resurslarini yaratish va AKTni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Tabiiy bir savol tu g'iladi, "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu jarayonni qanday tashkil etishimiz mumkin?" yoki "Barmoq o'yinlarini kompyuter bilan qanday aloqasi bo'lishi mumkin?"

Barchamizga ma'lumki, barmoq o'yinlari deganda, qo'l va barmoqlarimiz ishtirokida olib boriladigan o'yinlar va mash g'ulotlar tushuniladi. Barmoq o'yinlarining barmoq bilan to'g'ridan-to'g'ri o'yinlar, tayoqchalar yoki gugurt bilan o'yinlar, tez aytish bilan o'ynaladigan barmoq o'yinlari, barmoq o'yinlari bilan jismoniy daqiqalar, barmoq gimnastikasi, soya teatri va barmoq teatri kabi xilma-xil ko'rinishlari keng tarqalgan. Bolaning qo'l panjasi va barmoqlarini harakatlantirish ,barmoq o'yinlari nafaqat o'yin turi, balki, bolani har tomonlama rivojlantirish omilihamdir. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, barmoqlar va qo'llar harakatlanayotganda, nafaqat qo'lni, balki miyaning ba'zi qismlarida ham o'zgarishlar kuzatiladi, xotira, tasavvur va fantaziya rivojlanadi. Qo'lning oddiy harakatlari lab, yuz mushaklari zo'riqishlarini susaytiradi, aqliy nuqsonlarning kelib chiqishining oldini oladi. Bundan tashqari, barmoq o'yinlari qulay hissiy fonni yaratadi, kattalarga taqlid qilish qobiliyatini rivojlantiradi, diqqat bilan tinglashni va nutqning ma'nosini tushunishni o'rgatadi, bolaning nutq faolligini oshiradi, tovushlar talafuzini yaxshilashga ham yordam beradi, bo'g'inlar artikulyatsiyasiga o'ziga xos ta'sir etadi. Ma'lumki, bola nutqining normal rivojlanishi barmoq harakatlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Barmoqlar rivojlanishi evaziga miyada nutqning ravon bo'lishi kuzatiladi. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda barmoq mashqlaridan foydalanish bolaga kompleks yondoshishga imkon beradi.

Barmoq mashqlarining she'rlar va tez aytishlar ishtirokida bajarilishi esa psixik jarayonlarning shakllanishiga va mustahkamlanishiga yordam beradi. Barmoqlar bilan turli mashqlarni bajarib, bola qo'llarining nozik motorli ko'nikmalarining yaxshi rivojlanishiga erishiladi, bu nafaqat nutqning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi (chunki bu nutq markazlarida induktiv tarzda sodir bo'ladi), balki bolani yozish va chizish uchun ham tayyorlaydi. Qo'llar yaxshi harakatchanlikka ega bo'ladi, egiluvchanlik, harakatlarning qattiqligi yo'qoladi, bu esa yozish ko'nikmalarini egallashni osonlashtiradi. Ba'zi barmoq o'yinlari bolani sanashga tayyorlaydi, boshqalarida bola ikkala qo'li bilan harakat qilishi kerak, bu esa "yuqori" va "past", "o'ng" va "chap" tushunchalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Kattalar barmoq o'yinlari matnlarini iloji boricha ifodali talaffuz qilishi, ovozini ko'tarish yoki pasaytirish, pauza qilish, alohida so'zlarga urg'u berish va matn bilan yoki pauzalarda sinxron harakatlarni bajarishda namuna ko'rsatish kerak. Suxomlinskiy: "Bolalarning qobiliyatlari va iste'dodlarining kelib chiqishi barmoq uchida", degan. Barmoq o'yinlari bolalarni ijodiy bo'lishga undaydi, ayniqsa barmoq bilan bajariladigan soya teatrlarida yangiliklar yaratishga imkon beriladi. Bola xayolot olamida ko'radigan va faqat uning o'zi idrok qilayotgan xayoliy obrazlarini esa kattalar tomonidan har qanday maqtoqlar va raq'batlantirishlar bilan ijodiy yutuqlarini ko'rsatib, ijobiy baholanishi kerak. Bunday o'yinlar bolalar o'rtasida, shuningdek, kattalar va bola o'rtasida yaxshi munosabatlarni shakllantiradi. Bola barmoq o'yinlarini yaxshi o'zlashtira boshlaganda, ularni murakkablashtirish mumkin bo'ladi, lekin ularning bajarilishi bolaga qiyinchiliksiz, zavq bilan bajarilishiga ishonch hosil qiling.

Maktabgacha ta'im tashkilotlarida ham barmoq o'yinlarining bir qancha turlaridan keng foydalaniladi. Ularning ichida barmoq teatrlari va barmoq gimnastikasi bolalar uchun qiziqarli o'yinlar hisoblanadi. Tarbiyachi tomonidan avval qanday bajarilishi ko'rsatib beriladi. So'ng bolalar mustaqil yakka holda yoki juft-juft holatda barmoq gimnastikasini bajaradilar. Bunga zamonaviy yondashuvchi tarbiyachilar esa bu xil o'yinlar va mash g'ulotlarni kompyuter yoki televizor orqali amalga oshiradilar. Bolalarga o'yin yoki mash g'ulot aks etgan videorolik qo'yib beriladi va birgalikda bajariladi. Bola kompyuterdan ko'radi, u orqali o'yin she'rini eshitadi va tez o'rganadi,

shu bilan birgalikda o‘zi ham harakatlarni takrorlaydi. Mash g‘ulot yakunida esa bolalarda hech qanday zerikish va qoniqmaslik tuy g‘ulari ko‘rinmaydi, aksincha ularda mash g‘ulotdan mamnunlik va yuqori kayfiyat shu bilan birga bugun o‘rgatilgan o‘yin va mash g‘ulotni yaxshi o‘zlashtirilganlikni ko‘rishimiz mumkin. Agar hamma tarbiyachilar ham shu usuldan foydalanib mash g‘ulotni tashkil qilsa, bolalarning rivojlanishiga katta ijobiy ta’sir qiladi va ta’limdan ko‘zlagan maqsadga ham erishiladi. Bundan tashqari, har bir tarbiyachi-pedagog o‘z ish jarayonida bolalar bilan turli ko‘rinishdagi barmoq o‘yinlarini tasvirga olib boshqa tarbiyachilar va ota-onalar bilan yangidan yangi barmoq o‘yinlarini yaratishga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, jadal rivojlanayotgan axborot-texnologiyalar davrida qaysi sohada bo‘lmasin, bu texnika va vositalardan o‘z o‘rnida va unumli foydalanib qolish kerak. Zero, hozirgi davr talabi kompyuter va aloqa texnologiyalariga oid chuqur bilimni talab qilmoqda. Bu bilimlarning poydevorini ta’limning ilk bosqichi hisoblanmish maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan berib borilsa, yosh avlodning har jihatdan ildam rivojlanishi, shu bilan davlat va jamiyatimizning ham ravnaq topishiga erishiladi desak mubola- g‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2020 yil 15-iyul kungi 130-soni.
3. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M. Mamarajabov Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-“Noshir” 2009.
4. D.A. Nurkeldiyeva, M. Yu.Ayupova, Z.M. Ahmedova Barmoqlar mashqi va logopedik o‘yinlar. Metodik qo‘llanma. Toshkent- “Yangi asr avlodi” 2007.

TA'LIM TIZIMIDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH JARAYONINING IJTIMOIIY VA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Fayzullayeva Dilbaroy Sa'dullayevna
Farg'ona viloyati Beshariq tumani 35-maktab psixologi

Bugun mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha jabhalarida ya'ni, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaning uzluksiz shiddat bilan kechayotgan muhim bir jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirishda bugun pedagogik-psixologik jihatdan yondashadigan bo'lsak, shu o'rinda dastlab psixologik jihatdan shaxs va jamiyat tushunchasiga urg'u berishimiz kerak. Aniqroq qilib aytganda inson dunyoga kelishidan boshlab, to umrining oxirgi yillarigacha davom etadigan muhim va kerakli bo'ladigan uzluksiz jarayon bu ta'lim-tarbiyadir. Ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksiz davom etishida unga ta'sir etadigan atrof-muhit undagi bo'ladigan turli voqea va hodisalarni inson shaxsiga pedagogik-psixologik jihatdan qaydarajada salbiy yoki ijobiy ta'sir etishini, undagi insoniy fazilatlarni qaydarajada shakllanganini uning hatti-harakatlarida atrofidagi insonlarga bo'lgan muomala madaniyatida psixologik jihatdan namoyon bo'ladigan aqliy qobiliyati va xarakter xususiyatidan aniqlashimiz, kuzatishimiz, ko'rishimiz mumkin. Barchamizni oldimizga qo'ygan bugungi kun talab va maqsadimiz ta'lim sohasida eng dolzarb muammolardan biri ta'lim tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanishni yanada zamonaviy usullarda bugungi kunda insoniyat ehtiyojiga aylanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnika taraqqiyoti tizimini yanada takomillashtirish zarur. Shu o'rinda uzluksiz kasbiy rivojlantirishni muhim va ajralmas bir qismi hisoblangan, ijtimoiy psixologik xizmat yo'nalishini ta'lim-tarbiya jarayonida bog'lash asoslidir. Biz pedagog va psixologlar uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini o'quvchi shaxsiga milliy o'zlikni anglashni va milliy umumbashariy qadriyatlarimizni, milliy urf-odatlarimiz, insoniy fazilatlarni, komil inson tushunchalarini yoshlarimiz ongiga singdirib borishimiz darkor. O'tmizda ota-bobolarimiz va momolarimiz tomonidan o'sha davr yoshlariga o'rgatilgan qo'l mehnati orqali qilingan hunarlar bugun yo'qolib borayotgan va kam darajada tor doirada o'rganilmoqda.

- Shulardan: 1. Kashtachilik;
2. Zardoʻzlik;
3. Yogʻoch oʻymakorligi;
4. Chilangarlik;
5. Etikdoʻzlik.

Yuqorida sanab oʻtilgan qoʻl hunarmandchilik hunarlarini respublikamizning boshqa viloyatlarida keng miqyosida oʻrganib, koʻproq yoshlarni bugun qamrab olishimiz, rivojlantirishimiz maqsadga muvofiqdir. Taʼlim muassasalarida oʻquvchilarni ijtimoiy-psixologik qoʻllab-quvvatlash va ularni intellektual ijobiy-kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirish, shu bilan birga voyaga yetmagan oʻquvchilarni huquqbuzarlik va jinoyatchilik kabi salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida oʻquvchilarni har birini yosh bosqichini inobatga olgan holda uning shaxs sifatidagi intellektual jihatini toʻlaqonli rivojlantirishni va ularni boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etishni samarali usullarini taʼlim jarayoniga pedagog va psixologlar tomonidan oʻquvchilarni maʼlum bir kasb-hunarga qiziqishlarini, qobiliyatini aniqlab ularga "Ustoz shogird" anʼanasi asosida ustozlarga shogirdlikka biriktirish maqsadga muvofiqdir.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida "Bola tarbiyasi" haqida gapirganda 7 yoshdan to 14 yoshga qadar bolani qul sifatida mehnat bilan tarbiyalash taʼkidlab oʻtilgan.

Bugun amaliyotchi psixologlar oʻquvchilarni taʼlimdagi tarbiyasini xarakter xususiyatlarini individuallashtirishga yordam berishi bilan birga ularning qobiliyatlarini va qiziqishlarini maʼlum bir darajada kasb-hunarga moyilligini aniqlab toʻgʻri yoʻnalishlar berishi va oʻquvchini ota-onasiga maslahatlar berishi lozim.

"Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakkam Vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi".
Sh.M.Mirziyoyev.

Yurtboshimiz taʼkidlaganlaridek, bugun yoshlarni kasb-hunarga yoʻnaltirish va mehnat bozorlarini zamonaviy shu bilan birga zamon talabi va ehtiyojlariga mos kadrlar bilan taʼminlashimiz davlatimiz uchun muhim masala boʻlib, oʻz navbatida yoshlarimizni qaydarajada, qanday kasb-hunarga yoʻnaltirishimizga bogʻliqdir.

Psixologik kuzatuvlarim jarayonida 5-6-sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish borasida suhbatlarim va shu bilan birga "Kim bo'lsam ekan?" mavzusidagi mashg'ulotim jarayonida bolani qiziqishi va qobiliyatini ma'lum darajada o'rganishim va kuzatishim 5-6-sinf o'quvchilari bu davrda yosh jihati 12-14 yoshni tashkil etadi. Bu davrda bolaning diqqatini tarqoqligi sezilib, ma'lum bir yo'nalishni tanlashi qiyin kechadi. Chunki boshlang'ich sinfni tugatib o'rta sinfga o'tganda fanlarni va ustozlarni o'zgarishi bolada katta yo'ldan o'tish qiyin kechadigan jarayondek o'tadi. Shu davrda o'quvchilarga maktab psixologini, ya'ni psixologik xizmatga ehtiyoj borligini anglab yetishimiz mumkin.

Bugun biz umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik xizmat yo'nalishini eng dolzarb mavzu va kerakli masala ekanini maqsadli ravishda tashkil etishimiz, ta'lim jarayonida esa barkamol insonni shakllantirishimiz o'quvchilarimizni milliy o'zligini anglashini tarbiyalashimiz, ularning o'ziga xos bo'lgan har birini (individual) psixofizologik va biologik xususiyatlarini, qobiliyatlarini, imkoniyatlarini, uning tanlagan mutaxassislik va tanlagan kasb-hunarga bo'lgan yo'nalishlariga ijtimoiy va kasbiy moslashuvini psixologik jihatdan o'rganishimiz lozim. Psixolog maktab o'quvchilari bilan psixologik-pedagogik korreksiya va profilaktik ishlari olib borib va bitiruvchilarni ta'limning keyingi yo'nalishlariga va ijtimoiy mehnat faoliyatiga samarali yo'naltirishi kerak.

Bugun shu tizimda ishlasak va maktablarda psixologik xizmatni o'z o'rnida kuchaytirsak, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda psixologik xizmatni o'rni katta ekanligini yana bir bor ahamiyatli jihatdan sezgan bo'lar edik.

Takliflar:

- 1) Maktablarda psixolog uchun ma'lum (ya'ni, kasb-hunarga yo'naltirish) dars soatlari tashkil etish o'rinli deb o'ylayman.
- 2) O'quvchi bilan jamoaviy (individual) ishlashda o'quvchilar bilan shaxslararo munosabat shakllanishi osonroq kechar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaykovus "Qobusnoma" Toshkent: "Istiqlol" 1994-yil.

2. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz".Toshkent: 1. "O'zbekiston"

MAKTAB KUTUBXONASI VA KUTUBXONACHISI: U QANDAY BO'LISHI KERAK?

Matniyazova Diyora Jumanazarovna
Surxondaryo viloyati Termiz shahar 5-maktab kutubxona mudirasi

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining 2011 yil 19 avgustdagi buyrug'i bilan tasdiqlangan **"Umumta'lim muassasasi kutubxonasi to'g'risida"**gi nizomda shunday deyiladi: "Kutubxona quyidagi vazifalarni bajaradi: foydalanuvchilarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy va ta'lim olish ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish... Kutubxona-axborot madaniyatini tarbiyalash, foydalanuvchilarni axborotlar qidirishning zamonaviy metodlariga o'qitish; homiy tashkilotlar, turli tashkilotlar va muassasalar, ayrim fuqarolarning yordamlari hisobidan kutubxona fondini to'ldirib borish". Qolaversa, "Elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi".

Mazkur Nizomni o'qigan kishining ko'z oldida bolalarning yoshiga moslab taxlangan o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini, fanga doir ilmiy risolalar, qolaversa, davriy nashrlarni o'zida jamlagan, elektron fondga ega, tashqi shovqindan himoyalangan shinamgina xona gavdalanishi turgan gap. Aslida bugungi davr talabi ham shu. Xo'sh, bizning maktab kutubxonalarimiz bu talablarga nechog'lik mos keladi?

Maktab kutubxonasi madaniyat va ta'limning asosiy qismi sifatida yangicha mazmun kasb etmoqda. Kutubxonachilarning mehnati tufayli insonning axborot olish madaniyati, mutolaaga, ilm-fan, tarix, madaniyatga barqaror qiziqishi har tomonlama shakllanib bormoqda. Maktab kutubxonachilari bolalar va o'smirlarni kitob o'qishga jalb etish yo'li bilan ularning intellektini kamol toptirishda bebaho hissa qo'shmoqdalar. Shunday ekan, maktab kutubxonasi o'zining odatdagi qiyofasini o'zgartirishi, eng

zamonaviy talablarga javob beradigan asl axborot-ta'lim, madaniy markazga aylanishi kerak.

Respublikamizda axborot-kutubxona markazi (AKM) va axborot-resurs markazi (ARM)ning mavjud bo'lishini ko'zda tutadigan axborot-kutubxona tizimining vujudga keltirilishi maktab kutubxonalarini rivojlantirishdagi innovatsion jarayonlarning faollashuviga imkon yaratdi. Kompyuter va axborot texnologiyalari, internetning viloyat, tuman, maktab axborot-resurs markaziga jadal joriy etilishi maktab kutubxonasi kitobxonlarining ham jahon axborot resurslariga erkin kirib borishini ta'minlaydi. Ko'pgina maktab kutubxonalari bugunning o'zidayoq o'z shaxsiy saytlariga ega. Ularning sahifalaridan kutubxonaning butun maktab hamjamiyatiga taklif etish uchun tayyor resurslari va xizmatlari haqida ma'lumot olish, mavjud lokal va tarmoq elektron materiallarni o'rganish, o'quv jarayoni va individual ishlarga xizmat ko'rsatishning yangi turlari to'g'risida bilib olish mumkin. Bundan buyon maktab kutubxonalari ish tajribasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, elektron tashuvchilardagi materiallardan, axborot-ta'lim dasturlaridan foydalanish mumkin. Va bu maktab kutubxonasining asosiy funksiyalari va axborot-kutubxonachilik xizmatlari bo'lmish kitoblarni kataloglashtirish; adabiyotlar va darsliklarni komplektlash ishlarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Fan-texnika taraqqiy etgan zamonamizda maktab kutubxonasining missiyasi o'zgaradi. Zamon ARM kutubxonachisining professional faoliyatidagi yangi qoidalarni talab etmoqda. Endi tadbirlar miqdoriyu kitobxonlar va berilgan kitoblar soni kabi ko'rsatkichlargina ARM faoliyatiga baho berishda belgilovchi omil bo'la olmaydi. Kutubxonachidan audiovizual va elektron hujjatlar, zamonaviy texnika bilan ishlash malakasi ham talab etilmoqda. Ayni mana shuning uchun ham maktabda ARMni yuqori malakali mutaxassis boshqarmog'i darkor.

Maktab kutubxonasi o'quvchilar, o'qituvchilar, mahalla jamoasining axborot-kutubxona bilan ta'minlanishini belgilab beruvchi tarkibiy markazga, kutubxonachilik xizmat ko'rsatishida ilg'or axborot texnologiyalaridan jadal foydalanish asosida shaxsning axborot olish madaniyatini shakllantirish bazasiga aylanishi kerak.

Xalq ta'limi vazirligi maktab kutubxonalari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan zamonaviy ta'lim saviyasi va uning istiqboliga mos keladigan yondashuvlar ishlab chiqmoqda. Hozirda mamlakatimizda 20 million nusxaga yaqin ma'lumotnoma, ilmiy-ommabop, badiiy, o'quv-metodik adabiyotlardan iborat kitob fondiga ega bo'lgan 9502 ta umumta'lim maktab kutubxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikamiz o'quvchilari va o'qituvchilariga kutubxonachilik-bibliografik xizmat ko'rsatishni 10311 nafar kutubxonachi amalga oshirayotgan bo'lib, endi ular maktabdagi innovatsion bunyodkorliklar ishtirokchilari sanaladilar.

Sohadagi mavjud muammolar tahlili respublikamiz maktab kutubxonalari ishini takomillashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi:

- maktab kutubxonasini texnik jihozlash;
- kutubxonachilik jarayonlarini avtomatlashtirish, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, kutubxona faoliyatini axborotlashtirish uchun sharoitlar vujudga keltirish;
- kitob fondlarini shakllantirish;
- maktab kutubxonasi faoliyatini tashkil etishga doir yangi boshqaruv va metodik yondashuvlarni aniqlash;
- maktab kutubxonalarining tashkiliy shakllaridagi istiqbolli modellarni ajratish;
- umumta'lim muassasalari kutubxonachilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, ularning axborot olish madaniyatini yuksaltirish;
- umumiy ta'lim kutubxona muassasalarining kooperatsiyalashuvi va integratsiyasini rivojlantirish, shuningdek, maktab kutubxonalari, ARMLar, boshqa tizim va idoralarga qarashli kutubxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Yuqorida tilga olingan vazifalarni hal etish ishi axborot-resurs markazi zimmasida bo'lib, u maktab kutubxonalarining rivojlanish jarayonlarini qo'llab-quvvatlab turadi, shuningdek, o'quv jarayonining maktab kutubxonasining faoliyatini modernizatsiyalash yo'li bilan axborot va ilmiy-metodik jihatdan qo'llab-quvvatlab turilishini ta'minlaydi. Kutubxonachilik ishida yangi axborot texnologiyalari ta'limi bilan shug'ullanadi.

ARMni rivojlantirish quyidagi muhim omillarga asoslanadi:

- Texnik ta'minot;
- Dasturiy ta'minot;
- Axborot ta'minoti;
- Kadrlar ta'minoti.

Bugun maktab o'quv jarayoniga shunday axborot va pedagogik texnologiyalar tadbiq etilmoqdaki, bunda darslik ta'limning bosh vositasi va axborotning asosiy manbai rolini bajarolmay qoladi. O'quvchilar endi dastlabki manbalarga kirib borish imkoniyatiga ega bo'lib, o'zlari uchun zarur bilimlar, faktlar, axborotni xoh bosma, xoh elektron shaklda bo'lsin mustaqil topa olishlari lozim.

Axborotning zamonaviy tashuvchilari fondiga ega bo'lgan ARMLar ishida shaxsning axborot olish madaniyatini shakllantirish bosh vazifaga aylanadiki, bu narsa kitobxonlarni kutubxonachilik-bibliografik, mutolaa madaniyatiga doir bilimlar, shuningdek, kompyuter savodxonligi bilan ta'minlaydi. Kitobxonlar markazdan alohida yangi axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda axborotni izlashga doir bilim va malakalar hosil qilishlari, zarur axborot mahsulotlari–ko'chirmalar, ma'ruzalar, referatlar, sharhlarni mustaqil ravishda tayyorlash texnologiyasini o'zlashtirishlari lozim.

Shunday qilib, ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligi ortadi, lokal kataloglarni shakllantirish ishi tezlashadi. Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi bazasida yana bir serverni o'rnatish rejalashtirilmoqda. Uning asosiy mo'ljali – zaxira katalogini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tizimni funktsional testlashtirish. Bundan buyon tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirish ko'zda tutilmoqda.

BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK OQIBATLARI

Do'lanova Dilobar
Qarshi shahar 2-maktab psixologi

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik - bu bolalarga nisbatan zo'ravonlik yoki yomon munosabat. Jismoniy, hissiy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, beparvolik, odam savdosi yoki bolaning sog'lig'iga, rivojlanishiga yoki qadr-qimmatiga haqiqiy zarar etkazishi yoki olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa shakllari shaklida ifodalanishi mumkin. JSST ma'lumotlariga ko'ra, bolalarga nisbatan zo'ravonlik butun umr davomida jiddiy oqibatlarga olib keladigan global muammodir

Bolaga nisbatan jismoniy zo'ravonlik - bu kattalar tomonidan bolani qasddan kaltaklash, jarohatlashdir. Jismoniy zo'ravonlikning belgilari ko'karishlar, tirnalgan joylar, chandiqlar, kuyishlar, yaralar, sinishlar, shuningdek, shikastlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan qo'pol muomaladir

Emotsional zo'ravonlik - bu bolaga bir martalik yoki surunkali ta'sir qilish, unga nisbatan dushmanlik yoki befarq munosabat, o'zini o'zi qadrlashning pasayishiga, o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotishiga, xarakterning patologik xususiyatlarining shakllanishiga olib keladigan, ijtimoiylashuvning buzilishiga olib keladigan. Hissiy zo'ravonlik, xususan, bolaga baland ovozda baqirish, qo'pol va haqoratli munosabatda bo'lish, e'tibor bermaslik, qattiq tanqid qilish, ism qo'yish, masxara qilish, kamsitish, tahdid qilish, bolaning shaxsiy narsalarini yo'q qilish, uy hayvonini qiynoqqa solish yoki o'ldirishni o'z ichiga oladi.

Hissiy zo'ravonlik og'riqli qo'shimchalarning shakllanishiga olib kelishi mumkin, jabrlanuvchilarning ularga nisbatan qilingan zo'ravonlik uchun o'zlarini ayblash tendentsiyasi, o'rganilgan nochorlik va haddan tashqari passiv xatti-harakatlardir.

G'amxo'rlik etishmasligi- ota-onalarning e'tiborsizligidir.

Beparvolik - ota-ona yoki bola uchun mas'ul bo'lgan boshqa shaxs tomonidan bolaning asosiy ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, tibbiy yordam yoki nazorat) e'tiborsiz qoldirish, natijada bolaning sog'lig'i, xavfsizligi va farovonligiga xavf tug'dirishi. Beparvolikning kuzatiladigan belgilariga bolaning doimiy ravishda maktabga bormasligi, tilanchilik qilishi, pul yoki oziq-ovqat o'g'irlashi, teri yoki kiyim-kechakning ifloslanishi, mavsumiy kiyim kiyimasligi kiradi.

E'tiborsizlikka uchragan bolalar jismoniy va psixologik rivojlanish kechikishidan aziyat chekishi mumkin, bu esa psixiatrik kasalliklarga va neyropsikologik funksiyalarning, jumladan ijro etuvchi funksiyalar, diqqat, nutq, xotira va ijtimoiy ko'nikmalarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, e'tiborsizlikka duchor bo'lgan bolalar keyinchalik kattalarni xavfsizlik manbai sifatida qabul qilmaydilar va tajovuzkorlik va giperaktivlikni namoyon qiladilar, bu esa asrab oluvchi ota-onalarga sog'lom va kuchli bog'lanishning shakllanishiga xalaqit berishi mumkin. Zo'ravon yoki beqaror ota-ona yoki vasiyga moslashish, bunday bolalar ehtiyotkor va ishonchsiz bo'lib qoladilar; ko'pincha ularning nosamimiyligi va manipulyatsiyaga moyilligini ta'kidladilar. E'tiborsizlik qurbonlari keyinchalik bolalik davridagi bog'liqlikning yo'qligi natijasida do'stlik va ishqiy munosabatlar o'rnatish va saqlab qolishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyonet.uz
2. Karimova V.M. Salomatlik psixologiyasi. - T.: Yangi asr avlodi. 2005. - 71 b.

ОТА-ОНАЛАРНИНГ ЎЗ БОЛАЛАРИГА ЭЪТИБОРИНИ КУЧАЙТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АҲАМИЯТИ

*Шукурова Гулнисо Юсуповна
Яшнобод тумани 230 мактаб психологи*

Жамиятда оиланинг роли ўзининг кучи бўйича бошқа ҳеч бир ижтимоий институтлар билан тенглаштириб бўлмайди. Айнан оилада инсоннинг шахси шаклланади ва ривожланади. Оилада инсоннинг маънавийлигига асос солинади, ҳулҳийҳ оидалари юзага келтирилади, шахснинг ички дунёси ва индивидуал сифтлари очиб берилади.

Бугунги кундаги энг долзарб масала сифатида жамиятда ёшларнинг хулқ-атворидаги салбий ўзгаришлар намоён бўлмоқда. Ўсмирлардаги бу ўзгаришлар агрессив хатти-ҳаракатларда ўз ифодасини топмоқда.

Хўш, бундай агрессив хулқ атвори юзага келтирувчи асосий омил нима? Буни қандай йўл билан олдини олиш мумкин?

Аввало, оиладаги тарбия жараёни, ўсмир шахсида хулқ-атвори юзага келишининг бирламчи омили ҳисобланади. Оиладаги муҳит ота-она ўз маъсулиятларини ҳис қилиши билан барқарор бўлади. Болаларнинг одобли бўлиб улғайиши учун ота-она билан бир қаторда маҳалла-куй ҳам катта ибрат мактабидир. “Қуш уясида кўрганини қилади”, деб бежиз айтмаган халқимиз.

Фарзанд тарбиялаётган ота-она ҳар бир ҳаракати, юриш туриши, муомаласи, бошқалар билан ўзаро муносабатида олижаноб фазилатларни намоён эта билиши керак. Чунки бола табиатан ниҳоятда тақлидчан ва кузатувчан бўлади. Шунинг учун унинг атрофдагилари ўз одатлари билан баъзан ўзлари сезмаган ҳолда уларга таъсир қиладилар. Оиладаги кўпол муносабатлар, кўп ёлғон гапириш, ёқимсиз хатти-ҳаракат бола тарбиясига салбий таъсир қиладиган носоғлом муҳитни келтириб чиқаради. Фарзанд тарбиясида ота-онанинг муомаласи муҳим ўрин тутди. Бола ота-она томонидан кўпол, дағал сўзлар эшитиб, калтак еб катта бўлса, бу унинг табиатига салбий таъсир қилади. Бу эса ўз навбатида оиладаги

носоғлом муҳитда тарбияланаётган боладан “маънавий касал” инсонлар шаклланади. Улар эса жамият маънавиятига ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Болаларга етарли даражада эътибор берилмаслиги, уларда меҳр етмаслик ҳолатини юзага келтирмоқда. Психолог олимларни таъқидлашча, шахсда меҳрга бўлган эҳтиёжни қондирилмаслиги, ундаги жиддий камчиликлар пайдо бўлишига олиб келиши мумкин экан. Ҳар бир инсонга ўз эҳтиёжларини қондириш, шахсий ва умумий мақсадларга эришиш учун бошқа одамлар билан бирлашишга интилиш хосдир.

Бола шахсидаги меҳрга бўлган эҳтижни қондирилишда меъёрга амал қилиш муҳим. Зеро, эътиборнинг ҳаддан ортиқ даражаси ҳам салбий ҳолатлар сабабчиси бўлиши мумкин. Оиладаги ҳаддан зиёд ўсмир эркинликларини чеклаш ёки аксинча ота она томонидан сурункали бефарқлик ҳам шунингдек агрессив хулқ кўринишларини шаклланишга олиб келади. Агрессив хулқ оилада ўсмирнинг эркинликлари ҳаддан зиёд чегараланганда ёки унга ҳаддан зиёд эркинликлар берилганда ҳам шаклланиши мумкин.

Агар ўсмир оилада барча эҳтиёжларини тезлик билан қондирилдишига ўрганиб қолган бўлса, тенгдошлари жамоасида унинг эҳтиёжларига тўқинлик қилганга нисбатан агрессив муносабат билдиради

Оилада эмоционла инкор этилганлик ҳолатларида ҳам ўсмирлар ўзларининг агрессив хулқа кўринишлари билан ўзларига оила аъзоларининг эътиборини қаратишга ҳаракат қиладилар Ота -оан ўсмир хулқидаги ўзгаришлар сабабини излаш ўзаро муносабатларни ўзгартиришга ҳаракат қиладилар

Агар ўсмир оила аъзолари мунтазам тарзда ўзаро низолар , бақириқлар орқали таъсир ўтказиш асосида муаммоларини хал этишга ўрганган бўлсалар, бошқа ижтимоий вазиятда айнан ўзни шундай тўтишга интилади.

-шахсий муаммолар (физиологик ва психологик характердаги муаммоларни келиб чичишига сабаб бўлувчи пубертат даври хусусиятларининг намоён бўлиши) Ўзининг ташқи кўринишидан норози бўлиш (Терзит комплекси)катталар томонидан ноадекват идрок қилиниши Ўсмир ўзини каттадек хис этади, унга болалар каби муносабат бўлишлари ёқмайди. Ўсмирдаги таффакурнинг

танқидийлиги катталар хатти ҳаракатига нисбатан шубҳа билан қараш, улардаги ахлоқий меъёрларга нисбатан эътироз хисларини шаклланишга олиб келади.

Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, шахснинг агрессив хатти - ҳаракатига таъсир этувчи хусусиятларидан бири - бу фрустрацияни кўтара олмаслик қобилиятидир. Маълумки, фрустрация эҳтиёжларни қондиришда ёки мақсадга эришиш йўлида пайдо бўлган тўсиқлар туфайли келиб чиққан ҳолатдир. Худди шу пайтда ўсмир шахсида ҳам ота - она ва яқинлари уни тушунмаслиги ва аксинча унга нисбатан қаттиққўллиги натижасида агрессив хатти - ҳаракатлар, ўсмир хулқида оғишлар намоён бўлишини кўзатишимиз мумкин.

Демак, ўсмирнинг агрессив хулқи шаклланишида асосан ота - она таъсири кўзатилади ва оила тарбиясидаги қуйидаги омиллар катта рол ўйнайди:

- ўсмир ҳаракатидан қониқмаган ота - она реакцияси;
- ўсмирлар ва ота - оналар ўртасида муносабатнинг характери;
- ака - ука, опа - сингиллар ўртасидаги муносабатлар характери;
- ота ёки она ёки икковлари билан бўлган ёмон муносабат.

Шунингдек, ўсмир ота - оналарнинг қўллаб - қувватламаслиги ва уларнинг қизиқишларига бепарволигини сезса, қуйидаги вазиятлар юзага келиши мумкин:

- жинойтчилик фаолиятига кириб кетиш;
- бошқа ўсмирларга қарши чиқиш;
- ўз ота - онасига нисбатан ўзларини агрессив ҳолда тўтиши мумкин.

Ўсмир хулқидаги оғишлар асосини аввало оила муҳити ташкил қилиши ва оиладаги ўзаро бир - бирини психологик томондан тушунмаслиги натижасидир. Ўсмирлик кескин ўзгаришлар даврилигини ҳисобга олган ҳолда, уларга алоҳида эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқдир. Акс ҳолда эса, юқоридаги салбий хусусиятлар ўсмир характерини, унинг хатти - ҳаракатини тубдан ўзгартириб юборади.

Хулоса қилиб айтганда, тарбияда энг муҳим восита бу меҳр ва ширинсўзлик билан тарбиялашдир. Бу икки восита бир бўлиб, болани шакллантиради. Шу жумладан, таълимни ҳам ғазаб ва жазолаш билан амалга оширмаган маъқул. Зеро, зўрлаб берилган таълим бола хотирасидан тезда ўчиб кетади. Оқибатда унинг шу

соҳага нисбатан қизиқиши сўниши мумкин. Бундан кўринадики, таълимнинг аввали ҳам яхши тарбиядан бошланади.

Яна шу нарсани таъкидлаб ўтиш жоизки, ота-она, яқинлари томонидан меъхр-эътиборни етарли даражада, ўз вақтида берилиш бола шахсдаги барча ижобий ҳислатларни шакллантиради. Ҳар хил тобелик ҳолатларини (интернетга, видео ўйинларга, қарама-қарши жинс вакилларига тобелик) олдини олади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Гонеев А.Д., Лифинтсева Н.И., Ялпаева Н.В. Коррекцион педагогика асослари / Эд. В.А.Сластенина . - М., 1999 йил.
2. Запорозҳетс АБ, Лисина М.Н. Мактабгача ёшдаги болаларда мулоқотни ривожлантириш. - М., 1974 йил.
3. Карпова С.Н. Онтогенезда психик ривожланишнинг о'зига хослиги (ривожланиш психологиясининг долзарб муаммолари). - М., 1978 йил.

TARBIYASI OG'IR BOLALAR BILAN ISHLASHDA PSIXOLOG FAOLIYATINING AHAMIYATI

*Sufibekova Shaxnoza Abduraxmanovna
Yashnobod tumani 230 maktab psixologi*

Annotatsiya: Hozirgi kunga kelib, mahalliy va xorijiy psixologlar va tarbiyasi og'ir bolalar sonining ko'payishini qayd etishdi. Bolalar ijtimoiylashuv, tarbiya va ta'lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishadi, o'zlarini shaxs sifatida rivojlantirishga intilmaydilar. Maqola maktab davridagi bolalarni tabiyasi og'ir bolalarni tarbiyalash sabablarini o'rganish va o'qituvchilar bilan psixologlar birgalikda ota-onalarga o'quvchilarning ta'im jarayonini tashkil etishda o'z vaqtida tuzatish yordamini ko'rsatish masalalariga bag'ishlangan.

KIRISH. Tarbiyasi og‘ir bolalar va ular bilan ishlash har doim psixologlarning diqqat markazida bo‘lgan. Nima qilish kerak, ta‘limga mos kelmaydigan, tajovuzkorlik, hissiy beqarorlik, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik, o‘rganishni istamaslik, o‘rganishga qiziqish yo‘qligi, maktab motivatsiyasi past bo‘lgan bolalar bilan qanday ishlash kerak? Psixologning qiyinchiliklarni, ularning sabablarini aniqlash va ushbu guruh bolalariga psixologik yordam ko‘rsatishdagi roli zamonaviy dunyoda juda dolzarb va muhimdir. Maktab psixologlari oldida turgan vazifalar maktabda o‘quv jarayonini optimallashtirishga yordam beradigan qulay psixologik muhitni yaratishdir.

Maktab psixologi ko‘pincha boshqa bolalardan sezilarli darajada farq qiladigan (minus belgisi bilan) bolalar bilan shug‘ullanishi kerak. Psixologga u yoki bu tarbiyasi og‘ir bolaga "qandaydir tarzda ta‘sir qilish" haqidagi so‘rov o‘qituvchilar va otalarning tez-tez so‘rovlaridan biridir. Shu bilan birga, turli xil maktab o‘quvchilari tarbiyasi og‘ir toifasiga kiradi: o‘qimagan, intizomsiz, turli xil asab va ruhiy kasalliklarga chalingan bolalar, voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyada ro‘yxatga olingan o‘spirinlar, disfunktsiyali va yolg‘iz bolalar deb ataladigan bolalar.

ASOSIY QISM. Psixologiyada tarbiya atamasidan tur va inson faolligi darajasini uning faoliyati, mushohadasi, tafakkuri, muloqoti kabi ko‘rinishlari bilan bir qatorda belgilash uchun keng foydalaniladi. Inson axloqi tog‘risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida uni psixologik fanning predmeti [2] deb e‘lon qilgan vaqtdan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi.

Tarbiyaning zamonaviy tushunchasi tashqi rag‘batga reaksiyalar to‘plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug‘atda tarbiya “tirik mavjudotga xos bolgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan ozaro ta‘siridir” [3]. Odamning tashqi faolligi ostida har qanday tashqi ko‘rinish: harakat, faoliyat, muomala, mulohaza, vegetativ reaksiyalar tushuniladi. [1]

Bolaning tarbiyasi tug‘ilishdan boshlanadi. Uning birinchi o‘qituvchilari otalalar, keyin bolalar bog‘chasi tarbiyachilari va shundan keyingina - maktab o‘qituvchilari. Afsuski, ular ham alohida, ham jamoaviy ravishda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Uning rivojlanishida bola bir joyda turmaydi, u oldinga siljiydi. Otalardan bola oddiy taqlid orqali buni qanday qilishni organadi, nima mumkin va nima

mumkin emas. Bolaligida o'z farzandiga yomon o'rnak bo'lgan ota-onalar voyaga yetganda ularning tarbiyasida yuzaga keladigan muammolardan xoli emaslar [4].

Tarbiyasi og'ir bolalar - bu rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan, xususan, axloqiy va deviant xulq-atvori, qat'iy salbiy xatti-harakatlari bo'lgan bolalar. Tarbiyasi og'ir - bu bola, maktab o'quvchisi bo'lib, u alohida davolashni, o'qituvchi va tengdoshlar guruhining diqqatini talab qiladi, bu individual yondashuvni talab qiladi.

Tarbiyasi og'ir bolalarning mumkin bo'lgan tasniflari:

1. Pedagogik jihatdan qarovsiz qolgan bolalar.
2. Tibbiy yordamga muhtoj bolalar.
3. O'zlashtirmaydigan bolalar.[6]

Ko'pgina taniqli o'qituvchilar va psixologlarning xulosalari, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, noto'g'ri xatti-harakatlar va huquqbuzarliklarning kelib chiqishi maktab yoshdagi bolalarda kuzatiladigan xatti-harakatlar, o'yinlar, organish yoki boshqa faoliyatdagi normadan chetga chiqishdir. Deviant xulq-atvorning rivojlanishining boshlanishi odatda bolaning o'zini shaxs sifatida anglashi, ijtimoiy me'yorlar va qoidalarni qabul qilish yoki rad etish boshlanishiga to'g'ri keladi. Bunday xulq-atvor ko'nikmalari, tegishli faoliyat talablariga bo'ysunish qobiliyati singdirilmagan bola, oxir-oqibat, har xil xatti-harakatlarning buzilishiga moyil bo'lgan intizomsiz shaxsga aylanadi. Bolaning ulg'ayishi va shaxs bolib shakllanishining asosiy davrida unge hamroh bo'lgan o'qituvchilar ham o'zlarining kasbiy faoliyatida koplak xatolarga yo'l qo'yadilar, bu esa bolaning pedagogik e'tiborsizligiga, deviant xulq-atvoriga, turli xil ijtimoiy og'ishlarga olib keladi [5].

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Bir guruh tarbiyasi og'ir bolalarni ajratib ko'rsatib, biz ular bilan ishlashni tashkil etishga harakat qilishimiz, jumladan: ota-onalar uchun seminarlar o'tkazish, ularning sabablari tahlil qilinadi, tarbiyasi og'ir bolalarni tuzatish yo'llari, ota-onalardagi tanglikni bartaraf etishga qaratilgan maslahat ishlari, ota-onalar bilan individual ishlash. Shuningdek, psixalog va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot jarayonining samaradorligini oshirishga hissa qo'shgan o'yin mashqlaridan foydalanish, nizosiz muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, o'rganishga

qiziqishning namoyon bo'lishiga, maktab motivatsiyasini kuchaytirishga yordam berishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'laganova G.K. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya kursi bo'yicha tarbiyasi «qiyin» o'smirlar psixologiyasiga metodik kursyamatar»-
2. Fayziyev Ya. M. «Umumiy va tibbiy psixologiya». Toshkent Abu Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2000.
3. G'oziyev E. G. «Tarbiyasi «Kiyin» o'smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.
4. Ратгер М. Помощь трудным детям. - М., 2004.
5. Рожков М. И. Воспитание трудного ребенка. Дети с девиантным поведением. Учебно-методическое пособие. М., ВЛАДОС, 2003.
6. <https://poisk--ru.ru.turbopages.org/turbo/poisk-ru.ru/s/s42664t3.html>

ПСИХОЛОГИК КОНСУЛЬТАЦИЯГА МУРОЖААТ ҚИЛУВЧИ ШАХСЛАР ТИПОЛОГИЯСИ

*Мавлонова Ҳаётхон Равшановна
Фарғона шаҳар 6-мактаб психологи*

Аннотация. Жаҳонда глобаллашув жараёнининг кучайиб бориши жамиятда шахсларнинг психологик адаптацияси, руҳий ҳолати, психологик саломатлигига ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди. Ҳозирги кунда психология соҳаларининг ривожланиши ва психологик хизмат турлари кўпайиб бормоқда, психологик консультацияга мурожаат этувчи шахсларнинг ҳам сони кундан кунга ортиб бормоқда. Турли шахс типларига индивидуал хусусиятлар хос бўлганлиги сабабли уларда ҳар хил когнитив хусусиятлар, турли кутилмалар, ҳар хил қадрият ва дунёқараш хос.

Калим сўзлар: шахс, шахс типлари, психологик хизмат, психологик консультация, психолог консультант, индивидуал психологик хусусиятлар.

Психологик консультацияга мурожаат этувчи шахсларнинг индивидуал-психологик ва типологик хусусиятларини инобатга олиш ёш психолог-консультантлар учун услубий йўриқнома сифатида хизмат қилиши мумкин. Шунингдек, шахсларнинг типологик хусусиятларини эътиборга олиш консультатив хатоларнинг камайишига, нотўғри таъсирларни бартараф этиш, тавсиялар тайёрлашда конкретликни тақозо этади.

“Аҳолига, айниқса ёшларга сифатли психологик хизмат кўрсатиш, психологик хизмат фаолиятини бошқаришни мувофиқлаштириш, таълим муассасалари билан профилактика инспекторлари ва жамоат вакиллари ўртасидаги ҳамкорликни янги сифат даражасига кўтариш, психологик мактабни ривожлантириш ҳамда олий таълимда тор ихтисосликлар бўйича кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш, давлат-хусусий шериклик асосида психологик марказлар ташкил этишни йўлга қўйиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши, Мактабгача таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқиқот марказининг Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши қошидаги Ёшларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш маркази негизида таълимнинг барча босқичларида психологик хизмат кўрсатувчи тузилмалар учун мулоқот майдонига айланадиган, тегишли давлат идоралари билан ҳамкорликда иш олиб борувчи “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази қошида Ёшларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш республика маркази (кейинги ўринларда Марказ деб аталади) этиб қайта ташкил этиш тўғрисидаги таклифлари маъқуллансин.”

Хилма-хил психологик муаммолар манбалари ичида мактаб ҳам муҳим ўрин эгаллайди. Масалан: тиббиёт мезонларига қараганда, мактаб ёшидаги болаларнинг 18-20% қисқа муддатли ёки доимий психотерапияга мухтождирлар.

Мактаб, коллежда кенг тарқалган муаммолар жуда кўп: Ўқув мотивацияси, йўқлиги паст ўзлашиши ўқитувчи тенгдошлари билан низоми муносабатлар, ўз-ўзини паст баҳолаш, жамиятга қарши группаларда иштирок этишга лаёқатлилиқ ва бошқалар. Юқори санаб ўтилган муаммоларнинг кўпайиши ҳозирги мактаб, коллежларда шахс ривожланиши босқичларини етарлича ҳисобга олмаслик, барчага бир-хилда талаб қўйиш натижасида уларнинг индивидуал психологик ва психофизиологик хусусиятларни эътиборга олмаслик сабаб бўлмоқда. Боланинг кўпгина нисбий хусусиятлари, масалан, меҳнатга, математикага, мусиқага, ва бошқаларга нисбатан эрта кўринган муваффақият ёки психологик тараққиётни, жуда олдинда бўлиши кўпгина психологик ва педагогик вазифаларнинг муаммоси келтириб чиқаради.. Шунга қараб психологик маслаҳат беришнинг умумий вазифаси бола психик тараққиётининг боришини, бу жараёндаги даврларга бўлиш ва белгиланган нормага мувофиқ тасаввурлар асосида назорат қилишдан иборат.

Психологик маслаҳат вазифалари чет элларда яхши ривожланган ота-оналар боласи тақдири билан ёшлигидан қизиқиб эътибори кучлидир. Улар ўсиши ривожланиши даврларида фарзандидаги ҳар бир ўзгаришга аҳамият бериб, ўз вақтида психологик кўриқдан ўтиб туришади, ўз вақтида маслаҳатни олиб муаммоли вазиятни тез хал қиладилар. Бизда психологик хизматлар эндигина йўлга тушмоқда, агар ота-оналар, психолог, шифокор ва тарбиячи ва педогоглар, психологик ишларни, яъни ўз вақтида бажарилса психологик муаммолар кам учраган қанча боладаги камчиликлар, касалликлар вақтида олдини олиб, ёш авлодларимиз соғлом ақлли ва жисмонан бақувват, бўлар эди.

Мижознинг бир эмас, балки бир неча муаммолари мавжуд, уларнинг ҳар бирини хал этиш алоҳида консултацияни талаб этади.

Психолог - консултантда мижоз унинг индивидуал хусусиятлари сабабли ўз муаммосини дарҳол ва қўшимча ёрдамсиз хал эта олишига тўла ишонмайди. Агарда мижоз ўзига етарлича ишонмаса, ўз ҳаяжонлари ва хулқини бошқара олмаса, агарда унинг интеллектуал ривожланиш даражаси қийин вазиятларда оқилона, тўғри ечимни мустақил қабул қилиш учун етарли бўлмаганда бундай ҳоллар учраб туради. Психологик хизматнинг психокоррекция йўналиши

психологдан инсон шахси ва индивидуаллигини таркиб топтириш жараёнига фаол таъсир ўтказишни тақозо қилади. Халқ таълими тизимидаги психологнинг вазифаси психологик хизматни муайян қоида, мезонга асосланиб ташкил қилишдан иборат бўлиб, ёш давр хусусиятларига биноан (болалар, ўқувчилар, талабалар) психиканинг ривожланиши, шахснинг шаклланиши қонуниятларини амалиётда ҳисобга олган ҳолда фаолият олиб бориш, ишчи жамоасига болалар, ўқувчилар ва талабалар таълим-тарбиясини индивидуаллаштиришда ёрдамлашиш, уларнинг қобилияти, майлининг даражасига қараб ўқитувчиларга коррекцион ишларни амалга оширишда кўрсатмалар беришдан иборат. Психологик хизматнинг ушбу йўналишида алоҳида аҳамият касб этадиган нарса - бу болалар, ўқувчилар, талабалар ўсишида (ривожланишида) кечикиш (орқада қолиш), уларда хулқнинг бузилиши, таълимда ўзлаштиришнинг ёмонлашуви ҳисобланади.

Психик тараққиётни тузатишлар «коррекция қилиш» атамаси дастлаб деффектологияда касал болаларга нисбатан ишлатилган бўлса, амалий ёш психологиясининг ривожланиши билан «тузатиш» тушунчаси нормал психик тараққиёт учун ҳам қўлланила бошлади.

ХУЛОСА

Ҳар доим ҳам мижоз психолог-консультантдан олган тавсияларини амалга оширишга кириша олмайди. Кўпинча ўзининг тажрибасизлиги ёки билмаслиги сабабли хатога йўл қўяди ва психолог-маслаҳатчи томонидан кундалик ёрдамга муҳтож бўлади. Психолог-маслаҳатчи эса мижозни тинглаб, ўзи ва у учун муаммони аниқлаштириб, уни тўғри ҳал этиш бўйича тавсиялар таклиф этиб, ўзининг профессионал бурчини тўла бажарди деб ўйлаши керак эмас. Мижознинг олган маслаҳат ва тавсияларини хатосиз амалга оширишни таъминлаш ҳам психолог-маслаҳатчининг вазифаси ҳисобланади. Тўғри, мижоз психолог-маслаҳатчидан олган тавсияларни бажаришни хоҳламаслиги ҳам мумкин. Одамлар ҳаётларида дуч келадиган муаммолар шундай бўлади-ки, улар такроран юзага келади, уларни бир маротаба ҳал қилиниши улар келажакда яна бир бор юзага келмаслигига тўла кафолат бўла олмайди. Шунинг учун мижоз билан

маслаҳат бериш ишларини олиб борганда келажакда бундай муаммолар юзага келмаслигига ҳаракат қилиш керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Полина, Л.В. Особенности консультирования клиентов находящихся в кризисе семейных отношений Л.В Полина Вестник Костромского государственного университета им. А.Н. Некрасова. Н.В. Кузьмина, Н.П. Фетискин. 2011.

2. Бондаренко А. Ф. Психологическая помощь: теория и практика. М., 2010.

USING WEB-QUEST TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH

*Qurbonaliyeva Nodira Zohid kizi and Isroilova Gulzira Ismoiljon kizi
students of Chirchik State Pedagogical Insitute of Toshkent region*

Abstract: Web Quests are an online teaching and learning method that focuses on the student. They're based on both resources and activities. The structure of a Web Quest is discussed, and certain qualities are underlined. This was used as the starting point for creating a cultural teaching Web Quest for student English teachers as part of an ELT Curriculum course that was mostly delivered in a face-to-face learning setting. This Web Quest's design is detailed, as well as some qualitative findings from its deployment.

Аннотация: Веб-квесты — это онлайн-метод преподавания и обучения, ориентированный на студента. Они основаны как на ресурсах, так и на действиях. Обсуждается структура веб-квеста и подчеркиваются определенные качества. Это было использовано в качестве отправной точки для создания веб-квеста по культурному обучению для студентов-преподавателей английского языка в рамках учебного курса ELT, который в основном проводился в условиях

очного обучения. Подробно описан дизайн этого веб-квеста, а также некоторые качественные результаты его развертывания.

Key words: method , web quest, methodological , monoproject, problematic task.

Introduction: One of the tasks of modern education is to increase the diversity of types and forms of organization of educational activities by the pedagogical system of organization of educational activities, which can significantly increase the educational opportunities of students, make a choice and implement an individual trajectory. In open educational space. The 21st century requires new approaches to education.

Information technology is helping to create a new learning environment in which students are able to take more responsibility for their own learning and the accumulation of their own knowledge. Teachers have already gained some experience in using Internet resources in organizing students' independent work. First of all, this is the use of the Internet in the performance of individual and group research work. This way of integrating the Internet into foreign language teaching is called a web quest. A web quest in pedagogy is a problematic task with elements of a role-playing game, for the solution of which information resources of the Internet are used. The web quest is the most difficult for both the students and the teacher. The web quest is aimed at developing the skills of analytical and creative thinking among the trainees; a teacher creating a web quest must have a high level of subject, methodological and infocommunication competence.

A feature of web quests is that part of the information or all of the information presented on the site for independent or group work of students is actually located on different sites. Web quests can cover both a separate problem, subject, topic, and be interdisciplinary, B. Dodge identifies three principles for classifying web quests:

By duration of execution: short-term and long-term.

By thematic content: monoprojects and interdisciplinary web quests.

By the type of tasks performed by students: retelling (tasks for retelling), compilation (tasks for compiling), riddles (tasks-riddles), journalistic (journalistic tasks), design (tasks for design), creative (tasks for a creative work), solution controversial tasks (tasks for reaching consensus), persuasive (tasks for persuasion),

self-knowledge (tasks for self-knowledge), analytical (analytical tasks), evaluative (tasks for judgment), scientific (scientific tasks).

The webquest should have the following structure:

Introduction (formulation of the topic, description of the main roles of participants, scenario of the quest, work plan or overview of the entire quest);

central task (task, questions to which students must find an answer within the framework of independent research, what end result should be achieved);

a list of information resources (tools that can be used to complete tasks, including Internet information resources);

description of the main stages of work; a guide to action (various tips on how to perform a particular task, "preparations" of web pages for reports, recommendations on the use of information resources, etc.); conclusion (research results, questions for further development of the topic, etc.).

Web quests can be used in language learning:

- In various academic disciplines created for native speakers.
- for learners of foreign languages.

The use of web quests and other tasks based on Internet resources in language learning requires the student to have an appropriate level of language proficiency to work with authentic Internet resources. In this regard, the effective integration of web quests into the process of teaching a foreign language is possible in cases where the web quest:

a creative task that completes the study of the topic;

is accompanied by educational lexical and grammatical exercises based on the language material of authentic resources used in the web quest. The implementation of such exercises can either precede the work on the quest, or be carried out in parallel with it. The topics of web quests can be very diverse, problematic tasks may differ in degree of complexity.

The results of the web quest, depending on the material being studied, can be presented in the form of an oral report, computer presentation, essay, web page, etc.

Advantages:

- web quests give the teacher a clear model for conducting project work.

- The model of working with web quests is used by many educators in different countries, so you can find a lot of interesting developments on the Web.
- there are templates on the Internet that can be very useful for teachers who want to create their own web quests, various tasks suitable for the proposed technology, a lot of methodological advice for teachers.
- the teacher provides a list of sites that students use when completing the project.

One of the main reasons why you should use Web Quest technology when teaching foreign languages is that many students will be happy to use this technology to improve their language skills. Difficulties and problems. In reality, of course, the picture is not so rosy, and there are many difficulties: to complete the project, students must have access to the network; web quest technology requires a certain level of computer literacy from children and adults; slow internet can limit the type of resources you download (for example, video); many web quests that can be found on the Internet are created abroad, so they need to be adapted to specific learning conditions. Web Quest structure.

Conclusion: Web quests have been used for a long time and have acquired a clear structure. However, it is not something frozen and is used only as a basis, which can be changed if necessary. Teachers can design the quest according to the level and needs of the students. Usually the quest is divided into four main sections: Introduction, Assignments, Completion, Evaluation. Thus, having studied the possibilities of using web quest technology, we can draw the following conclusions. The web quest technology is universal in nature and can be used to develop competence in the field of independent cognitive activity, based on the development of ways to acquire knowledge, skills and abilities from various sources, this technology allows both to replenish students' knowledge and to systematize them. existing. Technology can stimulate the cognitive activity of students, as it is a new, diverse form of work that allows not only the student, but also the teacher to prove himself as a creative person, and, therefore, is necessary in the modern educational process.

References

1. AbiSamra, N. "Teaching Culture: Strategies and Techniques." 2001.

2. <<http://nadabs.tripod.com/culture/>> (1 March, 2006).
3. Benz, P. “Web quests, a Constructivist Approach.” 2001. <<http://www.ardecol.ac-grenoble.fr/english/tice/enwebquests.htm>> (2 October 2005).
5. Cullen, B. “Practical Techniques for Teaching Culture in the EFL Classroom.”
6. Internet TESL Journal. 2000 6, 12. <<http://iteslj.org/Techniques/Cullen-Culture.html>> (1 March 2006).
7. Dudeney, G. “The quest for practical Web usage”. TESL-EJ, 2003, 6,4.
8. Dudeney, G. The Internet and the Language Classroom. Cambridge University Press.

BUGUNGI TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIGA PSIXOLOGIK MUHITNING TA'SIRI

O'telbayeva Nigora Aybekovna
Qo'ng'iro't tumani 10-maktab psixologi

Ma'lumki, pedagogik faoliyatning tuzilishi o'qituvchining o'z iga xosligi faqatgina uning har tomonlama pedagogik faoliyatidagi fazilatlari bilan bog'liqdir. O'qituvchi faoliyati o'z aro komponentlardan iborat. Pedagogik faoliyatning 3 komponenti farqlanadi: konstruktiv, kommunikativ va tashqilotchilik. Konstruktiv komponenti. O'qituvchining ishida konstruktiv dars katta o'rin egallaydi, ya'ni sinfdan tashqari ishlar maktab dasturlari bilan bog'liq o'quv materiallarni ta'lim oluvchilar uchun turli metodik ishlanmasi va uni ta'lim oluvchilarga ifodasini qamrab olgan. Ushbu barcha ishlar dars konspekti tarkibida o'z ifodasini topadi, ya'ni: o'z faoliyatining tartibi va tizimi ta'lim oluvchilarning faoliyat tartibi va tizimi. Ayni vaqtda pedagogik faoliyatning ushbu komponenti maktab oldida turgan asosiy vazifasi o'sib kelayotgan avlodning faol fuqarolik holatida tarbiyalash o'qituvchi shaxsiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga intilishi

kerak, buning uchun esa u eng qiyin nazariy savollarni oson o'zlashtirilishi uchun o'quv materialni tanlash va qayta ishlashi lozim. Birinchi navbatda ta'lim oluvchilarning faoliyati faol bo'lmasa, chuqur bilim va o'zlashtirish jarayoni amalga oshirilmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi. Bu jarayonda ta'lim qanday mavqega ega? Ta'lim rivojlanishga nisbatan yetakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qilinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv darajalari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi. Bu borada nemis psixologi V.Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab, beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga, xalaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak. Shveytsariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g'oyalar bilan yug'rilgandir. J.Piajening fikricha, bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim - bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yetilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlari pishib yetiladigan muayyan yoshidan qat'iy nazar bogliqligi ana shundan kelib chiqadi. Ta'kidlash joizki, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug'ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin, ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish

bilan bir vaqtda o'z i rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsada, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U olg'a surgan psixik funktsiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi. E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: «Bola taraqqiyotini hech mahal maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas», - deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lmagan jarayonlardir, degan yunalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.P.Blonskiy ta'limning bola taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri maktab dasturi mazmuniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Yosh va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatlari ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi. Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi, uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rni) orqali ifodalanadi. Status negizida doimiy o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funktsiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo'nalganlik shaxsni faollashtiradi. Status,rol, qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl- uning jamiyatdagi hayot yo'li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi. Individ, shaxs va sub`ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e'tibor qilishi zarur: - inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari); -insoning o`ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari,

mexanizmlari, evolyutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyutsiya; -inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar, Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki, faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallash interiorizatsiya va eksteriorizatsiya amalga oshadi. Odamning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati protsessida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatining funksional sistemasi protsesslari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, kishining sotsial tajribalarini o'zlashtiribgina qolmay balki o'zining idroki, tafakkuri, xayoli, hissiyotlari va irodasini bir so'z bilan aytganda, voqelikka bo'lgan ongli munosabatini hamda o'z harakatlari va xulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi. Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xattiharakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma'lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo'lgan hamda shartli ravishda to'rtta o'zaro mustahkam bog'langan funksional bosqichlarga birlashtiriladi: Birinchisi - boshqaruv tizimi; Ikkinchisi - stimullashtirish tizimi; Uchinchisi - stabilizasiyalash tizimi; To'rtinchisi - indikatsiyalash tizimi. Shaxsning ana shu sotsial ahamiyatga ega bo'lgan barcha sifatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi Birinchi tizimi hosil bilishida analizatorlar shaxsning hulq-atvori va xattiharakatlarini belgilaydi. O'rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar katta rol o'ynaydi. Biroq, bu ilgari yuqorida ta'kidlab, o'tganimizdek ontogenez protsessida filogenetik analizatorlar o'rtasidagi aloqa vaqtli aloqalar bilan organik jihatdan qishilib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida pertseptiv tizimiga o'tib ketadigan yuksak darajada integratsiyalangan ma'lum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko'rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot-faoliyati jarayonida o'zaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensorpertseptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratadi. Insonning sensor-pertseptiv jihatlari doimo takomillashib boshlagan ilmlarining dastlabki yillaridayoq shakllana boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik.- M.:Aspekt Press, 2009.- 376s.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2019.1-2 kitob.
3. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2012
4. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2011.

UMUMTA`LIM MAKTABLARIDA O`QUVCHILARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA OILA PSIXOLOGIYASI FANINING O'QITILISHI

Yusupova Ziyada Baxitbayevna
Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani 14-maktab psixologi

Mamlakatimizda keying yillarda amalga oshirilayotgan barcha isloxotlar inson qadr qimmatini yuksaltirish, ayniqsa yoshlarimizning yuksak ma`naviyatli shaxs sifatida ulg`ayishi, har tomonlama kamol topishi uchun qulay shart sharoitlar yaratishga qaratilmoqda. Shuningdek, jamiyatimizning asosi - oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa yosh oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog'lom oilani shakllantirish borasida mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Har bir yigit-qiz qanday kasbni egallashi, xarakteridan qat'iy nazar kelgusida oila qurishga, baxtli bo'lib yashashga intiladi. Mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarining har tomonlama uyg'un rivojlanishi, kelgusida baxtli oila qurishi, er va xotinning tinch-totuv yashashi ko'p jihatdan bolalarni yoshlikdan oilaviy hayotga tayyorlashga, ularda ijobiy odat va ko'nikmalarni qaror toptirib borishga bog'liq. Shu sababdan umumta`lim

maktablarida o`quvchi yoshlarda psixologik munosabatlarni bilishi, insonni o`ylashga, mushohada yuritishga, o`zligini anglashga yordam beribgina qolmay, bir insonning boshqasi tomonidan xolisona idrok etilishini ham o`rgatib borish dolzarb muammolardan biridir.

Sababi hozirgi kunda umumtalim maktablarini tamomlagan o`quvchilar oiladagi munosabatlarga u darajada yetarli ko`nikmaga ega bo`lmay, o`z oilasidagi muhitga moslashib, kelajagiga ham to`laqonli anglab yeta olmaydilar.

Umumta`lim maktablarida "Oila psixologiyasi" fanini o`qitish tizimi joriy etilsa, o`quvchi yoshlarda oila tushunchasi, oiladagi shaxslararo munosabatlarni ta`minlashga va shu bilan birga oilada tinchlik, xotirjamlik, baxt va saodat barqaror bo`lishi mumkinligini, bir-biriga to`g`ri psixologik yondashuv shaxsni hurmat qilishni ta'minlab, er-xotinni, xotin-erni, qaynona kelinni, kelin o`z navbatida oilaning barcha a'zolarini, kattalar kichiklarni e'zozlashni o`rganib boradilar. Bir necha shaxsning bir vaqt va makonda birga yashashini ta'minlovchi sog`lom falsafani shakllantiradi.

O`quvchi yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashdan maqsad o`quvchilarga oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli ko`nikma va malakalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni muhim masala sifatida qo`yishni taqozo etadi.

Oila psixologiyasi fanini umumta`lim maktabi o`quvchilariga o`qitishda quyidagi vazifalarni ta`minlash maqsadga muvofiqdir:

- oila psixologiyasi fani, uning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berish, oilaning ijtimoiy kelib chiqish tarixi, uning turlari bilan tanishtirish;
- o`quvchi yoshlarni oilani muqaddas bilishga o`rgatish orqali ularni ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- oilaning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari bo`yicha tushunchalar hosil qilish;
- o`quvchilarda shaxsning shakllanishida oilaning roli haqida tasavvur hosil qilish;
- yoshlarning oila mustahkamligini ta'minlovchi bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirish;
- yoshlarni oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berishga, destruktiv yo`nalishlardan saqlanishga o`rgatish;

- yoshlarda muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona chiqish malakalarini shakllantirish;
- yoshlarni jinsiy hayotga ilmiy asosda tayyorlash;
- yoshlarni oilani rejalashtirishga o'rgatish.

Bu o'rinda haqli ravishda: «Bu fan bizga nima beradi? Nega endi aynan hozirga kelib, bizni oilaviy hayotga tayyorlash zarur bo'lib qoldi? Axir ota-bobolarimiz bunday kurslarni o'qimay ham tinch-totuv, ahil-inoq, baxtli hayot kechirishgan-ku? Aksincha so'nggi yillarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida qanchalik ko'p gapirib, yozib, maxsus tadbirlar tashkil qilinsa ham nizoli oilalar, ajralishlar miqdori ortsa ortayaptiki, kamaymayapti-ku?» - kabi savollar ro'yxatini cheksiz davom ettiraverish mumkin. Ularning har birining yuzaga kelishiga asos bor.

Xo'sh, qanday zarurat hozirgi vaqtda yoshlarimizni oilaviy hayotga tayyorlash va ularga «Oila psixologiyasi» fanining o'qitilishi zarurligini taqozo qiladi?

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdodlarimizda kuzatilgan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va unda-gi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Yoshlarimizda bu masala bo'yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun, bundan 90-100 yillar oldingi ularning tendoshlari va bugungi kunlarimizdagi 15-16 yoshli yigit-qizlar o'rtasidagi tafovutlarni solishtirib o'tamiz.

Maxsus adabiyotlarda yozilishi va o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko'ra ularning jinsiy, fiziologik balog'atga yetishi 2-3 yilga ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog'atga yetish davri 15-16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12-13 yoshlarga to'g'ri keladi. Endi shu yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlik jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ilgarigi tengdoshlaringiz 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo'lmish jinsiy yetuklikka, balog'atga yetar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bo'lalarni odatda, 13-14 yoshidan shogirdlikka berishgan), o'sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayon-lar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilmagan, 3-4 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshida o'zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o'z ishini uddalay oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigandek bo'lsa, o'z hunari orqali mehnat qilib, o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigit mahalla-ko'yda, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy yetuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbir va marosimlarda uning haqli ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga yetganligi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Bu jarayon shaxsning oldiga oila va jamiyat ol-dida o'ziga xos mas'uliyat yuklagan, mas'uliyatni his qilish esa uning psixologik yetukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Endi shu xususiyatlarni bugungi kun yoshlarida ko'rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarda jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar (bu haqda keyinroq to'xtalib o'tamiz), biroq ular biror-bir kasb-hunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab, o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun, avvalo maktabni bitirishi, so'ng u yoki bu kasb-hunar kolleji yoki litseyda o'qib, biror-bir kasbni egallashi kerak.

HISSIYOTLARNI BOSHQARISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Sharipova Yulduzoy Latipovna

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 35-maktab psixologi

Hissiyot – Shaxsning narsa va hodisalariga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmalaridir.

Shaxs tirik mavjudod bo'lishi bilan birga jamiyat a'zosi hamdir, shuningdek yakka inson sifatida tevarak-atrofdagi narsa va xodisalarga munosabatini xolisona aks ettiradi. Inson munosabatlari uning miyasida his-tuyg'ular, emotsional holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks ettishi hissiyotni tushunchasi o'rniga sezgilar, anglanmagan mayillar, xohishlar, tilaklar, talablar, maqsadlar atamalaridan foydalaniladi.

Hissiyot bilan emotsiyalarni bir xil ma'noda ishlatish holatlari ham bo'lib turadi. Kishi tana a'zolarida ranglarning o'zgarishi, lablarning titrashi, kulgi, yig'i, g'amginlik, ikkilanish va boshqa emotsiya ifodasi hisoblanib, Vatanparvarlik, javobgarlik, mas'uliyat, vijdon, sezgi kabi yuksak xislatlarni emotsiya tarkibiga kiritish g'ayritabiiy hodisa hisoblanar edi. Ushbu hissiy kechinmalar o'zining mohiyati, kuch-quvvati, davomiyligi ta'sirchanligi, yunalganligi bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Shu bois ularning muhim farqi shundaki birinchisi (*hissiyot*) ijtimoiy, ikkinchisi (*emotsiya*) xususiy ahamiyyat kasb etadi.

Kishi biron narsani idrok va tasavvur qilganda, eslab qolganda va esga tushirganida, fkr qilganida va gapirganida hamda harakat qilganida biror yoqimli yoki yoqimsiz holatlarni kechiradi. Bu kechinmalarda odamning o'z atrofidagi narsalarga, xodisalarga, odamlarga va o'ziga nisbatan subyektiv munosabati hisoblanadi. yoqimli yoki yoqimsiz kechinma hissiyotning birinchi belgisidir.

Voqelikning ayrim hodisalari kishini quvontiradi, ayrim xodisalar xafa qiladi. Ba'zi hodisalarga kishi qoyil qoladi, ba'zi hodisalardan g'zablanadi, ba'zi hodisalardan jahli

chiqadi, ba'zi hodisalardan qo'rqadi. Xursandlik, xafalik, qoyil qolish, g'azablanish, qahr, qo'rquv va shu kabilarning hammasi hissiyotlarimizning xilma-xil turlaridir.

Yoqimli kechinmalarda odamlarning voqelikdagi ayrim narsalarga, hodisalarga va o'ziga nisbatan ijobiy munosabati ifodalanadi. yoqimsiz kechinmalarga esa odamning salbiy munosabati ifodalanadi.

Shuning uchun ham subyektiv kechinmalardan iborat bo'lgan hissiyotlar ijobiy va salbiy hissiyotlar deb ataladi. Hissiyotlarni boshqarish qobiliyati har qanday odam uchun juda muhimdir. Birinchidan his-tuyg'ular ko'pincha noto'g'ri joyda va noto'g'ri vaqtda paydo bo'ladi. Ikkinchidan bizning his-tuyg'ularimiz atrofimizdagi odamlarga zarar yetkazishi mumkin. Uchinchidan, agar his-tuyg'ularga duchor bo'lsak bizda bir narsaga diqqatni jamlash ancha qiyin bo'ladi. Haddan tashqari his-tuyg'ular dam olishni qiyinlashtiradi. Hissiyotlarni boshqara olish, odob-axloqli kishining belgisidir. Bunday kishilarga hissiyotlarni boshqarish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Buni o'zimiz hayotimiz davomida ham ko'rishimiz mumkin.

Hissiyotni yoki his-tuyg'ularni targ'ib qiladigan va rag'batlantiradigan harakatlariga qarab, ijobiy yoki salbiy deb tasniqlash mumkin.

Ijobiy his-tuyg'ular-bu farovonlik keltirib chiqaradigan va turli xil axloqiy, oilaviy, ijtimoiy qadryatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan tuyg'ulardir. Ba'zi ijobiy his-tuyg'ularga quvonch, muhabbat, hayrat, baxt, sevgi, minnatdorchilik, mamnuniyat, optimism, tinchlik, totuvlik va boshqalarni misol qilsak, boshqa tomondan salbiy hissiyotlar yoki his-tuyg'ular-bular noqulaylik, norozilik, xafalik, nafrat, hasad, qasos, og'riq yoki hasadni keltirib chiqaruvchi his-tuyg'ulardir. Ushbu his-tuyg'ular insonning kayfiyatidan tashqari uning sog'lig'iga ham ta'sir qiladi.

Ayibdorlik hissi-bu odamga zarar yetkazgan ayib yoki xatoga yo'l quyganligi sababli og'riq yoki qayg'u tug'diradigan salbiy hissiyotdir. ayibdorlik hissi doimiy ravishda qilingan xato va sabab bo'lgan yomonlikni ta'kidlaydi. Hissiyot orqali tanamizni bizga nima demoqchiligini tushunishga harakat qilishimiz kerak bo'ladi.

Hayotimizfagi har bir voqea yaxshi va yomon ekanligidan qattiy nazar, biror kattaroq maqsadga xizmat qiladi. Aqilli inson hozirgi vaziyatni anglaydi va oqibatni tasavvur qiladi. Salbiy hissiyotlar juda ta'sirli ular bizni nazoratga olib, yuzimizda va

harakatlarimizda namoyon bo'lishga intiladi. Salbiy hissiyotlar vujudga kelganda biz ijobiy fazilatlar bilan javob qaytarishga harakat qilishimiz kerak. Fkirlarimiz salbiy hissiyotlar ta'siriga tushib qolsa, hayotimizdagi biror yaxshi voqeani yoki bizga dalda bo'ladigan insonni eslashimiz kerak. O'rganilgan mavzular yuzasidan berilgan topshiriqlar ham ijtimoiy ko'nikmalarni amalyotda qullay olish, tuyg'ularni farqlash va ifodalay olishga yo'naltirilgan. Zero, hissiyotlarimizni shunchaki bostirmasdan ularga quloq solish, ularni anglash, boshqarish, yetuk insonga aylanish yo'lidagi eng muhim qadamlardir. Hayotda har xil vaziyatlar bo'lishi mumkin bo'ladi.

Masalan: quvonchli va qayg'uli kunlar ham bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda inson hissiyotlarni boshqarishni o'rganish kerak. «Hissiyotlarga emas, aqlga tayanib ish qilish kerak» degan gaplarni eshitamiz.

O'ta quvonganda yoki juda hafa bo'lganda qaror qabul qilmaslik kerak. Hissiyot biz idrok qilayotgan, tasavvur qilayotgan va fkr qilayotgan hodisalar va rasavvurlar, shuningdek bizning harakatlarimiz va qiliqlarimiz ta'siri bilan tug'iladi.

Shunday qilib hissiyotlarning manbalari, bir tomondan, bizning ongimizda aks etayotgan tevarak-atrofdagi voqelik bo'lsa, ikkinchi tomondan, bizning ehtiyojlarimizdir. Hissiyotlarning faollik darajasi kishidagi qo'zg'alish va kuchlanish holatida yoki kishidagi hamma kuchlar g'ayratga kirgan holatda, yoxud bu kuchlar zaiflashgan va bo'shashgan holatda namoyon bo'ladi. Hissiyotlarni mana shu faollik darajasiga qarab, ular stenik va astenik hissiyotlarga bo'ladi.

Kishining hayotiy faoliyatini oshiradigan, g'ayratini orttiradigan hissiyotlar stenik hissiyotlar deb ataladi.

Masalan: nihoyatda xursandlik, g'zablanish hislari stenik hissiyotlar qatoriga kiradi. Kishining hayotiy faoliyatini pasaytiradigan, g'ayratini susaytiradigan hissiyotlar astenik hissiyotlar deb ataladi.

Masalan: G'am-g'ussa, mayuslik, afsuslanish kabi hissiyotlar manashunday astenik hissiyotlardir.

Emotsiyanal kechinmalar vaqtida nafas olish ham o'zgaradi. ayrim kechinmalar vaqtida nafas olish tezlashadi, ayrim kechinmalar vaqtida esa nafas olish susayadi.

Shuningdek ovqat hazm qilish jarayonlari va ichki sekritsiya bezlarining faoliyati ham o'zgaradi. Emotsiyanal jarayonlar butun organzmning faoliyatiga ta'sir qiladi. Odamdagi hissiyotning fiziologik asosi avvalo, bosh miya po'stida sodir bo'ladigan jarayondir. Bosh miya po'ti hissiyotlarning kuchli va barqarorligini idora qilib turadi. Yuksak hislar tufayli odamning tabiiy hislari ham ma'naviy tus oladi: bu hislar intellkt hislar ma'naviy hislar e'tetik hislarni ham o'z ichiga oladi. Odamlarning aqliy faoliyati bilan bog'liq hislar inteliktual hislar deb ataladi. Bilishga qiziqish, taajjublelanish va hayron qolish hislari, ishonch, ishonchsizlik va shubxalanish intellektual hislar qatoriga kiradi. Bunday hissiyotlar har xil nazariy va amaliy savollar tug'ilganida, kashfiyot va oxtirolar qilinayotgan chog'da biror yangilikni bilish chog'ida paydo bo'ladi.

Odam o'zlari yashab turgan jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy tamoyillarni ado etishlari yoki buzishlari sababli odamlarda paydo bo'ladigan hislar ma'naviy yoki axloqiy hislar deb ataladi. Ma'naviy hislar axloqiy ongning eng umumiy asosiy qismi hisoblanadi. Axloq tushunchalarida elat, millat, jamiyat axloqining tarixi, buguni va uning kelajak yo'nalishlarini ham o'z ifodasini topadi. Axloq–odob qoidalari, urf–odatlar dunyoning turli xalqlarida turlicha bo'lishiga qaramay. Axloq tushunchalarini tushunishda umumiylik bor. Jamiyatning axloqiy yuksalishi insoniyatning manfaatlarini va ideallarini ifodalaydi. Odamlar chiroyli narsani ko'rganlarida, shu narsalarni tasavvur qilganlarida va ular to'g'risida fkr yuritganlarida ularda paydo bo'ladigan ijobiy hislarni estetik hislar deb ataymiz. Bizni qurshab olgan dunyo va undagi turmush hilma–xil namoyon bo'ladi. Shu sababli odamning hislari mazmuning boyligi bilan farq qiladi. Atrofimizdagi tabiat estetik hislarning birinchi va asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Quyoshning chiqishi va botishi, atrofdagi tog'larning kuzatish, daraxtzorlar oralab yurish, daryolarni ko'rganda inson g'oyat huzur qiladi. Bahor, yoz, kuz va qish faslidagi tabiat manzaralarining o'zgarib jilva qilib turishi estetik hislarni tug'diruvchi manbadir. san'at, musiqa, tassomlik, poeziya va shu kabilar ham esterik hislar manbaidir. San'at asarlari odamlarning ongiga asosan estetik hislar orqali ta'sir qiladi.

Emotsiyanal kechinmalar va holatlarning hamma turlari har bir kishiga xosdir. Lekin ayni vaqtda har bir kishining emotsiyanal hayoti o'ziga xos hususiyatlarga ega. Shunday odamlar borki, ularda hislar sekinlik bilan tug'iladi, o'rcha kuch bilan o'tadi

va barqaror bo'ladi. Bular «Bir maromdagi», «Osoyishta odamlar». Shunfay odamlar borki, ularda hislar tez paydo bo'ladi, kuchli ravishda o'tadi va barqaror bo'lmaydi. Bular «serharakat, qizg'in, jizzaki» odamlardir. Ba'zi odamlarda biror favqulotda voqealar natijasidagina, ochiq ifodalangan hislar tug'ilishi, aksincha ba'zi odamlarda arzimagan biror–bir narsa kuchli emotsiyalari bujudga keltirishi mumkin. Bunday kishilarda shok va afektlar holatlari tez paydo bo'ladi.

Bizning psixik hayotimizda hislar alohida o'rin tutadi. Hislar bo'lmaganda edi bizning idrok qilishimiz, xotira, tafakkur, tasavvur jarayonlarimiz nursiz, jonsiz bo'lib qolar edi. Hislar fantiyamizni ishga solidi, xotiramizdagi narsalarni ko'z oldimizga tez keltiradi. Hislar fikrlarimizni yorqin va jonli bo'lishini ta'minlaydi. Hislar nutqimizni burro qiladi. Hislar inson hayotining mazmunini boyitadi. Ammo kishining xayotida turli hislar turlicha ahamiyatga ega bo'ladi. Ijobiy hislar Masalan: xursandchilik, ruxlanish, bizning hayotiy, ijodiy faoliyatimizni oshiradi. Aksincha, salbiy hislar esa ishchanlik faoliyatimizni pasaytiradi.

Masalan: Xavotr, g'amginlik, tashvish, mayuslik, o'z kuchiga ishonmaslik mana shunday salbiy hislardir. Hislar odam faoliyatining hamma turlarida katta rol uynaydi. O'yish, o'qish va o'rganish hamda mehnatni jonlantiradi va faollashtiradi. Hislar zaif bo'lganda odamning faoliyati bo'shashib ketadi. Yaniy odam lanch bo'lib qoladi. Mehnatda ham hislarning ahamiyati kattadir. Ijobiy emotsiyonal holatda ishlayotgan kishining mehnati sermaxsul bo'ladi va kishini kamroq charchatadi. Mehnatdagi xursandlik va ruxlanish yangilik hissi o'rtoqlik va do'stlik hissi, milliy iftixor hissi, vatanparvarlik hissi kishilarimiz hayotining mazmunini tashkil etadi.

Inson doimo qiyin vaziyatlarda tushib qolganda ham hissiyotlarni boshqarishni bilish ko'nikmalarini rivojlantirish kerak bo'ladi.

Jamiyatga nisbatan yuksak ijodiy hislarni o'stirish tosh avlodning juda muhm vazifasidir.

O'QUVCHI – YOSHLAR O'RTASIDA SUITSID HOLATLARINI OLDINI OLISH VA KORREKSIYA QILISH

Xaytboyeva Nargiza
Xorazm viloyati Gurlan tuman 16-maktab psixologi

Maktab o'quvchilarining ijtimoiy-psixologik muammolarini o'rganish va ularni bartaraf etish maqsadida ulardan turli xil proyektiv metodikalar va treninglar o'tkazish orqali bu muammolardan xalos bo'lamiz deb o'ylayman.

Bunga ko'ra 1-4-sinflarga "KAKTUS".metodikasi olinsa bo'ladi.Bu metodika yordamida o'quvchilarning emotsional sohasini ko'rish mumkin. Tajovuzkorlik mavjudligini, uni yo'nalishini, intensivligini va boshqalarini aniqlash mumkin.Eslatmoqchimizki, diagnostikada grafik metodikalar, klassik testlar va psixolgiyaning asosiy metodlari bilan birgalikda kompleks ravishda qo'llaniladi.Diagnostika usullarini birgalikda qo'llash sinaluvchini birga hamkorlikda ishlashga yo'naltirish,shaxsning umumiy xarakteristikalarini olish ,ehtimoli bo'lgan muammolarni belgilash va boshqa testlar yordamida olingan natijalarni tasdiqlash imkonini beradi.

Diagnostika o'tkazish jarayonida sinaluvchiga A4 formatidagi oq qog'oz va oddiy qalam beriladi.SHuningdek Lyusher testidagi 8 xil rangdagi qalamlardan ham foydalanish mumkin,bu holatda natijalarni taxlil qilishda Lyusher testing mos ravishdagi ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

Ko'rsatma:

O'quvchilarga kaktus gulini qanday tasavvur qilsangiz, oq qog'oz varag'ida huddi shunday kaktus rasmi chiziladi.Savollar berish va qo'shimcha tushuntirish mumkin emas.Natijalarni qayta ishlash jarayonida barcha grafik metodlarga xos bo'lgan ma'lumotlar inobatga olinadi, rasmning fazoviy joylashishi va razmeri,chiziqlar xarakteristikasi,qalamni bosib yozish kuchi,bundan tashqari aynan ushbu metodikaga xos bo'lgan quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinadi: kaktus obrazi xarakteristikasi, yovvoyi, xonaki,soda ,oddiy ignachalar xarakteristikasi,

kattaligi, joylashuvi, miqdori. Rasmda sinalluvchilarning quyidagi sifatlari namoyon bo'lishi mumkin;

TAJOVUZKORLIK-ignachalarning mavjudligi. Kuchli bo'rtirib chiqib turgan, uzun bir-biriga yaqin joylashgan ignachalar yuqori darajada tajovuzkorlikni ifodalaydi.

IMPULSIVLIK-chiziqdagi uzulishlar, kuchli bosim bilan chizish.

EGOSENTRIZIM-liderlikka intilish varaqning markazida joylashgan kata rasm.

O'ZIGA ISHONCHSIZLIK TOBELIK – varaqning quyi qismida joylashgan kichik rasm.

NAMOISHKORLIK, OCHLIK -kaktusda bo'rtib chiqqan o'simtalarning borligi, shaklning jimjimadorligi.

YOPIQLIK, EXTIYOTKORLIK -kaktus konturi bo'yicha yoki ichida zigizaglarning joylashuvi.

OPTIMIZIM – yorqin ranglardan foydalanish, xursand kaktuslarni yaratish.

HAVOTIRLANISH – qora ranglardan foydalanish, uzuk-uzuk chiziqlar yordamidagi shtrixovkalarining ko'pligi.

AYOLLIK XUSUSIYATLARI – bezaklarning, gullarning, yumshoq chiziq va shakllarning borligi.

5-7-sinf o'quvchilariga “FIL” rasmi testi metodikasi o'tkazilsa

bo'ladi. Bunga ko'ra bu metodikada o'quvchilarning jismoniy axloqiy va emotsional holatini baholash imkonini beradigan diagnostikaning turli metodlari mavjud. Shunday metodlardan biri “FIL” nomli rasmi metodika yordamida o'quvchilarni tadqiq qilish mumkin. Tadqiq qilinmoqchi bo'lgan o'quvchiga bir varaq oq qog'oz beriladi va fil rasmini chizish so'raladi. Daraxt rasmini chizayotib o'quvchi o'z hayotini u bilan ifoda qilganidek, FIL rasmini chizayotib, ham o'zini o'z muammolarini va hayotda bo'lgan o'z qarashlarini ifodalaydi.

Agar filning qulog'i, ko'zi, og'zi, xartumining uchi va umuman sezgi organlari bilan bog'liq tomonlarini hammasi aniq chizilgan bo'lsa, demak, ushbu rasmni chizgan o'quvchi hayotda yetarlicha sezgir, uni ko'ra olish va eshita olish qobiliyatiga ega hisoblanadi.

Sezgi organlari, shu jumladan, xartumi chizilgan, lekin etiborsizlik bilan chizilgan .Eng muhim qisim, ya'ni filning oyog'ida tirnoqlari yo'q.Bu shundan dalolat beradiki, bu o'quvchi pala-partish, tartibli emas ,puxta emas, hayot sifatiga alohida e'tibor bermaydi,hayotda kichikroq narsalarni ko'rmaydi.Agar oyoqlar ham etiborsizlik bilan chizilgan bo'lsa , bu shundan dalolat beradiki, bu o'quvchi asosli o'ylamaydigan o'quvchi hisoblanadi. Rasmning tashqi ko'rinishi mantiqiy praporsional,haqiqiy filni umumiy ko'rinishi bilan mos kelsa demak, rasmni chizgan o'quvchida mayor xissi bor,hayotda kompleks yondasha oladi, garmoniya nima ekanini biladi. 4ta oyog'i ham bir xil uzunlikda bo'lsa bu o'quvchining hayotda yetarlicha mustahkamligidan asosan faqat o'ziga ishonishiga odatlanganidan va o'zini ishonchli hamda turg'un xis kelishidan dalolat beradi. Filning boshi dumoloq umuman rasmda bunday dumoloqliklar ko'p.Dumoloqlik ayollik prinsipidagi energiyaning borligidan dalolat beradi.Dumoloqlik ochiq ko'ngillilik ham hisoblanadi.

Katta yuqoriga qayrilgan dandon tishlar odamni o'zini himoya qilish imkonyati va shunga tayyorgarligini ko'rsatadi.Agar dandon tishlar chizilgan bo'lsa,lekin kichkina va yuqoriga qayrilmagan bo'lsa bu rasm chizgan o'quvchining tajovuzkor emasligini bildiradi.Filning boshi bo'yinga o'tayotgan joyida ya'ni boshni orqasida chuqurcha mavjud.Agar bu chuqurcha yaqqol ifodalangan bo'lsa demak, rasm chizgan o'quvchining ko'ngli nozik, u hayotda ko'p narsalarni unutishni hojlagan bo'lardi.Filning dumi va xartumi pastga tushgan,odatta bu fikirlovchi-xomush, yuvosh xarakterni ifodalaydi.Lekin bu bilan birga rasmda har xil aylanalar va to'lqinlik bo'lsa ,tasavvur qilish mumkinki rasm muallifi kayfiyatini o'zgartirib turishga moyil. Quloqlar tinch holatda ifodalangan bo'lsa ,johil yoki nevroz xarakter to'g'risida xulosa qilishga asos bo'ladi.Agar filning quloqlari yuqoroga ko'tarilgan bo'lsa ,rasm muallifi doim xavfsirash holatida, u hayotdan fitnalar va nohushliklarni kutadi.Agar fil quloqlari yuqoriga ko'tarilgan dandon tishlari ko'tarilgan dumi cho'zilgan, xartumi yuqoriga qayrilgan holatda chizilgan bo'lsa demak o'quvchi ortiqcha nevrozlik va tajovuzkorlikga ega uni tinchlantirish unga hayot har doim ham jungle emas,har doim ham ortiqcha

safarbarlikni namoyon qilish zarur emas degan fikrni singdirish kerak. Filni rasmini chizgan o'quvchi faqatgina o'zini rasmini chizgani yo'q u qog'ozda o'zini muammolarini namoyon qildi. Siz ularni ko'rar ekansiz o'quvchilarga hayotda to'g'ri yo'l tanlashiga yordam berasiz.

8-10-sinf o'quvchilariga “QORONG'LIKDAGI SHIVIRLASH” metodikasi o'tkazib ko'rilsa, maqsadga muvofiq kelishi mumkin. Bunda bu metodika asosan katta sinflarga to'g'ri keladi, o'quvchilarni og'ir vaziyatlardan chiqib ketishiga ham yordam beradi. Ularga metodika boshida quyidagi gaplar bilan boshlanadi:

Siz ko'rshapalaklarni o'ylaganda nimani tasavvur qilasiz?

Faraz qiling, qorong'u g'or ,tungi osmon va mahluq vampirlar. Ko'rshapalaklarni qo'rqinchli va dahshatli deb tasavvur qilsak ham, ularning sirli tamonlari ham bor. O'zlarining qanotlariga qaramay ko'rshapalaklar ham biz kabi sut emuzuvchilar va o'z bolalariga mehr va muhabbat bilan qaraydilar. Ular shunchalik dahshatli bo'lsa ham, bizlardan farqlanib, ko'rshapalaklar jamiyati tinchlik tarafdori bo'ladi. SHuning uchun ham boshingiz ustida ko'rshapalak uchub qolsa, shuni bilingki u ham qo'rquv va dahshat bilan qarab , siz xis qilgan narsani xis qiladi.

Faraz qiling siz chuqur g'orda adashib qoldingiz, notanish yo'laklarda sang'ib yurubsiz .O'shanda yuqoriga, orqaga qarab yo'l qidirganingizda , bittagina ko'rshapalak tasodifan yuqoriga uchub qulog'ingizga bir nima shivirlayapti.....O'sha sirli mavjudot quyidagi keltirilgan iboralardan qaysi birini aytishi mumkin?

1.”Men chiqish yo'lini bilaman “

2.”Yur chiqish yo'lini ko'rsataman “

3.”Qidirishda davom et “

4.”Sen bu yerdan hech qachon chiqa olmaysan “

TEST KALITI:

Bu senariyda sehirlil ko'rshapalak boshqaruv va yordam timsoli bo'lib , yo'l yo'qotib va yo'l qidirishga intilgan insonga yordam berishi mumkin. Ko'rshapalak

nima deyishini tassavvur qilib, siz va sizni yordamingizga muxtoj bo'lganlarga quyidagicha qarashingiz mumkin;

1. Men chiqish yo'lini bilaman-Siz o'zingizni bilog'on deb bilasiz .Siz doimo yordam qo'lini cho'zib, maslahatlar orqali ,ayrim vaqtlardagina vaziyatga qarab yordam bera olasiz.Sizning yordamingizga muxtoj bo'lmaganlarga, siz ularning ishiga aralashib ,joniga tegasiz.

2.Yur chiqish yo'lini ko'rsataman -Sizni katta mehri yuragingiz va o'zingizga ishonuvchanligingiz boshqalar uchun o'rnak bo'la oladi.Insonlar sizni mehribonchiligingizni va kuchliligingizni sezadi, muammolar paydo bo'lganda ,sizni borligingiz ularni tinchlantiradi.

3.Qidirishni davom et - Siz odamlar bilan munosabatda masofani saqlaysiz, insonlarni hurmat qilasiz. Sizni hamisha yordamga tayyor ,deb aytib bo'lmaydi.Faqat sizdan maslaxat so'ralgandagina, odamlarni ruhlantirib ,o'zining muammolarini o'zi hal qilishini tavsiya etasiz.Ushbu prinsip yaxshigina kelishuv bo'lib ,o'sha insonga uni o'zining donoligi va aqli bilan yordam berishingiz mumkin.

4.Sen bu yerdan hech qachon chiqa olmaysan -Birovni yerda ko'rganingizda , sizni birinchi niyatingiz uni tepish bo'ladi. Demak ,birovning omadsizligidan rohatlanishining hech qanday yaxshi joyi yo'q.Siz bu holatingiz bilan do'st orttira olmaysiz. Sizning bu xarakteringiz faqatgina o'zingizda bor narsani saqlab qolishga yordam beradi, xolos. Ehtiyot bo'ling.

Foydalangan adabiyotlar

1. SHaxs psixodiagnostikasining proektiv metodlari.G.I.Niyozmetova T;2013
2. Psixologichiskiy testlar G.I.Niyozmetova T;1994
3. Umumiy psixologiya N.Nishonova T;2014

O'SPIRINLIK DAVRIDA STRESS HOLATI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Narimbetova Guliston Yuldashovna

Qoraqolpoğiston Respublikasi Taxiatosh tumani 9-maktab psixologi

Kundalik hayotning tobora shiddatli tus olayotgani insonga bo'layotgan axborot xurujining ko'pligi, ijtimoiy muammolarning haddan ziyod zidlashuvi natijasida asablarning taranglashishi juda ko'p insonlarni stress holatiga duchor etmoqda. O'z navatiga ko'ra o'spirinlik davri xam udan mustasno emas. Bu kabi muammolar insonlarning yosh davrlar psixologiyasiga ko'ra har xil namoyon bo'ladi. Olimning talqiniga binoan, go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarsa, bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oralig'ida o'sish davri o'smir oldi yoshidan iborat bolib, toki 12-13 yoshga qadar davom etadi. Bu davr olimlar tili bilan aytganda yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho'qqisiga hamohangdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilishidan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib boradi.

Psixologik zo'riqishlar organizmning turli funksional tizimlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib, oshqozon yarasi yoki yurak infarktigacha olib kelishi mumkin. Hissiy zo'riqishlarning namoyon bo'lishi har bir shaxs uchun turlicha bo'ladi. Kimdadir kayfiyat yoki hayajon bo'lsa, kimdadir stres va tushkunlik ko'rinishida o'tadi. Kun tartibining buzilishi, uyquning qisqarishi, ish vaqtining tungi davrga o'tib qolishi, foydali odatlardan voz kechish, hissiy zo'riqishlarni bartaraf etishning mos keluvchi usullarini topa olmaslikda ko'rinadi. Ijtimoiy rollarga xos vazifalardagi buzilishlar, yaqinlar va do'stlar bilan munosabatga yetarlicha vaqt yetishmasligi, nizolarning kuchayishi, muloqot davomida sezgirlikning pasayishi, ijtimoiy qoidalarga zid xulq-atvor belgilarining ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, uzoq muddat hissiy zoriqishda bo'lgan o'spirin ijtimoiy me'yor va standartlarga e'tiborsiz bo'lib qoladi. Hatto o'zining tashqi ko'rinishiga ham

e'tibor bermasligi mumkin. Bunda muhim ob'ektlar ustida diqqatning to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'ish kuzatiladi.

Ongning doimo hissiy zo'riqishni vujudga keltirgan sabablarini tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo'llarini axtarish xotira ko'lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushirishni qiyinlashtiradi. Aqliy faoliyatning susayishi stressni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan vaziyatdan chiqish yo'llarini topishni cheklaydi.

Bu salbiy ko'rsatkichlarni bartaraf etish eng katta vazifalardan biridir. Psixologiya fanining markaziy kategoriyasi hisoblanmish shaxs ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan funksiyalarni bajarish orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'spirinlik davrida psixologik muammolarni bartaraf etish hamda tarbiyalash masalalari hozirgi davrning eng dolzarb muammosiga aylangan. Bugungi kunda kelajak avlodga ta'sir qilayotgan hamda uning kechinmalarini o'zgartiradigan ichki va tashqi omillarni ko'z oldimizga keltirish juda qiyin. Shunday qilib stress o'zi nima?

Stress – inglizcha (stress) so'zidan olingan bo'lib, asabiylik, keskinlik degan ma'nolarni anglatadi. Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlar xaddan oshib ketishi, xavfli vaziyat tug'ilgan paytlarda, zarur choralarni zudlik bilan topishga majbur bo'lganda vujudga keladigan ruhiy holatdir. Stressning psixologik ta'rifiga kora affektiv holatga yaqin turadi. Stress kishining o'ta faol yoki o'ta sust harakatida ifodalanadi. Hissiy zo'riqish holatida individning hatti-harakati kishi nerv tizimining tipiga, nerv jarayonlarining kuchliligi yoki o'zligiga jiddiy ravishda bog'liqdir. (Masalan, imtihon oldidagi holat). His-tuyg'ularning hissiyot (emotsiyalar), kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilariga ham ega bo'ladi. Yuzning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, kabilar shular jumlasiga kiradi. Kishi o'zining qahr-g'azabini tevarak atrofdagilarga qo'llarini musht qilishi, ko'zlarini chimirib qarash, do'q – po'pisali ohang bilan namoyish qiladi.

Stressning sodir bo'lishiga asosan ikki yo'nalishdagi omillar sabab bo'ladi:

Ish faoliyatidan qoniqmaslik stressga sabab bo'luvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. O'spirin undan nima kutilayotganligini, bu ishni qanday qilish kerakligi va

bu ish qanday baholanishini bilsagina xotirjam ishlaydi. Ish qobiliyati va omadsizlik inson salomatligiga qattiq taʼsir koʻrsatadi. Haddan tashqari koʻp ish yoki, aksincha, ishsizlik ham stressga olib keladi. Bunday sabablar tufayli sodir boʻlgan asabiylashish eng koʻp tarqalgandir. Tekshirishlar shuni koʻrsatadiki, ish qancha qiziqarli boʻlsa, inson shuncha kam bezovtalanadi, kam betob boʻladi. Yana bu sabablarga qoʻshimcha yomon ish sharoitlari, ish jarayonida odamlarning bir-biriga asossiz talablarni qoʻyishi, oʻquvsiz ota-onaningning oʻquvsiz muomalasi, demotivlashtirishning ustuvor ekanligi va boshqalar ham stressni vujudga keltiradi. Xullas oʻspirinlik davrida stressni bartaraf etish, uning tasir doirasini kamaytirish eng muhim choradir. Eng avvalo nazorat koʻproq natija beradi. Stressni bartaraf etishda asosan inson sabr-qanoatli boʻlish, har qanday mushkul vaziyatga tayyor boʻlish, oʻzini chalgʻitish lozim. Mashakqatli mehnatni yaxshi dam bilan birga olib borish, hech boʻlmasa bir oz orom olish, tinchlanish kerak. Ishda xush feʼl, tavozelik boʻlish, oʻzaro hurmat va xushmuomalali inson boʻlish lozim.

Stressni bartaraf etish uchun birinchi navbatda shaxs psixologik jihatdan tashqi taʼsirlarga nisbatan ongli munosabat (psixologik immunitet)ni shakllantira olishi zarur.

1. Har qanday stress holatini yengish uchun uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va xolisona baholash darkor.

2. Yuz bergan stress holatini bartaraf etish uchun aniq yoʻl-yoʻriq izlab topish kerak.

3. Biror muammo va tashvishga duchor boʻlsangiz, bu haqda kamroq oʻylashga va doimo nima bilandir band bolishga harakat qiling. Mehnat sizning qalbingizdan behalovatlik tuygʻusini siqib chiqaradi.

4. Arzimagan narsalarni deb asabingizni yeb tugatmang. Hayotda nima muhim va nomuhimligini anglab oling. Arzimas narsalarning aksariyati umringizni qisqartiradi.

Stress holatiga tushgan shaxs xuddi shu stressga qarshi quyidagi usul va vositalarni qoʻllash yaxshi natija beradi:

a) stress holatiga nisbatan antistress kayfiyatini shakllantirish (roʻy bergan vaziyat, holat, emotsiyalarga nisbatan oʻz ruhiyatidagi munosabatni oʻzgartirish);

b) koʻproq jismoniy mashqlar bilan shugʻullanish (badantarbiya, sport turi, jismoniy mehnat);

v) o'z-o'zini bo'shashtirish (rasslabneniya) tananing oyoq uchi qismidan to qo'l barmoqlarigacha bo'shashishga erishish ;

g) autotrening (O'z-o'zini ishontirish)

d) relaksatsiya (o'z-o'zini yengillashtirish) orqali stress holatiga barham berish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Stress,nafaqat o'spirinlik,balki barcha yosh davrlarida xam shaxs taraqqiyotiga muxim to'siq bo'luvchi omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008 y.
2. Y.Jumanazarov"Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013 y.
3. T.Sodiqova "Sevib qolgan qizning onasiga maslaxat" qo'llanma. Toshkent 2018.

MUOMALA JARAYONIDAGI ERKINLIK – O'SMIRLARDAGI MUSTAQIL FIKRLASHNING ASOSIY PSIXOLOGIK OMILI, PSIXOLOGIK XIZMATNING DOLZARBLIGI

*Oblokulova Lutfiya Narzikulovna
Samarqand viloyat Toyloq tuman 20-maktab psixologi*

O'quvchining o'quv faoliyati kommunikasion tabiatga ega bo'lib, unga pedagogik ta'sirning ko'pchiligi guruhiy kommunikasiya jarayonida amalga oshiriladi.Tafakkur mustaqilligini shaxsning bilimlarini fikr predmetiga o'tkazish qobiliyati sifatida tushunish pedagogik jarayonida muomalani qulay tashkil etishni talab qiladi. Muomala ijod psixologiyasida, odamlarning o'zaro bir-biriga ta'siri va o'zaro harakati sifatida, o'zaro bir-birini tushunish va hamdardlik jarayoni sifatida o'rganiladi. Insonlar o'rtasidagi muomala insoniyat mavjudligining zarur shartidir, chunki odamlar yolg'iz qolganlarida, o'zlarini boshqacha tutishadi,o'zgalar bilan muomalaga kirishganlarida o'zlarini yanada noxush tutadilar.V.M.Bexterev guruhning shaxsga ta'siri turlicha

bo'lishini ta'kidlagan: undovchi (insonning energiyasi boshqa odamlar mavjud bo'lganda ortishi), faollashtiruvchi (insonning faoliyat jarayonida guruh a'zolaridan ortda qolmaslikka intilish) va yo'qotuvchi (guruh shaxs faoliyatining individualligini namoyish qilishni tormozlashi.)

V.M.Bexterev, M.V.Lange, V.Ye.Myasishchev, F.Ollport, V.Myode, A.Myeyo, D.Moreno va boshqa psixologlarning tadqiqotlarida insonning ruhiy faolligiga, ishchanlik qobiliyatiga shaxslararo munosabatlar insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga kata ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Jamoada shaxsiy faoliyat natijalarini tahlil qilish, o'rtoqlari faoliyati mahsullari bilan taqqoslaganda samaraliroq bo'ladi. F.D.Gorbovning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ma'lum sharoitlarda jamoa bo'lib birgalikda ishlash o'zaro harakatda ishtirok etayotgan guruhning har bir a'zosi shaxsning shakllanishiga imkon beradi. Bu birgalikdagi faoliyat jipslashgan guruhlarda ro'y beradi.

Bu haqda A.I.Berg shunday deb yozadi: «inson faqat tahqi dunyo bilan to'xtovsiz muomala qilishi sharoitidagina uzoq vaqt fikrlashi mumkin. Tashqi dunyodan to'liq informasion ajralish- bu aqldan ozishning boshlanishidir. Informasion undovchi tafakkurning tashqi dunyo bilan aloqasi insonga oziq-ovqatdek, issiqlikdek zarur.

Fikr almashish jarayoni nutqsiz amalga oshishi mumkin emas. Nutq faoliyati fikr almashinuv, ayniqsa o'quv faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mustaqil fikrlash tashabbuskor nutqning rivojlanishini talab qiladi. Ammo shuni nazarda tutish lozimki, nutq faoliyati maqsad hisoblanmaydi, u har doim fikr almashish jarayonining umumiy tarkibiga kiritilgandir va shu bilan birga insonlarning aqliy va amaliy faoliyatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mustaqillikka moyillikning rivojlanishi ikki yo'nalish asosida amalga oshiriladi.

1. Mustaqillikning shaxs xislati sifatida vujudga kelishi ijtimoiy muhitga bog'liq. Bu bog'liqlik mustaqillikka bo'lgan ehtiyojni qondirish imkoniyatlari sohasida va qadriyatlarda ifodalangan mustaqillik mazmuni xarakterida ifodalanadi.

2. Mustaqillikning shaxs sifatida shakllanishida individual xususiyatlar shaxs yashaydigan va mehnat qiladigan jamoada vujudga kelgan munosabatlarga hamda

shaxsning qobiliyatlariga, uning faolligiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar o'quv faoliyatini jamoa faoliyati sifatida tashkil qilishga ko'p vaqt unchalik e'tibor berilmadi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni individual jarayon deb hisoblangan. Buning natijasida pedagogik psixologiyada o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va mustaqil faoliyati ishning individual shakllaridagina ro'yobga chiqishi mumkin deb hisoblangan. Lekin so'nggi yillarda Polsha, Germaniya kabi mamlakatlardagi ilg'or o'qituvchilarning ishlarida guruh bilish faoliyati har bir o'quvchiga darsda maksimal faollik va mustaqillikni ta'minlashini tasdiqlagan. So'nggi yillardagi tadqiqotlar tafakkur mustaqilligini individual bilish faolligi sifatida an'anaviy tushunishga jiddiy tuzatishlar kiritdi. O'quvchilarning o'zaro nazorati va javobgarligiga asoslangan guruh o'quv faoliyati tafakkur mustaqilligining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi aniqlangan. Biz o'smirlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga muomala jarayonida ko'proq erkinlik berishimiz zarur.

Inson hayotida mo'tadil yashashi uchun faqat oziq-ovqat mahsulotlari yoki har xil kimyoviy elementlarni iste'mol qilishi emas, balki tashqi muhitdan ya'ni koinotdan quvvat olishi ham zarur. Har bir insonda bioenergetik maydon aura mavjud bo'lib, unda kirish va chiqish markazlari joylashgan. Mana shu markazlar orqali biz ma'lum quvvatni a'zolarga yutar va ma'lum quvvatni a'zoldan chiqarar ekanmiz. Jahl kelganda nafaqat aql balki katta quvvat ham yo'qotar ekanmiz. Insonlardagi bioquvvatni kuchli sezgiga ega bo'lgan insonlargina payqay olar ekan. Xalqimizda "Istarasi issiq ekan", "Yuzidan nur yog'ilib turar ekan" degan naqlar bor. Darhaqiqat, mehr-oqibatli, iymonli, harom bilan halolni farqiga boradigan, sermulohaza, umuman yaxshi insonlarning aurasini yuzida ufarib turadi. Inson o'z bioquvvati orqali o'zini davolashi mumkin. Buning uchun aurasini kuchaytirishi hamda bioquvvatni kopaytirishga oid mashqlarni bajarishi kerak:

- quvvatni iroda yordamida boshqarish;
- diqqatni bir joyga to'play olish;
- fikran ko'z oldiga keltirish;
- mushaklarni boshqarish;
- kundalik g'am qayg'ularni unutish;

-fikrni so'lomlashirishga qaratish.

Unutmaslik kerak, kimki chuqur bo'shshishni o'rganmasa, u bioquvvatini to'liq ishlata olmaydi.

Insonning uzoq umr ko'rishiga psixologik omillarning ta'siri kuchlidir. Inson o'z tabiiy imkoniyatlariga ko'ra 120 yil umr ko'rishini mumkin ekan. Lekin asabiylashish, nizolar, ziddiyatlar, ko'ngilxiraliklar umrimizga zomin bo'lar ekan. Shuningdek yoqimsiz faoliyat bilan shug'ullanishi, jahldorlik, befarqlik ham uning umriga ta'sir ko'rsatar ekan. Agar inson o'ziga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lsa, teran fikrlay olsa, go'zallikni his qila olsa, muammolarni yengil va osoyishta hal etadi. Agar inson o'zidan norozi bo'lsa, o'ziga ishonmasa muammolari chigallashib ketaveradi. Ba'zilar o'zini yaxshi ko'rish xudbinlikdir, deyishadi. O'z- o'zini hurmat qilish, o'zining menini tushunish, tan olish- bu boshqa odamlar sari qo'yilgan birinchi qadamdir. O'zini hurmat qilgan odam boshqalarni ham hurmat qilishni o'rganadi. O'z- o'zini sevish hayotni ham sevizhga o'rgatadi. Inson o'zini kashf etib borganini sari uning kengayib boraveradi. Bu esa o'sha insonni salbiy ta'sirlardan himoya qiladi. Agar inson hayotning qiyinchilik daqiqalarida vaziyat nechog'lik murakkab bo'lmasin, o'zini qollab quvvatlay olsa uning hayoti ijobiy tomonga o'zgaradi. Xalq hikmatlarida "Boshiga har qanday musibat tushganda ham chin inson bo'lib qolish bebaho insoniy fazilatdir", "O'tgan ish uchun hasrat va nadomat chekmoq aqlli odamning ishi emas" deyiladi. Agar inson bir varaqqa salbiy va bir varaqqa ijobiy sifatlarni yozib chiqsa, shu narsaga amin bo'ladiki, uning hayotini shakllanishida salbiy tomon ko'proq o'rin tutar ekan. Muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimning Sharx surasida "Bas, albatta har bir og'irlik va mashaqqat bilan birga bir yengillik ham bordir" deyiladi. Bu naql xalqimizning "oyning o'n beshi yorug' bo'lsa o'n beshi qorong'u" degan haqiqat bilan uyg'undir. Agar inson g'am qayg'ularni qalbida ardoqlab yursa bir kun emas bir kun uni jarohatlaydi. O'tmish voqealaridan xalos bo'lishning birdan bir yo'li shaxsni avf etishni o'rganishdir. Kechirimlilik ruhan yengillikka olib keladi. Hadisi sharifda "Islomda uch kundan ortiq arazlashish yo'q", "Agar bir birodar ikkinchi birodari bilan uch kundan ortiq arazlashib yursa, u birodarini o'ldirish gunohini olar" deyiladi. Insonda yomonlik tuyg'usi yo'q bo'lsa, unda hayotiy kuch quvvat ortar ekan.

Muvaffaqiyatsizlik va qayg'ularning sababini tashqaridan emas, inson o'zidan izlashi kerak. Hadisi sharifda "Barmog'imizga kirgan zirapcha ham bizning gunohimizga kafforatdir" deyiladi. Inson ko'pincha aql-idrokka, mantiqqa asoslanmay, salbiy yo'l - yo'riqlarga tayanib ish ko'rар ekan. Agar inson o'ziga ishonmasa, o'zini kamsitsa, bu narsa uning hayotida quvonch va baxtni yo'latmas ekan. Inson o'zidan ko'ngli to'lmasa, o'zini inkor etsa uning botiniy kuch-quvvati zaiflashib ketar, natijada u turli xastaliklarga chalinar ekan. Oramizda ayrim insonlar borki, ular hordiq chiqarishni, madaniy dam olishni, bioquvvatini ishga solishni va ruhiy muvozanatni bilmaydilar, ular doimo g'am tashvishga botib yuraveradilar. Inson o'z bioquvvatini oshirish uchun uzlatga chekinish mashqlarini bajarishi mumkin:

-Ko'zguga qarab: Ey, o'tmishda ro'y bergan ko'ngilxiraliklar, qani yo'limdan qoching, menga halal bermang. Men hayot go'zalliklaridan quvonib yashamoqchiman.

Uzlatga chekinishda yolg'iz sayr qilish, raqs tushish, ashula aytish, yugurish chopish mashqlarini ham bajarish mumkin.

Bunday mashqlar inson ongida ijobiy dasturlarni ishlab chiqishga, insonni xotirjam bo'lishiga, ruhiyatimizning dam olishiga, bizni hayot qadriyatlarimizga yaqinlashishimizga undaydi, insonni asabiylashishini, stress holatlarini oldini oladi, bioquvvatimizni kuchaytiradi. Inson faqat jismoniy va ruhiy birlik orqaligina sog'lom hayotga erishadi.

Adabiyotlar

1. Berg A.I. Kibernetika i obshestvenniye nauki –Vkn.Metodologicheskiye probleminauki. –M.: Nauka .1964.-350s.
- 2.Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. –T.: Fan. 2003.- 1176.
- 3.N.P. Anikeyeva. Jamoada ruhiy muhit. Toshkent "Oqituvchi" 1993 yil.
- 4.A. Usmonxo'jayev, F.Akromova. Ruhiyatni sog'lomlashtirish usullari. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2002yil.

O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING MEHNAT FAOLIYATI VA KASB TANLASHI

Mamatova Feruza Ma'murjon qizi
Norin tumani 33-maktab psixologi

Katta maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsning taraqqiyotida ijtimoiy foydali mehnatning roli haqida gapirmaslik mumkin emas. Garchi kata maktab yoshidagi o'quvchilar hayotining asosiy mazmuni o'qish bolsada, ular eng oddiy bolsada mehnat vazifasini bajariish zarur.

O'quvchilarni, ayniqsa kata maktab yoshidagi o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish uchun har bir imkoniyatdan foydalanmoq kerak. O'quvchilar mehnati faqat o'zining moddiy natija berish tomoni bilangina muhim emas. O'quvchilar mehnati to'g'ri tashkil etish shaxsning jamoailashuv, umum foydasi uchun qilinadigan mehnatga muhabbat, tashabbuskorlik, maqsadga intiluvchanlik, intizomlilik, qa'tiyatlilik singari sifatlarni tarkib toptirishga yordam beradi. O'quvchilar umumiy mehnatda qatnashar ekan, mehnatning va mehnatli kishilarni hurmatlash tuyg'usini hosil qiladilar, ularda mehnat qilish ehtiyoji va istagi paydo bo'ladi.

Mehnatning o'zigina emas, avvalo ko'p qirrali va xilma-xil ijtimoiy hamda axloqiy munosabatlar tarbiyalaydi, mehnat ana shu munosabatlarga kata maktab yoshidagi o'quvchini jalb qiladi. Mehnat jarayonida o'quvchilarda yangi tuyg'ular vujudga keladi. Ana shu yangi hissiyot o'quvchini o'quvchini yana bir marta bu tuyg'g'ularni boshdan kechirish uchun mehnat vaziyatiga jalb qilinadi. Katta maktab yoshidagi o'quvchilar Respublika miqiyosida bo'ladigan xasharlarda, ko'ngilli kuchlarda kata yordam beradilar. Mehnatning ijtimoiy ahamiyati va uning natijalariga ijtimoiy baxo berish –o'quvchini mehnatga psixologik jihatdan tayyorlashning zarur tomonlaridan biridir.

O'quvchilarni umumiy ravishda qiladigan mehnati rejalashtirishda uni tashkil etishni uni nazorat qilishni usullaridan umumiy tarzda ishtirok etishni ham nazarda tutadi. Ish rejani, ishning borishi va natijalarini muhokama qilish, mehnatni tashkil etishdagi va uning formalaridagi ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash umumiy

yig'ilishlarda kata yoshdagi rahbarlar tomonidan emas, balki yoshlarning o'zlari tomonidan amalga oshirish lozim.

Mustaqil mehnat hayotiga o'tish istiqbolining ta'siri ostida kata maktab Yoshi uchun xarakterli bo'lgan kelajak maqsadlari sari yo'nalish tarkib topadi. Katta maktab yoshi hayotida o'z-o'zini aniqlab olish Yoshi bo'lib, bu vaqtda o'quvchi o'zining mehnatdagi iste'dodini jiddiy ravishda izlay boshlaydi, unda o'zining kelajakdagi kasbini belgilab olish intilishi paydo bo'ladi. O'smir odatda, o'zining kelajakdagi kasbi haqida hali jiddiy ravishda o'ylab ko'rmaydi, xususan agar u 8 sinfdan keyin maktabda o'qimoqchi bolsa shunday bo'ladi.

SHAXSNI JAMIYATDA O'ZINI TUTA BILISH

Xushnazarova Ma'mura Gapparjonova
Norin tumani 39-maktab psixologi

Inson o'z ruxiy xolatlari, kechinmalarini muayyan tarzda boshqarish qobiliyatiga ega. Shu sababli biz shaxsning faolligi, ongliligiga va maqsadga intiluvchanligi to'g'risida gapirishimiz mumkin. Bunday layoqat uning o'z salomatligiga ham taalluqlidir. Ya'ni, o'z salomatligimizni himoya qila olishimiz, o'z irodamiz, xohishimizni sabr-qanoat bilan boshqarishimiz mumkin.

Ruxiy salomatlik orqali jismoniy salomatlikni ham saqlash va boshqarish mumkinligi g'oyasi yangi bo'lmay, u 20-asrning boshlaridayoq, psixolog va psiatr mutaxassislar diqqatini o'ziga tortgan. Olimlar shuni takidlashganki, sog'lom inson bemordan farqli ravishda o'zidagi jami psixik jarayonlar, holatlar va qobiliyatlarni boshqarish mumkin. Bu borada rus psixologi S S Korsakovning qarashlari diqqatga loyiqdir. U shaxsning yaxshikigi g'oyasi doirasida shuni ta'kidlaydiki, uning fikricha, ruxiy bemorlarda, eng avvala shaxsiga, shaxs yaxlitligiga bevosita aloqador buzilishlar kuzatiladi. Bu kabi bemorlarda nafaqat onglilik borasida buzilishlar kuzatiladi. Bu kabi bemorlarda nafaqat onglilik borasida buzilishlar normalariga munosabati o'zgaradi,

fikrlash tarsi sog'lom odamnikidan farq qiladi. Ya'ni, ma'naviy va ruhiy salomatlik , eng avvalo, insonning tashqi muhit va u bilan o'zaro munosabatlari tizimi bilan bog'liqdir. Bunda insonningo'z mavqeini idrok qilishni, hayotiy faolligi katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxs tomonidan salomatlikni psixologik nuqtai nazardan boshqarish o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi: maqsad-muddaoni qo'yish,o'zidagi mavjud ma'lumot va axborotlarni tahlil etish mustaqil qarorlar qabul qilish, ijrosini ta'minlash va nazorat qilish.Har bir alohida bosqichda shunday o'zoga xos jarayonlar ro'y beradiki, ular oxir-oqibat salomatlikni ta'minlaydi.Masalan,odaning o'z oldiga aniq haqiqiy mo'ljallarni qo'ya olishi, kelgusida qanday kasb-korga ega bo'lishiga oid aniq tasavvurlarning mavjudligi,hayotda tasodifan qandaydir mavqega ega emas, balki o'z sa'y-harakatlari,hayotiy intilishlari tufayli o'rnini topishini anglashi kabilar o'ta muhim bo'lib,insonning salomatligi,o'zini boshqalar orasida yaxshi his qilishini ta'minlaydi.Chunki odamning dangasaligi,aniq hayotiy tamoillariga ega bo'lmasligi,o'z mehnati bilan nimadir qilishni bilmasligi nafaqat jamiyatga,balki o'sha odamning o'ziga ham faqat salbiy emosionalarni keltirib chiqaradi,qayg'uradi,asabiy bo'lib boradi,oqibatda bora-bora salomatligi ham emirilib boraveradi.Ayniqsa, odamning o'zi suymagan ishi bilan mashg'ul bo'lishga majbur etilishi,tanlagan kasbining o'ziga umuman yoqmasligi kabi holatlar bora-bora ruhiy tangliklarni hattoki,shaxsning psixologik yaxlitlik sifatidagi holatiga ham putur etkizadi.

TANGLIK VAZIYATIDA QOLGAN BOLALARGA PSIXOLOGIK YORDAM

Narzilloeva Nodira Nasilloeva

Buxoro viloyati Romitan tumani 41-IDUM amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarda yuzaga kelayotgan tanglik vaziyati, taglik vaziyatida qolgan bolalarga psixologik yordam ko'rsatish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik, tanglik vaziyati, psixika, bilish jarayonlari, referent guruhlar, o'tish davri, kompensatsiya, giperkompensatsiya, agressivlik.

Bugungi kunda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash eng ustivor vaifalardan biridir. Ruhiy sog'lom, ma'naviyati yuksak, jismoniy va aqliy yetuk farzandlar yurt kelajagidir. Hozirgi kunda fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi nafaqat jamiyat hayotiga balki o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Buning natijasida o'quvchi yoshlarimizda psixologik tanglik, qiyin vaziyatlar yuzaga kelmoqda. Albatta bunday tanglik holatlari o'quvchining jismoniy, psixik va aqliy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Tanglik vaziyati-shaxsning psixikasida ro'y beradigan hissiy zo'riqishlarni kuchli darajada namoyon bo'lishidir. Bunday holat shaxsning bilish jarayonlariga, aqliy faoliyatiga, shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o'rniga bog'liqdir. Shuningdek, bu holat shaxsdagi xulq-atvor me'yorlarida ham o'ziga xos o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

O'smirlarni tengdoshlari o'rtasida uni qoniqtiradigan o'ziga xos o'rinni egallashga intilish xulq-atvor me'yorlariga va referent guruhlar qadriyatlariga yuqori darajada qiziqish bilan qo'shilishi kuzatiladi. O'smir psixikasidagi o'tish davri unda bolalik va kattalik xususiyatlarini birgalikda bir vaqtda mavjud bo'lishi bilan izohlanadi. O'smirlik yoshida odatda kichikroq yoshdagilar uchun xarakterli bo'lgan xulq-atvor reaksiyalariga moyillik ko'pincha saqlanib qoladi. Ularga quyidagilar taalluqli:

1.Voz kechish reaksiyasi. U xulq-atvorning oddiy shakllaridan munosabatlar, uydagi majburiyatlar, o'qish va boshqalardan voz kechishida ifodalanadi. Aksariyat hollarda odatiy hayot sharoitlaridan keskin uzilishlar (oiladan uzilish, maktabni o'zgartirish) sabab bo'ladi.

2.Qarshilik, qat'iy norozilik, e'tiroz reaksiyasi. U o'z xulq-atvorini talab qilinayotganlarga qarama-qarshi qo'yishida namoyon bo'ladi: namoyishkorona mardlik, sababsiz darsga kelmaslik, qochish, o'g'rilik qilish va hatto norozilik sifatida amalga oshiriladigan bir qarashda be'mani bo'lgan xatti-harakatlar.

3.Taqlid qilish reaksiyasi. U odatda bolalik yoshiga xos bo`lib, tug`ilgan va yaqin insonlarga taqlid qilishda namoyon bo`ladi. Taqlid reaksiyasi asotsial muhitdagi shaxs sifatida kamolotga yetgan o`smirlar guruhi uchun xosdir.

4.Kompensatsiya reaksiyasi. U o`zining bir sohadagi muvaffaqiyatsizligini boshqasidagi muvaffaqiyatlari bilan to`ldirishga intilishida ifodalanadi. Masalan, o`zlashtira olmayotgan o`smir sinfdoshlari hurmatiga, qo`pol, nojo`ya xatti-harakatlari orqali erishishga harakat qilishi mumkin.

5.Giperkompensatsiya reaksiyasi. Bola yoki o`smir ko`proq muvaffaqiyatsizlikka duch keladigan sohalardagina aynan muvaffaqiyat qozonishga intilishi bilan asoslanadi.

O`smir uchun xos bo`lgan psixologik reaksiya ijtimoiy muhit bilan o`zaro ta`sir asosida yuzaga keladi. Masalan, o`smirning ozodlikka intilishi. Bu holatda o`smirning mustaqillikka, kattalar vasiyligidan xalos bo`lishga intilishini aks etadi. Buning natijasida o`smirning uy yoki maktabdan qochishi, ota-onalar, o`qituvchilarga qaratilgan salbiy munosabatlari vujudga kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan vaziyatlar davolash ya`ni korreksiyasini talab qiladi. Xulq-atvor buzilishlarining patologik va patologik bo`lmagan shakllarini o`z vaqtida farqlash juda muhim, chunki ular turli shakldagi pedagogik va ijtimoiy yordamga muhtoj ayrim vaziyatlarda doir-darmon bilan davolashni talab qilinadi. O`smirlik davridagi psixik rivojlanishning muhim yo`nalishi muammo va qiyinchliklarni bartaraf qilish usullarini shakllanish bilan bog`liq. Ulardan ayrimlari bolalikdanoq murakkab bo`lmagan vaziyatlarni hal qilish uchun shakllanadi va odatga aylanadi.

Bolalar agressiv xatti-harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to`playdi:

1.Nosog`lom oila muhiti. Bu kabi oilalarda ota-ona bilan farzand o`rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o`rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikni mavjud emasligi bolalarda agressiv hulq-atvorni shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo`lishi oilaviy muhitning ta`sir darajasiga bog`liq hisoblanadi.

2.Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o'z tengqurlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradilar. Ko'pgina hollarda bolalar tengdosh do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda, o'zlarini agressiv boshqarishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar o'z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladilar. Bunday bolalar o'zlarini ho'rlangandek his qilib, o'zlari kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammoning ustiga yana muammo tug'dirmasdan qolmaydi.

3.Ommaviy axborot vositasi. Bugungi kunda bolalarga ta'sir etayotgan eng kuchli quroldir. Bu borada internetning ta'siri kuchayib bormoqda. Bolalar internet aloqalari orqali o'zlarining xususiyatlariga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar bilan ham tanishmoqdalar. Shu o'rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari fil'mlar, ko'rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarni tarkib topishga ta'sir qilmoqda.

Yuqoridagilarga asoslangan holda o'smirlar guruhidagi tanglik holatini bartaraf etish uchun quyidagi psixologik trening mashg'ulotlaridan foydalanishni tavsiya qilaman.

O'smir shaxsida tanglik holatini bartaraf etishga qaratilgan trening mashg'ulotlari

“Mening kayfiyatim nimaga o'xshaydi?” mashqi

Maqsad: shaxsda emotsional holatlarni anglash, ularni boshqarish va nazorat qilish ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iborat.

Ushbu mashq shu turdagi mashg'ulotlar uchun faollashtiruvchi o'yin vazifasini o'tashi mumkin. U ishtirokchilarga o'zlarining emotsional holatlarini anglash va ularni “shu yerda va hozir” tamoyili asosida obrazli tarzda ifodalash imkonini beradi.

Ko'rsatma: o'zingizga quloq soling. Sizning hozirgi kayfiyatingiz qanday rangga o'xshaydi?

“Hissiyotlarni sanaymiz” mashqi

Maqsad: ishtirokchilarning emotsiya borasidagi so'z boyligini oshirish

Ko'rsatma: keling, kim turli hislarni anglatuvchi so'zlarni ko'proq bilishini aniqlab olamiz. Navbat bilan so'zlarni ayting va ularni vatmanga yozib boring.

Trener uchun ma'lumot. Ushbu mashqni guruhning tayyorgarlik darajasiga qarab musobaqa yoki "aqliy hujum" shaklida tashkil etish mumkin.

Ishtirokchilarning vatmanini butun mashg'ulot davomida yordamchi vosita sifatida qo'llash mumkin. Qolaversa, mashg'ulotlar davomida ushbu "lug'at" yangi so'zlar bilan boyitib borilishi mumkin. Shunga alohida e'tibor qaratinglarki, ro'yxatda u yerda asosiy emotsiyalar (g'azab, g'am, quvonch, qo'rquv, xafagarchilik) qolib ketmasligi kerak. Agar ishtirokchilardan biri yozilganlarning emotsiyalarga tegishliligiga shubha qilsa, qolganlardan buni izohlab berish so'raladi.

Mashg'ulot yakunida ishtirokchilarga quyidagi savollarni berish mumkin: "Oxirgi marta nazorat ishi yozganingizda o'zingizni qanday his qildingiz?", "Nojo'ya ish qilib qo'yganingizda o'zingizni qanday his etasiz?".

Muhokamada "Sizningcha, eng yoqimsiz his qaysi?", "Qaysi biri eng yoqimlisi?", "Quyida sanab o'tilgan hislardan qay biri sizga yaxshi tanish?" kabi savollarga javob berish taklif qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
2. L.Beknazarova, M.Maxmudova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
3. E.G'.G'oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.
4. R.Y.Toshtemirov, E.G'.G'oziyev Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Toshkent 2004.

YUKSAK MA'NAVIYATLI YOSHLAR –KELAJAK POYDEVORI

*Boymurodova Dilshodaxon Sherqo'ziyevna
Farg'ona viloyati Furqat tumani 36- maktabi psixologi*

Yurtimizni rivojlantirish, jamiyatimizdagi har bir sohani kuchaytirish bo'yicha yuqori darajadagi amaliy islohotlar amalga oshirmoqda. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar albatta ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim sohasini rivojlantirish esa

avvalo yurtimiz tinchligi, Vatanimiz taraqqiyoti, jamiyatimiz farovonligi, eng asosiysi, barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish kabi maqsadlarmi o'z ichiga oladi. Yoshlarimizni har tomonlama kuchli, ham jismonan, ham ma'nan soglom boiishlari uchun mustaqilligimizni dastlabki kunlaridanoq katta e'tibor berilib, bugungi kunda ham barcha shart-sharoitlar yaratilib yanada kuchaytirilmoqda. Yoshlarimizni bugungi kunda yuksakma'naviyatli, kuchli iroda sohibi bo'lib voyaga yetishishlariga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki ma'naviyati anglagan inson avalo o'zini anglaydi.

Ma'naviyat insonga uning ongu- shuuriga yillar davomida mustahkam oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, vatan tuyg'usi, hayotning turli tuman saboqlari bilan singib boradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov aytganidek "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi". Ma'naviyatli, ma'rifatli, barkamol farzand tarbiyasi oila, mahalla, ta'lim-tarbiya muassalari birgalikdagi faoliyati natijasida shakllanib boradi.

Oila- mustahkam qo'rg'on, sog'lom tarbiya maskani. Aynan Vatan tuyg'usi ham oiladan, ona bag'ridan boshlanadi. Oila esa jamiyaming ijtimoiy-ma'naviy boyligi hisoblanadi. Oiladagi muhit insonning o'ziga xos ma'naviyati, dunyoqarashi, tasavur va e'tiqodining shakllanishida, yuksalishida muhim omillardandir. Ulug' allomalarimiz o'zlarining asarlaridan birida oilaning har bir a'zosiga quyidagi ta'riflar bilan o'z fikrlami bayon etadi: "Oilada ota-fayz- barakot, ibrat timsoli, ona- mehr-muhabbat, tarbiya o'chog'i, farzand esa go'zal tarbiya merosxo'ridir. Ayni shunday xonadonda to'kin-sochinlik, shod-uxurramlik, o'zaro hurmat va totuvlik mujassam. Bunday oilalar kamoli oxir-oqibat jamiyat farovonligiga munosib hissa qo'shadi."

Ona Vatanimizda oila davlat muhofazasida ekanligi ham qonun bilan belgilangan bo'lib, oilalarga muntazam g'amxo'rlik qilish, unga har taraflama moddiy va ma'naviy ko'mak berish va boshqa ijtimoiy himoya qilish kabi yordam berilib kelinmoqda. Zero, bosh qomusimizning XIV bobi "Oila" deb nomlanib, bu bobda oilaviy munosabatlar hamda 63,64,65,66-moddalarida ota-onaning bola tarbiyasidagi

ma'suliyati,ota-ona keksaygach esa ularga moddiy va ma'naviy tomondan g'amxo'rlik qilish har bir farzandning burchi ekanligi kafolatlab qo'yilgan.Oilaga bunday e'tibor,qonunan belgilanishiga sabab,qayerda oila mustaqilligi kuchli intizom va tarbiyaga tayansa,mamlakat va millat ham shuncha kuchli va barqaror bo'ladi.Dunyoda yuz beradigan har qanday o'zgarishlar yo iqtisodiyotda,yo ijtimoiy sohada,yo ma'naviy-siyosiy sohada bo'lsin,o'z ta'sirini avalambor oila muhitida namoyon etadi.Oilalar tinch- totuv,intizomli, farovon bo'lsa ulari jamlovchi mahallalar ham obod,farovon boladi. Barchamizga tarixdan ayonki, uzoq yillar mobaynida Vatanimizda jamoa bo'lib yashashning sinalgan shakli mahalladir.Mahallar bu tumanlar ichidagi kichik hududiy birlik bo'lib,o'tmishdan meros bo'lib kelmoqda.Ma'lum bir mahallada istiqomat qiluvchi odamlar faqat qo'ni-qo'shnichilik rishtalari bilangina emas, balki ichki tartib-qoida, urf-odatlar, an'analar umumiy manfaatlar va majburiyatlar orqali ham bog'liqdir.Mahalla ma'naviy qadriyatlarimizning yana bir qudratli manbai hisoblanib,an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobi shakllanadigan maskandir.Mahalla - bu xalqimizning turmush tarzi, ruhiy - ma'naviy ehtiyojidan kelib chiqib, mafkuraviy ongi va tafakkuri, insonlaming o'zaro aloqalari, oilaviy munosabatlami shakllantiruvchi quda-andachilik kabi masalalarni hal etuvchi nodavlat tashkilot ham hisoblanadi.Diyorimizdagi obod,ko'rkam va xushmanzara ko'chalar bilan go'zallashib borayotgan mahallalarimiz bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan mahalla boshqaruvi tizimi fuqorolik jamiyatining muhim instituti sifatida e'tirof e'tilmoqda Bundan tashqari Prezidentimiz tomonidan ham mahallarimizni o'zini-o'zi boshqarish tizimini yanada yaxshilashga katta e'tibor berib,hattoki, 2017-yil 13-iyulda maxsus qarori bilan "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni joriy etildi.Bunday e'tibor va e'tiroflar albatta yurtimizni rivojlanishi, taraqqiyoti uchun muhimdir.Vatanimiz taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lgan yoshlarimizga milliyqadriyatlarimizni, an'analarimizni,urf-odatlarimizni o'rgatish va ulami saqlab keyingi avlodlarga yetkazish kabi mas'uliyatli ishlami bajarishda albattamahallalarnii o'rni beqiyosdir.Ona Vatanimizni rivojlanishida ham milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi.Yurtimiz madaniyatida umuminsoniy qadriyatlar ustuvor mavqeyini egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov

ta'kidlaganidek,"biz o'z taraqqiyotimizni o'zga mamlakatlar taraqqiyotidan ayri tasavvur eta olmaymiz va hamma narsa biz o'zimizga bog'liq bo'lib qolavermaydi. Bu fikrlari asosida aynan umuminsoniy qadriyatlarga urg'u beradi. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy qadriyatlar bir-birini toldiradi, boyitib boradi. Umuminsoniy qadriyatlar insonni e'zozlash, hayotni sevish, burch, sadoqat, ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, adolat, ma'rifatparvarlik, tinchlik, totuvlik, do'stlik, hamkorlik singari fazilatlarini o'z ichiga oladi. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik yoshlarimizni to'g'ri yashab, o'z o'rnini topishga, yon-atrofga oqilona munosabatda bolishga, tug'ilib o'sgan diyorini muqaddas deb bilishga hamda do'stlikni qadriga yetishni o'rgatadi.

Milliy qadriyatlar esa shu millat, shu yurt xalqlari tomonidan tarixdan e'zozlab kelinayotgan, inson ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladigan qadriyatlardir. Milliy qadriyatlarda mehnatsevarlik, tarixiy xotiraga sadoqat, e'tiqodga hurmat, muomalada mulozamat, xayo va andisha muhim o'rin tutadi. Yurtimizda ham umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarimizni saqlash, yoshlarimizga o'rgatish uchun bugungi kunda juda ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan chegaradosh hamda qardosh qo'shni davlatlarimiz bilan yaqin aloqalar bog'lab, bir qancha ijtimoiy- iqtisodiy sohalarda yaqin munosabatda bolmoqdamiz. Misol tariqasida shuni aytish mumkinki, 2017-yil dekabr oyida Afg'oniston Prezidentining O'zbekistonga tashrifi chog'ida Surxondaryo viloyati Termiz tumanida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirhgi huzurida Afg'oniston fuqorolarini o'qitish ta'lim markazini ochish to'g'risidagi hujjat imzolagan edi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan ham Surxondaryo viloyati Termiz tumanida Afg'oniston fuqorolarini o'qitish ta'lim markazini ochish to'g'risidagi qarori 2017-yil 13-noyabrda imzolandi. Bunday amaliy ishlar albatta umuminsoniy qadriyatlardan - yaqin atrofdagilarga do'stona munosabatda bo'lish, yaxshi hamkorlik o'rnatish va o'zaro hurmatda bo'lish kabi fazilatlar shakllanadi, kelajak avlodganamuna, o'mak bo'lib qoladi.

Yuqoridagilarni xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Yurtimizni rivojlantirish, taraqqiyotning yuksak darajasiga ko'tarish, xalqimizni farovon va tinch-totuv yashashlari uchun bugungi kunda yuqori sur'atlarda amaliy ishlar otkazdirilib, davom ettirilib kelinayotganligini, bundan tashqari, yoshlarimizni ham yuksak ma'naviyatli,

milliy, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, an'ana va urf-odatlarni e'zozlab, ularga hurmat ruhida tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim-tarbiya maskanlarini o'rni oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalqimizning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgararga tobe va qul, asir botishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq.

TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL QILISHNING IJTIMOIIY ASOSLARI

N.Salayeva

Xorazm viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedra mudiri, ps.f.n

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab psixologlarining malakasini oshirish jarayonini innovatsiyalar asosida tashkil qilishning ba'zi jihatlarini ko'rib chiqilgan. Psixologning o'z faoliyatini innovatsion tarzda tashkil qilishda hayot davomida malakasini oshirib borish masalalari keltirib o'tilgan.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lami katta, yangicha va o'zgacha yondashuvlar asosida tashkil qilinmoqda. "Yangi O'zbekiston-maktab ostonasidan boshlanadi" g'oyasi asosida keng islohatlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlarning malakasini oshirish jarayoni tubdan o'zgartirilib, "Hayot davomida o'qish" tamoyili asosida yo'lga qo'yildi. Rivojlangan mamlakatlardagi kabi androgogika asosida ya'ni o'zlari uchun zarur bo'lgan ma'lumot va axborotlarni egallab olish, o'z lavozimi va kasbidan kelib chiqib ish faoliyatini samarali va ijobiy tarzda davom ettirishda asqotadigan bilimlar bazasiga qisqa muddatda ega bo'lishdek jarayon bilan mashg'ul bo'ladilar. Malaka oshirish jarayonida maktab amaliyotchi psixologlarini yangicha ishlashga, mustaqil va

ijodiy fikrlashga oʻrgatish, psixolog faoliyatini amalga oshirishda zarur boʻlgan yangi mazmundagi ishlarni oʻzlashtirishga psixologik va ijtimoiy jihatdan tayyorlash zarurati tugʻildi.

Maktab amaliyotchi psixologlarining pedagogik, innovatsion, axborot texnologiyalarini oʻzlashtirib olishlariga yordam berish uchun taʼlim tizimida faoliyat yuritayotgan psixolog kadrlarning uzluksiz malaka oshirishini tashkil qilish bilan bogʻliq boʻlgan muammolarni bartaraf qilish maqsadida bir qancha oʻzgartirishlar kiritildi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5712-son farmoni, “Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF– 6108-son Farmoni va “Taʼlim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son qarorida koʻrsatib oʻtilgan hamda 2020-yil 30-oktabrdagi videoselektorda taʼlim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish boʻyicha Prezidentimiz belgilab bergan muhim vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda, zamonaviy talablar asosida maktab amaliyotchi psixologlari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish, ularning kasbiy kompetentligini oshirishni nazarda tutadi.

Pedagog xodimlar hamda maktab amaliyotchi psixologlarining uzluksiz malaka oshirishining mazmun va mohiyatini zamon talablari asosida amalga oshirish uchun malaka oshirish hududiy markazlarida oliy taʼlimda faoliyat yuritayotgan tayanch fakultetlardagi taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha dars berayotgan universitet professor-oʻqituvchilari bilan hamkorlikda tashkil qilinishi va ular bilan shartnomalar imzolanishi, ilmiy salohiyatni yanada takomillashtirish kabi dolzarb masalalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Taʼlim sohasida faoliyat yuritayotgan oʻqituvchi va amaliyotchi psixologlar faoliyati haqida barqaror va hammaga maʼqul boʻlgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topmagan. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri taʼlimga yoʻnaltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari oʻrtasidagi qiyinchilik bilan yengib oʻtiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa nazariy bilim va amaliy pedagogik

faoliyat o`rtasidagi uzilish edi. Endilikda o`qituvchining hayot davomida malakasini oshirish masalasiga o`zgacha yondashuv, asosan o`qituvchining talab va xohishlari asosida tashkil qilinishi va uning talabiga binoan qisqa va uzoq muddatli bo`lishi o`qituvchining malakasini oshirishiga bo`lgan munosabatini ham o`zgartiradi. Chunki malaka oshirishga kelgan o`qituvchi o`zi tahsil olgan fakultetida amaliyot o`tasa va o`z ustozlaridan fan yangiliklarini qaytadan yangicha talqinini eshitsu bu maqsadga muvofiq uzviy bog`lanishni yuzaga keltiradi

Ta`lim tizimiga ilg`or texnologiyalar shiddat bilan kirib kelishi bois, O`zbekistonda “Elektron ta`lim” tizimi joriy etildi. Ushbu jarayonni tashkil qilishda asosiy urg`u ta`lim sifatiga qaratildi. Pandemiya sababli o`qituvchilar o`z faoliyatlarini ONLAYN tarzda ZOOM platformasida ishlash va imkon qadar o`z faoliyatini o`zgartirishlariga erishildi. Ammo ba`zi o`qituvchi va psixologlar bu innovatsiyalarni aksariyat hollarda o`z faoliyatida qo`llay olmadilar. Chunki o`qituvchilarning ba`zilari o`quvchi va o`qituvchi o`rtasida munosabat o`rnatish psixologiyasi, onlayn darslarni eshitish va idrok qilishda o`quvchilarda yuzaga keladigan kamchilik va muammolarni psixolog bilan hamkorlikda bartaraf qilish yo`llarini izlab topishi va o`quvchiga psixologik madad va ko`mak berish ishlarini tizimli amalga oshirish katta ahamiyat kasb etish jarayoni yuzaga keldi. Ushbu holat esa o`qituvchi va psixolog hamkorligini yanada takomillashtirish va bevosita amaliyotda o`zgacha yondashuvlarni tatbiq qilish jarayonini yaratdi.

Shu sababli ham o`qituvchilar va maktab amaliyotchi psixologlarining malakasini oshirishda ularga ko`rsatiladigan metodik xizmatni tizimli tashkil qilish hozirda ta`lim tizimining amaliy extiyojini ta`minlovchi asosiy vositaga aylanmoqda. Pedagoglar va psixologlarning malakasini oshirish jarayoniga o`zgacha yondashuvning mazmun-mohiyatini aniq rejalashtirib olish va uni amaliyotga tatbiq qilish masalasi xozirgi davrda ushbu jarayonga ijodiy yondashuv bilan bir qatorda psixolog faoliyatida qo`llaydigan fan yangiliklari, metodikalar, metodlar va vositalarning o`ziga xos bo`lgan xususiyatlari ham qaytadan ko`rib chiqish masalasi yuzaga keldi.

Maktab amaliyotchi psixologlar malakasini oshirish kurslari uchun ishlab chiqilgan tayanch o`quv rejasida amaliy psixologiyaning yo`nalishlari blokiga yangi modullar

kiritilib, ular o`quvchining psixologik , emotsional holatlarini tashxislash va ijobiylashtirishga yo`naltirilgan. Jumladan “Loy (plastelin)terapiya, ”Musiqqa terapiya”, “Artterapiya”, “Mato terapiya”,”Raqqs terapiya”,”Maska terapiya” va psixoanalitik metodlarning kiritilishi amaliyotchi psixologning o`z malakasini oshirish va ushbu metodikalardan boxabar bo`lib, keltirib o`tilgan metodlarni o`tkazish texnikasi va uni interpretatsiya qilish masalalari bo`yicha kompetetnsiyalarga ega bo`lishlari talab qilinadi. Shu sababli ham “Hayot davomida o`qish”ni tizimli tashkil qilish, ularning o`z faoliyatlarini ijobiy va samarali amalga oshirish uchun zamin yaratadi. Maktab amaliyotchi psixologlarining malakasi oshirishda qisqa muddatli, mualliflik va maqsadli kurslarni tashkil qilish orqali ijobiy natijalarga erishish imkoniyatlari kengayadi.

Ayniqsa, amaliyotchi psixolog o`z faoliyatida tarbiyachi, maslahatchi, koouch va psixoterapevt funksiyasini ham amalga oshirishi o`quvchining individual xususiyatlariga o`zgacha yondashish masalasiga diqqatini qaratish talab qilinadi.Psixologlar o`z faoliyatlarida nafaqat psixologik xizmatning olti ta yonalishi balki, jamoatchilik asosida amalga oshirilishi zarur bo`lgan masalalarga ham puhta tayyor bo`lishi shart. Bu esa, ushbu faoliyatni amalga oshirishda qo`l keladigan usullar va metodlar bilan tanishish zarurati ham tug`ilmoqda.Chunki axborotlashgan bu davrda o`quvchilarning olgan axborotlarining xilma-xilligi va rang-barangligi o`qituvchidan o`z fani va o`quvchi shaxsiga aloqador bo`lgan barcha masalalar yuzasidan to`liq informatsiyalarga ega bo`lishlik qobiliyatini talab qilmoqda.

Respublikamizda 2022-2026 yillarda xalq ta`limini rivojlantirish bo`yicha Milliy dastur tasdiqlandi. Uning tahlili shuni ko`rsatadiki,faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishnigina o`z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Bu esa,psixologlarning oldiga bir qancha vazifalarni keltirib chiqaradi.

- Yangi ijtimoiy talablar bilan an`anaviy me`yorlarning mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me`yorining mavjud me`yor bilan to`qnashuvi natijasida vujudga keladigan barcha muammolarni yechishga ijobiy yondashish;

- Ta'lim-tarbiya tizimida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining o'ziga xos bo'lgan, kreativlikga yonaltirilgan ijtimoiy-psixologik munosabatlar mexanizmini shakllantirishga erishish;
- O'quvchining bilish jarayonlari, psixologik xususiyatlari, ta'lim olishga bo'lgan munosabati, ishtiyoqi, maqsadi, intilishlari, qiziqishlari, ustanovkalarini hamda o'quv-biluv faoliyatiga aloqador bo'lgan barcha masalalar bo'yicha ularga psixologik madad, ko'mak berib borishdan iboratdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
3. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat to'g'risida" gi muvaqqat Nizom – Toshkent., 2019 yil 19 avgust
4. Radjiyev A. Malaka oshirishda "hayot davomida o'qish" tamoyili amal qiladi. "Yangi O'zbekiston", 2020-yil 13-dekabr, 241-son
5. Djaylavov A. Ta'lim sohasida interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish texnologiyalari (malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun uslubiy qo'llanma). – A. Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2016.
6. Yo'ldoshev U.A., Po'latov M. Amaliy psixologning ish kitobi. – Navoiy, 2000.

TA'LIM MUASSASALARIDAGI AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARNING O'RNINI VA MUHIM VAZIFALARI

Iydiboyeva Guljahon Nasrullayevna
Navoiy viloyati Nurota tumani 33-maktabi psixologi

Maktabda o'zlarini psixolog deb hisoblaydigan shaxslar oldiga borganingizda, har xil insonlarni uchratasiz. Sizning ko'z oldingizda kam gap, hech kimga qo'shilmaydigan, uncha o'ziga tortmaydigan inson namoyon bo'lishi mumkin. Shu bilanbirga, hamma bilan chiqishib ketadigan, xushchaqchaq, sergap, chiroyli inson gavdalanishi ham mumkin. Natijada siz har xil kutilmagan taassurotlar olasiz. Biroq shu narsa qiziqki, barcha insonlar turlicha kasbga, bilimga va kasbiy xulq-atvorlariga ega bo'lsalar-da, o'zlarini psixolog deb sanaydilar. Ba'zan «Qancha insonlar mavjud bo'lsa, shuncha psixologlar mavjud», — degan gapni eshitib qolamiz. Biroq psixologiya — mualliflik kasbi bo'lib, unda insonning individualligi, ichki ruhiy dunyosini bilish qobiliyati namoyon bo'ladi. Bulardan tashqari, har bir psixologning individual kasbiy stilistika muammosi mavjud. U qanday mavzuni tanlaydi? Kasbidagi uning qiziqishlari qanday? Umuman, u nima uchun psixologiyaga kelgan? U nima bilan shug'ullanishni istaydi? Ishida qanday usulni afzal ko'radi? Qaysi yoshdagi mijozlar bilan ishlash afzal?

Har xil psixologlarning ishdagi farqi, ularning shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib qolmay, «psixologiya» debnomlangan umumiy kasbiy sohadagi: **nazariy psixologiya, eksperimental psixologiya, amaliy psixologiya va psixokorreksiya** kabi kasblar bilan ham bog'liqdir. Maktab psixologi — bu o'qituvchilar bilan chiqisha oladigan, pedagogik jamoa tomonidan tan olingan, ota-onalar va o'quvchilar orasida kasbiy obro'ga ega bo'lgan psixolog amaliyotchidir. Unga maktab hayoti yaqin va tushunarli, u ko'pgina psixologik-pedagogik jamoalar bilan shug'ullanishga, psixodiagnostik va psixokorreksion ish usullarini egallashgatayyor. Boshqacha aytganda, maktab psixologi bu har tomonlama etuk va bilimli inson. Agar psixolog nazariyotchi — psixologlarning seminarlariga doimo qatnashib, turli xil psixologik assotsiatsiyalarga a'zo bo'lsa, bularning bari uning mutaxassis sifatida o'sishiga, maktab hayotidagi odatiy faktlarga yangicha qarashning shakllanishiga olib

keladi. Maktab psixologi nashr qilingan ishlarnio‘qib, eksperimental tadqiqot natijalari bilan qiziqib tanishishi mumkin. Maktab amaliyotiga yaqin faktlarni bilish dunyoqarashni kengaytiradi, maktabdagi ishlarniva o‘z muvaffaqiyatlarini to‘g‘ri baholash imkoniyatini beradi. Shunday qilib, psixologiya maktabga kerak. Qanday psixologiya degan savol tug‘iladi? Turli psixologiya sohalaridan maktabda amaliy psixologiya va psixopraktika ko‘proq kerak. Nazariy va eksperimental psixologiya maktabga emas, maktab psixologiga mutaxassis sifatida o‘sishi uchun kerak. so‘ng psixolog o‘z ishi uchun qanday metodikalardan foydalanishi, qanday yosh davri bilan ishlashni tanlaydi. Bunday hal qiluvchi qarorni qabul qilish uchun psixolog quyidagi harakatlarni amalga oshiradi.

1. Bildirilgan maktab kutilmalarining qaysi biri haqiqiy va asosiy hisoblanadi , qaysilari yo‘q, degan savolga javob topishi zarur. Birinchi guruhga psixolog kasbi imkoniyatlari haqida tasavvurdan kelib chiqib, kutilmalarnikiritadi. Ikkinchi guruhga boshqa kasblar bilan qoniqtiriladigan kutilmalar kiradi.

2. Psixolog kasb imkoniyatlari bilan hal qilinadigan birinchi guruh kutilmalarini tahlil qilib, psixolog 2 ta ro‘yxat tuzadi, ro‘yxatda kutilmalar ahamiyatiga ko‘ra saralanadi. Birinchi ro‘yxatda maktab kutilmalari maktabning obyektiv ehtiyojlariga ko‘ra tuziladi. Bunda maktabda birinchi navbatda hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolar ro‘yxat boshida turadi, ikkinchi ro‘yxat u hal qila oladigan muammolardan boshlanib, hal qilinishiga ko‘zi yetmaydigan muammolar bilan tugallanadi.

3. Tuzilgan ikki ro‘yxatni o‘z oldingizga qo‘ying. Maktabni qiziqtiradigan va siz hal qila oladigan muammoni toping. Bu muammo ikki talabga javob berishi lozim: uning hal qilinishi maktab uchun zarur hamda siz psixolog sifatida muvaffaqiyatli hal qilinishiga ishonch hosil qilishingiz zarur.

Qoida: maktabda ishni obyektiv qiyin hal qilishga yillar kerak bo‘ladigan, bir psixologning kuchi yetmaydigan, balki mutaxassislar guruhi hal qiladigan muammolardan boshlamang.

O‘zingiz hal qilishingizga ishonmaydigan muammolardan boshlamang. Maktab uchun zarur bo‘ladigan, o‘z mahoratingizni, o‘zingizga ishonchni hamda

muvaffaqiyatlaringizni namoyon qila oladigan muammolardan boshlang. Bu xislatlar sizning ijtimoiy boyligingiz bo'lib qoladi va u doim sizni himoya qiladi.

Ushbu qoidaning qat'iyliги psixologning maktabdagi faoliyatida boshlang'ich davr ma'suliyatli hisoblanadi. Dastlab ish boshlaganda siz xato qilishga yoki qurbingiz yetmaydigan katta muammoni hal qilishga kirishganligingiz uchun muvaffaqiyatga erisha olmaganligingizni sabab qilishga haqqingiz yo'q. Sizga berilgan dastlabki baho uzoq vaqt esda qoladi. Vaqt o'tishi bilan sizning o'zingizga ishonmasligingiz, xatoga yo'l qo'yishingiz yo'qoladi tajriba to'playsiz, muvaffaqiyatga erishasiz, lekin maktabga kelganingizdagi baho, soyangizdek orqangizdan anchagacha ergashib yuradi.

4. Maktab kutilmalarini ijtimoiy psixologik tadqiq qilish jarayonida psixolog odamlarning psixologiya haqida nimalarni o'ylashi, psixologning maktabdagi ishi haqida hamma ma'lumot oladi. Odamlarni ikki guruhga bo'ling. Birinchi guruhga % psixologga ijobiy yondashadigan, uning maktabdagi rolini to'g'ri tushunadigan o'qituvchilar, ota-onalarni kiriting. Bu guruh psixologik bilimlar olishga, psixologik mashg'ulotlarda ishtirok etishga ichdan tayyorlar. Ikkinchi guruhga psixologiyaga tanqidiy yondashadigan o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar kiradi. Bu guruhga psixologiyaga befarq qaraydigan yoki psixologiyani boshqa kasblar (vrach, narkolog, ruhoniylar va boshqa kasb) bilan almashtiradigan kishilar kiradi.

Qoida. Ish faoliyatingizni birinchi guruh orasida boshlang. O'z kuchingizga to'liq ishonganingizda, maktabda siz haqingizda ijobiy fikr paydo bo'lgandagina ikkinchi guruh vakillari bilan ham shug'ullanishingiz mumkin. Bu qoidaning muhimligi quyidagicha tushuntiriladi. Birinchidan, maktabda dastlab ish boshlashingizda, psixolog sifatida o'z kuchingizga to'liq ishonmaganingizda boshqa odamlarning qarshiligini yengish bilan bog'liq ortiqcha hissiyotga berilmang. Ikkinchidan, psixologni ijobiy qabul qiladigan birinchi guruh sizni psixologik jihatdan qo'llab-quvatlaydilar. Siz o'zingizning foydangizni his qilasiz, o'z kuchingizga ishonch hosil qilasiz. Uchinchidan, ishingiz haqidagi birinchi guruh ishtirokchilari guruhdagi insonlarning fikriga ta'sir qiladi, ularning psixologiyaga qarashlarini salbiydan ijobiyga o'zgarishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. V.M.Karimova, R.Sunnatova. «Mustaqil fikrlash» o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti. Toshkent «SHarq» 2000
2. Toshimov R. G'oziev Ye. G'. “Zamonaviy individual va guruhiy psixologiya”. Toshkent, ”Universitet” 1999y.
3. Ye.G'oziev, SH.V.Azizova “Tashkiliy psixologiya” Toshkent-1999y.
4. M.Rajabov “Eksperemental psixologiya metodlari to'plami”. Farg'ona 2012
5. Shevandrin N.I. Psixodiagnostika, korreksiya i razvitie lichnosti. – M.: Gumanit.izd.Syentr Vldos, 1998.
6. Z.T.Nishonova Psixologik xizmat T.2007.

OTA-ONALAR UCHUN MUSIQIY MEDITATSIYALAR

Muhuddinova Nafisa Shamsiddinovna
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 2- maktab psixologi

Jamiyatning asosiy bo'g'ini–oiladir! Oila bu farzand tarbiyasiga mas'ul institutdir. Oilada ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatni yaxshilash, iliq psixologik muhitni yaratish, stresslarni oldini olish va kamaytirish, nizoli hamda muammoli vaziyatlarni bartaraf etish, sog'lom, har taraflama barkamol avlodni voyaga yetkazish.

Bugungi kunda axborot va ma'lumotlar oqimining meyordan ortiqqligi va insonlarning axborotlarni to'liq o'zlashtiraolmasligi stressni keltirib chiqarmoqda. Bu holat esa ruhiy zo'riqish, charchoq, psixologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida oilada muammolarning yuzaga kelishiga va farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qo'yidagi mavzu orqali ota-onalardagi asabiylik, ruhiy zo'riqish, charchoq va stressni bartaraf etishda musiqiy meditatsiyalarning roli va ahamiyati yoritib berilgan.

Meditatsiya–bu stressni kamaytirish va xotirjamlikni oshirish uchun inson ongini tinchlantirishga qaratilgan amaliyotdir.

Meditatsiya orqali miyaning qarish jarayoni sekinlashtirib, aqliy muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Tanani muvozanatlashtiradi, nafas olish ritmini yaxshilaydi.

Musiqiy meditatsiya inson ongini tinchlantirishga qaratilgan miyadagi salbiy o‘y-fikrlarni quvadigan, tanadagi va ruhiyatdagi og‘riqlarni yengillashtiradigan ichki xotirjamlikka erishtira oladigan terapiya usulidir.

Musiqiy meditatsiyalarda asosan davolash, tanani muvozanatlashtirish, ongi muammolardan xalos etish, ruhiy sokinlik va ichki xotirjamlika erishishda foydalanamiz.

Ota-onalar uchun musiqiy meditatsiyalarning 3 xilini tavsiya etamiz:

1. Kayfiyat bag‘ishlovchi;
2. Motivatsion;
3. Tinchlantiruvchi

Kayfiyat bag‘ishlovchi musiqiy meditatsiya:

Meditatsiyaning bu turida sho‘x va raqsbob musiqalardan foydalanishimiz mumkin. Inson musiqa orqali kun davomidagi ko‘tariinki kayfiyat va energiyani oladi.

Motivatsion musiqiy meditatsiya:

Insonda jo‘shqinlik, samaradorlik, faoliyatdagi umumdorlikni oshishi, insonlar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarning shakllanishiga, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi iliq va samimiy muhitni yaratilishiga olib keladi.

Tinchlantiruvchi musiqiy meditatsiya:

Bu musiqiy meditatsiya turida biz ota-onalarga lirik musiqiy meditatsiyalarni tavsiya etamiz. Bu musiqalar insonni stressdan xalos etibgina qolmay qalban xotirjamlikka, ruhiy sokinlikka, ichki xotirjamlikka, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi mehr-muxabbatni oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa:

Musiqiy meditatsiya har qanday yoshdagi insonlarga tavsiya etiladi. Ota-onalar uchun bu stressdan xalos bo‘lish, ruhiy yengillik, muammolardan xalos bo‘lish, qalb va

tanadagi og‘riqlarni unutish, asabiy zo‘riqish orqali kelib chiqadigan kasalliklarni oldini olishga yordam bersa, bolalarda jizzakilik, tushkunlik, qurquv va yopiqlikni yengib o‘tishiga xizmat qiladi.

Musiqiy meditatsiyalar orqali tana var uh birligiga, xotirjamlikka, go‘zallikka, nafosat va sharqona tarbiyaga ota-onalar orqali farzandlarni yo‘naltirish maqsadi nazarda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G‘oziyev – T.: 2008
2. Barkamol shaxs kamolotida milliy an‘analardan foydalanishning ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyati.
3. Oilada bolalarni muvaffaqiyatli tarbiyalash shartlari.
4. Tarbiyachining pedagogik iste‘dodi va mahorati, uni takomillashtirish yo‘llari.

O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA UCH TOMONLAMA HAMKORLIK: OTA-ONA, SINIF RAHBAR HAMDA PSIXOLOG

*Jo‘rayeva Lola Olimovna
Zarafshon shahar 1-AFCHO‘I maktab psixologi*

Bolani tarbiyalash nafaqat oila tomonidan, balki ta‘lim muassasasi xodimlari tomonidan ham amalga oshiriladi, shuning uchun ushbu ta‘sir doiralari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish juda muhimdir. Faqat shundagina bolaning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyasi to‘liq bo‘ladi. Maktab psixologi, sinf rahbari – o‘quvchilar jamoasining manfaatlarini ifodalaydigan, ularning ota-onalari bilan ishlashda bolalarning tarbiyasi va rivojlanishini tashkil qiladigan muhim shaxs hisoblanadi. Ushbu hamkorlikni ta‘limning boshlang‘ich bosqichida, bolalar yangi jamoaga, vazifa va majburiyatlarga endigina o‘rgana boshlagan paytda saqlab qolish juda muhimdir. Maktabda tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ,yoxud ruhiyatida o‘zgarish bo‘lgan bolalar bilan ishlashda, muammoli vaziyatga yechim topishda faqat o‘qituvchi emas, ota- ona hamda maktab psixologi hamkorligida

yechim topishga, muammoli vaziyatdan o'quvchini chiqarib olishga birgalikda harakat qilinadi.

Uch tomonlama hamkorlik: Maktabda 3 tomonlama hamkorlik: "O'qituvchi-ota-ona –psixolog "hamkorligini yo'lga qo'yish o'quvchilar tarbiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki, o'quvchi o'zini uyda boshqacha tutishi, maktabda yoxud, biror bir darsda boshqacha tutishi mumkin. Yoki maktabda sodir etilgan tartibsizlik, hurmatsizlik, darsni ataylab buzib, o'qituvchining asabiga tegish holatlari kuzatilsa, o'quvchi o'zini oqlash uchun ota-onasiga boshqacha qilib yetkazishi mumkin. Ushbu holda o'quvchi bilan birgalikda o'qituvchi, ota-ona va maktab psixologi hamkorlikda ishlab, o'quvchini ushbu vaziyatdan chiqarib olishi muhim. Maktab psixologi sinf rahbari bilan hamkorlikda maktabda ro'y berayotgan barcha o'zgarishlar va yangiliklardan ota-onalarni xabardor qilib turishi shart. Agar bolada o'quv ko'rsatkichlarining pasayishi yoki boshqa sabablarga ko'ra muammoli vaziyat yuzaga kelsa, sinf rahbari bu haqda maktab psixologi va ota-onalarga xabar berishga majburdir. Bu o'qituvchining ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarining asosiy maqsadi. Agar bolaning ota-onasi bo'lmasa, unda ish uning vasiylari bilan amalga oshirilishi kerak. Hattoki eng mas'uliyatli ota-onalar ham farzandining baxtli, bilimli bo'lishiga to'sqinlik qiladigan, shuningdek, oiladagi totuvlikka ta'sir o'tkazadigan, ta'lim va tarbiyada yo'l qo'yadigan xatolardan holi emas. Bolaning o'ziga xos istaklari, fikrlari, tanlash huquqi bor. Barkamol, ruhan sog'lom shaxsni o'stirishni istovchilar, albatta, bu bilan hisoblashishi zarur. Bunda "Oila, maktab, maxalla" tamoyili, o'zaro hamkorlik albatta o'z mevasini beradi.

OTA-ONALAR BILAN ISHLASHNI REJALASHTIRISH

- Maktab psixologining ota-onalar bilan ishlash rejasi bir o'quv yiliga tuziladi. Bu vaqt ichida ma'lum miqdordagi ota-onalar uchrashuvlarini, sinfdan tashqari ishlarni va maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqa tadbirlarni o'tkazishi kerak. Maktab psixologi va ota-onalar o'rtasidagi suhbatlar rejadan tashqari ham bo'lib o'tishi mumkin;

- Maktab psixologining ota-onalar bilan ishlash rejasi bir o'quv yiliga tuziladi. Bu vaqt ichida ma'lum miqdordagi ota-onalar uchrashuvlarini, sinfdan tashqari ishlarni va

maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqa tadbirlarni o'tkazishi kerak. Maktab psixologi va ota-onalar o'rtasidagi suhbatlar rejadan tashqari ham bo'lib o'tishi mumkin;

Maktab psixologining ota-onalar bilan ishlash rejasi bir o'quv yiliga tuziladi. Bu vaqt ichida ma'lum miqdordagi ota-onalar uchrashuvlarini, sinfdan tashqari ishlarni va maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqa tadbirlarni o'tkazishi kerak. Maktab psixologi va ota-onalar o'rtasidagi suhbatlar rejadan tashqari ham bo'lib o'tishi mumkin;

Ota-onalarni maktab hayotida ishtirok etishga chorlang. Uy sharoitida topshiriqlar qiyin bo'lmasligi kerak. Ota-onalarga katta hajmdagi ishlarni yuklashning hojati yo'q. Talab va topshiriqlar oddiy va foydali bo'lishi kerak. Ota-onalarga bolada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tushunishga va e'tibor berishga o'rgating. Ota-onalarning bolaning xatti-harakatlariga noto'g'ri munosabati salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, shuning uchun ota-onalar o'qituvchilar bilan jamoada bolaning deviant xatti-harakatlarini to'g'irleydigan bir xil xatti-harakatlar taktikasini tanlashlari kerak. Bolaning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan choralarni topishda yordam bering.

Maktabda ota-onalar yig'ilishini tashkil etish:

1) Har bir ota-onalar yig'ilishining mavzusi, maqsadi va vazifalari bo'lishi kerak. Maktab psixologlari bolalarni o'rganish va rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan dolzarb muammolar asosida ota-onalar bilan uchrashish rejasini tuzadi.

2) Maktab psixologlari ota-onalar bilan suhbatni tashkil qiladi va ularning savollariga javob beradi. O'zi tanlagan mavzu bo'yicha taqdimot yoki video namoyishni tayyorlashi mumkin.

3) Har bir o'quvchi uchun statistik ma'lumotlarni tayyorlash kerak.

MAKTAB HAYOTIDA OTA-ONALARNING FAOL ISHTIROKI

Ko'p sonli ota-onalarning doimiy ish joyiga qaramay, ularni tadbirlarda, kontsertlarda, ko'rgazmalarda qatnashishga jalb qilishi kerak. Jozibadorlik shakli so'rov xarakteriga ega bo'lishi kerak. Haddan tashqari bosim va doimiy topshiriqlar ota-onalarni maktab bilan aloqa qilishdan qaytarishi mumkin. Ota-onalarning sinf o'qituvchisiga yordami mumkin bo'lishi kerak.

Band va kam faol ota-onalarni maktab tadbirlariga tomoshabin va muxlis sifatida taklif qilish mumkin. Ota-onalar faollari bilan hamma narsa osonroq - ular o'zlari o'qituvchilarga ta'til va tadbirlarni tashkil qilishda yordam berishga tayyor.

OTA-ONALAR BILAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR

Har bir darsdan tashqari mashg'ulot ma'lum bir maqsad bilan o'tkaziladi: tanishish, ijodiy yutuqlarni namoyish etish, raqobat, etakchini aniqlash, o'zini tutish diagnostikasi va boshqalar. Har bir bola o'z mahoratini va bilimini o'zi va boshqa odamlarning ota-onalariga ko'rsatishni xohlaydi. Hamkorlik faoliyati bolalar uchun foydalidir va kattalar uchun ta'lim - bu sinf rahbari bilan psixologlarning ota-onalar bilan ishlash shakli.

Bolalar ota-onalar faoliyatini juda yaxshi ko'radilar, ayniqsa ular ota-onalar o'rtasidagi musobaqa shaklida bo'lsa. Bunday holda, bola eng yaxshi natijaga erishish uchun barcha sa'y-harakatlarini amalga oshiradi. O'yin paytida ota-ona va bola o'rtasidagi hamkorlik opsiyasi ko'pincha maktab tadbirlarini tashkil etishda qo'llaniladi. O'yinda yutqazadiganlar bo'lmasligi kerak, aks holda jamoa yutqazsa, bolada ota-onaga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishi mumkin.

OTA-ONALARNING MAKTAB PSIXOLOGI BILAN O'QUVCHIGA O'ZARO TA'SIRI

Agar bola uyg'un rivojlansa, sinfdoshlari bilan faol muloqot qilsa va yaxshi o'qisa, unda tashvishlanish uchun hech qanday sabab yo'q. Biroq, ko'pincha o'quv va ijtimoiy moslashuv jarayonida bolani qo'zg'atadigan, uning o'qishi yoki rivojlanishiga xalaqit beradigan turli xil vaziyatlar yuzaga keladi. Masalan: bolani tashqi qiyofasi tufayli masxara qilishadi, giperaktiv o'quvchi tengdoshlarini chalg'itadi va hokazo. Bunday holda, bolalar psixologiyasi sohasida qobiliyatsiz bo'lgan ota-onalar vaziyatni o'z-o'zidan hal qila olmaydilar. Sinf rahbarining ota-onalar bilan ishlash rejasida psixologning maslahati bo'lishi kerak. Maktab psixologi muammoning sabablarini tushunishda yordam berishi va ota-onalarga bahsli masalani hal qilish bo'yicha tavsiyalar berishga majburdir. Boshlang'ich maktabda ota-onalarga yo'naltirilgan tadbirlar majburiydir.

OTA-ONALAR UCHUN INDIVIDUAL MASLAHAT

Shaxsiy suhbatni o'tkazish uchun psixolog o'quvchining uyiga kelib, yashash sharoitlarini ko'rish, oiladagi mikroiklimni kuzatish, uning ish joyini ko'rishni so'rashi mumkin. Uy muhiti bolaning rivojlanishi va akademik ko'rsatkichlariga katta ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun shaxsning uyg'un rivojlanishiga xalaqit beradigan barcha muhim daqiqalarni aniqlash juda muhimdir. Sinf o'qituvchisi o'quvchilarning barcha ota-onalari bilan yakkama-yakka muloqot qilish uchun vaqt ajratishi kerak, ayniqsa birinchi sinfga kelganda. Psixologning ota-onalar bilan ishlashi nuqtai nazaridan oila bilan muloqotga, ota-onalarning qiziqishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Agar ota-onalar tomonidan beparvolik yoki hamkorlik qilishni istamaslik bo'lsa, siz ularni xabardor qilishingiz va rag'batlantirishingiz, ularning xatti-harakatlari bola uchun namuna ekanligini tushuntirishingiz kerak.

Ota-onalarni maktab hayotida ishtirok etishga chorlang. Uy sharoitida topshiriqlar qiyin bo'lmasligi kerak. Ota-onalarga katta hajmdagi ishlarni yuklashning hojati yo'q. Talab va topshiriqlar oddiy va foydali bo'lishi kerak. Ota-onalarga bolada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tushunishga va e'tibor berishga o'rgating. Ota-onalarning bolaning xatti-harakatlariga noto'g'ri munosabati salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, shuning uchun ota-onalar o'qituvchilar bilan jamoada bolaning deviant xatti-harakatlarini to'g'irleydigan bir xil xatti-harakatlar taktikasini tanlashlari kerak.

TAVSIYA

- 1.Sinf rahbarlar va o'qituvchilar salohiyatini oshirish, "Murabbiylik" va "Sinfni boshqarish" mavzularida o'quv kurslari tashkil qilish.
- 2.Sinf rahbarlar tomonidan o'tiladigan "Ma'naviyat soatlari" ga eng asosiy dars deb qaralishiga erishish.
- 3.Ota - onalarnig psixologik bilimlarini oshirish.
- 4.Maktab psixologlari ishini kuchaytirish.

TUSHKUNLIKDAN CHIQIB KETISHNING 23 USULI

Ermatova Munajat

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 18-maktab psixologi

Xozirgi globallashuv jarayonida tevarak atrofimizda informatsiya juda ko'p. Ushbu jarayonlar inson psixikasida o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Psixologlarning aniqlashicha hozirgi kunda stress, depressiya va tushkun holatlar 100 yil oldingi davrga qaraganda 99% ga ko'payib ketgan. Ushbu jarayonlar o'z vaqtida bartaraf etilmaganligi uchun suitsidal xatti-xarakatlar soni xam keskin ko'tarilgan. Inson tushkun holatdan chiqib ketishga ba'zida o'zida kuch topadi, ba'zan esa bunga hafsala ham qilmaydi. Kichik muammolardan xalos bo'lish yo'llari tushkunlik bulutlari ortida ko'rinmay qolgan chog'da, inson eng avvalo o'zini biror narsa bilan mashg'ul qilishi, chalg'itishi lozim. Aynan ushbu fikr dunyoning ko'plab olimlari tomonidan ilgari surilgan. Buni qarangki, tushkunlikdan sizni xalos qilishi mumkin bo'lgan yo'llar juda ko'p ekan. Ammo biz sizga taqdim etayotgan usul eng oddiy va eng samarali usullardan biri sanalar ekan. Buning uchun sizga oq qog'oz, yozish va chizish uchun ruchka yoki qalam hamda boshqa bir nechta narsa kerak bo'ladi.

1. O'ta horg'inmisiz, charchaganmisiz? Unday bo'lsa, gullarning suratini chizing.
2. Kimdandir yoki nimadandir jahlingiz chiqayaptimi, o'zingizni bosishga qiynalyapsizmi? Turli chiziqlarni chizing.
3. Agar biror a'zoingiz og'riyotgan bo'lsayu, sabr qilishga to'g'ri kelsa, biror buyumni yasashga harakat qiling.
4. Agar o'ta zerikkan bo'lsangiz, qo'l ostingizdagi oq qog'ozni turli mayda gullar bilan to'ldiring.
5. Ma'yuslik ko'nglingizni maxv etgan bo'lsa, kamalakni chizing.
6. Biror nimadan qo'rqayotgan bo'lsangiz, to'qish ipi yordamida makrame to'qing yoki turli matolardan biror chiroyli narsani yasang.
7. Ko'nglingizda vahima hissi bo'lsa, qo'g'irchoq yasang.
8. Biror narsadan hijolatdamisiz, uyalyapsizmi? Qog'ozni mayda bo'laklab yirting.
9. Kuchli xavotirlanish vaqtida origami yasang.

10. Organizm katta bosim bilan ishlagan vaqtda naqshlarni chizing.
11. Biror narsani eslashingiz o'ta muhim bo'lsa, labirintlarni chizib ko'rishga harakat qiling.
12. Ko'nglingiz qoldimi – biror suratning nusxasini chizing.
13. Umidsizlik vaqtida yo'llarning suratini chizishga urinib ko'ring.
14. Biror narsani tushunishingiz lozim bo'lgan vaqtda mandallarning suratini chizing.
15. Sarf etilgan kuchingizni tez fursatda tiklashni istasangiz, tabiatning suratini chizing.
16. O'z hissiyotlaringizni tushunishning imkoni bo'lmaganda, avtoportret chizishga urinib ko'ring.
17. Biror holatni yodda saqlab qolish uchun rangli dog'larni yuzaga keltiring.
18. Fikrlarni bir maromga solish lozim bo'lganda, kichik doira yoki to'rtburchak shakllarini chizing.
19. Nimani istayotganingizni tushunishni xohlasangiz, kollaj yarating.
20. Fikrlaringizni jamlab olishingiz lozim bo'lsa, istagan narsangizni nuqtalar yordamida chizing.
21. Vaziyatdan chiqib ketishning optimal yo'lini izlayotgan bo'lsangiz to'lqin hamda doira shakllarini chizing.
22. Bir nuqtada "qotib" qolganingizni sezayotgan bo'lsangiz, undan chiqib ketish va yo'lingizda davom etish istagingiz bo'lsa, spirallarni chizing.
23. Maqsadingiz sari fikrlaringizni jamlash uchun panjara va nishonni chizing.

Biz sizga aziyat berayotgan muammoli vaziyatlardan ana shu oddiy va samarali mashq yordamida chiqib keta olishingizga ishonamiz. Zero inson asab tolalari qayta paydo bo'lmaydigan va nozik hujayralardan tashkilk topgan. Ularni extiyot qilish o'z qo'lingizdadir. Indon qanchalik o'zi bilan yomon hissiyotlarni olib yursa uning kayfiyati va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu salbiy xotiralarni unutish va bartaraf etish uchun yuqorida keltirib o'tilgan tavsiyalarga amal qilishingiz va hayotingizni go'zal xotiralar bilan davom ettirishingizga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Psixolog Umida Yakubova tavsiyalari
2. Qalampir.uz sayti

МУНДАРИЖА

Mavlanova Maxfuza Shuhratovna	Oilaviy munosabatlarning bola shaxsida ijtimoiy-psixologik munosabatlarning shakllanishiga ta'siri	4
Mavlanova Maxfuza Shuhratovna	Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari sabab va yechimlari	7
Бабаева Дилафруз Рамазановна	Тарбияси қийин гуруҳга мансуб агрессив хулқли болалар ва уларнинг ота-онаси билан ишлаш муаммолари	12
Raxmonova Aziza Shirinovna	Мактаб ва оилалардаги ижтимоий-психологик муҳитни соғломлаштириш юзасидан таклиф ва тавсиялар	16
Xoliqova Shaxnoza	О'qituvchi - millat yetakchisi	19
Karimova Munira Farxodjonovna	Bolalarda uyatchanglikning namoyon bo'lishi va psixokorreksiyasi	23
Karimova Munira Farxodjonovna	Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar faoliyatini stimullashtirish	27
Ermatova Munajat	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilari xotirasini kuchaytirish usullari	29
Djienbaeva Diloram	Psixologik xizmatni tashkil qilish dolzarb psixologik muammo sifatida	32
Ёзиева Шахрибону Гайратуллаевна	Система высшего образования и её развитие в Египте	36
Niyozova Gulchehra Abdvosiyevna	Inklyuziv ta'lim jarayonida oila, jamoatchilikni o'rni	41
Салимова Умида Сатторовна	Носоғлом оилаларда вояга етмаганлар ўртасида ижтимоий маънавий муҳитни соғломлаштириш	46
Ўроқова Нафиса Ахтамовна	Болангиз чексиз ахборотлар исканжасидами?	50
Urazbayeva Yulduz Abdullayevna	Kasb-hunar maktabi o'quvchilarining ta'lim motivatsiyasining o'ziga xosligi	54
Abduqunduzova Shahzoda Nasvaliyevna, Karimova Yoqutxon Muhammadjonovna	Yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar	59
Eshchanova Xolida Xudayarovna, Xusainov Sherzod Yusupovich	Xalq ta'limi sohasida uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish asoslari	63
Jumaniyazova Shaxnoza Shavkatovna	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy asoslari	67
Xoliqova Dilfuza Mamatkobilovna	O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning pedagogik-psixologik muammollari	71
Қучқоров Искандар Мардонович, Хайдаров Ботир Машрапович	Таълим-тарбия – давлат ва жамият келажаги	74
Абдуқундузова Шахзода Насвалиевна	Ўсмирларда оила тўғрисидаги тасаввурлар шаклланишининг психологик хусусиятлари	81
Shoxobiddinova Mohidil Shamsitdin qizi	Kasbiy yo'naltiruv ishlarini amalga oshirishda psixologning o'rni	85
Mohinur Avazova, Nilufar Shomuratova	Yoshlar ma'naviy tarbiyasida milliy va diniy qadriyatlar	90
Mahmudova Madina Zayniddinovna	Talabalarda ijodiy kompetensiya namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	95
Sohiba Boymirzayeva	Uzoq umr ko'rishning psixologik omillari	98

Boyqulova Go'zal Panjiyevna	Muloqot psixologiyasi	99
Toshmatova Zilolaxon Abdusattarovna	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik xususiyatlari	105
To'raeva Zohidaxon Saydaxmadovna	Bolalarda jahli tezlik va uni yo'qotish yo'llari	108
Abdurahmonova Munosib Abdurashitovna	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xotirasi xususiyatlari	112
Yuldasheva Gulshanoy Kozimjonovna	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida rostgo'ylik xususiyatlarini rivojlantirishda ertaklardan foydalanish	116
Umarova Mohira Qodir qizi	Birinchi sinf o'quvchilarining maktabga moslashuvida emotsional – irodaviy sifatlarni rivojlantiruvchi korreksion mashg'ulotlar	120
Toshmatova Sarvinoz Abduqaxorovna	Fanlarni o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchi yoshlarda muammolarning sabablari va ularga yordam ko'rsatish	124
Xamraqulova Marxabo Sultonovna	Boshlang'ich sinflarda zamonaviy texnikalardan foydalanishning ahamiyati va bola psixologiyasiga ta'siri	128
Dauletova Go'zal, Ismaylova Guljahan	Diqqatning rivojlanishi va buzilishi	132
Xaytboyeva Nargiza	Bolalarning tarbiyasida ota-onalarga maslahatlar	135
Maxmudova Sohiba Ravshan qizi	Ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda psixolog faoliyatining ahamiyati	140
Atabayev Navro'zbek Ihombek o'g'li	Shaxsiy rivojlanishda shaxslararo munosabatlarning ahamiyati	143
Muradov Farxat Maxmudjanovich, Omurullayeva Maftuna Xabibulla qizi	Yengil atletika elementlaridan foydalangan holda 6-7 yoshli maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining harakat faoliyatini oshirish	145
Choriyeva Sharofatoy Hatam qizi	Maktabgacha yoshdagi bolalar individual xususiyatlarini shakllanishida oilaning o'rni	150
Yakubova Naima Urazboyevna	Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash	154
Toxirova Sabohat Yo'ldosh qizi, Quryozova Risolat Botirboyevna	O'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari	157
Халимова Сайида Абдурахимовна, Исоров Фаррухбек Фахриддинович	Психологик консультацияга мурожаат қилувчи шахслар типологияси	162
Hamroboyeva Sevara Nematjonovna	Masal – adabiy janr sifatida	166
Atajanova Dilorom Mo'minovna	O'qituvchga qo'yiladigan talablar, kasbga xos xislatlar va uning jamiyatda tutgan o'rni	170
Munisa Abdullayeva Abdulmajitovna	O'quvchilardagi diqqatni rivojlantirishda psixologik yondashuv	174
Otaboyeva Yoqut Maxmudjonovna	Iroda nazariyasi va tadqiqoti to'g'risida tushuncha	177
Esanova Mohina Mashraf qizi	Bolada salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi ta'sirlarning psixologik asoslari	183
Usmanov Nusratillo Raxmatullayevich	O'smirlarda kuzatiladigan salbiy xulq-atvor guruhlari	187
Halimova Sayida Abduraximovna	O'smirlilik davrida me'yordan og'ishni, deviatsiya holatlarini paydo bo'lish sabablari	191
Isorov Farruxbek Faxriddinovich	O'spirinlik davrining o'ziga xos xususiyatlari	196
Фарагатов Мерей Туймухамедовна	Ўқувчи қобилиятларини ривожлантиришнинг психологик асослари	202

Normatova Nigora	Radiatsiyaning tirik organizmga ta'siri	205
Abduraximova Xurshida Madumarovna	O'spirinlik davrida stress holati va uni bartaraf etishning psixologik jihatlari	209
Abduqodirova Fotima Maxmudovna	Milliy o'z-o'zini anglash va uning psixologik omillari	212
Muminova Jumagul Valijonovna	Ijtimoiy xulq – atvor va odatlarni shakllanishining psixologik tavsifi	214
Bayzakova Gulbeke Ulug'bekovna	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida barmoq o'yinlarini tashkil qilishda zamonaviy aktlardan foydalanishning samaradorligi	217
Fayzullayeva Dilbaroy Sa'dullayevna	Ta'lim tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonining ijtimoiy va pedagogik-psixologik asoslari	222
Matniyazova Diyora Jumanazarovna	Maktab kutubxonasi va kutubxonachisi: u qanday bo'lishi kerak?	225
Do'lanova Dilobar	Bolalarga nisbatan zo'ravonlik oqibatlarini	229
Шукурова Гулнисо Юсуповна	Ота-оналарнинг ўз болаларига эътиборини кучайтиришнинг психологик аҳамияти	231
Sufibekova Shaxnoza Abduraxmanovna	Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda psixolog faoliyatining ahamiyati	234
Мавлонова Ҳаётхон Равшановна	Психологик консультацияга мурожаат қилувчи шахслар типологияси	237
Qurbonaliyeva Nodira Zohid qizi, Isroilova Gulzira Ismoiljon qizi	Using web-quest technology in the process of teaching english	241
O'telbayeva Nigora Aybekovna	Bugungi ta'lim va tarbiya jarayoniga psixologik muhitning ta'siri	245
Yusupova Ziyada Baxitbayevna	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning dolzarb muammolari va oila psixologiyasi fanining o'qitilishi	249
Sharipova Yulduzoy Latipovna	Hissiyotlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish	253
Xaytboyeva Nargiza	O'quvchi – yoshlar o'rtasida suitsid holatlarini oldini olish va korreksiya qilish	258
Narimbetova Guliston Yuldashovna	O'spirinlik davrida stress holati va uni bartaraf etishning psixologik jihatlari	263
Oblokulova Lutfiya Narzikulovna	Muomala jarayonidagi erkinlik – o'smirlardagi mustaqil fikrlashning asosiy psixologik omili, psixologik xizmatning dolzarbligi	266
Mamatova Feruza Ma'murjon qizi	O'smir yoshidagi o'quvchilarning mexnat faoliyati va kasb tanlashi	271
Xushnazarova Ma'mura Gapparjonova	Shaxsni jamiyatda o'zini tuta bilish	272
Narzilloeva Nodira Nasilloeva	Tanglik vaziyatida qolgan bolalarga psixologik yordam	273
Boymurodova Dilshodaxon	Yuksak ma'naviyatli yoshlar – kelajak poydevori	277
Navbahor Salayeva	Ta'lim tizimida psixologik xizmatni tashkil qilishning ijtimoiy asoslari	280
Iydiboyeva Guljahon Nasrullayevna	Ta'lim muassasalaridagi amaliyotchi psixologlarning o'rnini va muhim vazifalari	285
Muhuddinova Nafisa	Ota-onalar uchun musiqiy meditatsiyalar	289
Jo'rayeva Lola Olimovna	O'quvchilarni tarbiyalashda uch tomonlama hamkorlik: ota-ona, sinf rahbari hamda psixolog	291
Ermatova Munajat	Tushkunlikdan chiqib ketishning 23 usuli	296
МУНДАРИЖА		299

